

68,99  
A. SOTVOLDIYEV

# CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNING METODIKASI



68.49  
S - 83

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SOTVOLDIYEV ABDULHOSHIM YO'LDOSHEVICH**

**CHAQIRIQQACHA  
HARBIY TA'LIMNI  
TASHKIL ETISH VA UNING  
METODIKASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2010**

**A.Yu.Sotvoldiyev. Chaqiriqqacha harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi.** –T.: «Aloqachi», 336 bet.

O'quv qo'llanmada ta'lim muassasalarida yoshlarni chaqiruvga boshlang'ich tayyorgarlik fanini tashkil etilishining huquqiy asoslarini va uning tartib-qoidalarini hozirgi kun talablari asosida yoritilgan o'quv materiallarni, shuningdek, yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fanini olib borishning asosiy shakl va uslublarini, uning tashkiliy asoslarini va ta'lim muassasalarining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fanining o'quv dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish uchun hozirgi kun talablari asosida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanmadan ta'lim muassasalarining direktorlari, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rnbosarlari, mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarining boshliqlari, o'quv punktlarining o'qituvchilari, shuningdek, mudofaa ishlari bo'limlarining mazkur ish bilan mashg'ul bo'luvchi lavozim egalari chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va vatanparvarlik tarbiyasiga doir ishlarini to'g'ri yo'yishlarida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanmadan malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarida yoki fakultetlarda tahsil olayotgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha tinglovchilarga mashg'ulot o'tkazayotgan o'qituvchi-professorlarning foydalanishlari tavsiya etiladi.

**BBK68.49 (5Y) 9**

**UDK:356.252.5**

**Taqrizchilar:** X.NAZAROV – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Ma'naviy-axloqiy tarbiya va sport bo'limining bosh mutaxassisasi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent;

B.UMAROV – FDPI harbiy fakulteti boshlig'i, polkovnik;

U.MA'MUROV – Nizomiy nomidagi TDPU harbiy faqultetining maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i, podpolkovnik;

E.QURBONOV – BDU harbiy fakulteti boshlig'i, mayor



**ISBN 978-9943-326-57-6**

© «Aloqachi» nashriyoti, 2010.

## SO‘Z BOSHI

Sho‘rolar zamonida millatimiz vakillarining harbiy tarbiya olishiga imkoniyat ham zarurat ham bo‘limgan edi. Harbiy shukuh–xalq milliy ongining yuksak ko‘rinishlaridan biridir. Mustamlakachilar odatda, ishni eng avvalo, xalqning harbiy shukuhini so‘ndirishdan boshlaydilar. Istilochilar ham Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini shunday boshlab, milliy harbiy kishilarga qiron keltirganlar. Sho‘ro hukumati ham xuddi shu yo‘ldan berib, vatanparvar milliy kadrlar etishtirib chiqishga qarshi turgan. Oz sonli milliy ofitserlarimiz va askar yigitlarimiz «sovet xalqiga xizmat qilamiz», deb harbiy qasamyod qilishga majbur edilar.

Mustaqillik sharofati hamda shaxsan Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi tuzildi, milliy gvardiya, respublika mudofaa qo‘sishlari vujudga keltirildi. Endilikda ofitser va askar yigitlarimiz O‘zbekistonga va uning xalqiga sadoqat bilan xizmat qilamiz, deb tantanali ravishda qasamyod etmoqdalar. Endilikda mamlakat Prezidentining farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari joriy etilgan.

Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Harbiy akademiyalar, qo‘sish turlari bo‘yicha harbiy o‘quv yurtlari ochilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Davlat chegaralarining o‘z qo‘sishlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ish tutadi, o‘z mudofaasini o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi. Xalqning umumiyligi harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarning matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san’at sirlarini harbiy o‘quv yurtlarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Bulardan tashqari yoshlарimizни vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Mudofa Vazirligining oliy harbiy o‘quv yurtlariga kirib ta’lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga

hozirlik ko'rayotgan yoshlarimiz umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta'lim-tarbiyani oladilar va o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bunday ta'lim-tarbiya jarayonini umumta'lim mакtablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi bilan harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamkorlikda amalga oshirishlari shart. Shunday ekan o'z-o'zidan bunday dolzarb vazifalarni bajarishda pedagogika universiteti qoshidagi harbiy faqultetlar jamoasining harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e'tiborga molikdir. Bu borada ayniqsa, chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi fanining o'qitilishida Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasining tub mohiyatini chuqur anglagan holda, eng zamonaviy o'qitish uslublaridan va ta'lim texnika vositalaridan eng so'nggi ishlab chiqilgan rusumlaridan foydalanish, shuningdek, tez o'zgarib borayotgan zamonamizning yangi-yangi talablarini nazardan chetda qoldirmasligimiz shart bo'ldi.

*Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi talabalarning maxsus harbiy tayyorgarligining asosiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi.* Bu fan «CHHT» metodikasining tarkibiy qismi sifatida davlat imtihoniga kiritiladi. Talabalarni maxsus fanlar bo'yicha o'qitishda asosiy e'tiborni ularning harbiy-pedagogik tayyorgarligiga, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha mashg'u-lotlarini o'tkazishda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil bo'lishiga qaratiladi.

Mazkur fanni o'rganish O'zbekiston Respublikasining «Umum-harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun talablarini O'zbekiston Respublikasining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nizomini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining buyruqlari va direktivalarini O'ROO'MTV chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va olib borish, o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash bo'yicha masalalarni, yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (YOCHQBT) bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish tamoyillarini, ta'lim muassasalarida YOCHQBT dasturining barcha bo'limlari bo'yicha mashg'u-lotlarni tashkil qilish va olib borishda yangi pedagogik texnologiyalarni

qo'llashni, zamonaviy o'quv texnika vositalaridan foydalana bilishni, ta'lim muassasasi direktori va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisi (CHTO')ni majburiyatlarini hamkorlikda bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa shakllarini, YOCHQBT bo'yicha o'quv - moddiy bazaga qo'yiladigan talablarni bilishlari va ularni amalda qo'llay olishlari uchun yetarli ilm-malaka va ko'nikmalar berishdan iborat.

Talabalar ta'lim olayotgan kezlarida o'zlarida harbiy rahbar (CHTO')larnig yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash masalalari bo'yicha majburiyatlarini bajarishtida zarur bo'lgan siyosiy, ahloqiy, ruhiy tayyorgarliklarini yuqori bo'lishini va Vatan himoyachisi sifatlarini mujassamlashtirishlari shart.

---

## **I bob. CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH**

### **KIRISH**

Voqealar va kutilmagan turli hodisalar ko‘payib berayotgan murakkab davr, mintaqada saqlanib turgan vaziyat, dunyoning turli joylarida davom etayotgan nizo, ziddiyat va ixtiloflar ko‘lami kengayib borayotganligi muqaddas zaminimizning taqdiri va kelajagi uchun befarq bo‘lmagan har bir insonni sergak bo‘lishga, qurolli kuchlari-mizning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, davlatimiz sarhadlarini qo‘riqlash va himoyalanishni kuchaytirish borasidagi sa’yararakatlarni, kuch hamda imkoniyatlarni to‘liq safarbar etishni taqozo qilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, to shu kunlargacha turli ekstremistik guruhlarning o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini ko‘zlab turlituman niqoblar ostida amalga oshirgan va oshirayotgan qo‘poruvchilik ishlariga, aholining tinch, osoyishta mehnati va farovon hayotini izdan chiqarishga harakat qilayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Mana shunday sharoitda imkoniyat darajasida mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga davlatimiz, qoleversa butun xalqimiz alohida ahamiyat bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining uchinchi sessiyasida Vatan himoyasi bugungi kunda har bir o‘zbekistonlikning muqaddas burchi ekanligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Hozirgi davrimizning asosiy vazifasi—mamlakatni jahon xo‘jaligi tizimida va jahon hamjamiyatida munosib o‘rinni egallashi uchun O‘zbekistonning davlat mustaqilligini ta‘minlashdan iborat», deb ta‘kidlagan edi. Ushbu masalani mamlakat mudofaa qudrati, uning milliy xafsizligi ishonchli ta‘minlangan sharoitda hal qilish mumkin bo‘lib, unga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va harbiy xarakterdagi tadbirlar tizimining yagona davlat siyosatini yurgizish orqali erishiladi. 1999-yil yanvaridan e’tiboran Qurolli Kuchlarda harbiy islohotlar, aniqrog‘i Qurolli Kuchlar, chegara va ichki qo‘shinlarni yagona davlat siyosati negizida bosqichma-bosqich isloh qilish ishlari boshlandi. Islohotlar strategiya-sining tub miohiyati mamlakatimiz tinch osoyishtaligini ishonchli va

samarali himoya qilishga qodir tezkor, yaxshi ta'minlangan Qurolli Kuchlarni tuzishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida «Armiyani, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlarni isloh qilishga doir davlat siyosatini amalga oshirish faqat mudofaa salohiyatimizni yuksaltirishga qaratilgan. Boshqacha aytganda bu jarayon yagona maqsadni – ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish, democratik jamiyat va huquqiy davlat qurish uchun, odamlarimizning tinch hayoti va buniyodkorlik mehnatini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratib berishni ko'zlab amalga oshirilmoqda», deb ta'kidlagan edi. Tarixdan ma'lumki, buyuk ajdodimiz Amir Temur o'z sipoxlarining doimiy jangovar shayligiga alohida ahamiyat bergen. U tanlab olgan sarkardalaridan o'zlarining harbiy mahoratlarini nafaqat urush kezlarida, balki tinch mehnat chog'ida ham namoyish etishni talab qilgan. Doimiy harbiy tayyorgarlik va harbiy san'atni rivojlantirish tufayli jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu kabi taktik yo'l-yo'riqlarni o'ta sinchkovlik bilan ishlab chiqilishi va ularni joriy etishdagi qat'iylik va mahorat, g'alaba manbayi bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham bunday amallarni rivojlantirish, takomillashtirish zaruriyatini vaqtning o'zi ko'rsatib turibdi. Armiyada mavjud qurol-aslahani yanada takomillashtirish, uni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, professional armiyani vujudga keltirish yo'lida yanada samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tarkibidagi harbiy qism va bo'llimmalarni puxta bilimga ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan to'ldirishini uning siyosiy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shaxsiy tarkibning yuqoridagi qayd etilgan sifat va fazilatlarini shakllantirishni, tarbiyalashni faqat harbiy kadrlar tayyorlash bilim yurtlari, qism komandirlari va harbiy boshliqlarning vazifasi deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Ayonki, armiya safida o'z bo'ysunuv-chilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar mas'uldirlar, lekin sifat va fazilatlarni shakllantirishga kelganda, armiya safigacha bo'lgan ta'lim tarbiya o'rning ahamiyati katta. Ayniqsa, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanini sifatli va samarali o'qitilishining ahamiyati bu borada muhim. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim

o‘chog‘larining alohida o‘rni bor». Ta’lim o‘chog‘laridan umumta’lim mакtabларida, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalarida «Chaqiruvga qadar tayyorgarlik»ni o‘qitilishi haqida O‘zbekiston Respublikasining «umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasida quyidagicha yozilgan: «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, shu jumladan, fuqaro mudofasi bo‘yicha tayyorgarlik o‘quv dasturidagi majburiy fan bo‘lib, umumta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o‘qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o‘tiladi». Bundan tashqari ushbu ustivor vazifalar O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining buyruq va talablarida ham o‘z ifodasini topgan. Ko‘rinib turibdiki, 1999-yil yanvaridan e’tiboran Qurolli Kuchlarda boshlangan harbiy islohotlar strategiyasining nazarda tutgan mamlakatimiz tinch osoyishtaligini ishonchli va samarali himoya qilishga qodir tezkor, yaxshi ta’minlangan qurolli kuchlarni tuzish maqsadini amalga oshirish faqat oliv harbiy o‘quv muassasalarining vazifasi deb tushunish, masalaga faqat bir tomonlama qarash demakdir. Bu borada chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik muhim ahamyat kasb etadi.

1993-yildan barcha harbiy o‘quv muassasalari ofitser kadrlar tayyorlashning ko‘p sohali tizimiga o‘tdi va ularda mutaxassislik soni uchtadan 1997-yilga kelib 43 tagacha yetdi. Biroq Mudofa vazirligining barcha oliy harbiy o‘quv muassasalarida ta’lim olish uchun ham yoki Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga hozirlik ko‘rayotgan yoshlарimizning ko‘pchilik qismi ta’lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik mashg‘ulotlarida dastlabki ta’lim-tarbiyani oladilar va kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bunday mas’uliyatli vazifalarni bajarish ta’lim muassasasining butun bir jamoasiga, birinchi navbatda harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilariga yuklatiladi. Shunday ekan, ta’lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik holatiga yanada e’tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim bo‘ladi.

---

## **1-§. YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR TAYYORLASH – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING HARBIY XIZMATIGA TAYYORLASH TIZIMINING TARKIBIY QISMI**

**Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fanining  
maqsadi, vazifalari va o'quv dasturining qisqacha mazmuni**

Armiya davlat mexanizmlaridan biri bo'lib, ko'p tomonlama davlatning taqdirini, ichki barqarorligini, hozirgi zamondagi o'rni va rolini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning birin-chi sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, Qurolli Kuchlar davlat hududiy yaxlitligini va uning fuqorolari tinch hayotini ta'minlaydi.

Harbiy sohadagi islohotlar shart-sharoitlarida Qurolli Kuchlar yangi sifat kasb etmoqda. Armiyamizda tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilib, harbiy doktrina mudofaa yo'nalishiga va uning rivojlanishi sifat va aqliy ustuvorliklar asosida shakllantirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan bugun har bir Vatanimiz jangchisidan aniq ish, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi, o'zining jangchilik burchini vijdonan bajarishini va shaxsiy mas'uliyat talab etiladi. Jangovar shaylikni yuqori darajada ushlab turish, jangchilik mahoratni takomillashtirish, tartib va intizomni mustahkamlash har bir askarning mamlakat mudofaa qudratini ta'minlashdagi ulushi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldidagi yuksak va mas'uliyatli vazifalarni sog'lom, jismonan baquvvat va chidamli, aqlan shakllangan, yuksak ma'naviy-jangovar sifatlarga ega, Vatan himoyasi yo'lida vatanparvarlik va fuqaroviylar burchini bajarishga tayyor kishigina uddalay oladi. Armiya sharoitida askarning jismoniy, aqliy va ma'naviy sifatlarini harbiy xizmat jarayonida samarali qo'llay olishida ko'p jihatdan chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshidagi o'smirlarni tayyorgarligining samaradorligiga bog'liq.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iyomon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'rni bor».

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari o‘sib kelayotgan avlodni jismoniy, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik va davlat mudofaasi hamda mehnatiga shay holda turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlashning *asosiy vazifalari* boshlang‘ich harbiy bilimlar, jismoniy tayyorgarlik, o‘z Vatanining harbiy tarixini, ramzlarini o‘rganish, jangchi va vatanparvar fuqaroni shakllantirishni qamrab oladi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi» kursining vazifasi yoshlarga ta’lim jarayonida quyidagilarni o‘rgatishdan iborat:

- o‘zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;
- O‘zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo‘shinlarning vazifalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa haqida» «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to‘g‘risida»gi Qarorini, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi asosiy qoidalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o‘rganishni va anglashni;
- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishni;
- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma‘nan mustahkam bo‘lishni;
- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o‘zlashtirishni;
- YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o‘tashda o‘zining konstitutsiyaviy burchini a’lo darajada bajarilishini va o‘ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o‘zlashtirib olishini ta’minlashdan iborat.

Yoshlarga harbiy ta’lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o‘quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va

amallarni harbiy qismlardagi qo'shirlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Chaqiriqqacha va chaqriq yoshidagi o'smirlar bilan ishlash ko'p qirrali va o'ziga xos jarayondir. Chunki ularning barchasida ham hayotga o'z qarashlari, xarakteri va an'analari barqarorlashmagan. Yoshlarimiz kuch-quvvatga, g'ayrat shijoatga to'la va ularda o'zini namoyon etish hissi juda kuchlidir, biroq buni jamiyat yoki jamoa foydasiga yo'naltirishni hamma yoshlar ham uddalay olavermaydi. Shuning uchun bunday yoshlarning yonida doimo ularning qalblariga ezgu an'analarni, axloqiy tamoyillarni, vatanparvarlik va insoniylik tuyg'ularini singdirib boradigan sadoqatli va vafodor do'sti, yaqin maslahatchisi, mohir ustozи bo'lgani ma'qul deb hisoblanadi. Vataniga muhabbatsiz, yurt himoyachisi bo'lishdek kasbga faxr tuyg'usisiz, o'z tarixi va ajdodlar an'alarini hurmatlamaydigan tarbiya bilan kuchli armiya va barqaror davlat qurib bo'lmaydi. Chaqiriqqacha va chaqiruv yoshidagi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi bo'yicha vazifalarni to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'zishining malakali mutaxassislaridan iborat profesional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi. Bunday jiddiy, o'ta mas'uliyatli va sharafli vazifani uddalashda ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega. Umumta'lim mak-tablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani uchun o'g'il bolalarga – 140 soat; qiz bolalarga – 70 soat (36 soat «Fuqaro muhofazasi»ga va 34 soat «Tibbiy bilim asoslari»ga) ajratilgan.

Mashg'ulotlar umum ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining oxirgi ikki yilda haftasiga ikki (yoki oyiga besh, olti) soatdan o'qitiladi.

Ta'lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani o'tilmagan yoki mazkur fan bo'yicha sinovdan o'tmagan yoxud yakuniy bahosi «qoniqarsiz» deb topilgan chaqiriq yoshidagi o'spirinlar bilan shahar yoki tuman hokimligining qarori bilan tashkil qilingan mudofaa sport-sog'lomlashtirish lagerlari (MSSL)da 160 soatlik dastur asosida ushbu fan o'tiladi.

Ta'lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani nazariy, amaliy, nazorat va dala-o'quv mashg'ulotlari (yig'inalari) shaklida o'tkazilib, kirish mavzusi va quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi:

– Harbiy ish asoslari;

- Otish tayyorgarligi;
- Harbiy xizmat asoslari;
- Amaliy jismoniy tayyorgarlik;
- Fuqaro muhofazasi;
- Tibbiy bilim asoslari.

Bitiruvchi kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishining yakuniy bosqichda CHQBTdan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo‘limlarida ko‘rsatilgani bo‘yicha nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunlik dala o‘quv mashg‘ulot (yig‘in)lari o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulot (yig‘in)lar quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

- umumta’lim mакtablarida va akademik litseylarda 11-sinf (3-kurs) o‘quvchilari bilan mart va may oylarida;
- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishning yakunida;
- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishning so‘ngi pallasida o‘tkaziladi;
- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o‘quv punktlaridagi o‘quvchi o‘g‘il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o‘tkaziladi.

*Uch kunlik dala-o‘quv mashg‘uloti (yig‘ini) – (DO‘M(y)) quyidagi tartibda olib boriladi:*

- bir vaqtning o‘zida barcha yoki bir nechta ta’lim muassasalari tuman (shahar) o‘quv punktlarining o‘quvchi bolalarini mudofaa sport sog‘lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo‘lgan harbiy qismlarga yig‘ish yo‘li bilan;
- bitta ta’lim muassasasining (TM) o‘quvchi bolalarini MSSL baza-sidagi o‘quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig‘ish yo‘li bilan;
- har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg‘ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig‘ish yo‘li bilan.

DO‘M(Y) o‘tkazish vaqtini va tartibini Mudofaa ishlari bo‘limlari tuman (shahar) xalq ta’limi organlari, viloyat (shahar) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig‘i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBTni rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi. DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida nazorat meyorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) o‘quv dasturdagi 2-ilova shartlari bo‘yicha bajariladi. Ma’lumki, harbiy xizmat harbiy xizmatchidan jangovar o‘quv vazi-falarni bajarish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etishda ulkan

jismoniy va ma'naviy kuch talab qiladi. Shuning uchun ta'lif olayotgan o'quvchilarga dasturning umumiy mazmun-mohiyatini tushuntirishda muayyan jismoniy harakatni, qat'iyat va tashabbusni taqozo qiluvchi ayrim nazorat normativlarini ham o'quvchilarga yetkazib qo'yish zarur. Mashg'ulotlarda ta'lif olayotgan o'quvchiga o'z majburiyatini, saf hisobini va o'zini tutish qoidalarini tushuntirib, o'quv guruhi va seksiyasiga sardorlar tayinlanadi.

### **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini tashkil etish bo'yicha boshqaruv hujjatlar**

Chaqiruvga qadar tayyorgarlik uchun zarur hujjatlarning hisobini yuritishda qulayliklar yaratish va ulardan foydalanish uchun quyidagi guruhlarga birlashtirish ma'qul.

1. *Boshqaruv hujjatlari.*
2. *YOCHQBTni rejalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha hujjatlar.*
3. *Ta'lif muassasasi buyruqlari.*
4. *Hisob yuritish va hisobot hujjatlari.*

## **I. BOSHQARUV HUJJATLARI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi.
4. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash» nizomi. 1994-y.
5. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash» konsepsiysi. 1992-y.
6. Ta'lif muassasalarida «Qurol-aslaha, kichik kalibrli miltiq va ular uchun o'q-dorilarni olish, hisobini yuritish va saqlashni tashkil etish» bo'yicha yo'riqnomasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining buyruqlari, direktivalari, ko'rsatmalari.
8. Ta'lif muassasalarida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv-moddiy bazasini jihozlash va takomillashtirish» bo'yicha taysiyalar.
9. Ta'lif muassasasining buyruqlari.

## **II. YOCHQBTNI REJALASHTIRISH VA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI BO‘YICHA HUJJATLAR**

1. YOCHQBT ni o‘tkazish bo‘yicha haftalik reja.
2. Harbiy xonaning oylik ish rejasi (darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlar rejasi).
3. Mashg‘ulot o‘tkazish rejasi (reja-konspekt).
4. Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o‘qituvchisi (CHTO‘)ning o‘quv yiliga mo‘ljallangan siyosiy, harbiy, pedagogik bilimlarni oshirish, uslubiy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha shaxsiy rejasi.
5. Ta’lim muassasasida YOCHQBT bo‘yicha o‘quv-moddiy bazani tiklashning o‘quv yiliga mo‘ljallangan istiqbolli rejasi.
6. Ta’lim muassasasida YOCHQBT bo‘yicha o‘quv-moddiy bazani o‘quv yiliga mo‘ljallangan takomillashtirish rejasi.
7. Ta’lim muassasasi va homiy harbiy qism bilan o‘quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha hamkorlikda o‘tkaziladigan o‘quv yiliga mo‘ljallangan tadbirlar rejasi.
8. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik jismoniy tarbiya va tibbiy bilimlar asoslari bo‘yicha o‘quv-uslubiy komissiyasining ish rejaları.
9. Bitiruvchi sinflar (oxirgi kurslar)dagi o‘smirlar bilan dala o‘quv mashg‘ulot (yig‘in)lariga (DO‘M (y) ) tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish rejasi.
10. Ta’lim muassasasida harbiy-sport bayramini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish rejasi.
11. Harbiy ish asoslari, harbiy-amaliy sport turlari bo‘yicha to‘garaklar va seksiyalarining ish rejasi.
12. Harbiy o‘quv muassasalariga nomzodlarni saralash bo‘yicha bajariladigan ishlar rejasi.

## **III. TA’LIM MUASSASASI BO‘YICHA BUYRUQLAR**

1. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini boshlash to‘g‘risida.
2. Guruh va seksiya komandirlarini tayinlash to‘g‘risida.
3. «Vatanparvar» MKT va «Shunqorlar» harbiy-sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida.
4. Kichik kalibrli (pnevmatik) vintovkadan otish mashqlarini o‘tkazish to‘g‘risida.

5. Uch kunlik o‘quv-dala mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida.
6. YOCHQBT kursini yakunlanishiga bag‘ishlangan harbiy-sport bayramini o‘tkazish to‘g‘risida.
7. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash ta’limini yakunlash to‘g‘risida.

#### **IV. HISOB YURITISH VA HISOBOT HUJJATLARI**

1. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning yillik yakuniy hisoboti.
2. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning to‘liq kursini tugatgan o‘smirlar ro‘yxati.
3. YOCHQBT mashg‘ulot davomati bo‘yicha ta’lim muassasasi direktori daftari.
4. Qorovulxona signalizatsiyasining ahvolini kundalik tekshiruv va quroq saqlash xonasini qorovulga topshirish daftarini yuritish.
5. O‘quv quroq-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o‘q-dori va tabeldagi o‘quv buyumlarini qayd etish va hisobini yuritish daftari.
6. O‘quv qarol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o‘q-dori va tabelli o‘quv qurollarini oldi-berdisini qayd etish kitobi.
7. Adabiyot va o‘quv qo‘lannalarini qayd etish kitobi.
8. Sinf jurnali.
9. O‘quv quroq-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o‘q-dorilarni saqlash va nazorat qilinishini qayd etish jurnali.
10. Harbiy ish asoslari va amaliy sport turlari va to‘garak seksiyalarining ishlari bo‘yicha hisobotlarni qayd etish jurnali.
11. O‘qotish mashqlarini o‘tkazishda o‘quvchilarga xavfsizlik chora-tadbirlari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish jurnali.
12. Quroq va kichik kalibrli miltiq saqlash huquqini beradigan shahar (tuman) ichki ishlari bo‘limning ruxsatnomasi.
13. Tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limi va MK «Vatanparvar» tashkiloti omborlaridan quroq qabul qilish hujjatlari (nakladnoy).
14. Xonaning quroq saqlash uchun yaroqliligi to‘g‘risida dalolatnoma.
15. Kichik kalibrli miltiqning o‘q-dorilarini ro‘yxatdan o‘chirish dalolatnomalari.
16. O‘qotish mashqlarida o‘quvchilarga kichik kolibrli o‘q-dorilarni tarqatish qaydnomasi.

17. YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'quvchilarga tadbirlar o'tkazish natijalarinig jadvali, bayonnomalari va qaydnomalari.

*Bayonnomali hujjatlarga quyidagilar kiradi:*

- Nazorat mashg'ulotlari va o'quvchilar tomonidan YOCHQBT bo'yicha nazorat meyorlarini bajarilishi va tekshiruv bayonnomasi;
- Ta'lif muassasasida birinchilik uchun harbiy - sport musobaqalari bayonnomasi;
- O'quvchilar tomonidan bajariladigan mashqlar va jismoniy sog'lomlashtirish majmuasi talablarining bayonnomalari;
- Ta'lif muassasasi jamoasining tuman (shahar) va boshqa harbiy-sport musobaqasidagi ishtiropki to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma;
- Rekordlar va o'quvchilarning ta'lif muassasasida YOCHQBT bo'yicha yuksak yutuqlari jadvali.

### **Harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy sifatlari**

O'tkazilgan tadbirlar bayonnomalarini to'g'ri rasmiy lashtirish harbiy rahbar yoki chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisi (CHTO')ning faqat so'zda emas, balki amalda ham to'g'ri ish yurita olishini tasdiqlaydi. Ta'lif muassasasi o'quvchilarining yarim yillik natijalari va bayonnomalarga qarab, YOCHQBT dasturini o'zlashtirish darajasiga, musobaqa, mashg'ulot va boshqa tadbirlarga baho berish mumkin. Har bir harbiy rahbar, Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisi (CHTO') yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligining barcha boblari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni uslubiy to'g'ri o'tkazishga majbur. Harbiy rahbar, CHTO' ning uslubiy mahorati zamirida uning pedagogik va harbiy bilimi, yuksak amaliy tayyorgarligi va tamoyillarni qo'llash, o'quvchiga ta'lif-tarbiya berishda uslub va uslubiy usullarini ijodiy qo'llash qobiliyati yotadi. **Nazariy** mashg'ulotlarda o'quvchilar O'R QK nizomlarining asosiy qoida va talablarini, harbiy ish asoslari bo'yicha boshqaruva va yo'l-yo'riqlarni, shuningdek haqiqiy harbiy xizmatni o'tashda egallagan bilim va malakalarni qanday foydalanish kerakligi yuzasidan maslahat va tavsiyalarni o'zlashtirishadi. Ma'lumki, harbiy rahbar, CHTO'lari odatda, nazariy mashg'ulotlarni didaktik materiallar va ta'lif texnik vositalari yordamida hikoya shaklida bayon etadi.

*Amaliy* mashg‘ulotlarda o‘quvchilar mashq bajarish, meyorlar va harakat usullarini, bajarilish texnikasini o‘rganishlari va mustahkamlashlari, shuningdek, qurilmalar, jihozlangan maydonchalar, mashg‘ulotlar joyi va quroq, asboblar, muhandislik quroq vositalari, shaxsiy himoya vositalari, sport snaryadlari va anjomlaridan foydalangan holda o‘qotish va boshqa masalalarni hal qilishni o‘rganishlari lozim.

Amaliy mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilish va o‘tkazishda rahbarning darsga munosabati va shug‘ullanayotganlarga ta’sir o‘tkaza olishi, shaxsiy namunasi muhim ahamyatga ega. Ijobiy shaxsiy namuna, harbiy rahbar, CHTO‘ning yuksak amaliy tayyorgarligida, mashg‘ulotni yaxshi olib bora bilishida, ta’lim olayotganlarga mashq usullarini aniq va chiroyli ko‘rsata bilishida, qisqa va lo‘nda tushuntira olish bilan birga ularni qiziqtira olishida ifodalanadi. Mashg‘ulot rahbari dars vaqtidan tejamkorlik bilan foydalaniib, uning optimal zichligiga amal qilishni, har bir mashg‘ulot uchun zarur mashq, usul va harakatlarni to‘g‘ri tanlay bilishni, ularning intensiv bajarilishini, ya’ni dars jarayonida yuklamani to‘g‘ri taqsimlay ola bilishni uddalashi lozim.

Shu maqsadda mashg‘ulot rahbari o‘quvchida zaruriy sifatlarni shakllantirishga aytarlik xizmat qilmaydigan, o‘rganishda esa uzoq vaqt ni talab qiladigan, mashq, usul, harakatlarni qo‘llashdan kochishi kerak. Shuning uchun mashqlarni bajarilishini sekinlashtiradigan va shu bilan ularni mashqlarni mashg‘ulotlarda takrorlash sonini kamaytiradigan o‘zini oqlamaydigan tashkiliy elementlarni mashqlarga qo‘sish tavsiya etilmaydi. Tajribali mashg‘ulot rahbari ta’limni murakkab bo‘lmagan mashqlarni o‘qitish elementlar bo‘yicha emas, balki butunligicha olib boradi va imkon bo‘lishi bilan (bundan mashqlarni keyinchalik bajarilish texnikasining takomillashuvi haqida unutmagan holda) barcha hollarda batafsil tushuntirishlar va takroriy ko‘rsatib berishlarga ortiqcha bir daqiqani sarflamasdan ta’limni kuchg‘ayrat, tezlik bilan olib borishga darhol o‘tadi.

Amaliy mashg‘ulot o‘tkazishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar quroq, jangovar texnika, o‘q-dori bilan ishlaganida xavfsizlik chora-tadbirlariga rioya etishga, ularga yordam berishga va ehtiyyot choralarini amalgao shirishga, jarohat va baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlarini ko‘rishga majbur. Mashg‘ulot rahbari ongli, vijdonan darsiga yondoshmog‘i kerak. Aniq va ishonchli buyruqlar, ta’lim olayotganlarga do‘stona va tengqurdek munosabatda bo‘lish darsning qiziqarli o‘tishiga yordam beradi. Mashg‘ulot rahbariga ta’lim oluvchilarga nisbatan qattiqqo‘llik, jahldorlik, qo‘pol muomalada bo‘lish, ularni doimiy tanqid qilish tavsiya.

etilmaydi. Mashg'ulot rahbari nafaqat o'quvchilarga ko'nikmalar shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi, balki harbiy qasamyod va umumharbiy nizomlar talablari asosida ularni tarbiyalamog'i, yuksak intizomli va mas'uliyatli bo'lishlariga erishmog'i lozim. Mashg'ulot rahbari nafaqat o'quvchilarga ko'nikmalar shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi, balki harbiy qasamyod va umumharbiy nizomlar talablari asosida ularni tarbiyalamog'i, yuksak intizomli va mas'uliyatli bo'lishlariga erishmog'i lozim. Mashg'ulot davomida mashg'ulot rahbari saf nizomlari talablarini buzilishiga zarracha ham yo'l qo'ymasligi, shu qatorda alohida e'tiborni amaliy harakatlarni to'g'ri bajarilishida mashq va meyirlarni bor kuchni sarflamasdan, bajarish kabi turli holatlarni bartaraf etishga qaratishi kerak. Darsda yuqori tashkilotchilikni saqlab turishga mashg'ulot rahbarining o'zini tutishi katta ahamiyatga ega. Uning saranjom-sarishtali tashqi qiyofasi, qaddining rostligi, ixchamliligi, o'quvchilarga nisbatan o'ta talabchanligi ko'p hollarda mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'tilishiga zamin yaratadi. Intizomni mustahkamlash va ta'lim oluvchilarni o'quv mashg'ulotiga qiziqtirish maqsadida mashg'ulot rahbarining intiluvchan, harakatchan va har tomonlama rivojlangan o'quvchilarni boshqalarga namuna qilish orqali rag'batlantirishi, yomon o'qiydiganlarga esa chora ko'rishi va ularda o'z harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarliklariga mas'uliyat hissini oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Darhaqiqat **amaliy** mashg'ulotlarni o'tishda harbiy rahbar, CHTO' uchun uning asosiy tamoyil va qoidalarni bilish va ularga rioya qilish yetarli emas, bundan tashqari ularni amaliyotda mohirona qo'llashi, har bir mashg'ulotda meyor, usul va harakatlar bajarilishini o'rganish va mashq qilishning yanada katta naf beradigan shart-sharoitlarini yarata olishi mumkin bo'ladi.

Bu barcha turli talablarni bir vaqtning o'zida mohirona biriktirish harbiy rahbar, CHTO'ning uslubiy mahorati bo'lib hisoblanadi. Bu mahorat har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun oqilona yondashuv muhitini yaratib, harbiy rahbar, CHTO'ning oz fursatda yetarli tajriba to'plash, tashkiliy va uslubiy ko'nikmalarga va asosiy sifatlarga ega bo'lish va tajriba to'plash imkonini beradi.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani o‘quv dasturining qisqacha mazmunini aytib bering.
3. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani boshqaruv hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi ?
4. YOCHQBTni rejalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi ?
5. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha ta’lim muassasalarining buyruqlarini aytib bering.
6. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi bo‘yicha hisob yuritish va hisobot hujjatlarini nomlarini va ularning qisqacha mazmunini aytib bering.
7. Harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
8. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar nimalarni o‘rganadilar?

***Tayanch iboralar: Asosiy mazmun va talablar, maqsad va vazifalar, asosiy sifatlar, hujjatlar.***

---

## **2-§. TA'LIM MUASSASASI DIREKTORI, HARBIY RAHBAR VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK O'QITUVCHISI- YOSHLARNI O'R QK XIZMATIGA TAYYORLASH BO'YICHA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNING ASOSIY TASHKILOTCHILARI**

**O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida haqiqiy harbiy xizmatini o'tash uchun yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorgarligini tashkil etish bo'yicha ta'lif muassasasi direktori, harbiy rahbar, CHTO', maxsus maktab-internat va harbiy litseylardagi guruhi tarbiyachi-sardorlari, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini, sinf rahbari va ta'lif muassasasining boshqa o'qituvchilarining majburiyatlarini va o'z majburiyatlarini bajarilishiga mas'ullik**

Davlatimizning mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va qurolli kuchlar qudratini oshirish haqida doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib, xalqimizni avvalambor, yoshlarni o'z Vatanini himoya qilishga tayyorlash uchun barcha kerakli chora-tadbirlarni ko'rayotganligini hozirda barchamiz yaxshi bilamiz. Konstitutsiyamizda Vatan himoyasi davlatning eng muhim vazifalaridan deb belgilangan va bu maqsadda qurolli kuchlar tashkil etilib, umumiy harbiy majburiyat o'rnatilgan. Unda O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majbur ekanliklari to'grisida gapirilgan. Shu talablardan kelib chiqib, bosh vazifalardan biriga yosh avlodni Vatanni himoya qilishga tayyorgarligini tarbiyalash kiradi. Bu maqsad uchun yoshlarlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorligi yo'lga qo'yilgan. YOCHQBT sifati uning tarbiyaviy ahamiyati harbiy rahbar, CHTO'ning pedagogik malakasi va harbiy tayyorgarlik darajasi, uning g'oyaviy-siyosiy yetukligi, uslubiy mahorati hamda ta'lif muassasasi direktori va butun pedagogik jamoa bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Ma'lumki, YOCHQBTni tashkil qilish va o'tkazishda harbiy rahbar va CHTO' markaziy figura hisoblanadi. U bevosita ta'lif muassasasi direktoriga bo'ysunadi, uning majburiyatlarini esa muvofiqlashtiruvchi

hujjatlar bilan belgilanadi. O'quvchilarni Vatan himoyasiga tayyorlashdagi rahbarlik to'g'ridan to'g'ri ta'lif muassasasi direktoriga tegishli. U YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish va yuqori darajasini ta'minlashga javob beradi. Bu vazifani bajarish uchun u me'yoriy va boshqaruv hujjatlarini, mashg'ulotlarning uslubiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Harbiy rahbar CHTO'lar nomzodlarini tanlash ham direktor majburiyatları doirasiga kiradi. Nizomga ko'ra bu lavozimga nomzodlarni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'llimlari tavsiya etadi. Lekin bu ta'lim muassasasi direktori bunday odam qachon kelishini kutib o'tirishi kerak degani emas. Xususan tajribalar shuni ko'rsatdiki, yaxshi harbiy rahbar, CHTO'lar bo'lib kerakli harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan, shuningdek, harbiy rahbar, CHTO'larda bo'lishi lozim bo'lgan sifatlarga ega bo'lgan ta'lim muassasalari o'qituvchilari ham faoliyat ko'rsatsa bo'ladi. Pedagogik faoliyatga moyilligi bor va O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlaridagi haqiqiy harbiy xizmatini o'tagandan keyin YOCHQBT fanidan dars berishga xohish, istagi bo'lgan mazkur ta'lim muassasasi o'quvchilari hisobidan harbiy rahbarlikka nomzodlarni oldindan tayyorlash amaliyoti bu borada tafsinga sazovordir. Mudofaa ishlari bo'llimi bilan kelishilgan holda bu nomzod haqiqiy harbiy xizmatni o'tagandan keyin pedagogika universitetlari qoshida 5141200—«CHHT» ta'lim yo'nalishidagi harbiy fakultetlarga yo'llanma olib, «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi» mutaxassisligiga ega bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasalarining direktorlari pedagogik yuklamalarni harbiy rahbar, CHTO'lari o'rtasida taqsimlaydi.

Direktor yuklamalarni taqsimlashda harbiy rahbar, CHTO'larning o'quv-moddiy bazani tiklash va takomillashtirish, shuningdek, saqlash bo'yicha ishlarni va vatanparvarlik hamda darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda bevosita ishtiroq etish zarurligini hisobga olishlari mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ta'lim muassasasi direktori harbiy rahbar, CHTO'ga tegishli bo'limgan, o'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bevosita bog'liq bo'limgan va ta'lim-tarbiya ishlarni olib borishdan chalg'itadigan ma'muriy xo'jalik topshiriqlarni yuklamasligi shart. YOCHQBTni murakkab vazifalarini va o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasini muvaffaqiyatli hal qilinish darjasini harbiy rahbar, CHTO'ning kasbiy va uslubiy mahoratiga bog'liq.

Demak, o'z g'oyaviy-nazariy va harbiy saviyasini pedagogik malakasini oshirish ustida muntazam ishlashi uchun sharoitlar yaratish,

unga o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish ta'lif muassasasi direktorining muhim vazifalaridan biri bo'lib hsoblanadi.YOCHQBT o'quv dasturining barcha bo'limlari bilan mavzularni kompleks o'rganilishini boshqa fanlarning darslari bilan bog'lash lozim.

***Ta'lif muassasasining direktori o'z xizmat doirasida:***

- YOCHQBT bo'yicha ta'lif berishni boshlashni va yakunlashni (maktablarda har bir sinf, kollej, litseylarda har bir mutaxassislik guruhlari uchun);
- o'quvchilarni avtomatdan jangovar o'qlarni otish bo'yicha boshlang'ich mashqlarni bajarish uchun tayyorgarlik va harbiy sport bayramini o'tkazish muddatini;
- YOCHQBT bo'yicha ta'lif berishni boshlash to'g'risidagi buyruq mazmunini;
- rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish haqida harbiy rahbarga ko'rsatmalarni;
- harbiy rahbar, CHTO'ni ish faoliyatiga qarab qo'shimcha tarzda moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni yo'l-yo'riqlarini aniqlaydi.

Harbiy rahbar, CHTO' direktor rahbarligida YOCHQBT bo'yicha haftalik rejani, ta'lif berishni boshlash, guruh va seksiyalar sardorlarini tayinlash haqida buyruqlar loyihasini va vatanparvarlik hamda darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish, shuningdek, o'quv-moddiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Haftalik reja har bir sinf guruh, kurs uchun alohida bir yilga tuziladi.

Bo'lim va mavzularni o'tish ketma-ketligining tartibi direktor, harbiy rahbar va CHTO'larining ta'lif muassasasining ichki imkoniyatlaridan. shuningdek o'quv-moddiy-bazaning holatidan kelib chiqib masalaga ijodiy yondashuv bilan qarashlariga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga har bir oyga mashg'ulotlar jadvalini tuzish, unda mashg'ulotlar mazmuni, vaqt va ularni o'tkazish joyini, shuningdek, YOCHQBT bo'yicha darsdan tashqari tadbirlarni kengroq ko'rsatilishi tavsiya etiladi. Direktor buyrug'ida pedagogik jamoa, harbiy rahbar, CHTO', jismoniy tarbiya va tibbiy sanitariya tayyorgarligi o'qituvchilarining bo'lajak yurt himoyachilarini ta'limi-tarbiyasi borasidagi vazifalari bayon qilinadi, o'quvchilarga tashkiliy ishlar, tartibga rioya qilish masalalarida bo'lgan talablar, YOCHQBT bo'yicha uslubiy komissiya tarkibi va ularning ish tartibi YOCHQBT bo'yicha darsdan tashqari ishlarning asosiy tadbirlari muddati va o'tkazish tartibi aniqlanadi.Vatanparvarlik va darsdan tashqari ishlarni tashkil qilishda, YOCHQBT bo'yicha o'quv moddiy bazani takomillashtirishda, ta'lif muassasasining yillik rejasi uchun

takliflar belgilanayotgan pallada harbiy rahbar, CHTO' butun pedagogik jamoaning, «Vatanparvar» qo'mitasi hamda otaliq tashkilotlar va o'quvchilarni ishtiroq etishlarini unutmasliklari kerak. Guruh va seksiyalar sardorini tayinlash to'g'risidagi direktor buyrug'ida guruhlarning tartib raqami, guruh va seksiya sardorlarining ismi shariflari, harbiy rahbar, CHTO' tomonidan saf hisobi talablarini sanab o'tilishi va har bir ta'lif olayotgan uchun safdagi va harbiy xonadagi joylari, shuningdek, har bir o'quvchiga harbiy muomila qoidalari va belgilangan kiyimbosh shakliga rioya qilish qoidalarini bajarish majburiyatlarini belgilanadi.

Bundan tashqari, intizomni saqlash, o'quv-modda bazani yaxshilanib borishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, boshqa ishlar bo'yicha ham guruh va seksiyalar sardorlarining vazifalari aniqlanadi. Direktoring mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va sifatli o'tkazishni ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, direktor dars rejasini (rejakkonspekt) tasdiqlashi shart. Ta'kidlash joizki, direktorlar harbiy rahbarlarga har bir mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishida amaliy yordam ko'rsatadi. Biroq shunday direktorlar ham borki harbiy rahbarga yordam ko'rsatishdan chetda turishdan tashqari YOCHQBTning mazmun va mohiyati haqida to'laroq tushunchaga ham ega emaslar.

Odatda, direktor va harbiy rahbar, CHTO' mashg'ulot rejasida quyidagilar ko'rsatilishini yodda tutishi kerak:

1. Dasturning qaysi bo'limi bo'yicha qaysi sinf o'quvchilari (kurs) bilan mashg'ulot olib borilishini.
2. Mavzuning nomi, mashg'ulotning tartib raqami va mazmuni.
3. Mashg'ulotning o'quv-tarbiyaviy maqsadi, unga ajratiladigan vaqt.
4. Uslubi va mashg'ulot joyi.
5. Moddiy ta'minoti.
6. Qo'llanma va ko'rsatmalar.

7. Harbiy rahbar CHTO'ning mashg'ulotlarni olib borishida beriladigan buyruqlar va ta'lif oluvchilarning harakati bayon etilishi (taktik tayyorgarlik bo'yicha-kirish va vaziyat). Uy vazifasi.

Ta'lif muassasasi direktoriga mashg'ulot rejasini oldindan ko'rib chiqish va harbiy rahbar, CHTO'ga amaliy yordam ko'rsatish uchun (mashg'ulotga 7 dan kam bo'limgan vaqtda) birma-bir ko'rsatib chiqish tavsiya etiladi.

Direktor va harbiy rahbar, CHTO‘ alohida e’tiborni olish o‘quv mashqlarini o‘tkazishga qaratishi kerak. Kichik kalibrli miltiqdan tayyorlov mashqlarini bajarishga faqat harbiy rahbar, CHTO‘ baholashiga ko‘ra quroldan otishga tayyor o‘quvchilarga ruxsat berish tavsiya etiladi. Qolgan o‘quvchilarning katta qismi, tajribalar ko‘rsatishicha, tayyorgarlik darajasiga qarab otish o‘quv mashqlarini o‘qishdan tashqari vaqtarda bajarishlari kerak. Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan har bir kishi bu borada chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning ahamiyatini chuqur anglab yetmog‘i lozim. E’tibor bilan qaralsa haqiqatdan ham YOCHQBT fani bo‘yicha mas’uliyatli, g‘ayratli yaxshi mutaxasis o‘qituvchisiga va mukammal O‘MB ega bo‘lgan ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va buning natijalari ta’lim muassasasida o‘rnatilgan tartib intizomda, tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida o‘tkazilayotgan tadbirdarda, ayniqsa muddatli harbiy xizmatni a’lo darajada o‘tashida yaqqol ko‘zga tashlanib kelmoqda. Ayniqsa butun bir pedagogik jamoaning kuchi vatanparlik tarbiyasi ishlariga mohirona yo‘naltirilishi, har bir mas’ul xodimning ish jarayonida yang-yangi taklif va g‘oyalarni shakllanib borishiga sharoit yaratadi. Bu esa ta’lim-tarbiyani yanada yuksalishida, pedagogik jamoaning bir-birlari bilan yanada jipslashib har qanday masalaning yechimini ijobjiy hal qilishida juda katta ahamiyatga ega.

**Ta’lim muassasasi va mudofaa-sport sog‘lomlashtirish lagerlarida  
o‘smirlarni chaqiruvga qadar tayyorlash bo‘yicha  
mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazishga bo‘lgan asosiy  
talablar. YOCHQBT, jismoniy tarbiya, tibbiy-sanitar tayyorgarlik  
va vatanparvarlik, mudofaa-sport tadbirdarini darslardan  
tashqari vaqtarda tashkillaydigan va o‘tkazadigan barcha  
tashkilotchilarning uslubiy birlashmasining faoliyati**

Direktor va harbiy rahbar, CHTO‘ tomonidan katta e’tibor va g‘amxo‘rlikni dala-o‘quv mashg‘ulot (yig‘inlari)lari DO‘M(Y) talab qiladi. Ularni tuman yoki ta’lim muassasasi qoshida tashkil qilinadigan mudofaa sport sog‘lomlashtirish lagerlarida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Xalq deputatlari kengashi ijroiya qo‘mitasining qarorlari va mudofaa ishlari boshqarmasi ko‘rsatmalari (buyrug‘i) asosida direktor bilan

tasdiqlangan DO‘M(Y) tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar rejasি ishlab chiqiladi. Agar DO‘M(Y) harbiy qism bazasida o‘tkazilsа, tadbir rejasи harbiy qism sardori bilan kelishiladi.

Reja o‘z ichiga ta’lim muassasasi direktori, uning o‘rinbosarlari, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, harbiy rahbarlar, CHTO‘lar jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya) o‘qituvchilari va boshqa shaxslar bilan bajariladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, bajarilish muddatini aniqlaydi.

Bunday masalalarni yechishda harbiy xizmatchilarni jalb etish, harbiy rahbar va CHTO‘larini zaxiradagi ofitserlar yoki o‘qituvchilar safidan tayinlash, ular bilan MIB hamkorligida amalga oshiriladigan uslubiy mashg‘ulotlar o‘tkazish o‘z samarasini beradi.

Dala o‘quv mashg‘ulotlarini (yig‘inlarini) boshlanishigacha bir oy muddat qolganida ularni o‘tkazish haqidagi buyruqda saf tortish va jo‘nash vaqtini, vzwod, guruh, seksiya sardorlarini, vzwod yordamchilarini va o‘quvchilarni ism-shariflarini ko‘rsatish, mashg‘ulotlarni o‘tkazish tartibini va o‘quvchilarni manzilga tashishdagi, xavfsizlik choralarini sanab o‘tish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulotlar jadvali Mudofaa – Sport – Sog‘lomlashtirish lagerlari (MSSL) boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan o‘quv joylaridan foydalanish grafigi asosida tuziladi (agar lagerda bir nechta ta’lim muassasasi o‘quvchilari bilan mashg‘ulot o‘tkazilsа).

Kun tartibi belgilanishida o‘quv mashg‘ulotlar, jismoniy mashqlar, mustaqil tayyorlik, siyosiy-tarbiyaviy va sport-ommaviy ishlar, qurollarni ko‘zdan kechirish va tozalash vaqtini, qurol-aslaha va protivogazlarni tartibga solishni, ovqatlanish, kechki tekshiruv, dam olish vaqtlarini ham ko‘zda tutish kerak. O‘quv-moddiy bazani (O‘MB) yaratish va takomillashtirish — ta’lim muassasasi direktori va harbiy rahbar, CHTO‘larning alohida diqqat markazida bo‘lishi kerak, chunki YOCHQBT bo‘yicha mashg‘ulotlarning samarali olib borilishi O‘MB ning holatiga bog‘liq.

Shu bilan birga kuzatuv va tajribalarning ko‘rsatishicha, O‘MBdan foydalanish paytida ikki xil salbiy holatga ro‘paro‘ kelinadi. Birinchisi, ba’zi bir ta’lim muassasalarida, o‘quv - moddiy bazaning mavjud majmuasi, go‘yoki faqat tekshiruvchilar uchun yaratilgandek, mashg‘ulotlarning amaliy shakllari ham harbiy xonada o‘tiladi.

Ikkinchisi esa ba’zi bir harbiy rahbar va CHTO‘larning amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘quv - moddiy bazani tiklashga xohishi yo‘qligi bilan bog‘liqdir. Bu xuddi YOCHQBT

mashg‘ulotlarini jihozlanmagan maydon, shaharchalarda va boshqa o‘quv joylarisiz ham faqat harbiy xonalarda o‘rganiladi degan tushunchalar bilan izohlanadi. Bu borada so‘ngi kuzatuvlar natijasida yana bir salbiy holat ma’lum bo‘ldi. Bu holatni bevosita lavozimga tayinlangan harbiy rahbar yoki CHTO‘larining YOCHQBT bo‘yicha O‘MBga qo‘yiladigan talablari bilan yaqindan tanish emasligi yoki umuman bilmasligi bilan bog‘liqdir.

Ta’lim muassasasi direktori O‘MB rivojlanishi va takomillashtirishga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga majbur hisoblanadi.

Shunday qilib, yillik rejada ta’lim texnik vositalarini keng joriy etishni ko‘zda tutish kerak. Amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘quvchilarining o‘zlari o‘quv, ko‘rgazmali qurollarning ayrimlarini tayyorlashlari mumkin. Masalan, nishon ekranlarini, o‘qdon va granatalar uchun xaltachalarni, bel kamarlarini, bayroqchalarni, ko‘rsatkichlarni, qurol maketlarini, yo‘nalishi joyini ko‘rsatuvchi belgilarni o‘quvchilar tomonidan mashg‘ulot rahbarining boshchiligidida tayyorlash mumkin. Bu masala hozirgi kunda o‘z yechimini deyarli topdi. Respublikamizning Samarqand viloyatida joylashgan «EL» ochiq aksionerlik jamiyati firmasi tomonidan hozirgi kunlarda YOCHQBT bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanmalar, o‘quv qurollari va tabel buyumlarining yaqin 70 % tayyorlanib buyurtma asosida ta’lim muassasalariga tarqatilmoqda.

Harbiy rahbar va CHTO‘lardan olingan buyumlarni saqlash, ehtiyyotlash va unumli foydalanish masalalarini ko‘rishi, navbatda olinadigan buyumlar ichida avval olingan buyumlarni takror va takror olinishining oldini olish choralarini ko‘rishi shart bo‘ladi. Direktorlar barcha harbiy rahbar, CHTO‘lar ham o‘quv qurollarini darsda to‘liq va uslubiy to‘g‘ri qo‘llay olmasliklariga e’tiborini qaratishi kerak. Bo‘lajak el-yurt himoyachilarini tayyorlashning yuqori darajasini ta’minalash uchun harbiy rahbar, CHTO‘ tashkiliy va uslubiy, tibbiy bilim asoslari, jismoniy tarbiya tayyorgarligi bo‘yicha hamda darsdan tashqari vatanparvarlik va mudofaa-sport tadbirlarini tashkil qiluvchi va o‘tkazuvchilar sa‘y-harakatlarini birlashtirish zarur.

Buning uchun ta’lim muassasasida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, tibbiy bilim asoslari va jismoniy tarbiya bo‘yicha uslubiy komissiya tashkil etiladi. Barcha tadbirlarda ishtiroq etuvchi direktor bu komissiyaga rahbarlik qiladi. Aytib o‘tilgan shaxslardan tashqari uslubiy komissiya tarkibiga darsdan tashqari ishlari tashkilotchisi (ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor muovini) va

«Vatanparvar» qo‘mitasi raisi ham kiradi. Uning raisi qilib, odatda, harbiy rahbar yoki CHTO‘ saylanadi. U komissiya ishini o‘quv yiliga rejalashtiradi. Ta’lim muassasasining boshqa uslubiy komissiyalari bilan aloqani yaxshilaydi. Uning a’zolari bilan mashg‘ulotlar, ochiq va ko‘rsazmali darslar, dolzarb masalalar bo‘yicha ma’ruza va chiqishlar muhoqamasini tashkil qiladi va o‘tkazadi.

Komissiya a’zolari tomonidan qabul qilingan qaror va tavsiyano-malarni bajarilish nazoratini amalga oshiradi, ta’lim muassasasining pedagogik kengashida komissiya ishi bo‘yicha hisobot beradi. Uslubiy komissiya a’zolari qabul qilingan qaror va tavsiyanomalar bajarilishini tu‘minlaydi, ochiq darslar beradi, ko‘rgazmali mashg‘ulotlar o‘tkazadi, komissiya yig‘ilishlarida, pedagogik konferensiyalarda va o‘qishlarda ma’ruza bilan chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar xizmatiga yoshlarni tayyorgarligini yaxshilash masalalari bo‘yicha ko‘rib chiqish uchun komissiyaga takliflar bilan chiqadi.

*Uslubiy komissiya* oyda kamida ikki marta tadbir o‘tkazadi. Bu tadbirlarni o‘tkazish vaqtin ta’lim muassasasi direktori buyrug‘i bilan aniqlanadi. Faoliyat ko‘rsatayotgan harbiy qism, bazaviy korxona vakillari, boshqa fanlar bo‘yicha uslubiy komissiyalar raislarini ham qatnashuvi tavsiya etiladi. Komissiya ishini baholash mezoni deb bo‘lajak Vatan himoyachilarining ta’lim-tarbiyasiga umumiy yondoshuv va umumiy talablar va erishilgan tayyorgarlik darajasini qabul qilish kerak.

Uning hisobot hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim muassasasining direktori tasdiqlangan YOCHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy sanitariya tayyorgarligi bo‘yicha ish rejasи.
- Dars rejalar, uslubiy ishlanmalar, ma’ruzalar, majlis qarorlari va hokazo.
- Ishning bir yillik hisoboti.

Uslubiy komissiya qaroriga binoan barcha shu ishlar uning a’zolaridan birida saqlanadi.

Ta’lim muassasasi direktori vatanparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblangan YOCHQBT darslaridan tashqari ishini takomillashtirish haqida doim g‘amxo‘rlik qilishi va bu tadbirlarni darsdan tashqari ishlar tashkilotchisi (ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor muovini), harbiy rahbar, CHTO‘ orqali amalga oshirishi kerak. Vatanparvarlik tarbiyasi amaliyotidan kelib chiqib, majburiyatlar taxminan taqsimlanadi:

- *ta’lim muassasasining direktori* pedagogik jamoa va ijtimoiy

tashkilotlar faoliyatini yo'lga soladi va vatanparvarlik tarbiyasining barcha ishlariiga rahbarlik qiladi, asosiy tadbirlarni rejalashtiradi, ularni bajarilishini tashkillaydi va nazorat qiladi, bu ish bo'yicha masalalarni pedagogik kengash muhokamasiga qo'yadi;

– *sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisi* (ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini) darsdan tashqari vaqtida o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

– sinf rahbarlari faoliyatini nazorat qiladi va yo'naltiradi va ularga vatanparvarlik ishini o'quvchilar bilan tashkil qilishda doimiy yordam ko'rsatadi, harbiy rahbar va CHTO' bilan doimiy aloqani ushlab turadi;

– sinfdan tashqari ish tashkilotchisi bilan birgalikda harbiy rahbar va CHTO' vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarini rejalashtirishda qatnashadi;

– sinf rahbarlari (ishlab chiqarish ta'limi ustalari) va jamoat tashkilotchilariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi, mudofaa to'garaklari ishiga rahbarlik qiladi, mashg'ulotlarga o'qituvchilarni, otaliqdagi harbiy qismlar ofitser va serjantlarini jalb etadi;

– Bitta, ikkita to'garaklarda mashg'ulotlar o'tkazadi.

*Sinf rahbari* (ishlab chiqarish ta'limi ustasi) sinfda vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarni rejalashtiradi va tashkil qiladi, harbiy rahbar, CHTO'larga va sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisiga yordam beradi.

*O'qituvchi* o'z fani o'quv materiallarini vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda foydalanadi, fan bo'yicha to'garak rahbari hisoblanib, o'zining mashg'ulotlaridan vatanparvarlik tarbiyasi maqsadida maksimal darajada foydalanadi, o'quv konferensiyalari, kechalar, tanlovlari, ko'riklar, ko'rgazmalar, uchrashuvlar, filmlar namoyishini tashkil qilishga yordam beradi.

*YCHQBT bo'yicha sinfdan tashqari ishlash o'z ichiga quyidagilarni oladi:*

1. Guruh, seksiyalar sardorlari bilan mashg'ulotlar o'tkazish.
2. YCHQBT bo'yicha guruhlar tarkibi bilan va yakka konsultatsiyalar.

3. Pnevmatik miltiqlidan o'qotish, protivogazni kiyib turish, qo'il granatalarini otish mashqlarini bajarib, «Salomatlik» me'yorlarini topshirish.

4. «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinida qatnashish uchun bolalarni tayyorlash.

5. Sportning harbiy-amaliy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish;
6. Harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil qilish.
7. Ta'lim muassasasini bitirgan harbiy xizmatchilar, jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilari bilan uchrashuvlar.
8. Harbiy-vatanparvarlik mavzusida filmlar ko'rsatish.
9. Harbiy qism bilan otaliq ishlarini bajarish.
10. Harbiy kasbga yo'naltirish bo'yicha tadbirlar.
11. Mudofaa-ommaviy to'garak ishlarini tashkil qilish.
12. Harbiy-sport bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish.

Harbiy rahbar, CHTO', jismoniy madaniyat, tabiiy bilim asoslari o'qituvchilari harbiy-amaliy sport turlaridan; joylarda mo'ljal olib chopish, to'siqlar, suv to'siqlaridan o'tish, nishonga granata otish, kichik kalibrli miltiqdan o'q otish bilan umumiy to'siqlar yo'laginini zabit etish, «Havo trevogasi» signali bo'yicha harakatlар, qo'l granatasini uzoqlikka otish, sanitariya xizmatchilar o'rtasida musobaqalarni tashkil etadilar.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy faol shakllaridan biri *o'yin* hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi direktori o'yinni tashkiliy pedagogik boshqaruvi amalga oshiradi, sinf rahbarlarini jalb etadi. Butun pedagogik jamoa o'yinda o'quvchilarni faol qatnashishlari uchun o'yinni tashkiliy va moddiy ta'minotida maslahatchilar kengashi va yosh armiyachilar batalyoni qo'mondonligiga ma'lum bir yordamni ko'rsatadi.

O'yinning uslubiy boshqaruvini maslahatchilar kengashini amalga oshiradi. Uning raisi darsdan tashqari ishlar tashkilotchisi, rais o'rinosari – bosh maslahatchi – harbiy rahbar, CHTO', jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maslahatchi – jismoniy madaniyat o'qituvchisi, tibbiy tayyorgarlik bo'yicha maslahatchi, tibbiy sanitariya tayyorgarligi o'qituvchisi, maslahatchilar kengashi tarkibiga o'qituvchilar, sinf rahbarlari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari, harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan bazaviy yoki otaliqdagi korxona vakillari kiradi.

Maslahatchilar kengashi tarkibidan guruh maslahatchilari tayinlanadi. YOCHQBT bo'yicha boshqaruv hujjatlarining talablariga muvofiq ta'lim muassasasi direktori mashg'ulotlarning o'tilishini va o'quvchilar tomonidan o'tilgan mavzuni o'zlashtirish sifatini nazorat qiladi hamda o'quv qurollarini, kichik kalibrli miltiq va uning o'q-dorilarini hisobini va texnik holatini nazorat qiladi.

Mashg'ulotlarni tekshirish harbiy rahbar, CHTO'ning to'g'ridan-to'g'ri yordami bilan nazorat vazifalarini mujassam qilishi kerak.

Tekshiruvni shunday hisob bilan rejalashtirish kerakki, o'quv yili davomida ta'lif dasturining barcha bo'limlar bo'yicha, ayniqsa, tashkiliy munosabatda eng muhim va murakkab mavzular hisoblana-digan (masalan: «Askarning jangdagi harakatlari», «Avtomatdan qo'zg'almas nishonga otish», «Avtomatning qism va mexanizmlari vazifalarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar», «Vzvod bo'yicha pobonning majburiyatlari», «Harbiy harakatlar ishtiroychilarining axloq kodeksi», «Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari») mashg'ulotlarga kirish imkonini bersin.

Tekshiruv vaqtida o'quv va tarbiyaviy maqsadlarning muvofiq kelishiga, dasturning usulubiy talablariga, mashg'ulotning g'oyaviy darajasi va tarbiyaviy ahamiyatiga, moddiy ta'minotiga, vaqt taqsimoti-ga va o'quv materialini bayon qilish tartibi va tushunarligiga, uning avval o'rganilgan materiallar bilan bog'liqligiga, usul va harakatlarni amaliy o'rganishni tashkil qilish qobiliyatiga va fanlararo aloqalar amalga oshirilishiga, o'zini tutish qoidalariga, shuningdek, nizom talablarini ta'lif oluvchilar tomonidan bajarilishiga e'tibor berish kerak.

O'quvchilar tomonidan o'tilgan o'quv materiali qanchalik o'zlashtirilganini qanday qilib tekshirish mumkin? Direktor (yoki uning topshirig'i bo'yicha harbiy rahbar, CHTO') savolar beradi, amaliy harakatlarni bajarib berishini so'raydi. Agar mashg'ulotda bir qancha o'quv joylar, masalan, otish tayyorgarligi mavzusi bo'yicha tashkil qilingan bo'lsa, direktor o'quvchilarning bajaradigan vazifasini har biri ustida bajariladigan ishlari bo'yicha tekshirib chiqadi. Savolga javob yoki harakatni amaliy bajarilishi baholanadi.

Nazorat topshiriqning eng samarali va maqsadga yo'naltirilgan shakli— bu ta'lif muassasasi direktori o'tilgan mavzulardan birini darsdan tashqari vaqtda o'tkazishi mumkin, (o'quv choraklarining oxirida, otish tayyorgarligi bo'yicha kichik kalibrli miltiq va avtomatdan o'qotish tayyorlov mashqlarini bajarishdan oldin, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa dala o'quv mashg'ulotlari (y)ga chiqishdan oldin) o'quvchilar tomonidan o'zini tuta bilish odobini, muomola va belgilangan kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarini bajarilishini, navbatchi (navbatchi yordamchisi)ning majburiyatlarini bajarilishini direktor tomonidan kundalik kuzatilishi juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tekshiruvlar natijalari, xulosa va takliflari odatda, direktor tomonidan o'zining ish daftari yoki nazorat jurnallarida qayd qilinib boriladi.

O'quv tarbiyaviy ishlarning natijalar hisoboti o'quv yili uchun maylyum oylarida qilinadi. Pedagogik kengashning yig'ilishi oldidan ma'ruba tayyorlanadi. Unda YOCHQBT va jismoniy tarbiyaning sifati, dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirilganligi, «Alpomish va Barchinoy» kompleksi bo'yicha tayyorgarlik darjasini tahlil qilinadi.

Bundan tashqari o'quv-moddiy bazasining holati, o'quvchilarning intizomi va tashkilotchilik darjasini, YOCHQBT va tibbiy-sanitariya tayyorgarligi bo'yicha uslubiy komissiya ishi samaradorligi albatta baholantadi. Vatanparvarlik tarbiyasi mashg'ulotlari qanday amalga o'dirilgani darsdan tashqari vaqtida o'tkaziladigan vatanparvarlik tadbirdarining yo'nalishi, samaradorligi qayd qilinadi.

Ma'ruzani sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisi, harbiy rahbar, CHTO', jismoniy tarbiya, tibbiy bilim asoslari fani o'qituvchilari tayyorlaydi. Pedagogik kengash materiallari YOCHQBT bo'yicha ta'limni yakunlash haqidagi direktor buyrug'inining asosini tashkil qiladi. Bunda dastur bajarilishiga baho beriladi, xulosalar qilinadi, pedagogik jamoa va o'quvchilarga yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha aniq vazifalar qo'yiladi.

Bir yilga YOCHQBT va harbiy bilimlarni targ'ibot qilish xulosasini chiqarilishining muhim shakli – o'quvchilar Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga o'z amaliy va jismoniy tayyorgarligini namoyish qilishi mumkin bo'lgan harbiy-sport bayramini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha buyruqni ta'lim muassasasi direktori (o'tkazishga 2-3 oy qolganda) chiqaradi. Direktor (bir oy qolganda) bayram rejasini ham tasdiqlaydi.

O'quv yili tugaganidan keyin ta'lim muassasasi direktori tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga YOCHQBT va o'quvchilar bilan olib borilgan vatanparvarlik ishlarining holati haqida hisobot beradi.

Hisobotda albatta dastur bajarilishi haqida ma'lumotlar (agar nimadir bajarilmagan bo'lsa, buning sababi?) nazorat natijalari, direktoring xulosasi, o'quv - moddiy baza va quroq-aslaha, mulk va asboblar bilan ta'minlanganlik holati, vatanparvarlik ishlarining aniq tadbirlari haqida ma'lumotlar, YOCHQBT holatining umumiy bahosi ko'rsatiladi.

Maxsus mакtab-internatlar va harbiy litseylar guruh tarbiyachi sardorlarining majburiyatlariga kelsak, o'zining amaliy ishida u asosan harbiy rahbar majburiyatlariga amal qiladi, lekin maxsus mакtab-internat va harbiy litseylarning ishlari o'ziga xosligidan kelib chiqqan ma'lum bir xususiyatlarga ega.

Gap shundaki, respublika harbiy litseylari chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshida bo‘lgan, o‘smirlarni oliv harbiy maxsus o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Shuning uchun mazkur ta’lim muassasasi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikka va jismoniy tarbiyaga asosiy e’tiborni beradi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi bo‘yicha mutaxassis o‘qituvchi va pedagogik malakaga ega bo‘lgan zaxiradagi ofitserlar guruhning tarbiyachi sardori lavozimiga qabul qilinadilar. Shu yerdan ishning o‘ziga xosligi kelib chiqadi. Odatda, ular ko‘proq respublikamizning pedagogika universitetlari qoshidagi harbiy fakultetlarining bitiruvchilaridir. Ular katta kasbiy va uslubiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bo‘lajak ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha og‘ir va sharaflı ishni olib borishga tayyor bo‘lishlari shart.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Ta’lim muassasasida harbiy rahbar va CHTO‘ nomzodini tanlash tartibini aytib bering.
2. Harbiy rahbar va CHTO‘ning majburiyatlarlarini aytib bering.
3. Haftalik rejani tuzish tartibini tushuntirib bering.
4. YOCHQBT ni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha ta’lim muassasasi direktorining majburiyatlarini aytib bering.
5. Ta’lim muassasasida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, tibbiy sanitariya tayyorgarligi va jismoniy tarbiya bo‘yicha uslubiy komissiyaning qiladigan ish mazmuni va tartibini aytib bering.
6. O‘quv yili tugaganidan keyin ta’lim muassasasi direktorini vatanparvarlik ishlarining holati haqidagi hisobotining mazmuni nimalardan iborat?
7. Maxsus maktab-internatlari va harbiy litseylarini guruh tarbiyachisi va sardorlari majburiyatlarining o‘ziga xosligi nimada?
8. Ta’lim muassasalarida o‘quv tarbiyaviy ishlarning natijalar hisoboti qachon o‘tkaziladi va uning qisqacha mazmuni nimalardan iborat?

**Tayanch iboralar:** Majburiyat va javobgarlik, tashkil qilish va o‘tkazish, o‘rgatish va shakllantirish.

---

### **3-§. TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR TAYYORLASH BO'YICHA O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH**

**«YOCHQBT» o'quv dasturining talablari, «YOCHQBT»ni ta'lif muassasalari hamda «MSSL» dagi hajmi va vazifalari**

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» chaqiriq yoshigacha va chaqiriq yoshida bo'lgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi o'quv muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani O'zbekiston Respublikasi «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq tashkillanadi va olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1997-yildagi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta'lif to'g'risida»gi hamda 2002-yilning 12-dekabrida qabul qilingan «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi Qonunlarini hayotga tatbiq etish maqsadida, 2004–2005 o'quv yilidan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tmagan chaqiriq yoshidagi yoshlar uchun hokimlik qarori bilan tuman va shaharlarda o'quv punktlari mudofaa sog'lomlashtirish sport lagerlari (MSSL)ni tashkil etilishi, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgaligining asosi bo'lib xizmat qiladi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi» kursining vazifasi yoshlarga ta'lif jarayonida quyidagilarni o'rgatishdan iborat:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;
- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinglarning vazifalarini;
- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa haqida» «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarni, O'zbekiston

Ruspublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to‘g‘risida»gi Qarorini, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi asosiy qoidalarini o‘rganish;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o‘rganish va anglash;
- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishish;
- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek, jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma’nana mustahkam bo‘lish;
- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o‘zlashtirish.

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o‘tashda o‘zining konstitutsiyaviy burchini a’lo darajada bajarilishini va o‘ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o‘zlashtirib olishini ta’minalashdan iborat. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash» fani uchun o‘g‘il bolalarga – **140** soat; qiz bolalarga – **70** soat (34 soat «Fuqaro muhofazasi»ga va 36 soat «Tibbiy bilim asoslari»ga) ajratilgan. Mashg‘ulotlar umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining oxirgi ikki yilda haftasiga ikki soatdan o‘qitiladi. Ta’lim muassasalarida (AL va KXK) har bir dars soatlariga **40** daqiqadan vaqt ajratilgan.

Ta’lim muassasalarida tuziladigan mashg‘ulotlar jadvaliga YOCHQBT darslariga ajratilgan soatlar bir vaqtning o‘zida ketma-ket rejalashtiriladi. Bunday rejalashtirish YOCHQBT mashg‘ulotlarini mantiqiy ketma-ketligini ta’minalash va bir-biri bilan chambar-chas bog‘liq bo‘lgan o‘quv materiallarini bog‘lab olib borishni rejalashtirishda qulay imkoniyatlar yaratadi. Ta’lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash» fani o‘tilmagan yoki mazkur fan bo‘yicha sinovdan o‘tmagan yoxud yakuniy bahosi «qoniqarsiz» deb topilgan chaqiriq yoshidagi o‘sirinlar bilan shahar yoki tuman hokimligining qarori bilan tashkil qilingan MSSL da **160** soatlik dastur asosida ushbu fan o‘tiladi.

**Ta’lim muassasalarida** YOCHQBT mazkur dastur talablari asosida rejalashtiriladi. Bu reja dasturining to‘liq bajarilishini va uning har bir bo‘limini boshqa fanlar bilan uzviy hamkorlikda o‘rganishni ta’minalashi shart. Har bir ta’lim muassasasida yarim yilga yoki bir butun o‘quv

yiliga YOCHQBT bo'yicha haftalik va tematik reja tuziladi. Joriy yilga tematik rejani chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasining YOCHQBT dasturi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan haftalik reja asosida ishlab chiqadi.

Tematik reja o'quv yiliga to'liq tuzilib, 3 kunlik dala-o'quv mashg'ulotlari (yig'ini)ni o'z ichiga oladi.

Kalendar reja har yili Mudofaa vazirligi va boshqaruvchi hujjat-larning talablari asosida va CHXT fakultetlari (kafedralari), oliy ta'lim muassasalari hamda qo'shnlarning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda har yili yangilanib turiladi.

*Tematik rejada quyidagilar aniqlanadi:* mashg'ulotlar bo'yicha o'quv vaqtlarini taqsimoti, mashg'ulotlarni o'rganish ketma-ketligi, mashg'ulotning o'quv va tarbiyaviy maqsadlari, o'quvchilarga mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar, adabiyotlar nomlari, shuningdek, uslubiy ko'rsatmalar va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Mashg'ulotlarni tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari talablarini o'quvchilarga amaliy jihatdan singdirish maqsadida ta'lim muassasasi direktorining buyrug'iiga asosan guruhlarda o'quv guruhlari va seksiyalari tashkil qilinadi. Intizomli o'quvchilardan guruh va seksiya boshliqlari tayinlanadi. O'quvchilarning mashg'ulotlarida olgan bilim, ko'nikma va malakalari darsdan tashqari o'tkaziladigan quyidagi tadbirlar orqali mustahkamlanadi:

- harbiy ish asoslarini o'rgatuvchi to'garaklar va sportning harbiy-amaliy turdag'i sekxiyalarini tashkil etish;
- harbiy sport musobaqalari, harbiy o'yinlar o'tkazish va tashkil etish;
- o'quvchilarni maktabdan tashqari harbiy texnika, sport sog'lomlash-tirish va yo'nalishli ta'lim muassasalariga tashriflarini tashkillash.

YOCHQBT bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarni saflash va saf nizomi talablariga amal qilishdan boshlashni tavsiya qilinadi. YOCHQBT o'qituvchisi va o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari talablarini asosida o'rnatiladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablarga muvofiq o'tkazishni ta'minlash uchun va nizom talablarini bajarish, o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni singdirish maqsadida har bir sinf, o'quv guruhi guruh deb nomlanadi va uchta sekxiyaga bo'linadi. O'quvchilardan ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan ta'lim muassasasi rahbari tomonidan guruh va seksiya komandirlari tayinlanadi.

YOCHQBT bo'yicha mashg'ulotlar komandir tomonidan guruhni saflash va mashg'ulotga tayyorgarligi haqida hisob berish bilan boshlanadi. O'quvchilarni komandalarni to'g'ri bajarishini, safda tartibni saqlashini, saf tortishni o'rgatish maqsadida bu tadbirlar harbiy rahbar, CHTO' yoki instruktor ishtiroqida amalga oshiriladi. Hisobot shakli: «O'rtoq leytenant (harbiy rahbar) 20 nafardan iborat 2-guruuning o'quvchilari harbiy ish asoslari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotga saf tortdi, guruh komandiri, o'quvchi G'ofurov».

Hisobot bergandan so'ng guruh komandiri qo'lini bosh kiyimidan tushurmay (agarda bosh kiyimida bo'lса), chap (o'ng bilan) oyog'i bilan chetga bir qadam qo'yib bir vaqtning o'zida o'nga (chapga) qayriladi va mashg'ulot rahbarining oldinga o'kazib yuborib, uning orqasidan bir-ikki qadam orqada va safning tashqi tomonidan boradi. Mashg'ulot rahbari hisobotni qabul qilib, safning o'rtasiga boradi, ulardan uch-to'rt qadam narida to'xtab, safga qarab yuzlanadi va o'quvchilar bilan salomlashadi «Salom (kursant) o'quvchilar». O'quvchilar salomga baland ovoz bilan, aniq va birgalikda «Assalom», deb javob beradilar.

Mashg'ulotlarda har doim tartib va intizom saqlanishi kerak. Harbiy rahbar, CHTO' o'quvchiga murojat qilganida o'quvchi darhol o'rnidan turadi va qaddini rostlab, o'zini tanishtiradi: «O'quvchi Orziyev». Agar mashg'ulot rahbari o'quvchiga familiyasini aytib murojaat qilsa, u «Men», deb javob qaytaradi. O'tirishga ruxsat olib, o'quvchi «xo'p bo'ladi», deb tez va shovqinsiz joyiga o'tiradi. O'quvchi harbiy rahbar, CHTO'ga murojaat etishida qo'lini qo'taradi va ruxsat olganidan keyin o'rnidan turib qaddini rostlab, o'zini tanishtiradi va savol bilan murojat qiladi.

O'quv punktlarida esa instruktor o'quvchiga murojaat qilganda yoki buning aksi bo'lganda o'quvchi o'zini tanishtiradi: «Xizmatga tayyorgarlik ko'rvchi Qulmirzayev» yoki «Chaqiriluvchi To'raqo'ziyev».

Mashg'ulotlar (dars) tugagandan so'ng guruh komandiri mashg'ulot rahbari ruxsati bilan «rostlan» yoki «turilsin, rostlan» komandalarini beradi. Mashg'ulot rahbari «Xayr o'quvchilar», deydi. O'quvchilar bir-galikda «xayr» deb javob qiladilar va «erkin» komandasini berilganidan so'ng harbiy xonadan oldin harbiy rahbar, CHTO'ni o'tkazib yuborib keyin tartib bilan o'zları chiqadilar. O'quvchilar mashg'u-lotlarga tay-yorgarlik ko'rib, ta'lim muassasasida direktor tomonidan belgilangan kiyimbosh bilan kelishlari shart. O'quv punklarida joriy qilingan kiyimbosh va tekis, kalta soch tavsiya etiladi.

Yil fasliga qarab kiyimboshlar turlicha bo‘lishi mumkin, masalan: **1-sonli** harbiy xona (sinfda) mashg‘ulotlar uchun – bir xil tusdagi shim, kostyum, ko‘ylak, galstuk, tuqli (past poshnali) yoki maktab formasi; **2-sonli** saf mashg‘ulotlarini o‘tkazishda – shu kabi, ya’ni **1-sonli** variantdagidek va bundan tashqari bosh kiyimli; **3-sonli** – DO‘M(y) o‘tkaziladigan maydonlarda – ish kiyimi (kurtka, shim), bosh kiyimli; **4-sonli** sport zalida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida – sport va oyoq kiyimlari va shu kabilar.

Harbiy rahbar, CHTO‘, zaxiradagi ofitserlar uchun mashg‘ulotlar o‘tkazish paytlarida harbiy kiyimboshda bo‘lish majburiy hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlar boshlanishi oldidan o‘quvchilarni mashg‘ulot jarayonida o‘zlarini tutish qoidalari va xavfsizlik choralar qisqacha bayon etiladi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o‘t ochish mashqlari o‘quvchilarning o‘q otish qurolidan otish qoidalari va usullarini qay darajada o‘zlashtirib olganligini tekshirish va ularni jangovar o‘qlar bilan avtomatdan otish bo‘yicha dastlabki mashqlarga tayyorlash maqsadida o‘tkaziladi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish maxsus jihozlangan o‘qotish joylari (tir)da, xavfsizlik qoidalariiga rioya qilingan holda tashkil qilinadi. Otish xavfsizligi ta’milnagan o‘qotish joylarida (tir) otish mashqlarini bajarish va otish mashqlariga rahbarlikni o‘quvchilardan biriga topshirib qo‘yish qat’ian man qilinadi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlariga otish qoidalarini mukammal o‘rgangan, xavfsizlik qoidalariiga rioya qiladigan, otish tartibini biladigan o‘quvchilargina qo‘yiladi.

Qolgan o‘quvchilar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga yetgandan so‘ng darsdan tashqari tadbirlarda otish mashqlarini bajaradilar. Har bir kichik kalibrli miltiqdan yoki avtomatdan otish mashqini bajargandan so‘ng, guruh nishon oldiga olib kelinib otish natijalari ko‘zdan kechiriladi.

Avtomatda jangovar o‘qlardan otish mashqlari maxsus jihozlangan otish joylarida (tirlarda) yoki otish maydonlarida garnizon boshlig‘i (harbiy qism boshlig‘i) va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda xalq ta’limi organlarining hududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda tuman (shahar) Mudofaa ishlari bo‘limlari rejalar asosida o‘tkaziladi.

Otishni tashkil qilish va amalga oshirish tartibi «Quruqlikdagi qo‘sishlar otish qurollari, jangovar mashina va tanklardan otish

kurs»larida (KSSO, BM va TSV-95) belgilangan. Otish mashqlarni boshlashdan avval otish mashqlari rahbari o‘quvchilarning xavfsizlik qoidalarini, avtomatning tuzilishi va qismlarini, bir joydan turib paydo bo‘luvchi va harakatsiz nishonlarga o‘qotish tartib qoidalari bo‘yicha bilimlarini tekshiradi. Ushbu qoidalarni bilmagan o‘quvchilar avtomatdan jangovar o‘q bilan otish mashqlariga qo‘yilmaydi. Ta’lim muassasalaridan o‘qotish qurollari va o‘q-dorilar vaqtincha olib qo‘yilganligi sababli otish tayyorgarligi bo‘yicha o‘tiladigan nazariy mashg‘ulotlarda qurol-aslahalarning chizmalari va diafilmlardan amaliy mashg‘ulotlarda esa qurol-aslahalar granatalar va minalarning nusxalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Avtomat va GP-25 stvolosti granatamyotini o‘rganish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni harbiy garnizon boshlig‘ining buyrug‘i bilan ta’lim muassasasiga otaliqqa biriktirilgan harbiy qismda o‘tkaziladi. Ta’lim muassasining rahbari o‘quv qurol-aslahalarni ta’lim muassasalariga berish va ularni saqlash haqida maxsus buyruq yoki boshqa hujjat olmaguncha, uning tegishli vazirlik va tashkilotlardan ta’lim muassasasini maxsus tabelga muvofiq qurol-asla, artilleriya va muhandislik vositalari bilan ta’milnishini talab qilish huquqiga ega emas. Keyinchalik YOCHQBT o‘quv dasturining takomillashib borishi bilan ta’lim muassasalarida dastur talablari va vazifalarining hajmi ham o‘zgarib boradi.

**Nazorat mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish.  
O‘quvchilarning dasturni o‘zlashtirganlik darajasi bo‘yicha yakka  
tartibdagи bahosini aniqlash. DO‘M(y) ga umumiy baho.**

**YOCHQBT bo‘yicha o‘quvchilarning yillik va yakuniy bahosi.  
Harbiy rahbar va CHTO‘ tomonidan olib borilgan mashg‘ulot  
sifatini baholash. Ta’lim muassasasida YOCHQBTning umumiy  
holatini baholash**

**Nazorat mashg‘ulotlari** dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi» va «Amaliy-jismoniy tayyorgarlik» bo‘limlari bo‘yicha faqat o‘g‘il bolalar uchun dala o‘quv mashg‘ulotlari (yig‘ini) yakunida, «Harbiy xizmat asoslari» va «Fuqaro muhofazasi» bo‘limlari bo‘yicha esa mazkur bo‘limlar o‘qitilishi yakunlangandan keyin o‘qituvchilar tomonidan ta’lim muassasalarida o‘tkaziladi. .

Ta’lim muassasalarida «Harbiy xizmat asoslari» bo‘limi bo‘yicha o‘g‘il bolalar bilan, «Fuqaro muhofazasi» bo‘limi bo‘yicha esa o‘g‘il va

qiz bolalar bilan birga nazorat mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. O‘quvchilarni o‘quv materiallarini o‘zlashtirishini tekshirish va baholash, mahorat va ko‘nikmalarni egallashdagi o‘quv jarayonining majburiy elementlaridan hisoblanadi.

Muntazam nazorat – birinchi navbatda, o‘quvchilarning turli bosqichlarda bilim va mahoratlarini shakllanishini boshqaradi, nazorat katta umumta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bilim, mahorat va amaliy ko‘nikmalarni nazorat qilish va muntazam baholash to‘g‘ri va chuqur obyektiv olib borilishi, o‘quvchilar shaxsing yaxshi sifatlarini yuzaga keltirishga yordam beradigan bo‘lishi kerak. Ta’lim amaliyotida *joriy va yakuniy* nazoratlar keng qo‘llaniladi.

Harbiy xizmatga vatanparvar kishini tayyorlash bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni doimiy tekshirish har bir darsdagi ajratilgan vaqtida, so‘rov shaklida, tushuntirish jarayonida, materialni takrorlash, mustahkamlash hamda uy vazifasini tekshirishda bajariladi. *Joriy nazoratning* turli shakllarini birlashtirib foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyatini faollashtiradi. Joriy nazorat, barcha o‘tilgan mavzularning o‘lashtirilishini nazorat qilish maqsadida ham olib boriladi.

Harbiy rahbar, CHTO‘ mavzuning asosiy mazmunini bilmasdan turib, javob berib bo‘lmaydigan savol berishi mumkin. Bunday tekshirishlar o‘quvchilarni mantiqiy fikrlab, materialda asosiy ma’noni topishga o‘rgatadi. O‘qish vaqtini tejash maqsadida turli o‘qitish va nazorat qilish texnologik (innovatsion texnologiya) vositalarini keng qo‘llash mumkin:

*Yakuniy nazorat* har bir chorak yoki o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. Uning maqsadi – Vatan himoyachisi loyiq vatanparvar kishini tayyorlash bo‘yicha o‘qish jarayonida erishilgan natijalarni obyektiv baholash.

Joriy va yakuniy nazoratning keng tarqalgan shakli o‘quvchilarni *individual va frontal* so‘rov qilishdir. *Individual* so‘rovda o‘quvchi yozuv taxtasi oldida javob berib, zarur bo‘lsa, kerakli javoblarni yozib, chizib ko‘rsatadi. O‘quvchining javobini butun sinf eshitadi, javoblardan so‘ng o‘quvchilar bergen javoblar to‘ldiriladi, yo‘l qo‘yilgan xatolar tuzatiladi.

*Frontal* so‘rovda, odatda, hamma o‘quvchilar nazoratdan o‘tkaziladi. U yozma yoki og‘zaki bo‘lishi mumkin. O‘tilgan materiallarni to‘liq qamrab oladigan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik dasturining to‘liq yoki bir qismini o‘rganib bo‘lgandan so‘ng yakuniy

baholarni qo'yish uchun o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash maqsadida nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi.

O'quv materiallarining barchasini qamrab oladigan turli savolarni qo'yish tartibini puxta o'yab chiqilishi juda muhim ahamyatga ega. Bu mashg'ulotlarda har bir o'quvchi harbiy rahbar, CHTO'ning topshirig'i bo'yicha amaliy harakat (usul, meyor)larni bajarib, ta'lif dasaturi bo'yicha nazariy savolarga javob beradi.

Nazorat mashg'ulotlari o'quvchilar bilan usul va harakatlarning bajarilishini ta'minlaydigan, oldindan tayyorlangan va jihozlangan o'quv joylari, maydoncha va shaharchalarda olib boriladi.

Joriy nazorat, dastur bo'limlari bo'yicha qo'yilgan ma'lum bir savolga og'zaki javob berish tartibi quyidagicha bo'lishi kerak: *nazariy materiallarni* bayon etish yoki yozuv taxtasida masalani yechish, quroq texnika va priborlarning tuzilishini ko'rsatish orqali gapirib berish.

Dastlab butun guruh oldiga nazorat savoli qo'yish, keyin esa o'quvchilarni javob berishlari uchun yozuv taxtasini oldiga chiqarish tavsiya etiladi. Og'zaki javob berishda o'quvchining javobini to'g'riliqi, to'liq va ketma-ketligi, nizom va maxsus atamalarni ishlatsi, mustaqil fikr yuritishi, olingan bilimlarni amalda qo'llash ahamiyatini tushuntira olishi hisobga olinadi.

Usul va harakatlarni amaliy bajarilishi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishda asosiy usul va baho qo'yishning mezonini hisoblanadi. Usul va harakatlarni bajarish uchun topshiriq berishda harbiy rahbar, CHTO', o'quvchiga nimani bajarish kerakligini tushunib olishi va harakatlarni bajarishga tayyorlanish uchun vaqt beradi. O'quvchi tayyor bo'lganidan keyin harbiy rahbar, CHTO' o'quvchiga harakat (usul, meyor)larni bajarishi uchun buyruq beradi. Harakatlar bajarligandan keyin o'quvchiga baho qo'yiladi.

Bunda usul (harakatlar)ning to'g'ri bajarilganligi, bajarish tartibiga rioya qilinishi hamda nazariy bilimlardan amalda foydalanish mahorati inobatga olinadi. O'quv jarayonini tashkil etishda nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgalik bo'yicha mas'uliyatli davr hisoblanadi.

Nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilar dasturda ko'rsatilgan me'yorni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi.

*O'quvchilarning yakka tartibdagi bahosi* dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida uning har bir meyori bajarilganligi uchun olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

«*a'lo*» – agarda barcha tekshirilgan meyorlarning (mashq usul,

amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig‘i «a’lo» bahoga, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilgan bo‘lsa;

«yaxshi» – agarda barcha tekshirilgan meyorlarning 50 % dan ortig‘i «a’lo» va «yaxshi» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo‘lsa;

«qoniqarli» – agarda barcha tekshirilgan meyorlarning bajarilishiga qo‘yilgan «qoniqarsiz» baho bittadan ko‘p bo‘lmasa;

«qoniqarsiz» – me’yorlar bo‘yicha ikkita va undan ko‘p qoniqarsiz baho bo‘lsa.

**Ta’lim muassasalarida** «Harbiy xizmat asoslari» bo‘limi bo‘yicha o‘g‘il bolalar bilan «Fuqaro muhofazasi» bo‘limlari bo‘yicha esa o‘g‘il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

**Saf tayyorgarligi** – o‘quvchilar quyidagi saf usullari bo‘yicha tekshiruvdan o‘tadilar va baholanadilar:

- qad rostlash ;
- joyida turganda burilishlar ;
- harakat chog‘idagi burilishlar;
- shaxdam qadam;
- bosh kiyimsiz va bosh kiyim bilan joyida turganda va harakat chog‘ida harbiycha salomlashish;
- safdan chiqish, boshliq oldiga borish, safga qaytish.

Tekshirishni o‘quvchining tashki qiyofasini ko‘zdan kechirish bilan boshlash kerak. Qad rostlashni rahbar buyrug‘idan keyin o‘quvchi ning safdan chiqishiga qarab baholanadi. Har bir safda harakatlanish usullari bir-ikki marotaba takrorlanadi. **Usul (mashq va harakat)larni bajarish texnikasi quyidagicha baholadi:** 5 (a’lo), agarda usul saf nizomi talablariga binoan to‘g‘ri bajarilgan holda, 4 (yaxshi), agarda usul saf nizomi talablariga binoan to‘g‘ri bajarilib, ammo bir marta bo‘lsa ham xatoga yo‘l qo‘yilsa, 3 (qoniqarli), agarda usul saf nizomi talablariga binoan to‘g‘ri bajarilib, ikkita xatoga yo‘l qo‘yilsa, 2 (qoniqarsiz), agarda usul noto‘g‘ri bajarilsa yoki uch va undan ortiq xato qilinsa. Haraqatlarni bajarishda odatiy xatolardan: **Qad rostlashda** – oyoq uchlari yoyiq bo‘lib, front chig‘ida emas va kengligi tovon izi kengligida emas, ko‘krak ko‘tarilib qorin tortilmagan, qo‘l panjalari kaft bilan orqa tomonga qaratilgan, gavda old tomonga og‘ishmagan. **Joyida turib burilishlarda** – burilishda qo‘llar gavdadan uziladi, burilish butun gavda bilan bajarilmaydi, burilgandan ortdagи oyoq ixchamlik bilan joyiga qo‘yilmaydi, burilgandan keyin oyoq uchlari juda keng yoyilgan , bir chiziqda emas, qad rostlamaydi, bosh

oldinga og‘ishgan. ***Haraqat chog‘idagi burilishlarda*** – ortga burilish paytida o‘ng oyoq chap tomonga chiqarilmaydi va juda keng qadam qo‘yilib, burilish paytida gavda muvozanati yo‘qoladi, burilish 90° yoki 180° (gradus) bajarilmagan, oyoq va qo‘l harakatlarida bog‘liqlik yo‘q, bosh pastga egilgan. ***Shaxdam qadam tashlashda*** – gavda oldinga og‘ishmagan, oyoq tizzalari egiladi, oyoqni yerdan ko‘tarilishi 15 sm dan past, qadam uzunligi va surati saqlanmaydi, qo‘l harakatlari, belgilangan balandlikka ko‘tarilmaydi, qo‘lning aks harakati oxirigacha yetmaydi, qo‘l va oyoq harakatlarida bog‘liqlik yo‘q. ***Harakat chog‘ida harbiycha salomlashishda*** – salomlashish 3–4 qadamda emas. Oyoqni yerga qo‘yish bilan boshliqqa yuzlanish bir vaqtida emas, qo‘lni bosh kiyimga qo‘yish bilan chap qo‘l harakatini to‘xtalishi bir vaqtida emas, o‘ng qo‘lning o‘rta barmog‘i bosh kiyimning pastki qismiga tegib turmaydi, qo‘llar old tomonga harakatlanganda tirsaklari yelka chizig‘iga paralel emas.

***Safdan chiqish, boshliq oldiga borish, safga qaytishda*** – qo‘lni bosh kiyimning pastki qismiga qo‘yish bilan oyoq qo‘yish bir vaqtida emas, boshliq oldiga borishda 2–3 qadamdan ko‘proq yoki kamroq qadam qo‘yilgan, o‘rta barmoq bosh kiyim pastki qismiga tegib turmaydi, safga qaytishda qo‘lning tushirilishi chap oyoqni qo‘yishi bilan bir vaqtida bajarilmasligi va qadam vaqtidan avvalroq tashlanishi qo‘yiladigan bahoni pasaytirilishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning safda yurishlari ularning oltita saf usulini bajarishlarining har biri uchun olgan baholaridan kelib chiqib, individual baho qo‘yiladi va YOCHQBT mashg‘ulotlarida kiyiladigan kiyimbosh talabini bajarilishi hisobga olinadi:

«5» (a’lo) – agarda bajarilgan uslullar 50% «a’lo» bahoga bajarilsa, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilsa, «4»(yaxshi ) – agarda 50% dan kam bo‘limgan uslullar «a’lo» va «yaxshi» bajarilib qolganlari esa «qoniqarlidan» past bo‘lmasa, «3» (qoniqarli) – agarda biror usluldan «qoniqarsiz» baho olingan bo‘lsa, «2» (qoniqarsiz) – ikki va undan ortiq qoniqarsiz baho olgan bo‘lsa.

Agarda o‘quvchining kiyimboshi YOCHQBT mashg‘ulotlari uchun direktor buyrug‘i bo‘yicha belgilangan kiyimga mos kelmasa yoki o‘quvchi mashg‘ulotga dazmollanmagan, tartibsiz kiyimda kelsa, bu holda baho bir balga pasaytiriladi.

***Fuqaro mudofaasi bo‘yicha*** – nafas olish yo‘llari va tanani himoya qilish, individual himoya vositalarini kiyish bo‘yicha meyorlar, zararlangan havoda nosoz protivogazdan foydalanish.

Nazorat savolariga javob berishda – javobning to‘g‘riliqi, to‘la va ketma-ketligi, nizom va maxsus atamalarni talaffuz qilinishining to‘g‘riliqi, mustaqil fikrlash va xulosa, olgan bilimlarini amaliy qo‘llash hisobga olinadi. Javob qisqa, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak va quyidagicha baholanishi mumkin:

«5» (*a’lo*) – agarda o‘quvchi to‘g‘ri va to‘liq javob bergan bo‘lsa (asosiy va qo‘srimcha savolarga), nizom talablarini (tushunchalarini) aniq ifoda etib bersa, ularni qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy ximatchilar va ta’lim muassasalarining hayotidan misollar keltirib tasdiqlab bersa, zarur bo‘lganida javobini mashqlar bilan bajarib va vazifani hal qilib, ko‘rgazmali qurollardan foydalangan bo‘lsa, qurol-yaroq, priborlar, harbiy mulklarning tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlikka rioya qilib va havfsizlik choralariga to‘liq amal qilgan bo‘lsa.

«4» (*yaxshi*) – agarda o‘quvchi to‘g‘ri va to‘liq javob bergan bo‘lsa, biroq nizom talablarini (tushunchalarini) ifoda etishda bir oz noaniqlikka yo‘l qo‘yilsa, ularni qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy ximatchilar va ta’lim muassasalarining hayotidan misollar keltirishda qiyinchiliklar bilan tasdiqlab bersa, bundan tashqari javobni mashqlar bilan bajarishda va vazifani hal qilishda, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishda, qurol-yaroq, priborlar, harbiy buyumlarni tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlik bir oz noaniqlik bo‘lsa.

«3» (*qoniqarli*) – agarda o‘quvchi savolga to‘g‘ri javob berib, javobning to‘laligiga qo‘srimcha savolar yordamida erishilsa, amaliy misollarni tasdiqlab berishda ishonchsizlik bilan javob bersa, qurol priborlar, harbiy buyumlarni tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlikni **buzgan** bo‘lsa.

«2» (*qoniqarsiz*) – agarda o‘quvchi qo‘ylgan savolga noto‘g‘ri javob berib yoki nizom talablarini, hatto yordamchi savolar yordamida ham ifoda etib berolmasa, qurol-aslaha va harbiy buyumlarni tuzilishini tushuntirib berolmasa, shuningdek, hafsizlik qoidalarini buzsa.

**Xalqaro gumanitar huquq asoslari bo‘yicha** – o‘quv materiallarini mazmun mohiyatidan chetlamasdan, o‘z so‘zlarini bilan to‘liq bayon etishi, O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining ichki xizmat nizomining 19-moddasi talablarini chuqur anglab yetganligini ifodalay olishi, shuningdek, egallagan bilimlarini xalqaro maydonlarda kechayotgan voqealar bilan o‘rinli bog‘lay olishi hisobga olinib quyidagicha baholanadi :

«5» (*a’lo*) – agar talaba berilgan savollarning har biriga o‘quv materiallarini mazmun mohiyatini buzmasdan o‘z so‘zllari bilan

to‘liq bayon etib O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining ichki xizmat nizomining 19-moddasi talablarini chuqur anglab yetganligini ifodalay olsa, shuningdek, egallagan bilimlarini xalqaro maydonlarda kechayotgan voqealar bilan o‘rinli bog‘lay olsa;

«4» (*yaxshi*) – agar talaba berilgan savollarning har biriga o‘quv materiallarini mazmun mohiyatini buzmasdan o‘z so‘zlari bilan to‘liq bayon etib O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining ichki xizmat nizomining 19-moddasi talablarini chuqur anglab etganligini ifodalay olsa, shuningdek, egallagan bilimlarini xalqaro maydonlarda kechayotgan voqealar bilan bog‘lash uchun keltirgan misollari bir oz o‘rinsiz bo‘lsa;

«3» (*qoniqarli*) – agar talaba berilgan savolarning har biriga o‘quv materiallarini mazmun mohiyatini buzmasdan o‘z so‘zlari bilan to‘liq bayon etib O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining ichki xizmat nizomining 19-moddasi talablarini chuqur anglab yetganligini ifodalashda, shuningdek, egallagan bilimlarini xalqaro maydonlarda kechayotgan voqealar bilan bog‘lashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa;

«2» (*qoniqarsiz*) – agar talaba berilgan savollarning har biriga o‘quv materiallarini mazmun mohiyatini to‘liq bayon eta olmasa, bayon etilganlarni xalqaro maydonlarda kechayotgan voqealar bilan o‘rinsiz bog‘lasa.

Ta’lim muassasalarida bitiruvchi kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo‘limlarida ko‘rsatilgani bo‘yicha nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan *uch kunlik dala o‘quv mashg‘ulot (yig‘in)lari o‘tkaziladi*. Bu mashg‘ulot (yig‘in)lar quyidagicha o‘tkaziladi:

- umumta’lim maktablarida 11-sinf o‘quvchilari bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan mart va may oylarida;
- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishning oxirgi davrida o‘tkaziladi;
- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o‘quv punktlaridagi o‘quvchi o‘g‘il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o‘tkaziladi.

*Uch kunlik dala o‘quv mashg‘uloti (yig‘ini) – (DO‘M) quyidagi tartibda olib boriladi:*

- bir vaqtning o‘zida barcha yoki bir nechta ta’lim muassasalari tuman (shahar) o‘quv punktlarining o‘quvchi bolalarini mudofaa sport

sog‘lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo‘lgan harbiy qismлага yig‘ish yo‘li bilan;

– bitta ta’lim muassasasining (TM) o‘quvchi bolalarini MSSL baza-sidagi o‘quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig‘ish yo‘li bilan;

– har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg‘ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig‘ish yo‘li bilan.

**DO‘M(Y)** o‘tkazish vaqtini va tartibini Mudofaa ishlari bo‘limlari tuman (shahar) xalq ta’limi organlari, viloyat (shahar) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig‘i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi.

#### **DO‘M(Y) uchun umumiy baho quyidagicha qo‘yiladi:**

**«a’lo»** – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyor-garligi» bo‘limlari bo‘yicha olingan baho – «a’lo» «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limidan esa «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

**«yaxshi»** – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi», bo‘limlari bo‘yicha olingan baho «yaxshi» bahodan kam bo‘lmasa, «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limidan esa «qoniqarli»dan kam bo‘lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

**«qoniqarli»** – agarda «Harbiy ish asoslari»dan tashqari biron bir boshqa bo‘limdan bitta «yaxshi» bahosi yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

**«qoniqarsiz»** – agarda ikki va ortiq bo‘limlar bo‘yicha olingan baho «qoniqarsiz», odob-axloqi esa «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» bo‘lsa yoki «qoniqarli» baho, ammo «qoniqarsiz» odob-axloqqa ega bo‘lsa.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida nazorat meyorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo‘yicha bajariladi.

#### **«Harbiy ish asoslari» bo‘limi bo‘yicha:**

– nishonni ilg‘ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish;

– o‘t ochish joyini tanlash, yotib otish uchun xandak (okop) tayyorlash;

– jang maydonida avtomatdan o‘t ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish);

**«Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha (4-mavzu, 13 – 14-mashg‘ulotlarda o‘tkaziladi): avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylash (KA)**

- avtomatdan otish bo‘yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqdan otish mashqini bajarish);
- o‘qdonga xonaki o‘qlarni joylash;
- portlovchi qo‘l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo‘yicha 1(2)-mashqlarni bajarish.

**«Amaliy-jismoniy tayyorgarlik» bo‘limi bo‘yicha:**

- turnikda tortilish;
- 1000 yoki 3000 metrga yugurish;
- to‘sqli yo‘lakdan oshib o‘tish, umumnazorat mashqini bajarish;
- qo‘l kurashi (jangi) amallarini bajarish.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan komissiya tarkibi o‘tkazadi. O‘quvchi bolalarga nazorat mashg‘ulotlarida qo‘yilgan baholar qaydnomasi komissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta’lim muassasasi direktoriga jo‘natiladi. DO‘M(Y) ga qo‘yilgan umumiy baho sinf jurnaliga DO‘M(Y) belgisi bilan yozib qo‘yiladi. *Viloyat (tuman, shahar) hokimligi tomonidan tashkil etilgan o‘quv punktlarida YOCHQBT dan o‘tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo‘limlar bo‘yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o‘tkaziladi, ularning nazorat mashg‘ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi. MSSL nazorat meyorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo‘yicha boshqarma, jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi, MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo‘lgan komissiya tuziladi. YOCHQBT bo‘yicha yillik (kurs) baho o‘quvchilarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo‘yiladi.*

**YOQCHBT bo‘yicha yakuniy baho** DO‘M(Y) umumiy bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo‘yiladi va quyidagicha aniqlanadi:

**«a’lo»** – agarda DO‘M(Y) uchun «a’lo» baho, shuningdek, YOCHQBT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa;

**«yaxshi»** – agarda DO‘M(Y) uchun «yaxshi» baho bo‘lsa, shuningdek BCHT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

**«qoniqarli»** – agarda DO‘M(Y) uchun «qoniqarli» baho bo‘lsa, shuningdek, BCHT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«**qoniqarsiz**» – agarda DO‘M(Y) uchun yoki yillik (kurs) bahosidan biron tasi «**qoniqarsiz**» bo‘lsa.

YOCHQBTning yakuni bo‘yicha ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i tuziladi (tayyorlanadi). Bu buyruqqa DO‘M(Y) jarayonida o‘quvchilar ko‘rsatgan natijalar tahliliga asoslanib, shuningdek, joriy o‘quv yili YOCHQBT dasturining qay tartibda bajarilganligiga qarab YOCHQBTning yakuniga baho beriladi.

*Harbiy rahbar va CHTO‘ tomonidan olib borilgan mashg‘ulot sifatini nazorat qilish rejadagi mashg‘ulotlar davomida amalga oshiriladi.* Mashg‘ulotning o‘rnini o‘zgartirish taqiqlanadi. Agar nazorat qilish kuni haftalik rejaga muvofiq bir nechta sinf (guruh)lar bilan turli mavzularda mashg‘ulot o‘tish kerak bo‘lsa, bunday holda nazorat qiluvchi tomonidan mashg‘ulotlarning qaysi biri tekshirilishi belgilanadi. Mashg‘lot (dars)ning tahlili darhol o‘tkazilmaydi bunda dastlab so‘z mashg‘ulot rahbariga, undan keyin so‘z ta’lim muassasasi direktoriga beriladi. Bulardan keyin nazorat qiluvchi (tekshiruvchi) o‘tilgan mashg‘ulot (darsni)ni tahlil qilib yakuniy xulosalarni chiqaradi. Mashg‘ulot (dars)ga baho berishda:

- o‘quv va tarbiyaviy maqsadlarni, shuningdek, mashg‘ulotni olib borish uslublarini dastur talablariga muvofiqligi;
- mashg‘ulotni g‘oyaviy darajasi, tarbiyaviy ahamiyati hamda moddiy ta‘minotning to‘laqonligi va ulardan mashg‘ulotda foydalanishni;
- mashg‘ulotning strukturasini saqlashni va vaqtini taqsimlanishi, o‘quv materialini ketma-ketlik tartibi, tushunarli qilib yetkazilishi, to‘laqonligi va o‘quv savollariga ishlov berilishi;
- hayotiylik va avval o‘rganilgan materiallar bilan bog‘langanligi;
- usul va harakatlarni amaliy ko‘rsata bilishni tashqilashni, mavzuni asosiy tushunchalarini ifodalanishi, xulosa va tushunchalarni lo‘nda ta’riflanishi;
- fanlararo aloqalarni amalga oshirilishi;
- barcha mashg‘ulotlar jarayonida o‘qitishni individuallashtirilishi;
- o‘quvchilarni anglash faoliyatlarini faollshtirish usullari;
- mashg‘ulotdagи intizom va o‘quvchilar tomonidan nizom talablarining bajarilishi;
- yangi materiallarni mustahkamlash uslublari;
- mashg‘ulotda yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishi va zamonaviy ta’lim texnika vositalaridan samarali foydalana bilishi alohida inobatga olinadi.

**Mashg‘ulot (dars)ni olib borish sifati quyidagicha baholanadi:**

**«A’lo»** – agar mashg’ulot mazmuni, o’quv va tarbiyaviy maqsadlari, shuningdek, mashg’ulotni olib borish uslublar dastur talablariga muvofiq kelgan, mashg’ulotni g’oyaviy darajasi, tarbiyaviy ahamyati, hamda moddiy ta’mnoti mashg’ulotda to’laqonli foydalanilgan, mashg’ulotning strukturasi saqlangan va vaqt to‘g’ri taqsimlangan, o’quv materiallari ketma-ketlik tartibiga amal qilingan ular tushunarli qilib yetkazilgan, o’quv savollariga yaxshi to’laqon ishlov berilgan, hayotiylik va avval o’rganilgan materiallar bilan bog’langan, usul va harakatlar amaliy ko’rsatilishi tashkillangan, mavzuni asosiy tushunchalar ifodalangan, xulosa va tushunchalar lo’nda ta’riflangan, fanlararo aloqalar amalga oshirilgan, mashg’ulotlar jarayonida o’qitish individuallashtirilgan, o’quvchilarni anglash faoliyatlarini faollashtirish usullari muvaffaqiyatli qo’llanilgan, mashg’ulotda intizom saqlangan va o’quvchilar tomonidan nizom talablari bajarilgan, mashg’ulotda yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalar qo’llanilgan va zamonaviy ta’lim texnika vositalaridan o’z o’rnida keng va samarali foydalangan, yangi materiallarni mustahkamlash uslublari to‘g’ri qo’llanilib, o’quvchilar o’quv materiallarini va amaliy harakatlarni o’zlashtirgan bo’lsa;

**«yaxshi»** – agar tayyorlangan o’quv materiallari mashg’ulotda to‘liq foydalanimagan yoki mashg’ulot strukturasi saqlanmagan yoki usul va harakatlarni ko’rsatish aniq bo’lmagan bo’lsa;

**«qoniqarli»** – agar o’quv materialini bayon qilish ketma-ketligi buzilgan (usul va harakatlar mashqi) yoki xulosa va ta’riflar aniq berilmagan yoki o’quv materiallari hayotiylik va avval o’rganilgan materiallar bilan bog’lanmagan bo’lsa;

**«qoniqarsiz»** – agar o’tkazilga mashg’ulotga qoniqarli baho qo’yib bo’lmasa.

Ta’lim muassasasi YOCHQBT bo'yicha uch yil ichida bir martadan kam bo’lmagan har tomonlama tekshiruvdan o’tadi. O’quv punktlari tekshiruvdan har yili o’tadi. Ta’lim muassasasini va o’quv punktini tekshirish uchun bir kun ajratiladi. Shu qatorda o’quv jarayonini tashkil etilishi, dasturning bajarilishi va o’quvchilarni o’zlashtirish sifati, harbiy rahbar va CHTO‘, YOCHQBT instruktorlarining uslubiy tayyorgarlik dasturi va ular tomonidan olib borilayotgan mashg’ulotlar sifati, o’quv-moddiy baza hamda vatanparvarlik ishlarining holati, YOCHQBT boshqarilish sifati ham tekshiriladi.

Ta'lim muassasasi va o'quv punktini YOCHQBT bo'yicha umumiy holatini baholash o'quvchilarning dasturni o'zlashtirish sifatidan, O'MB holatidan, o'quv punktlarida esa yoshlarni jismoniy tayyorgarlik darajasidan kelib chiqadi. Ta'lim dasturini rejalashtirish masalalari bo'yicha tekshiruv natijalariga, shuningdek, harbiy rahbar va CHTO' tomonidan olib borilgan mashg'ulotning sifati uchun qo'yilgan baholarga asoslanib ta'lim muassasasi direktori tomonidan YOCHQBT bo'yicha boshqaruv ishlari va harbiy rahbar, CHTO' ning kasbiy, uslubiy tayyorgarligi to'g'risida xulosalar qilish mumkin.

Dasturni o'zlashtirish sifati (bilim, malaka va ko'nikma) mashg'u-lotlarda individual baho qo'yish bilan tekshiriladi. O'quvchilar olgan individual bahoga asoslanib ta'lim muassasasi va o'quv punktlarida dasturni o'zlashtirish sifatiga baho chiqariladi.

**«a'lo»** – agar tekshirilganlarni 80 % «qoniqarli» baho olgan bo'lsa, shu qatorda 50 % dan kam bo'limgan o'quvchilar «a'lo» baho olgan bo'lsa;

**«yaxshi»** – agar tekshirilganlarni 70 % «qoniqarli» baho olgan bo'lsa, shu qatorda 50 % dan kam bo'limgan o'quvchilar «a'lo» va yaxshi baho olgan bo'lsa;

**«qoniqarli»** – agar tekshirilganlarni 60 % «qoniqarli» baho olgan bo'lsa;

**«qoniqarsiz»** – agar tekshirilganlarni 40 % «qoniqarsiz» baho olgan bo'lsa.

Ta'lim muassasasi va o'quv punktiga YOCHQBT bo'yicha dasturni o'zlashtirish sifatiga baho qo'yish uchun ikki va undan ortiq guruhlar, o'quv punktlarida bitta yoki ikkita guruh tekshiriladi. O'quvchilarning bilim va malakalari barcha o'tilgan mavzu materiallari bo'yicha tekshiriladi.

**Ta'lim muassasasi va o'quv punkti O'MBning holati quyidagicha baholanadi:**

**«a'lo»** – agar jihozlangan joylardan: 1) harbiy xona; 2) o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqqlarni saqlash xonasi; 3) otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (strelkoviy tir); (ta'lim muassasasida otish joyining mavjudligi, shuningdek, bir nechta ta'lim muassasalari katta bo'lgan umumiy otish joyiga ega bo'lishi, uning joylashuvi esa o'quv reja va mashg'ulotlar jadvalida ko'zda tutilgan otish to'garagi ishlarini o'z vaqtida boshlash imkonini bera olishi ham inobatga olinadi, agar ta'lim muassasasining joylashuv shart-sharoitlari otish joyiga ega bo'lishning imkonini bermasa hokimlik

qarori bilan bu ta'lim muassasasi, o'quvchilarga otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun boshqa bir otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (otish – strelkoviy tir)ga ega bo'lган ta'lim muassasasiga (tashkilotga) biriktirib qo'yiladi; 4) saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon; 5) vzzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi; 6) qurollarni, tabelli o'quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o'rgatadigan joy. Ta'lim muassasasida qurol, tabelli o'quv-qurollarni va texnikalarni mavjud emasligi qo'yiladigan bahoga ta'sir etmaydi, agar MIB tomonidan berilmagan yoki IBB tomonidan olib qo'yilgan bo'lsa, o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqqlarni saqlash xonasi esa qo'yilgan talabblarga javob bersa, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot o'tkazish uchun qo'chma jihozlar majmuasi va qo'chma jihozlar anjomlariga kiradigan anjomlar: nishonlar majmuasi, joylardagi buyumlar va mo'ljal olish uchun maketlar, ko'rsatuvchi belgilar, qo'l granatasining balvankalari, guruh bayroqchalari, tayanch majmuasi, choyshab, bir xil mo'ljalga olish uchun ekranlar, seksiyaga anjomlar majmuasi, granata va magazin (o'qdonlar)lar uchun sumka (remen), piyodachilarning kichik lopatasi uchun niqob (chexol)chalar. Ta'lim muassasasi dastur hajmidagi, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo'yicha amaliy faoliyatlarini mashq qilishni ta'minlaydigan, o'quv punktlarida uchun esa bundan tashqari jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot o'tish uchun joyga ega bo'lsa;

**«yaxshi»** – agar «a'lo» baho qo'yilishi uchun bo'lishi kerak bo'lган O'MB barcha elementlari mavjud bo'lsa, biroq vzzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish va qurollarni, tabelli o'quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o'rgatadigan joy to'liq jihozlanmagan, shuningdek, ko'chma jihozlardan ayrimlari yetmasa;

**«qoniqarli»** – agar harbiy xona, o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqqlarni saqlash xonasi, otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (otish – strelkoviy tir), saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon, tabelli o'quv-qurol va texnikalar bo'lsa, va ularning hisobini yuritish, saqlash, talabga muvofiq tashkilanmagan bo'lsa;

**«qoniqarsiz»** – agar «uch» baho qo'yilishi uchun bo'lishi kerak bo'lган O'MB elementlaridan birontasi bo'lsa ham mavjud bo'lmasa yoki tabelli o'quv-qurol va texnikalarni hisobini yuritishga, saqlashga,

qo‘yilgan talablariga muvofiq tashkillanmagan bo‘lsa. (IIB buyrug‘i bilan tasdiqlangan quroq olish, tashib keltirish, saqlash, o‘qotar qurollarni, ularning o‘q-dorilarini hisobini yuritish va to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi).

**O‘quv punklarida yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holatini baholash quyidagicha bo‘ladi:**

**«a’lo»** – agar 90 % va undan ko‘proq yoshlar nazorat tekshiruvida «Alpomish va Barchinoy» me’yorlarini bajarsa;

**«yaxshi»** – agar 80 % va undan ko‘proq yoshlar nazorat tekshiruvida «Alpomish va Barchinoy» me’yorlarini bajarsa;

**«qoniqarli»** – agar 70 % va undan ko‘proq yoshlar nazorat tekshiruvida «Alpomish va Barchinoy» me’yorlarini bajarsa;

**«qoniqarsiz»** – agar 70 % kam yoshlar nazorat tekshiruvida «Alpomish va Barchinoy» me’yorlarini bajarsa.

Ta’lim muassasasining YOCHQBT bo‘yicha **umumiy holatini baholanishi** quyidagicha bo‘ladi:

**«a’lo»** – agar o‘quvchilarning dasturni o‘zlashtirish sifati «a’lo» O‘MB holati «yaxshi»dan kam emas, vatanparvarlik ishlari «o‘rta» baholansa, bundan tashqari o‘quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi»dan kam bo‘lmasa;

**«yaxshi»** – agar o‘quvchilarning dasturni o‘zlashtirish sifati «yaxshi» O‘MB holati «qoniqarli»dan kam emas, o‘quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi» bo‘lsa;

**«qoniqarli»** – agar o‘quvchilarning dasturni o‘zlashtirish sifati, O‘MB holati, o‘quv punktlarida yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «qoniqarli»dan kam bo‘lmasa;

**«qoniqarsiz»** – agar ko‘rsatkichlardan birontasi «qoniqarsiz» baholansa.

Tekshirishdagi xususiy masalalar bo‘yicha ta’lim muassasasi va o‘quv punktlarining YOCHQBT umumiy bahosi qo‘yilmaydi. Tekshiruvning yakunida ta’lim muassasasi va o‘quv punktlarida tekshiruv bo‘yicha tahlil o‘tkaziladi.

Tahlilda har bir bo‘lim bo‘yicha yaxshi va yomon tomonlari aytilib, YOCHQBT holatini yaxshilash borasida takliflar bildiriladi. Bo‘limlar tekshiruvi bo‘yicha yakka va umumiy baho, shuningdek, ta’lim muassasasi va o‘quv punkting umumiy bahosi komissiya vakili tomonidan tasdiqlangandan keyin e’lon qilinadi. YOCHQBT holati tekshirilgandan keyin tuman va shaharlarda tuman (shahar) mudosaa ishlari bo‘limlari, xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalari boshqarmalarining tekshiruv natijalari

to‘g‘risida ma’lumot, axborotlar respublika, o‘lka va viloyatlar bo‘yicha komissiya raisiga taqdim etiladi.

Harbiy rahbar, CHTO‘ larni, MSSL boshliqlarini, «Tibbiy bilim asoslari»dan mashg‘ulot olib boradigan o‘qituvchilarning malakasini oshirish YOCHQBT bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish, o‘quv jarayonini tashkil etish sifatini yaxshilash maqsadida o‘tkaziladi. Pedagogik va harbiy bilimlarni oshirish, yoshlarni o‘qitish bo‘yicha uslubiy malakalarni takomillashtirish, harbiy rahbar, CHTO‘ tomonidan yoshlarni tarbiyalashda o‘qitish uslublarini qo‘llashdagi tushunchalarning birligini ta’minalash, tajribalarini orttirish va ilg‘or uslublarni vatanparvarlik va o‘qitish, tarbiyalash ishlarida YOCHQBT amaliyotiga joriy qilish. Harbiy rahbar, CHTO‘larini malakasini oshirish o‘z ichiga quyidagilarni oladi: davomiyligi bir oy bo‘lgan tayanch yig‘inlari (MO va QT kursi) va yiliga o‘tkaziladigan besh kunlik o‘quv metodik mashg‘ulotlar, ta’til vaqtida o‘tkaziladigan uch kunlik seminarlar; oyiga bir marta bo‘ladigan bir kunlik o‘slubiy mashg‘ulotlarni; malaka oshirish institutlarida, shuningdek, ta’lim muassasasidagi fanlararo komissiya ishlarida qatnashish va harbiy rahbar, CHTO‘ larni mustaqil ishlarini.

Lavozimga yangi tayinlangan yoki ish boshlaganiga bir yil to‘limganlar bilan tayanch yig‘inlari O‘R MV bosh shtabining boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan dastur bo‘yicha har yili avgust oyida o‘tkaziladi. Tayanch yig‘inlarida mashg‘ulotlarni YOCHQBT bo‘yicha inspektorlar va tajribali harbiy rahbar, CHTO‘ lar tomonidan tashkil etiladi va olib boriladi. Ayrim mashg‘ulotlarni olib borish uchun garnizon boshliqlari (harbiy qism komandirlari) ning kelishuvi bilan harbiy qism, harbiy o‘quv yurti va MIB ofitserlari jalb qilinishi mumkin. Yig‘inlarda (MO va QT kurslarida) harbiy rahbar, CHTO‘ lar boshqaruv hujjatlari va dastur, talablarini, pedagogika va psixologiya asoslarini, o‘rganadilar, harbiy bilim va uslubiy malakalarini takomillashtiradilar, ta’lim muassasasidagi vatanparvarlik ishlarini tashkil etish va o‘tkazish uslublari bilan tanishadilar. Tayanch yig‘ini (MO va QT kursi) yetakchi pedagogika universitetlari qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash fakultetlarida tashkil etiladi va o‘tkaziladi. Tibbiy bilim asoslari o‘qituvchilari bilan bir kunlik uslubiy mashg‘ulot o‘quv yilining boshida va qishki yoki yozgi ta’til vaqtlarida o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlar shahar, tuman sog‘liqni saqlash boshqarmalari, xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rta maxsus, kasbhunar ta’lim muassasalari boshqarmalari va MIB bilan hamkorlikda

o'tkaziladi. MSSL boshliqlari harbiy rahbar, CHTO'lar bilan o'tkaziladigan bir kunlik mashg'ulotlarga jalb qilinishi mumkin. MSSL boshliqlari va ularning o'rindbosarlarining uslubiy tayyorgarligi tuman, shahar hokimligining qarori bo'yicha ta'lim muassasalarining harbiy rahbar, CHTO' lari bilan birgalikda o'tkaziladi. Harbiy rahbar, CHTO' lari, MSSL boshliqlari, va «Tibbiy bilim asoslari»dan mashg'ulot olib boradigan o'qituvchilarni uslubiy ishlarini tashkil etish va olib borishda xalq ta'limi bo'limlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklarga yordam ko'rsatish uchun MIB qoshida shtatdan tashqari **uslubiy kengash** tushkil qilinadi. Bu kengashga rahbarlik faoliyatini MIBB amalga oshiradilar. Shtatdan tashqari uslubiy kengash tarkibi o'zining ichiga MIB ofitserlarini, xalq ta'limi bo'limlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklardan Sog'liqni saqlash vazirligi, Sport va madaniyat ishlari vazirligi, MK «Vatanparvar» tashkiloti xodimlarini va eng yaxshi uslubiyotchi – harbiy rahbar, CHTO'larni, shuningdek, generallar, istefodagi, zaxiradagi ofitserlarni, harbiy qism va harbiy o'quv yurtlarining ofitserlarini oladi. Shtatdan tashqari uslubiy kengash tarkibini xalq ta'limi bo'limlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi va ta'lim muassasasi ularning qaramog'ida bo'lgan boshqa manfaatdor vazirliklar bilan kelishgan holda MIBB tasdiqlaydi. Shtatdan tashqari uslubiy kengashning raisi etib MIB ofitseri tayinlanadi. MIB tashkil etilgan shtatdan tashqari uslubiy kengashga quyidagilar yuklatiladi: – Harbiy rahbar, CHTO' lari, MSSL boshliqlari va «Tibbiy bilim asoslari»dan mashg'ulot olib boradigan o'qituvchilari bilan o'quv-uslubiy yig'inlar va uslubiy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish.

Ta'lim muassasalari va MSSL da yoshlarni YOCHQBT, vatan-parvarlik tarbiyasi, jismoniy tayyorgarligini yo'lga qo'yish bo'yicha ilg'or tujribalarini o'rganish, boyitish va ularni targ'ibot qilish.

**Besh kunlik** o'quv uslubiy yig'inlar barcha harbiy rahbar, CHTO' lar bilan xalq ta'limi bo'limlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi va ta'lim muassasasi ularning qaramog'ida bo'lgan boshqa manfaatdor vazirliklar bilan kelishuviga muvofiq va MIBB tomonidan tasdiqlangan dastur bo'yicha o'quv yilining boshida o'tkaziladi. Bu yig'inlarda YOCHQBT ning yakuni qilinadi va yangi o'quv yiliga vazifalar belgilanadi, tashkiliy, uslubiy hujjatlar o'rganiladi, ko'rgazmali, amaliy va boshqa mashg'ulotlar o'tkaziladi,

yig‘in ishtiroqchilari o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha bir-birlari bilan tajriba almashadilar.

Harbiy rahbar, CHTO‘ lar bilan *uch kunlik* uslubiy mashg‘ulotlar vaqt-i-vaqt bilan qishki va yozgi ta’til kunlarida o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlarda harbiy rahbar, CHTO‘lar bilan YOCHQBT o‘quv dastur mavzularini o‘qitish va o‘quvchilarini vatanparvarlik tarbiyasi masalalari yuzasidan tajriba almashadilar. Seminar mashg‘ulotlarni qaysiki ta’lim muassasalari qaramog‘ida bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalar tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Harbiy rahbar, CHTO‘ lar bilan *bir kunlik* uslubiy mashg‘ulotlar har oyda bir marta MIB, xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rtta maxsus, kasbhunar kollejlarning direktorlari bilan hamkorlikda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘tkazish kunini xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rtta maxsus, kasbhunar ta’lim muassasalarining boshqarmalari bilan kelishilgan holda MIB belgilaydi. Shu kuni harbiy rahbar, CHTO‘ lar bilan YOCHQBT o‘quv dasturidagi mavzular bo‘yicha seminarlar, ma’ruzalar, ochiq darslar, yo‘riqli, uslubiy, ko‘rgazmali, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarning umumiy boshlanishini o‘tkazishda iste’fodagi va zaxiradagi ofitserlar, generallar, yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan harbiy rahbarlar, CHTO‘ lari, shuningdek, harbiy qism va harbiy o‘quv yurtlarining ofitserlari jalb qilinadi. Harbiy rahbar, CHTO‘ lar YOCHQBT, jismoniy madaniyat, tibbiy bilim asoslari bo‘yicha uslubiy komissiyasida ishtiroq etadi. Ushbu komissiyaning asosiy vazifasi YOCHQBT, jismoniy tarbiya, tibbiy bilim asoslari o‘qituvchilarini g‘oyaviy-siyosiy darajalarini ko‘tarish, ularning uslubiy malakalarini takomillashtirish, o‘quvchilar bilan ishlashdagi o‘quv va tarbiyaviy ishlarni eng ilg‘orlarini o‘rganish va targ‘ibot qilishdir.

Harbiy rahbar, CHTO‘ uchun uslubiy tayyorgaliklari (individual ishlarni bajarish, ilg‘or tajribalarni boyitish, YOCHQBT metodikasining ayrim masalalarini ishlab chiqish, uslubiy ishlanmalarni tuzish) va O‘MB takomillashtirishga, ta’lim muassasalarida haftada bir kun vaqt ajratiladi.

Harbiy rahbar, CHTO‘ lar bilan davomiyligi bir oy bo‘lgan malaka oshirish kurslari xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rtta maxsus, kasbhunar ta’lim muassasalari tomonidan o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida, tayanch pedagogik universitetlar qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash fakutetlarida tasdiqlangan dastur bo‘yicha tashkil qilinadi va olib boriladi. Harbiy rahbar, CHTO‘ lari bunday kurslarga har uch yilda

bir marotiba jalb qilinadi. Harbiy rahbar, CHTO‘ larga ulubiy ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishda MIB qoshidagi shtatdan tashqari uslubiy kengash yordam ko‘rsatadi.

Vazirlar kengashining qaroriga asosan harbiy rahbar va CHTO‘lar attestatsiya joriy qilinadi. Attestatsiya natijasiga ko‘ra «harbiy rahbar va CHTO‘– uslubchi» va «Katta harbiy rahbar va katta CHTO‘» unvoni beriladi.

Umuman olganda ta’lim muassasalarida yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil qilinishida «YOCHQBT» o‘quv dasturining talablari, «YOCHQBT»ni ta’lim muassasalari va «MSSL» dagi hajmi va vazifalaridan kelib chiqadi va O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997-yildagi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi hamda 2002-yilning 12-dekabrida qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida» gi qonunlarini hayotga tatbiq etishni ko‘zda tutadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. YOCHQBT qanday qonunlarga asoslanib tashkil etiladi va olib boriladi?
2. YOCHQBT o‘quv dasturining talablari, hajmi va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. YOCHQBT bo‘yicha nazorat turlarini va o‘tkazilish tartibini aytib bering.
4. Nazorat mashg‘ulotlarida o‘quvchilar bajaradigan usul va harakatlar, meyorlarini aytib bering.
5. O‘quvchilarni individual tartibda baholash tartibini aytib bering?
6. DO‘M(y) ga qo‘yiladigan umumiy baho qanday tartibda qo‘yiladi?
7. YOCHQBT bo‘yicha yillik (kurs) va yakuniy baho qo‘yish tartibini aytib bering.
8. Mashg‘ulot o‘tkazish sisatiga buho qo‘yish tartibi va baho qo‘yillishida hisobga ollnadijan holatlar nimalardan iborat bo‘ladi?
9. O‘quv dasturini o‘zlashtirish sisatiga, O‘MB, jismoniy tayyorgarlik va YOCHQBT ni umumiy holatini buholanish tartibini aytib bering.
10. Harbiy rahbar, CHTO‘ lurni malakasini oshirish tartibini aytib bering.

*Tayanch iboralar: Huquqiy asoslar, nazorat turlari, dastur talablari, usul va harakatlar, meyorlar, baholash tartibi.*

---

## **4-§. TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISH. REJALASHTIRISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» chaqiriq yoshigacha va chaqiriq yoshida bo'lgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lumi o'quv muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar quroq va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat.

Yoshlarga harbiy ta'lum berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shinlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun xalq ta'lumi bo'limlari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lum muassasalari YOCHQBT ni tashkil qilinishini va o'tkazilishini yuqori saviyada bo'lishini ta'minlashi shart.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning sifati, tarbiyaviy ahamiyati, harbiy rahbar harbiy va CHTO'ning kasbiy jihatdan tayyorgarlik darajasiga, pedagogik malakasiga, uslubiy mahoratiga, shuningdek, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Bunday vazifalarni bajarish faqat mukammal tayyorgarlik tizimi va uslubiyoti, ta'luming samarali vositalari, ilmiy asosda yaxshi tashkil qilingan rahbarlik va yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi ta'minlanganda amalga oshadi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayoni YOCHQBT dasturi va Xalq ta'lumi, Oliy va o'rta maxsus ta'lum, Mudofaa vazirliklari buyruqlari, me'yoriy hujjatlari va o'quv-uslubiy tavsiyalariga ko'ra harbiy rahbar va CHTO' tomonidan rejorashtiriladi va tashkil qilinadi.

Har bir ta'lum muassasasida yarim yil yoki bir butun o'quv yil uchun YOCHQBT ning haftalik va tematik reja tuziladi. Joriy yilga tematik

rejani chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o‘qituvchisi O‘zbekiston Respublikasi YOCHQBT dasturi va ta’lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan haftalik reja asosida ishlab chiqadi.

Tematik reja (1-ilova) o‘quv yiliga to‘liq tuzilib, uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulotlari (yig‘ini)ni o‘z ichiga oladi. Tematik reja har yili Mudofaa vazirligi va boshqaruvchi hujjatlarning talablari asosida va CHXT faqultetlari (kafedralari), oliy ta’lim muassasalari hamda qo‘sishlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda har yili yangilanib turiladi.

Tematik rejada quyidagilar aniqlanadi: mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv vaqtlanining taqsimoti, mashg‘ulotlarni o‘rganish ketma-ketligi, mashg‘ulotning o‘quv va tarbiyaviy maqsadlari, o‘quvchilarga mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar, adabiyotlar nomlari, shuningdek, uslubiy ko‘rsatmalar va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Tematik rejalar harbiy rahbar, CHTO‘ tomonidan YOCHQBT dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tuziladi.

YOCHQBT dasturining bosh vazifasi o‘quvchilar ta’lim vaqtida egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, ma’naviy-siyosiy va kasbiy-jangovar sifatlarni optimal hajmini aniqlashdir.

YOCHQBT bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirishga bo‘lgan umumiy talablar umumta’lim fanlarining barchasiga bo‘lgan talablardek, ular didaktikaning (grekcha so‘zdan «didasko» ta’lim beraman degan) asosiy tamoyillari bilan aniqlanadi. Mafkuramizga ko‘ra, didaktika o‘quvchilar ta’limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Umumta’lim (o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish);
- Tarbiyaviy (bo‘lajak Vatan himoyachisiga kerak bo‘lgan shaxs xislatlari va harbiy jamoa xislatlarini o‘quvchilarda shakllantirish);
- Rivojlantiruvchi (yuzaga keladigan masalalarni yechishda o‘quvchilarda ijodiy yondashuv malakalarini shakllantirish);
- Psixologik tayyorgarlik (zamonaviy janglarda muvaffaqiyatli harakatlarga o‘quvchilarni psixologik tayyorgarligini shakllantirish).

Bu vazifalarni amalga oshirishda, ulardagи cheklov birlik o‘quvchilarni tayyorlashga har tomonlama yondashish uchun muhim omil hisoblanadi.

**«Harbiy xizmat asoslari» bo'yicha tematik reja**

S a n a (Variant)/I-lova)						
No t/r	Dastur bo'yicha mazularning nomi, tartib raqami va ajratilgan vaqt	Dastur bo'yicha mashg'ulotlarining nomi, raqami va ajratilgan vaqt	Mashg'ulotning o'quv-tarbiyiy maqsadlari	Mashg'ulot o'tkazish joyi uslubi	Moddiy Mashg'u lotning ta'minot va o'quv texnik vositalar	Foydalananiladigan adabiyottlar. Mustaqil tayyorgarlik uchun vazifa
1.	YOCHQBT Dasturi 2005-y. M -5 Mayzu: Vzvod bo'yicha sutkalik naryad. (2 soat).	Mashg'ulot:4/4 (YOCHQBT dasturi 2005 yil . M -5 M-2). (2 soat). Trevoga e'lon qilinganda, yong'in chiqqanda, to 'g'ridan-to 'g'ri boshliqlar kelgan payda, boshqa vzoddan harbiy xizmatchilar kelgan payda, vzvod kamidiri navbatdagi postbonni chaqirgan payda postbonning xatti-harakatari.	O'quvchilarini vzvod bo'yicha sutkalik naryadning majburiyatlar bilan tanishitish.	Posbonning majburiyatlarini o'rnatish.	Vzvod bo'yicha sutkalik naryadning «CHQBT» o'quv majburiyatlarini o'rnatish, amaliga o'rgatish joyi.	A.Bo'tayev. «O'CHQT» I-qism. naryadning «CHQBT» o'quv qo'llanma. I-qism. Sutkalik naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi haqida bilish. Posbonning majburiyatlarini yodlash va amaliy harakatlarini mustaqil mashq qilish.

Pedagogik ma'noda o'qtish deb nomlangan ta'lif jarayoni ta'lif oluvchilarga (o'quvchilar), dars berish nomini olgan ta'lif beruvchining (harbiy rahbar, CHTO') maqsadli, o'zaro bog'langan faoliyatidan tarkib topgan. Bu jarayondagi asosiy o'rinni ta'lif beruvchi (harbiy rahbar, CHTO')ga tegishli.

*Uning asosiy pedagogik vazifalari quyidagilar:*

- Ta'lif muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish.
- Tizimlangan turda o'quv materialini bayon etishda va qurol va texnika bilan ishlashning maqsadga muvofiq usullarini ko'rsatish.
- O'quvchilarda ta'limga va ta'lifning boshqa ijobiy tomonlariga qiziqishni rivojlantirish.
- Ta'lif oluvchilarda mustaqil ravishda bilim, ko'nikma, qobiliyatlarni egallash qobiliyatini shakllantirish va o'z mahoratini takomillashtirish.
- O'quvchilar tayyorgarligini tekshirish, bilim, ko'nikma, qibiliyatlarini va kasbiy sifatlarini baholash.

Shu bilan birga YOCHQBT bo'yicha o'quv jarayonini rejalash-tirishni tashkil qilish o'z xususiyatlariga ega. Bu avvalambor, YOCHQBT kursi o'z ichiga sakkizta mustaqil fanlarni oladi:

- Kirish mavzusi;
- Harbiy ish asoslari;
- Otish tayyorgarligi;
- Harbiy xizmat asoslari;
- Amaliy jismoniy tayyorgarlik;
- Fuqaro muhofazasi;
- Tibbiy bilim asoslari;
- Nazorat mashg'ulotlari.

Bularning har biri ta'lif muassasasi tizimida va hamkorligida, mantiqiyligi va uslubiy tartibda puxta o'ylab rejalashtirishni talab qiladi.

Bundan tashqari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va fuqarolar himoyasi bo'yicha mashg'ulotlar o'smir yigit-qizlar bilan birgalikda, tibbiy bilim asoslari esa alohida rejalashtiriladi va o'tkazilishini nazarda tutish zarur. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lif muassasalarining o'quv guruhlari tarkibi sakkiz nafar qizlar (o'smirlar) dan kam bo'lsa, to'liq tarkibda o'smir yigit (qiz) lar uchun o'quv dastur bo'yicha shug'ullanadilar.

Darslardan tashqari vaqtida har hafta harbiy-sport mashg'ulotlarini o'tkazish, oyda bir marta harbiy-o'quv va vatanparvarlik haqida

filmlarni ko'rsatish hamda to'garaklar va fakultativ kurslar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish rejalashtiriladi. Shunday qilib, YOCHQBT rejalashtirish dasturni to'la va sifatli bajarilishi, barcha bo'limlarni har tomonlama o'rganilishi, shuningdek, boshqa ta'lim fanlari bilan YOCHQBT dasturi bo'yicha muvofiq keladigan mavzularni bog'lab o'rgatilishini ta'minlashi kerak.

O'quv rejasini tuzishda ta'lim muassasining ishi mahalliy sharoitlari hamda o'quv-moddiy bazasiga e'tibor berish kerak. Mahalliy MIB roziligidagi ko'ra ba'zi bir hollarda ta'lim muassasasi direktoriga mahalliy sharoitlarga bog'liq holda dasturning ba'zi bir mavzularini o'rganish tartibiga o'zgartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Biroq bunda ularga ajratilgan mashg'ulot mazmuni va vaqt ni qisqartirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ta'lim muassasasi direktori o'quv jarayonini tashkil qilish jarayonida quyidagi masalalarga oydinlik kiritadi:

- ta'lim muassasalarida har bir mutaxassislik bo'yicha guruh (sinf)lar uchun ta'lim boshlanishi va yakunlanishiga;
- avtomatdan jangovar o'qotish bo'yicha boshlang'ich mashqlarni bajarishga o'quvchilarni tayyorlarlik ko'rish muddatiga;
- harbiy-sport bayramlarini o'tkazilishiga;
- YOCHQBTni o'qitilishini boshlashga bag'ishlangan buyruq mazmuniga;
- harbiy rahbar, CHTO'larga rejalashtirish hujjatlari bo'yicha beradigan ko'rsatmalar mazmuniga.

Direktor rahbarligida harbiy rahbar, CHTO' YOCHQBT bo'yicha haftalik reja, o'qitilishni boshlanishi, guruh va seksiyalar sardorlarini tayinlash to'g'risidagi buyruq va loyihalarni hamda YOCHQBT bo'yicha vatanparvarlik va sinfdan tashqari ish va o'quv - moddiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi. YOCHQBT dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish haftalik rejasini butun o'quv yiliga ishlab chiqiladi. 2-3 bosqich o'quvchi-talabalari (10-11-sinflar) uchun har biriga alohida ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga har bir oyga mashg'ulotlar jadvalini tuzish tavsiya etilib, bunda mashg'ulotlar mazmuni, vaqtini va ularni o'tkazish joyi, shuningdek, YOCHQBT bo'yicha sinfdan tashqari ishlar bo'yicha tadbirlarini ko'rsatib o'tilishi kerak. O'quv jarayonini tashkil qilish uchun o'quv rejasidan tashqari harbiy rahbar va CHTO' asosiy hujjatlardan quyidagilarini ishlab chiqadi:

- «Ta'lim muassasasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlarlikni boshlash to'g'risida» ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq;
- «Ta'lim muassasasida YOCHQBT, jismoniy madaniyat va tibbiy

bilim asoslari bo'yicha uslubiy komissiya tuzish va komissiya ishini tashkil qilish to'g'risida» ta'lif muassasasi bo'yicha buyruq.

Buyruqda harbiy rahbar, CHTO' jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari o'qituvchisi pedagogik jamoasining bo'lajak vatan himoya-chilarini ta'lif-tarbiyasi borasidagi vazifalari bayon etiladi, tashkilotchilik va tartibga riosa qilish masalalarida o'quvchilarga qo'yilgan talablar, YOCHQBT bo'yicha uslubiy komissiya tarkibi va ularning ishlash tartibi, YOCHQBT bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning asosiy tadbirlarini o'tkazish muddati va tartibi aniqlanadi:

– «Guruh va seksiyalar komandirlarini tayinlash to'g'risida»gi ta'lif muassasasi bo'yicha buyruq.

Guruh va seksiyalar komandirlarini saylash to'g'risidagi direktor buyrug'ida guruhlarning tartib raqami aniqlanadi, komandirlar tayinlanadi, har bir tahsil oluvchining safdagi va harbiy xonadagi joyi uchun harbiy rahbar, CHTO' bilan saf hisobini olib borishga talablar ko'rsatib o'tiladi, o'quvchilar tomonidan harbiycha muomala qoidalari bajarilishi va belgilangan kiyim formasiga riosa qilinishi majburiy ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, intizomni qo'llab-quvvatlab turish, O'MB takomillashtirish bo'yicha guruh va seksiyalar komandirlarining vazifalariga aniqlik kiritiladi:

– O'quv yili uchun YOCHQBT, jismoniy madaniyat, tibbiy bilim asoslari bo'yicha uslubiy komissiyaning ishi rejasi.

– O'quv yiliga mo'ljallangan ta'lif muassasasi harbiy rahbari, CHTO'ning shaxsiy ishi rejasi.

– Ta'lif muassasasining yillik rejasidagi bo'limga YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi, ommaviy mudofaa ishlari va o'quv-moddiy bazani takomillashtirish yuzasidan harbiy rahbar CHTO'lar tomonidan kiritilgan takliflar.

Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish, YOCHQBT o'quv moddiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ta'lif muassasasining yillik rejasini uchun takliflar belgilanganda harbiy rahbar, CHTO' bu ishlarning barchasida butun pedagogik jamoa, otaliqda bo'lgan tashkilot, shuningdek, o'quvchilar bevosita ishtirok etishlarini unutmassisligi kerak:

– «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinida qatnashuvchi jamoa bilan yo'riqli mashg'ulotlarini o'tkazish rejasi .

– «TOZ-8 sonli kichik kalibrli miltiqdan o'qotishni o'tkazish to'g'risida»gi ta'lif muassasasi bo'yicha buyruq .

Kichik kalibrli miltiqdan otish tayyorlov mashqlarini bajarish borasida direktor, harbiy rahbar va CHTO'lari alohida e'tiborga molik ishlarni olib borishi kerak, Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlariga otish qoidalarini mukammal o'rgangan, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladigan, otish tartibini biladigan o'quvchilargina qo'yiladi. Ushbu qoidalarni bilmagan o'quvchilar avtomatdan jangovar o'q bilan otish mashqlariga qo'yilmaydi.

Qolgan o'quvchilar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga yetgandan so'ng va harbiy rahbar va CHTO'larning sinovidan o'tganlaridan keyin darsdan tashqari tadbirlarda otish mashqlarini bajaradilar:

– «Uchinchi kurs (11-sinf) o'quvchilari bilan dala mashg'ulotlарini o'tkazish to'g'risida»gi ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq.

DO'M(y) boshlanishigacha bir oydan kam bo'Imagan vaqtida chiqarish tavsiya etiladigan buyruqda mashg'ulotlarni o'tkazish, o'quvchilarni tantanali saflash, jo'natish vaqtin, o'quvchilarni, vvvod, guruh komandirlari, ularning yordamchilarini ism-sharifi, mashg'u-lotlarni o'tkazish va o'quvchilarni olib ketish tartibi, xavfsizlik choralarini ko'rsatib o'tish kerak.

Mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlari bazasida uchinchi kurs (11-sinf) o'quvchilarini yig'ish orqali DO'M(y) tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tadbirlari rejasidir. DO'M(y) katta e'tibor va g'amxo'rlikni talab etadi.

Ularni tumanlarda tashkil qilingan MSSLda yoki ta'lim muassasalarida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuman, shahar hokimliklarining qaroriga asosan xalq ta'limi bo'limlari akademik litsey va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari boshqarmalarida ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan DO'M(y) o'tkazishga tayyorgarlik bo'yicha tadbirlar rejasidir ishlab chiqiladi.

Agar DO'M(y) harbiy qism bazasida o'tkazilsa, reja harbiy qism komandiri bilan kelishiladi. Reja ta'lim muassasasi direktori, o'rinosarlari, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, harbiy rahbar, CHTO', jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya) o'qituvchilar va boshqa shaxslar bilan bajariladigan aniq tadbirlarni o'z ichiga oladi, bajarish muddatini aniqlaydi.

Harbiy qismlardan harbiy xizmatchilarini jalb etish, mashg'ulotlar rahbarlarini zaxiradagi zabitlar hisobidan belgilash va ular bilan uslubiy mashg'ulotlarni o'tkazish kabi masalalarni hal etish MIB bilan birgalikda amalga oshiriladi.

– YOCHQBT bo‘yicha o‘quv yili natijalari to‘g‘risidagi ta’lim muassasasi bo‘yicha buyruq. Buyruq asosini YOCHQBTni yakunlash to‘g‘risidagi pedagogik kengash materiallari tashkil qiladi. Bunda dasturni bajarilishiga baho berilib, xulosalar qilinadi, pedagogik jamoa va o‘quvchilarga yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yiladi.

– YOCHQBT bo‘yicha o‘quv yili yakuniga bag‘ishlangan harbiy-sport bayramini tayyorlash va o‘tkazish to‘g‘risida gi ta’lim muassasasi bo‘yicha buyruq. Harbiy-sport bayramini o‘tkazishga 2–3 oy vaqt qolganda ishlab chiqiladi.

– YOCHQBT bo‘yicha o‘quv yili yakuniga bag‘ishlangan harbiy-sport bayramini o‘tkazish rejasi. Bayramni o‘tkazishgacha 1 oy vaqt oldin ta’lim muassasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

– YOCHQBT va vatanparvarlik ishlarining holati to‘g‘risida o‘quv yili uchun hisobot (16-sonli ilova).

Har bir mashg‘ulotni o‘tkazish uchun ta’lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan dars rejasi tuziladi.

Dars (mashg‘ulot) rejasida mavzu, mashg‘ulot, o‘quv-tarbiyaviy maqsadlar, o‘quv savollari, vaqt, shakli, uslubi, qo‘llanma va adabiyotlar, umumta’lim fanlar bilan o‘rganiladigan masalalar bog‘liqligi, moddiy ta’midot va mashg‘ulotning borishi ko‘rsatiladi. Zaruriyat bo‘lsa, unda o‘quv materiali, o‘rganiladigan o‘quv savollari qisqacha mazmuni bayon etiladi.

Mashg‘ulot rejasini (mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan yetti kun avval) birma-bir o‘rganish va harbiy rahbar, CHTO‘ga amaliy yordam ko‘rsatish uchun direktorga berish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni ta’minlash va o‘tkazishda direktoring o‘rni katta. Aytib o‘tish joizki, ko‘pchilik direktorlar har bir mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishda harbiy rahbarlar, CHTO‘larga amaliy yordam ko‘rsatadi. Biroq afsuski, harbiy rahbar, CHTO‘larga uslubiy yordam ko‘rsatishdan umuman chetda turadigan direktorlar ham bor. YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasida muhim omillardan sanalgan mashg‘ulotlarga bunday yondashilishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, YOCHQBTni rejorashtirish boshqaruv hujjalarning talablariga muvofiq, tuman, shahar, viloyat, respublika ta’lim muassasalarining yetakchi tajribalari va tavsiyalarini hisobga olgan holda amalga qshirilishi kerak, shuningdek, u dastur bo‘yicha mavzularni ta’limning boshqa fanlari bilan muvofiq keladiganlari bilan bog‘lab to‘la va sifatli o‘rganilishini ta’minlashi kerak.

## **O‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘yicha harbiy rahbar va CHTO‘ tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy hujjatlar. Ularning vazifasi va mazmuni**

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi – o‘sib kelayotgan va shakllanib borayotgan yosh avlod tarbiyasining tarkibiy qismidir. U o‘quvchida yuqori g‘oyaviy-siyosiy va axloqiy xislatlarni shakllantirish, o‘zini tutish, Qurolli Kuchlar safida xizmatni benuqson o‘tashga, yurt himoyasi yo‘lida kerakli jismoniy va amaliy tayyorgarlik meyorlarni bajara olishga, Vatan va boshqa davlatlar hamdo‘stligini himoya qilish muqaddas burchini bajarish maqsadida ong, iroda, ruhiy va jismoniy rivojlanishga pedagogik ta’sir ko‘rsatishni, tashkiliy maqsadga yo‘naltirilgan va uzlucksiz jarayonni o‘zida mujassam etadi.

Vatanni himoya qilishga yoshlarni har taraflama tayyorlashni faqat chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bilan cheklab bo‘lmaydi. Bu davlat ishi hisoblanib ta’lim muassasasining butun pedagogik jamoasining mas’uliyatli vazifasidir.

O‘quvchilarni Vatanni himoya qilishga g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-ruhiy hamda jismoniy tayyorlash ta’lim muassasasining butun o‘quv-tarbiyaviy ishi tizimi va avvalambor, o‘quv jarayonida amalga oshiriladi.

Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘rganiladigan material bilan uzviy aloqada xalqaro va davlat ichki siyosati, qurolli kuchlar jangovar qudrati va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalarini mohirona va tushunarli qilib tushuntirishi, ularning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatishi, armiyaga, harbiy ish va harbiy kasbga muhabbat uyg‘otishi, bo‘lajak Vatan himoyachisiga kerakli ma’naviy-ruhiy va jangovar sifatlarini shakllantirishi, kerak bo‘lgan joyda harbiy bilimlar elementlarini aytib o‘tishi kerak.

Umumta’lim fanlari bo‘yicha darslar tizimi darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy ishlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘quvchilarda dunyo-qarashini shakllantiradi, ijtimoiy hodisalarни tahlil qilish va baholashda klassik yondashishni uyg‘unlashtiradi, o‘z Vataniga chuqur va ongli muhabbatni, mustahkam poydevorni, uni tajovuzkor kuchlardan ishonchli himoya qilishga doimiy tayyorgarlikni o‘rnatadi. *Harbiy tayyorgarlikni ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligi nimada?*

Avvalambor, bu o‘quvchilarda bo‘lajak Vatan himoyachisi uchun muhim bo‘lgan ma’naviy - siyosiy xislatlarni shakllantirish asosi bo‘lgan ta’lim muassasasining butun tarbiya tizimi bilan bo‘lgan

bog'liqlikdir. Bu yerda hal qiluvchi vazifa o'quvchilarni jamiyatning rivojlanish qonunlari bilimi bilan qurollantiradigan, vatanimiz dushmanlariga nafratni tarbiyalaydigan tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot darslarining zimmasida bo'ladi. O'smirlarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi asosiy vazifani jismoniy madaniyat darslari bajaradi.

O'quvchilarni meyorlarni topshirishga tayyorlash uchun bir qator ta'lim muassasalarida harbiy rahbar va jismoniy madaniyat o'qituvchilaridan tashkil topgan umumiy uslubiy komissiyalar tuzilgan. Maqsadga muvofiq bunday tadbirlar tufayli yuqori kurs (sinf) o'quvchilari harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha yuqori natijalarga erishmoqdalar. Yuqori kurs (sinf) o'quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasi uchun ayniqsa YOCHQBT bo'yicha bilimlar katta imkoniyatlarga ega.

YOCHQBT mashg'ulotlarida o'quvchilarda boshlang'ich harbiy bilimlar bo'yicha dunyoqarashni, armiya va oson kechmaydigan harbiy xizmatga chuqur hurmat bilan qarashni tarbiyalashni, zamonaviy qurol va texnikani egallash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan amaliy ko'nikma va malakalarni amalga oshiriladi.

O'quv dasturdagi mavzularning ko'p qismlari o'quvchilarga Vatanni dushmanlardan qurolli himoya qilishda O'zbekiston xalqining qahramonlik va fidokorlik manbalarini tushuntirib berish, ularda katta avlodlar jasoratiga faxr-iftixon va ularni qo'llab-quvvatlashga, ularga o'xhashlikka intilish xislatlarini tarbiyalashga harbiy rahbar va CHTO' ga imkon beradi.

Fanlararo bog'liqlik – vatanparvarlik tarbiyasi va boshlang'ich harbiy tayyorgarlikni takomillashtirish uchun zamin yaratadi. Bu ko'pgina ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari tajribasi bilan tasdiqlangan.

O'quvchilarda Vatanni himoya qilishga shay bo'lishi, intilishi nafaqat o'quv jarayonida, balki sinfdan tashqari ishlarning turli shakllarida davom etishi juda muhim. Bunda o'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi mazmuniga, shakl va uslublarini takomillashtirishga doimiy e'tibor berish zarur. Vutunga va uning qurolli kuchlariga cheksiz sadoqat va muhabbat ruhida, harbiy burchni benuqson bajarishga shay bo'lishiga, Ulug' Vatanni himoya qillishdek sharafli burchni ado etishdagi shaxsiy mas'uliyatini, shuningdek, ularda vatanparvarlikni tarbiyalash – har bir ta'llim muassasasi o'qituvchisining o'ta muhim majburiyatlaridandir.

Dasturning ba'zi bir mavzulari bo'yicha 2–3 soatlik mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Bu hollarda ta'lim muassasasi direktori taqsimoti bo'yicha boshqa fanlar hisobiga, keyinchalik ularni to'ldirish sharti bilan 1–2 qo'shimcha soatlardan foydalaniлади.

Barcha darslar g‘oyaviylik bilan singdirilgan va yuqori ma’naviy-siyosiy sifatlarni tarbiyalashga, ularni Vatanni himoya qilish burchini ado etishga tayyorlash, ularda Qurolli Kuchlar nizomlari talablari va o‘quv mavzulari hajmiga ko‘ra o‘zini tutish va harakatlar ko‘nik-malarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Zamonaviy sharoitda yoshlarni O‘R QK xizmatiga tayyorgarlik sifatiga oshib borayotgan talablar, ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni uzluksiz takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O‘quv jarayoning mazmuni, shakli va uslublarini asosli ravishda ilgari surish uchun, birinchidan, harbiy fan va texnika, taktik san’at yo‘nalishlarini rivojlanishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Ikkinchidan, ijtimoiy-psixologik va pedagogik fanlar yutug‘iga erishish uchun, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy tashkil qilish kerak.

Zamonaviy davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki ilmiy ma’lumotlarning harbiy ishlardagi taraqqiyotidir. O‘quv jarayonining mazmuni va shakli o‘rtasidagi ziddiyatlar. Katta sustlikka ega bo‘lgan ta’lim shakl va uslublari har doim ham mazmun o‘zgarishiga amal qilmaydi. Masalan, kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalar hajmi belgilangan muddatlarda ularni o‘zlashtirish imkoniyati va o‘quv fanlarning ilmiy mazmuni va ta’lim vositalari majmuasi – darsliklar, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar, trenajyorlar, TTV va boshqalar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. Shuningdek, amaliyotda o‘quvchilar o‘quv ishining jamoa va individual shakllari birikmasida, O‘MB jihozlanishida uning ma’naviy va jismoniy ishdan chiqishi natijasida ziddiyatlar kuzatiladi.

O‘quv jarayoniga xos bo‘lgan barcha bunday ziddiyatlar uning takomillashuvining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblanadi. Bu ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga ilmiy yondashish – yoshlarni xizmatga tayyorlash sifatini oshirishning asosiy yo‘llaridan biridir.

Ilmiy ma’lumot hajmining jadal o‘sishida ta’lim jarayonida o‘quvchiga berish zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar hajmini asosli aniqlab berish talab qilinadi.

O‘quv jarayonini ma’lumotlarning ortiqcha ko‘pligi bilan erishilganligi yakuniy natijaning pasayishi bilan kuzatiladi, yani ko‘p narsa aytiladi, kam narsa o‘zlashtiriladi. Shunday qilib, ma’lumotli ta’limdan uslubiy ta’limga o‘tish zarur.

Bu yerdan ta’lim fanining asosiy, yo‘naltiruvchi qonuniyatlariga ega bo‘lgan optimal ma’lumotlarni tanlab olish muhimligi aniqlanadi. Boyib borayotgan ma’lumotlar ta’lim muddatlarining saqlab qolinishida yana-da mukammal ta’lim usullari va vositalarini tatbiq etishni talab qiladi.

Harbiy rahbar, CHTO'ning vazifasi faqat o'quvchilarga zarur bilimlar miqdorini berish yoki ma'lum bir amaliy ko'nikmalarni singdirishda emas, balki Vatanni tajovuzkorlardan himoya qilishda ichki bir ishonch va mas'uliyat bilan o'z harbiy-kasbiy bilimlarini takomillashtirishga ularni otlanadir hamdir.

Bu maqsadda o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faollashtirishga asoslangan yanada ilg'or ta'lim usullaridan samarali foydalanish yo'l-yo'rqlarini qo'llash kerak bo'ladi. «Hikoya qilish – ko'rsatish – mashq qilish» sxemasi bo'yicha amaliy ta'limning an'anaviy usullari o'quvchilarni tayyorlashda yuqori samarali uslublar asosidagi barcha asosiy psixologik shart-sharoitlari bajarilishini ta'minlay olmaydi.

Amaliyot ko'rsatishicha, o'quvchining tayyorgarlik sifatini va samradorligini oshirishdan tashqari o'quv jarayoniga yangi uslublarni tatbiq qilish, ta'lim oluvchilarga yanada chuqur tarbiyaviy ta'sir o't-kazish ham o'quvchilarni samarali tayyorgarligini ta'minlaydi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishning muhim yo'nalishi – bu harbiy ishning nazariy qoidalarini qo'shinlarning amaliy faoliyatga maksimal ravishda yaqinlashtirishdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida real jangovar muhitga to'g'ri keladigan sharoitlarni yaratish zarur.

O'quv jarayonining samradorligi ta'lim vositalarining sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Ta'lim vositalariga darslik, o'quv qo'llanma, bosma-tarqatuv materiallar, diapositiv, diafilm, kinomaterial, vidiomaterial, multimedya, elektron darslik, magnit fonogramma, tabiiy ko'rgazma vosita, plakat, trenajyorlar va hokazolar kiradi.

Bularning bir qismi texnik qurilmalarni qo'llashni talab qiladi. Ta'limning ilmiy-asoslangan vositalarini yaratish ta'lim muassasasida ilmiy-tadqiqot ishlarining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

TTVni tatbiq qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish – ta'lim muassasasi uslubiy kengashishining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanidi. O'quv tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishning muhim yo'nalishi – bu baholash mezonini ishlab chiqish va ta'lim berish samradorligini baholash uslubi hisoblanadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish – murakkab va ko'p qirrali jarayondir. U ta'lim muassasasining butun pedagogik jamoasidan juda katta tashkilotchilik va bajaruvchanlikni va yoshlar tashkilotlari bilan ham bog'lanib ishlashni talab qiladi.

**Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi va  
Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha Toshkent shahar Aviasozlar  
KXK amalga oshrilgan ishlar haqida  
2007–2008-o‘quv yili bo‘yicha  
HISOBOT**

*(Variant)*

1. 2007–2008-o‘quv yilida YOCHQBT dasturi ta’lim muassasasida to‘liq bajarildi (Agar bajarilmagan bo‘lsa, qaysi bo‘limlar va sabablarga ko‘ra ko‘rsatilsin).
2. 180 nafar o‘quvchi ta’limning to‘liq kursini tugatdi, shundan: a’lo 40 ta o‘quvchi (%), yaxshi 80 ta o‘quvchi (%), qoniqarli 55 ta o‘quvchi (%), qoniqarsiz 5 ta o‘quvchi (%) ni tashkil etdi.
3. 19 ta razryadli sportchi tayyorlandi, shulardan 5 tasi (%) bitiruvchi o‘smirlar.
4. Harbiy rahbar, CHTO‘ o‘tkazgan 7 ta mashg‘ulot tekshirildi, shundan 3 tasi a’lo, 2 tasi yaxshi, 2 tasi qoniqarli baholandi.
5. Yuqori 50 ta o‘quvchi tekshirildi, shundan 15 tasi (%) a’lo, 20 tasi (%) yaxshi, 15 tasi (%) qoniqarli baholandi.
6. O‘quv moddiy baza tiklash va takomillashtirish ishlari reja asosida olib borildi, masalan, saf maydoni qaytadan jihozlandi, harbiy xona ta’mirlanib stendlar yangilandi, to‘sqliar yo‘lagining maydoini ortiqcha narsalardan tozalandi va hokazo ishlar bajarilib O‘MB holati qoniqarli bahoga baholandi.
7. O‘quv qurollari va anjomlari bilan ta’minlanganlik darajasi 60 % ni tashkil etdi. Shulardan 17 % ni harbiy rahbar boshligida o‘quvchilar tomonidan tayyorlandi. Yetishmagan 40 % ni olish o‘chun buyurtmalar berildi. Biroq o‘quv qurollari va anjomlarini saqlash uchun joy talabga javob bermaydi va hokazo.
8. Harbiy vataparvarlik ishi bo‘yicha o‘quv yilida shon-sharaf burchagi yangi materiallar bilan boyitildi, O‘R QK tarixiga va jangovar an‘analariga doir rasm va suratlar joylashtirildi. Otaliqda bo‘lgan harbiy qism hamkorligida amaliy mashg‘ulotlar olib borildi va uchrashuvlar o‘tkazildi va hokazo. Tuman (shahar) hududida joylashgan yodgorlik va muzeylardan «Shahidlar qabristoni» va O‘R QK muzeylariga tashrif buyurildi va hokazo. Vatanparvarlik tarbiyasiga oid filimlardan «Oy borib omon qayt», «Sardor», «Ostona» va hokazo filimlar faollar zalida namoyish etildi.
9. 2–3 kurs talabalari tuman (shahar) spartakiadasida ishtiroq etishib 2-o‘rinni egalladilar; Tuman (shahar) «Shunqorlar» o‘yini

finalida qatnashib faxrli uchinchi o'rinni egalladilar.

10. Ta'lim muassasasi o'quvchilari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilmadi, biroq kollej ichki tartib intizomini qo'pol ravishda buzilgan holatlar qayd etilib turildi. Tartib buzar o'quvchilardan Qulmatov B. Qoldiyev U.Doliyev P.larga bu masalada tegishli choralar ko'rildi.

Ilg'or, intizomli o'quvchilardan Qodirov I. Valiyev R. Yo'ldoshev G. Rajapov M. lar harbiy bilim yurtiga kirish istagini bildirishdi. Ularga bu masalada yo'l-yo'riq ko'rsatilib, kerakli maslahatlar berildi.

11. YOCHQBT holati pedagogik kengashida ko'rilib unda YOCHQBT o'qitilishi, O'MB ahvoli tashkiliy va uslubiy ishlarning sifati ko'rildi. Tahlillar natijasiga ko'ra o'qitish sifatini yanada yaxshilash, O'MB takomillashtirish masalalariga to'xtalib bu ishga butun pedagogik jamoaning e'tibori qaratilishi zarurligi ta'kidlandi va vazifalar taqsimlanib berildi. Harbiy rahbar (CHTO') ni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga yuborish uchun pedagogik kengash qaror qabul qildi.

12. YOCHQBT kursi yakunlanganligiga bag'ishlangan harbiy sport bayrami ta'lim muassasasi hududida «23229» harbiy qism hamkorligida o'tkazildi.

12. YOCHQBT umumiy holati yaxshi bahoga baholandi.

13. Kelasi o'quv yilida quyidagicha sinflar bo'lishi rejalahs-tirilmoqda:

2-kurs (10-sinf)lar 75 ta o'quvchi (o'smirlar 40 ta qizlar 35 ta)

3-kurs (11-sinf)lar 90 ta o'quvchi (o'smirlar 50 ta qizlar 40 ta)

14. Kelgusi o'quv yilida YOCHQBT va fuqaro himoyasi mashg'u-lotlariga jami 165 ta o'quvchi (o'smirlar 90 ta qizlar 75ta) jalb qilinadi

*Ilova: 1. YOCHQBT ni tugallangan o'quvchilarning olgan yakuniy baholar ro'yxati 1- varaqda.*

2. Razryad olgan o'quvchilar ro'yxati 2- varaqda.

Toshkent shahar

Aviasozlar kasb-hunar

kolleji direktori Q.Oxunov

«\_\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ y.

---

## **5-§. TA'LIM MUASSASALARINING CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIGI BO'YICHA O'QUV - MODDIY BAZASI VA MODDIY-TEXNIK TA'MINOTI**

### **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv - moddiy bazasi**

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunga muvofiq kiritilgan bo'lib harbiy ta'limga o'qitiishini majburiy davlat shakli hisoblanadi va yoshlarni O'R QK safidagi xizmatiga tayyorlash tizimining muhim qismini tashkil etadi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samaradorligi ko'p hollarda o'quv tarbiyaviy jarayonni qanday tashkil qilinganligiga va amalga oshirilganligiga bog'liq. Uning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy asoslangan o'quv dasturlar, mashg'ulotlarning optimal uslublari va kerakli moddiy bazalar hisoblanadi. Dastlabki ikki tarkibiy qismlarning ahamiyatini zarracha ham inkor etmagan holda mubolag'asiz aytish mumkinki, harbiy ta'limga hal qiluvchi o'rinni O'MB egallaydi. Bu birinchi navbatda Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik kursining hususiyatlari, uning ko'p qirraliligi va amaliy yo'naltirilganligi bilan tushuntiriladi. Masalan, qurolning o'quv namunasiga ega bo'lmadan, uni o'rganishning iloji yo'q. YOCHQBT dasturiga ko'ra har bir ta'lim muassasalarida O'MBning quyidagi umumiy kompleks (majmua) elementlariga ega bo'lishi tavsiya etiladi:

1. YOCHQBT o'quv xonasi (laborantlar xonasi bilan).
2. Qurol-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi.
3. Otish joyi (Strelkoviy tir)
4. Qurollarini tozalash va moylash o'rgatish uchun joy.
5. Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon.
6. Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi.
7. HIA va FH bo'limidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joyi.
8. Jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeyi (burchagi).
9. Gimnastik shaharcha.

10. To'siqlar qatori majmuasi.
11. Jangovar va mehnat shon-shuhrati xonasi (muzeyi, burchagi).
12. Ko'chma (yig'ma) jihozlar.
13. Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot vositalari.

### **YOCHQBT o'quv xonasi (laborantlar xonasi bilan)**

Ta'lim muassasasining YOCHQYOT xonasi quyidagi maqsadda jihozlanadi:

- Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining barcha bo'limlarini (ko'proq nazariy) o'rghanish uchun kerakli o'quv-moddiy bazani yaratish;
- O'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish;
- O'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi va ularni harbiy kasblarga yo'naltirish maqsadida harbiy bilimlar va ommaviy-mudofaa tadbirlarni o'tkazishning targ'ibot ishlari;

Harbiy xona assosiy talablardan quyidagilariga javob berishi kerak:

- Mashg'ulot uchun qulay, sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan priborlar, o'quv ko'rgazmali qo'llanma va buyumlarini saqlash uchun mo'ljallangan laboratoriyали xonaga tutashgan; har doim darslarni va darsdan tashqari ishlarni olib borishga tayyor bo'lish; dars jarayonida nafaqat o'quv, balki tarbiyaviy masalalarini yechishga yordam berish;
- Ta'limda maksimal ravishda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash va bir vaqtning o'zida o'quvchilar tomonidan mustaqil vazifalarni bajarilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Texnik ta'lim vositalarini keng qo'lamda tatbiq qilishga imkoniyat yaratish;
- Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik faniga taalluqli ro'yxat bo'yicha o'quv adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar va buyumlarga ega bo'lish;
- Eksport qilinadigan materiallarni ko'rinishi va mazmuniyligini badiiy bezalgan interer bilan birga qo'shish.


YOCHQBT xonasi keng va yorug' ( $54-80\text{m}^2$ ) bo'lishi kerak. (1-rasm) YOCHQBT xonasi o'z ichiga sind mebeli, o'quv-uslubiy jihozlar va laboratoriya xonasi (agar joy yetarli bo'lsa), o'quv qo'llanmalar va texnik ta'lim vositalarini oladi.

Sinf mebeli quyidagilardan iborat: gorizontal yuzali o‘quv stollar va o‘rindiqlar, harbiy rahbar stoli, namoyish etish stoli, kinoapparat va dioproyektlar uchun moslamalar, sindf yozuv taxtasi, ko‘rsatkich. Chetki stollar qatori devordan 50–60 sm masofada bo‘lishi kerak.

YOCHQBT xonasini o‘quv-uslubiy jihozlarining asosini ta’lim dasturidagi har bir bo‘limiga tegishli stendlar (turniklar, aylanma barabanlar) hisoblanadi. Ular quyidagi tartibda joyланади:

1. *Kirish mavzusi.*
2. *Harbiy ish asoslari.*
3. *Otish tayyorgarligi.*
4. *Harbiy xizmat asoslari.*
5. *Amaliy jismoniy tayyorgarlik.*
6. *Fuqaro muhofazasi.*
7. *Tibbiy bilim asoslari.*
8. *Nazorat mashg ‘ulotlari.*

YOCHQYOT xonasida doskaning tepasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti, undan pastda esa O‘zbekiston Konstitutsiyasining 52-moddasi – «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – har bir O‘zbekistan fuqarosining burchidir», degan matn yozilgan bo‘lishi kerak.



**1-rasm. YOCHQBT xonasini sxemasi (variant):**

a – YOCHQBT xonasini; b – laborant xonasini;

1 – o‘quvchilar stollari; 2 – o‘qituvchining stoli; 3 – sindf doskasi;  
4 – ilib qo‘yiladigan stendla; 5 – vitrinalar; 6 – proyektor uchun joy;  
7 – apparaturani distansion boshqarish pulti; 8 – ekran, 9 – ish stoli;  
10 – kitob javoni; 11 – qurolni tozalash va moylash uchun stol; 12 – apparatura uchun shkaf; 13 – stellajlar.

Sinf yozuv taxtasining o'ng tomonida harbiy qasamyodning ruscha matni, chap tomonida esa o'zbekcha matni yoziladi. O'zbekcha va ruscha qasamyodlar matnining yuqorisiga O'zbekiston Respublikasining bayrog'i va gerbi joylashadi.

YOCHQBT xonasida stendlar, joylar maketi, o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali qurollar uchun joy, harbiy nizomlar, ko'rsatkich (ukazka), rangli mellar bo'lishi kerak. O'quvchilar stollarini uch qator qilib joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Devor bilan stol chetining oralig'i kamida 60 sm. bo'lishi kerak. Bu oraliq o'quvchi o'rnidan turib «qad rostlashi» uchun imkon bo'lishi kerak. YOCHQBT darslarida o'quvchilar stollarga seksiya-seksiya bo'lib o'tirishadi. YOCHQBT xonasida o'quvchilar bilan olib boriladigan taktik mashg'ulot joyining maketi yoki o'quv haritasidan olingan joy maketi o'rnatilgan quti bo'ladi. Bu joy maketida guruh tayanch punktining barcha elementlari va «guruh (seksiya) hujumda» taktik vaziyati ko'rsatiladi. **YOCHQBT xonasi dasturning bo'limlarini o'z ichiga olgan ctendlar bilan jihozlanadi.** Shulardan «Harbiy xizmat asoslari» bo'limidagi saf tayyorgarligi mashg'ulotlari bo'yicha stendlarni o'quvchilar mashg'ulotlar boshsanishi arafasida saflanadigan joyi, ya'ni yo'lakka joylashtirilishi mumkin. YOCHQBT xonasining e'shigi yaqinidagi yo'lakda mashg'ulotlar boshsanishi arafasida guruhni ikki qator qilib safga tortish uchun joy ajratiladi. Laboratoriya xonasida, agarda laboratoriya xonasi bo'lmasa harbiy xonada o'quv priborlari, simli aloqa vositalar, texnik va fuqaro himoyasi buyumlari ko'rgazmali qurollarni saqlash uchun stellaj va vitrinalar jihozlanadi. Bundan tashqari YOCHQBT xonasi oynalardagi pardalarni avtomatik yoki yarim avtomatik ochib yopadigan moslama va ekran bilan ham jihozlanadi.

### **Quroq-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi**

Quroq-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi o'quv quroli, kichik kalibrli miltiqqlar va ularning o'q dorilarini olish, saqlash va hisobini yuritishni tashkil qilish yo'riqnomasiga muvofiq jihozlanadi. U ta'lim muassasasiga berilgan o'quv quroli, kichik kalibrli miltiq va ularning o'q dorilari hamda o'quv quroq-aslahalarning but saqlanishi va ehtiyyot qilinishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. YOCHQBT uchun mo'ljallangan individual himoya vositalari, radiostantsiyalar radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa o'quv buyumlari laborant

yoki harbiy xonalarda (alohida) saqlanishi kerak.

Agar qurolni saqlash xonasi quroldan tashqari qurol aslahalar va boshqa ro'yxatdagi buyumlarni joylashtira olsa, unda u ichki devor (temirli panjara) hamda eshik bilan ajratilishi kerak. Xonaning yaqin qismida individual himoya vositalarini, radiostansiya, radiatsion va kimyoviy razvedka asboblarini va boshqa ro'yxatdagi buyumlarni saqlash mumkin. Ichki devor orqasida (panjara) o'quv quroli o'quv qurol-aslahala, kichik kalibrli miltiqlar va ularning o'q-dorilarini, pnevmatik qurollar va ularning o'qlari saqlanadi.


Xona quyidagi talablarga javob berish kerak:

- boshqa qo'shimcha xizmat xonalaridan mustahkam devorlar bilan ajratilgan pishiq va mustahkam pol, devor, tom, shiftga ega bo'lishi;
- ikki tomonidan 1,4–1,6 mm qalinlikdagi ruhlangan (otsenkovanniy) tunuka bilan qoplangan 40 mm qalinlikda bo'lgan taxtali tashki va diametri 15 mm dan kam bo'limgan alohida armaturadan bo'lgan ichki panjarali mustahkam va ishonchli eshiklar bo'lishi;
- deraza oynalarida diametri 15 mm bo'lgan stal tayoqchalardan temir (stal) panjaralar bo'lishi. Birinchi kavatda joylashgan qurol saqlash xonalarida panjaralardan tashqari metali yoki ikki tomonidan ruhlangan (otsenkovanniy) tunuka bilan qoplangan taxtali ichki to'siqlar bo'lishi, derazaning ichki to'siq va eshiklari qulflanadigan, suriladigan tirgagichlar bo'lishi, ular muhrlanadigan yoki plombalanadigan bo'lishi;
- ichki ishlar organilarining markazlashtirilgan kuzatuv pultiga chiqadigan qo'riqlash signaliga ulanishi yoki yaqindagi qo'riqlash postiga ulanishi, ta'lim muassasasi binosining tashki tomonida o'rnatilgan baland ovozli bong yoki sirenali mustaqil (avtanom) signal bilan jihozlangan bo'lishi;
- yong'inni o'chirish vositalariga (ognetushitel) ega bo'lish. Xonada o'quv otish quroli yoki kichik kalibrli miltiqlar javoni (piramida) yoki seyf, kichik kalibrli o'q-dorilarni saqlash qutisi, radiostantsiya uchun stellaj (tokchalar) o'rnatiladi.

### **Otish joyi (Strelkoviy tir)**

Otish joylari (strelkoviy tir) – bu kichik kalibrli miltiqlardan nishonlarga qarata otishga mo'ljallangan maxsus jihozlangan qurilma yoki joy qismidir. Otish joylari (strelkoviy tir) orqa tomonidan otish chizig'i, oldindan o'jni tutib qoluvchi qatlam va val bilan yon

tomonlardan esa o‘qning tashqariga uchib chiqib ketishini to‘sib turuvchi devorlar bilan to‘silgan bo‘ladi. Otish joylari (strelkoviy tir) lar ochiq, yarim yopiq va yopiq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, soddalashtirilgan temir (stal) beton yoki metall trubalardan 25 m. yoki 50 m.li tirlar bo‘lishi mumkin (2-rasm). Otish joylari (strelkoviy tir) shunday qurilishi kerakki, atrofdagilar uchun to‘la xavfsizlik ta’minlangan bo‘lishi, odamlar va hayvonlarning otish zonasiga qo‘qqisdan kirib qolishining oldi olingan bo‘lishi kerak. Ushbu shartlarning bajarilishiga maxsus tarx, himoya devorlari, ayvoncha, o‘qtutkichlar o‘rnatish orqali erishiladi. Otish joylari (strelkoviy tir) otish zonasasi va otuvchilarni tayyorlash uchun xonalardan iborat bo‘ladi. Otish zonasida dastlabki holat va o‘t ochish marralari yaqqol qo‘rinib turadigan chiziqlar va yozuvlar yozilgan ko‘rsatkichlar bilan belgilab qo‘yiladi. O‘t ochish marrasida otuvchilar uchun tayanib otish uchun tayanchlar (qum yoki qirindi to‘lg‘azilgan qopchalar) mavjud bo‘lishi kerak. Otuvchilar uchun xonada o‘zlarining bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishlari uchun o‘quv joylarini tashkil qilinadi. Buning uchun otish vaqtida xavfsizlik choralar; kichik kalibrli miltiqdan otish uchun tuyyorgarlik mashqini hamda Kalashnikov avtomatidan boshlung‘ich mashqni bajarish sharti haqida ko‘rsatmalar qo‘yllgan shiltlar joylashtirilishi lozim.



**2-rasm.** Otish joyining yarim yopiq sxemasi:

1—otish pavilyoni; 2—ustki qismdagi o‘q tutkichlari; 3—otish zonasasi; 4—otish yo‘nalishidagi o‘q tutkich; 5—nishonlar. (2-rasmda faqat otish joyining boshqa turlariga nisbatan ko‘proq foydalani layotgan yarim yopiq turining sxemasi ko‘rsatilgan, kengroq materiallarni «YOCHQBT bo‘yicha O‘MB jihozlash bo‘yicha o‘quv qo‘llanma»ga qaraladi).

Barcha o'qotishni mashq qilish joylari (strelkoviy tir) o'qotish pavilyoni va o't ochish zonasidan tashkil topgan. Otish pavilyonini kattaligiga ko'ra turli vazifani bajaruvchi bino kompleksi (kutish, qurol tozalash xonasi, otuvchilarни tayyorlash sinfi, xojatxona va yuvinish xonasi) bo'lishi mumkin. Bu binolarning soni va o'lchamlari, otish joyini turiga, kattaligiga va uni loyihalashtirish va qurish shart-sharoitlariga bog'liq.

### O't ochish qirg'og'i

O't ochish qirg'og'i – bu o't ochish liniyasi bilan o'qituvchi orasidagi joylashgan nishonga o'q bilan uradigan bo'shliqdir. U ustki va yon tomondan o'qo'tkazmaydigan to'siqlar bilan to'liq yoki qisman yopilgan bo'lishi mumkin. O'qotishni mashq qilish joylari 25 m va 50 m bo'lishi mumkin. Ularda o'qotish kursining quyidagi eslatmalari ilib qo'yiladi:


- avtomatdan boshlang'ich mashqlarni bajarish shart-sharoitlari va xususiyatlari;
- o'qotishda havfsizlik choralar.

Bundan tashqari, o'qotishni mashq qilish joyida mahalliy sharoitni hisobga olgan holda xavfsizlik choralar haqidagi ishlab chiqilgan yo'riqnomasi, o'qotish rahbarining majburiyatlari va kichik kalibrli miltiqdan o'qotish mashqini bajarish shart-sharoitlari ko'rsatilgan stendlar ilib qo'yiladi. O'qotishni dastlabki vaziyatini va o'qochish marrasi yaxshi qo'rindigan chiziq yoki kerakli yozuvli taxtachalar bilan belgilanadi.

### Qurollarini tozalash va moylashni o'rgatish uchun joy


Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish uchun joy (strelkoviy tir)ning o'qchilarni tayyorlash xonasida jihozlanadi. Undan otish tayyorgarligi bo'limi bo'yicha mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin. Agar ta'lim muassasalarida otish joyi bo'limasa, uni YOCHQBT xonasi bilan tutash bo'lgan laborant xonasida yoki qurol saqlash xonasi yonida jihozlash mumkin. Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish uchun joy (3-rasm) quyidagilarni o'z ichiga oladi: qurolni yoyish, tozalash, moylash va yig'ish uchun maxsus stol; qurolni tozalash va moylash tartibi bayon qilingan shit (shitda tozalashda va moylashda ishlatiladigan anjomlar va materiallar namunalari joylashtiriladi);

qurolni asrab-avaylash va ko'rikdan o'tkazish bo'yicha eslatma bayon qilingan shit, qurol moyi tolgazilgan idish; toza latta (mato) va qiyqimlar solingan metall quti. Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish bevosita harbiy rahbar (CHTO') ning nazorati ostida o'tkaziladi.



**3-rasm.** Qurolni tozalash va moylash uchun joy: 1—stolning qopqog'i; 2—stol; 3—vetosh; 4—moy idishni solish uchun quticha.

#### Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon



**4-rasm.** Saf tayyorgarligi bo'yicha mashgulotlar uchun maydon:  
1—saf usullari tasvirlangan shit; 2—joyda turib burilish va qad rostlashni mashq qilish uchun joy; 3—shitlarni o'rnatish uchun joylar; 4—shaxdam qadam bilan yurish, burilish va harakat paytida harbiycha salom berishni mashq qilish joyi.


Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon YOCHQBT bo'yicha o'quv-moddiy bazalarning ichida eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bilan saf tayyorgarligi bo'yicha barcha mashg'ulotlar maxsus jihozlangan maydonda o'tkaziladi. Bu ta'lim muassasasi hududida jihozlanadi va asfalt yoki beton bilan qoplangan, tekis bo'lishi shart. Maydonchaga oq bo'yoq bilan 4-rasmda ko'rsatilganidek belgi va shakllar chiziladi.

Maydonchaning perimetri bo'yicha har 80 sm.da o'tkazilgan-chiziqlar shaxdam qadam bilan yurishni mashq qilishga mo'ljallangan va u qadamning kengligiga mos keladi. Maydonchaning perimetri bo'yicha chizilgan aylanalar qad rost holatida to'g'ri turishni va joyda turib burilishlarni mashq qilish uchun mo'ljallangan. Aylanalarni to'rt qismga bo'lish, mashg'ulot rahbariga o'quvchilar joyda turib burish mashqlarini bajarayotganlarida oyoqni to'g'ri qo'yishlarini nazorat qilishga imkon beradi. 4x4 m. o'lchamdag'i katta kvadratlar harakat chog'ida burilishni mashq qilishga mo'ljallangan. Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot maydonining perimetrini 48 m. yoki 60 qadam bo'lishi mashg'ulot rahbariga o'quvchilarda shaxdam qadam bilan yurish tezligini tenglashtirish imkonini beradi (saf nizomiga muvofiq qadam tezligi minutiga 110–120 qadam). Maydon perimetri bo'ylab qurol bilan va qurolsiz qad rostlab turish, joyda turib va harakatda burilish, shaxdam qadam bilan yurish, joyda turib va harakat vaqtida harbiycha salom berish kabi tasvirlar tushirilgan 70x150 sm.li shitlar o'rnatiladi. Maydon bitta sinf bilan mashg'ulot o'tkazishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

### **Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi**

Maydon YOCHQBT xonasiga kirishda yoki xonaga yaqin bo'lgan qulayroq joyda jihozlanadi. Jihozlangan joyda navbatchi hujjalarning taxtasi, tumbochka, tumbochkaning ichida navbatchilikni topshirish va qabul qilish kitobi, qurol va o'q-dorilarni oldi-berdi qilish kitobi, kasallarni qayd qilish kitobi, qismdan tashqariga ruxsat berilgan muddatli harbiy xizmatni o'tayotga harbiy xizmatchilarni qayd qilish kitoblarining maketlari; telefon apparatining maketi; o't o'chirish vositasi; 30x10 sm.li navbatchini boshqalardan ajratib turuvchi yozuvli beyjik yoki qo'l bog'ich (bog'ichda «vzvod bo'yicha navbatchi» degan yozuv bo'ladi), posbon uchun nayza-pichoqning maketi bo'lishi kerak

(5-rasm). Ushbu joyda vzvod bo'yicha posbonning vzvodga to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar kelganidagi, trevoga yoki yong'in sodir bo'lgandagi, telefon orqali doklad qilish, vzvodning buyumlari va qurollarni saqlash kabi va vzvodga boshqa vzvoddag'i harbiy xizmatchilar kirib kelgandagi amaliy harakatlar mashq qilinadi.



5-rasm. Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi:


1—o'stov; 2—telefon apparati; 3— $30 \times 10$  sm.li navbatchini boshqalardan ajratib turuvchi yozuvli beyjik yoki qo'l bog'ich (bog'ichda «vzvod bo'yicha navbatchi» degan yozuv bo'ladi); 4—tunbochka; 5—posboning joyi; 6—navbatchi xujjalaring taxtasi.

Dasturning harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joy (o'quv shaharcha).

O'quv shaharcha ta'lim muassasalarida YOCHQBT o'quv dasturiga muvofiq o'quvchilarni harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlarida ko'rsatilgan amaliy mashg'ulotlarni mashq qilish uchun mo'ljalangan. O'quv shaharchada o'quv joyi tashkil etiladi (6- rasm). O'quv shaharcha 10–60 m dan kichik bo'limgan joyda joylashtirish kerak va u quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

1—jang maydonida (hujumga o'tganda) harakatlanish usullarini, zarar keltirishi juda kuchli bo'lgan portlashlar ro'y berganda (favqu-lotda vaziyatlarda), individual himoya vositalarini kiyishni, degazatsiya va dezaktivatsiya o'tkazishni mashq qilish joyi; 2—to'siqqa o'tish joylarini bildiradigan shartli belgilar (bunda PQM va TQM maketlari va ko'rsatkichlardan foydalilanildi); 3—bostirib kelayotgan dushman harakatini bil-

diradigan joy (№ 8-raqamli bo'y baravar figura); 4-okopga joylashib olgan dushmanga hujum qilish vaqtida tashlanishdan avval granata uloqtirish joyi; 5-№-12 raqamli nishonni o'chami bilan baravar keladigan tank konturi (tankni ifoda etuvchi shakl)ni o'rnashtiriladigan va tankni yo'q qilish uchun tankka qarshi qo'l granatalarini uloqtirish joyi; yotgan holatda otish uchun va oraliqlar (shel)ni belgilash (trassirovkalash) (jihozlangan namunali yotgan holda otish uchun joy;) 7-past uchadigan havo nishonlari (samalyot va vertalyot maketlari) ga otish qurollaridan o't ochishni mashq qilish joyi; 8-ochiq va yopiq turdag'i chuqur xandaqlar (shel), blindajlar (maxsus jihozlangan); 9-hujumga tayyorlanish dushmanni qo'l jangi va granata uloqtirish, o't ochish yo'llari bilan yo'q qilish usullarini, dushman tomonidan zarar keltirishi juda kuchli bo'lgan portlashlar sodir etilganda (favqulotda vaziyatlarda), yoki dushman o't ochishga tayyorgarlik ko'rishni boshlaganda (o'qchi uchun usti yopiq tokchali okop, № 6-nishon, № 10-pulemyot) harakat usullarini mashq qilish joyi; 10-qo'shinlar kimyoviy razvedka uskunasini (QKRU) tayyorlash uchun joy.




**6-rasm.** Harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joyi (o'quv shaharchasi).

### Gimnastik shaharcha

Gimnastik shaharchalari sanitariya talablari va ta'lim muassasasiga qulay va yaqinligini hisobga olgan holda kuriladi. Shaharchaning asosini gimnastik snaryadlar va boshqa sport qurilmalari tashkil etadi. Gimnastik shaharchasini qurayotgan vaqtida unda o'rganish mashqlarini va bir vaqtning o'zida ko'p miqdordagi o'rganuvchilarni o'tkaza olishini ta'minlash maqsadida gimnastik snaryadlar, qurilma,

moslamalar va turli konstruksiyalarni ratsional joylashtirishga e'tibor qaratish zarur. Gimnastik shaharchalarida sport inshootlarini chiziqli joylashtirish eng ratsional joylashtirish hisoblanadi. 50x30 m. o'lchamdagagi gimnastik shaharchasining varianti 7-rasmda ko'rsatilgan. Shaharcha perimetri bo'yicha eni 2 m. bo'lgan yugurish yo'lakchasi bilan chegaralangan. Agar yer uchastkasi gimnastik shaharchasini qurishga torlik qiladigan bo'lsa, snaryadlar, konstruksilar va moslamalarni joylashtirishga ijodiy yondoshish va ushbu tavsiyalarda bayon qilingan ko'rsatmalarga zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish lozim.




**7-rasm.**

Gimnastik shaharchasi (variant). 1-balanchi metall konstruktsiya, unga turli snaryadlar qotiriladi; 2-og'ir predmetlar bilan mashq o'tkazish uchun (giralar, patron yashiklari); 3-shtanga bilan mashq qilish uchun yog'och «pomost»lar (2x3); 4-engashirilgan doskalar (uzunligi 2,2 m., eni 30 sm.); 5-oyoq. uchun tayanchlari bo'lgan gimnastik skameykalari (balandligi 35 sm); 6-uzun parallel bruslar (balandligi 1,2 m. va 1,7 m., jerdlar orasining eni 45–50 sm); 7-standart parallel bruslar; 8-standart turniklar (perekladinalar); 9-trubadan qilingan ko'p proletli perekladinalar (balandligi 1,5., 2,4 m., stolbular orasida 2,5 m.); 10-5x8 m. li chuqurlangan qo'l jangi uchun maydoncha; 11-qo'l jangi uchun qoplar; 12-muvozanat saqlash va chuqurga saqrash uchun balkalar (balandligi 2,5 m. va 1 m.); 13-gimnastika devori (balandligi 2,5 m., eni 10 m.); 14-estafetalar, o'yinlar, darsning kirish qismini o'tkazish uchun maydoncha; 15-soddalash-tirilgan «kozel»lar (balandligi 1,1 m., snaryadlar orasi 2 m.); 16-standart, «kon» va «kozel»; 17-yugurish yo'lakchasi (eni 2 m.).

Gimnastika shaharchalari tegishli vazirlik va boshqarmalarning hujjatlarida ko'rsatilgan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishga va «salomatlik» meyorlarini topshirishda zarur bo'ladigan sport anjomlari va jihozlari to'laligicha ta'minlansa yaxshi natijalarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

### To'siqlar qatori majmuasi

To'siqlar qatorini oshib o'tish bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchilar turli ko'rinishdagi to'siqlarni yengishni, granata uloqtirishni, murakkab, tez o'zgaradigan sharoitda harakat qilishni o'rganadilar. Ularda chidamlilik, chaqqonlik, epchillik sifatlari rivojlanadi, shuningdek, jasurlik, qat'iylik, topqirlik, o'z kuchiga ishonish kabi xislatlar tarbiyalanadi (8-rasm).



8-rasm. To'siqlar qotori.

1-to'siqlar qatorining boshlanish liniyasi; 2-tez yugurish uchun oraliq masofa; 3-chuqurlik (yuzasini eni 2 m; 2,5 m; 3 m; chuqurligi 1 m); 4-labirint (eni 2 m, bo'yi 1,1 m; yo'lakchalar orasi 0,5 m; yo'lakchalar soni 10 ta); 5-devor (balandligi 2 m; qalinligi 25 sm); bir tomoni engashtirilgan taxta bilan (taxta uzunligi 3,2 m., eni 25-30 sm); 6-buzilgan ko'rik (balandligi 2 m). Bu ko'rik 3 ta tug'ri burchakli  $0,2 \times 0,2$  balkalar bo'laklaridan iborat; birinchisining uzunligi 2 m, ikkinchisi 3,8 m; boshidan 135 gradusli burilishgacha 1 m; uchinchisi 3,8 m; boshidan 135 gradusli burilishgacha 2,8 m; balkalar orasidagi uzilishlar kattaligi 1 m, ikkinchi bo'lak boshida va uchinchi bo'lak boshida va oxirida vertikal narvonlar mavjud bo'ladi; 7-buzilgan pillapoya (eni 2 m, pog'onalar balandligi 0,8 m, 1,2 m, 1,8 m pog'onalar orasi 1,2 m; oxirgi pogonada 2,3 m.li pillapoya; 8-g'isht devor (balandligi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m); ikkita ko'zi bor: pastkisi

1x0,4 m., ustkisi 0,5x0,6 m., g‘isht devor ostida 2,6x3 m.li maydoncha bor; 9—quduq (chuqurligi 1,5 m., eni 1 m) va aloqa yo‘li (uzunligi 8 m, bir burilish bilan); 10—transheya (chuqurligi 1,5 m); 11—yugurish yo‘lakchasi (eni 2 m).

*Eslatma:* To‘sqliar qatorini oshib o‘tish tartibi o‘quv dasturning 2- ilovasida ko‘rsatilgan.

### **Ko‘chma (yig‘ma) jihozlar**

O‘quv qurollari va texnikalari (4-ilovaga muvofiq).

Kimyoiy himoya vositalari (4- va 5-ilovalarga muvofiq).

Sport snaryadlari va anjomlari (8-ilovaga muvofiq).

Qo‘l bola yasama qo‘l granatalari (8-ilovaga muvofiq).

Kiyiladigan, osib va taqib olinadigan anjomlar (8-ilovaga muvofiq).

Otish tayyorgarligini amaliy mashg‘ulotlari uchun moslamalar (8-ilovaga muvofiq).

Mashg‘ulotlar va musobaqalar o‘tkazish uchun ko‘rsatkichlar va buyumlar (8-ilovaga muvofiq).

O‘lchov asboblari va buyumlar (8-ilovaga muvofiq).

«Tibbiy bilim asoslari» bo‘limi bo‘yicha anjomlar va o‘quv materiallari (6-ilovaga muvofiq).

O‘quv -ko‘rgazmali qo‘llanmalar (8-ilovaga muvofiq).

Tasvir tushirish uskunalarini dona (8-ilovaga muvofiq).

*Eslatma:* Ko‘rsatilgan ilovalar YOCHGBT o‘quv dasturidagi ilovalarni nazarda tutadi.

## **VATANPARVARLIK TARBIYASI BO‘YICHA KO‘RGAZMALI TARG‘IBOT VOSITALARI**

### **Stendlar:**

- «O‘zbekiston Respublika Qurolli kuchlarining qahromonona yo‘li»;
- «Ular Vatan uchun jang qildilar» (ta’lim muassasasining o‘qituvchilarini va shu yerda o‘qishni tamomlab ketgan sobiq o‘quvchilarni jangovar yo‘llari) ;
- «Ota-onalarimizning olgan harbiy mukofotlari hikoya qiladi»;
- «Ofitserlik kasbi»;
- «Bizning bitiruvchilarimiz – harbiy o‘quv yurtlarining kur-santlari»;

- «Ular Vatan oldidagi burchlarini a’lo darajada ado etmoqdalar»; Bulardan tashqari;
- Viloyat, shahar, tuman, qishloq hududlarida O’R QK va xalqlarining inqilobiy va jangovar shon-sharaf yodgorliklarini xaritalarini, sxemalarini;

- Buyuk sanalarning taqvimini;
- «Vatanparvar» gazetasini vitrinasini tashkil etish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi qahramoni nomi bilan ataladigan ta’lim muassasalarida qahramonning portreti va uning hayoti, ko‘rsatgan jasoratini yoritadigan stend bo‘lishi lozim.

### **Jangovar va mehnat shon-shuhrti xonasi (muzeyi, burchagi).**

Madaniyat va sport ishlari vazirligining qarori bilan tasdiqlangan ta’lim muassasalarinig jangovar va mehnat shon-shuhrti muzeyi (xona burchak)ni tashkil qilish jihozlash va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tashkil qilinadi va jihozlanadi.

### **Ta’lim muassasasi va o‘quv punkti O‘MB ning holati quydagicha baholanadi:**

«*a’lo*» – agar jihozlangan joylarda: 1) Harbiy hona; 2) O‘quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi; 3) Otish qoidalari va usullarini amaliy o‘rgatish uchun joy (strelkoviy tir); (ta’lim muassasasida otish joyining mavjudligi, shuningdek, bir nechta ta’lim muassasalari katta bo‘lgan umumiylotlar jadvalida ko‘zda tutilgan otish to‘garagi ishlarini o‘z vaqtida boshlash imkonini bera olishi ham inobatga olinadi, agar ta’lim muassasasining joylashuv shart-sharoitlari otish joyiga ega bo‘lishning imkonini bermasa hokimlik qarori bilan bu ta’lim muassasasi, o‘quvchilarga otish qoidalari va usullarini amaliy o‘rgatish uchun boshqa bir otish qoidalari va usullarini amaliy o‘rgatish uchun joy (strelkoviy tir)ga ega bo‘lgan ta’lim muassasasiga (tashkilotga) biriktirib qo‘yiladi; 4) Saf tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun maydon; 5) Vzvod bo‘yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o‘rgatish joyi; 6) Qurollarni, tabelli o‘quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o‘rgatadigan joy. Ta’lim muassasasida qurollarni, tabelli o‘quv-qurollarni va texnikalarni mavjud emasligi qo‘yiladigan bahoga ta’sir etmaydi, agar MIB tomonidan berilmagan yoki IBB tomonidan olib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi esa

qo‘yilgan talablarga javob bersa, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazish uchun qo‘chma jihozlar majmuasi va qo‘chma jihozlar anjomlariga kiradigan anjomlar: nishonlar majmuasi, joylardagi buyumlar va mo‘ljal olish uchun maketlar, ko‘rsatuvchi belgilar, qo‘l granatasining balvankalari, guruh bayroqchalari, tayanch majmuasi, choyshab, bir xil mo‘ljalga olish uchun ekranlar, seksiyaga anjomlar majmuasi, granata va magazini (o‘qdonlar)lar uchun sumka (remen), piyodachilarining kichik lopatasi uchun niqob (chexol)chalar. Ta’lim muassasasi dastur hajmidagi, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo‘yicha amaliy faoliyatlarni mashq qilishni ta’minlaydigan, o‘quv punktlarida uchun esa bundan tashqari jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulot o‘tish, o‘tish uchun joyga ega bo‘lsa;

**«yaxshi»** – agar «a’lo» baho qo‘yilishi uchun bo‘lishi kerak bo‘lgan O‘MB barcha elementlari mavjud bo‘lsa, biroq vzvod bo‘yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o‘rgatish va qurollarni, tabelli o‘quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o‘rgatadigan joy to‘liq jihozlanmagan, shuningdek, qo‘chma jihozlardan ayrimlari yetmasa;

**«qoniqarli»** – agar harbiy hona, o‘quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi, Otish qoidalari va usullarini amaliy o‘rgatish uchun joy (strelkoviy tir), saf tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun maydon, tabelli o‘quv-qurol va texnikalar bo‘lsa, va ularning hisobini yuritish, saqlash, talabga muvofiq tashkillanmagan;

**«qoniqarsiz»** – agar «uch» baho qo‘yilishi uchun bo‘lishi kerak bo‘lgan O‘MB elementlaridan birontasi bo‘lsa ham mavjud bo‘lmasa yoki tabelli o‘quv-qurol va texnikalarni hisobini yuritishga, saqlashga, qo‘yilgan talablariga muvofiq tashkillanmagan bo‘lsa (IIB buyrug‘i bilan tasdiqlangan qurol olish, tashib keltirish, saqlash, o‘qotar qurollarni, ularning o‘q-dorilarini hisobini yuritish to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi).

Bunda harbiy ish asoslari va fuqaro himoyasi mashg‘ulotlari uchun ta’lim muassasasida o‘quv shaharchasini jihozlash uchun joy ajratilishini imkonli yo‘qligi tufayli ko‘chma (yig‘ma) jihozlardan foydalanilgani qo‘yiladigan bahoni pasaytirish uchun asos bo‘la olmaydi.

Mahalliy xalq ta’limi bo‘limlari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalarining buyrug‘lari bilan belgilangan mashg‘ulotlar o‘tkazish joyi aniqlanadi va shaharchadan foydalanish o‘zaro kelishilgan dalolatnomalar (jadvallar) mavjud.

Ta'lim muassasasi o'quv-moddiy bazasi rivojlanish va takomillashtirilishi perspektiv (besh yillik) va yillik rejalar asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi o'quv-moddiy bazasi rivojlanishi va takomillashtirilishi perspektiv (besh yillik) rejasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- O'MB rivojlanish va takomillashtirilish bo'yicha asosiy tadbirlar;
- kerakli moddiy vositalar va mablag'lar;
- bajarilish muddati va ish kim tomonidan bajarilishi.

Reja ta'lim muassasasi direktori va harbiy rahbar (CHTO') bilan imzolanadi.

Reja ta'lim muassasasi bo'ysunadigan xalq ta'limi organlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining tomonidan qo'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasasinin O'MBni rivojlantirish va takomillashtirish yillik rejasi ta'lim muassasasida belgilangan taqvim yili rejasi shakli bo'yicha ishlab chiqiladi, harbiy rahbar (CHTO') bilan imzolanadi va ta'lim muassasasi direktori bilan tasdiqlanadi.

### **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha moddiy-texnik ta'minoti**

Ta'lim texnik vositalari ta'lim muassasasi o'quv-moddiy baza-sining elementlaridan biri hisoblanadi va o'quv jarayonida tatbiq qilinadigan texnik qurilmalarni o'zida mujassam etadi.

YOCHQBT xonasi quyidagi texnik vositalar bilan jihozlanishi lozim :

- Kompyuter majmuasi (so'ngi rusumli);
- Kinoproyektor;
- DVD ROM. Yoki vidiomagnitafon;
- Chizmachilik va maxsus plyonkalar (kodoskop) va ular uchun asbob-anjomlar va priborlar to'plamiga ega bo'lgan grafoprektom;
- diaproyektor (DM-3, «Svet», UP-2 «LETI-60» LIPI) yoki kadriproekt («Vitaz», «Kadr», «Krugazor»);
- 8 mm li kinoproyekt («Kvant», «Rus», «Mayak», «Luch-2m»);
- magnitafon (etidosqop).

«Ta'lim te xnik vositasi» atamasi ikki tushunchani o'z ichiga oladi:

1. Hususiy texnik qurilma (kompyuter texnologiyalari, vidioproyektor, diaproyektor, kinoproyektor, televizor, magnitafon va hokazo);
2. Ta'lim vositasining o'zi (darslarning multimediyalari, mashg'u-

lotning elektron variantlari, slaydlar, kinofilmlar, magnitogram-malar va hokazo).

Bu yerda, shubhasiz, ta'lim vositasi eng muhimi hisoblanadi.

U o'quv ma'lumotini tarqatuvchisi, ta'lim oluvchilar bilish fuoliyatini tezlashtiruvchi vosita hamdir.

TTV tavsiflanadigan bir qancha belgilar mavjud tuzilishiga oid, tashkiliy, sezish organlariga ta'sir qilishiga ko'ra va hokazo.

Harbiy pedagogiqada ta'lim jarayonida hal qilinadigan masalalarning xususiyatiga ko'ra tavsiflanishi keng tarqalgan.

#### 1. Ta'lim berishning texnik vositalari (MBTV).

Ularga kompyuter va boshqa texnik vositalar yordamida multimediyalar, mashg'ulotning elektron variantlari, slaydlar orqali o'r ganiladigan ma'lumotni berishga imkon beradigan kinofilmlar, rasmlar, tiniq plyonkali sxemalar, fonogrammalarni televizion aks etish, magnit yozib olish va hokazo. Audivizual qurilmalar kiradi. Bu yerda shuningdek blankalar, jadvallar va sxemalar qo'rinishidagi bosma tarqatma materialni ham kiritish mumkin. Bu guruh eng keng tarqalgan va ilgarigi vaqtlardan buyon ishlatilib kelinadi. Ularga dioproyektor, kadrproyektor, kinoqurılma, kadoskop va hokazo kiradi. Hozirgi vaqtda ta'lim berishda ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy texnik vositalari keng tarqalib respublikamizning barcha hududlariga keng tarqaldi.

Shuning uchun davlatimiz bu ishlarni o'z vaqtida kechiktirmasdan olib borilishi uchun kadrlar masalasiga diqqat e'tiborni qaratmoqda.

#### 2. Joriy va yakuniy bilimlarni nazorat qilish (imtihon, sinov) uchun bilimlarni nazorat qilish texnik vositalari (BNTV).

Nazorat mashinalarini tatbiq qilish, nazorat natijalarini ortiqcha vaqt sarflamasdan olish mumkin, savolar soni yetarli bo'lganida (test savollari) esa baho qo'yilgan natija bilan bo'ladi. Savollari soni va baho bilan nazorat natijalarini olishga imkon beradi («P-4 kompyuter majmuasi», «Kion-5», «Ekzamentor-men», «Signal-!», «Ankord», «Lira»).

#### 3. Amaliy ko'nikmalarini singdirish texnik vositalari (trenajyorlar).

Jangovar texnika, qurol-yarog' va boshqalarda ishlashda ta'lim oluvchilar amaliy ko'nikmalarini singdirish va takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

#### 4. Mustaqil ta'lim olish texnik vositalari.

Ma'lum bir dastur bo'yicha o'quv ma'lumotlarini berilishini ta'minlaydi va kompyuter yoki EHM bazasi yordamida o'zini nazorat qilishni amalga oshirishga imkon beradi (so'ngi rusumli kompter, om-9, om-20, «Repetitor – MEN», avtomatlashtirilgan ta'lim sistemasi

ATS). Ko‘rgazmali qurollar – pedagogikaning muhim didaktik prinsipi, bunga ko‘ra darsda qabul qilinadigan aniq namunalar o‘quvchilar bilan o‘rganiladigan materialni yaxshi o‘zlashtirib olishga yordam beradi. Darslarda ko‘rgazmali qurollar va taktik vositalarni tatbiq qilinishi o‘quvchilar e’tiborini eshitib qabul qilishlaridan ko‘rib qabul qilishlariga qaratilib va bir vaqtning o‘zida navbatdagi o‘quv materiallini eshitish orqali ongli qabul qilishga va bilish faoliyatini faollashtirishga tayyorlaydi. Ko‘rgazmali qurollar yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi ishida alohida ahamiyatga ega bo‘lib jang maydonida askarning ishonch bilan harakatlanishlari uchun zarur bo‘lgan usul va ko‘nikmalarni shakllantirishda bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

U yoki bu ko‘rgazmali qurol yoki ta’lim texnik vositalarining tatbiq qilinishining pedagogik samaradorligi o‘quvchi qanchalik faol va qunt bilan ishlaganiga qarab oshib boradi. O‘qish va bilim orttirish borasida o‘quvchilarning o‘zlari yasay oladigan maket, model va ko‘rgazmali o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashga jalb etish foydadan holi emas. Ma’lum bir ko‘rgazmali qurol va ta’lim texnik vositalarini qo‘llanishining maqsadga muvofiqlik mezoni, o‘quv vaqtini tejalishi va darsni foydali koeffitsiyentining ta’sir etishini ko‘payishidadir. Agar ko‘rgazmali vositalarni tatbiq etish o‘quv vaqtining tejalishiga olib kelmasa, unda ular noo‘rin tanlangan, darslardan oqilona foydalanimagan yoki mazkur mashg‘ulotda ularning umuman keragi yo‘q deb topiladi. Darsga ko‘rgazmali qurollarni tayyorlashda nafaqat kerakli vositalar, sxemalar, plakatlar, maketlar, o‘quv quroli va hokazolarni tanlash (tayyorlash), TTV moslama va qurilmalar havfsizligini tekshirish, balki ko‘rgazmali vositalarni tatbiq qilish uslubiyotini ishlab chiqilishini ham o‘z ichiga oladi:

- Tatbiq qilishning maqsadini aniqlash;
- Ular bilan ishlash uchun ajratilgan vaqtini aniqlash;
- Mashg‘ulot (dars)ning pedagogik mazmunida qo‘llanmaning o‘rni.

Aytaylik, harbiy rahbar (CHTO‘) mashg‘ulotda YOCHQBT xonasida ko‘rgazmali vositani tatbiq qilmoqchi (nazariy mashg‘ulotda «Harbiy ish asoslari» bo‘yicha o‘quv filmlari). Butun filmning namoyishi 25-35 daqiqa egallashini nazarda tutgan holda har bir juftlik darsda film parchasini 18-20 daqiqadan ko‘rsatish lozim. Filmni o‘quvchilarga darsdan tashqari soatlarda mazkur mashg‘ulotda olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida to‘laligicha namoyish etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Darsni o‘quv filmini ko‘rsatish bilan o‘tkazish mumkin emas, sababi filmni o‘zi mashg‘ulot oldiga qo‘yil-

gan maqsadini to'laqonli amalga oshira olmaydi. Shu bilan birga o'quvchilar ko'p holda ko'rsatiladigan material syujeti, tashqi chiroyi, ta'rifiy tomonlari bilan chalg'ib ketadi, o'rganilayotgan savolar bilan bog'liqlikni yo'qotadi. Shuning uchun ko'rgazmali qurollar va TTV ni tanlashda ularning o'rganiladigan materialni nazariy qoidalari bilan bog'liqlik darajasini e'tiborga olishi lozim.

Ta'limga muassasasilariga uchun o'quv qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq o'quv texnikasi va buyumlarini O'R Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan meyorlar (ro'yxat) ga ko'ra bepul (ro'yxatning 4-ilovasi, YOCHQBT dasturi - 2005 y, 59-b. qarang) beriladi.

Ta'limga muassasasiga beriladigan o'quv quroli quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- Stvolning o'q solinadigan (kazennoy chasti) qismida pastda AKM-48 mm bo'lgan kenglik va uzunlikdagi stvoli yo'li boshida hosil bo'lgan ikki tomoni ochiq tirqishli segment kesik; (*na kazennoy chasti stvola snizu segmentniy virez s obrazovaniyem v nachale kanala stvola skvoznoy prorez shirinoy i dlinoy u AKM-48 mm*);
- Arralangan zarbalovchi nayza; (spilenniy boyek);
- Stvolning old qismining yuqorisida va stvol qutichasi pastida ikki tomoni ochiq uzun yoriklar, qurolning taxta va plastmassa qismlari qora rangga bo'yagan bo'lishi kerak. O'quv quroli, kichik kalibrli miltiqlar, o'quv texnika va buyumlar MIB orqali okrug qo'mondoni bilan belgilangan tartibda harbiy okruglar naryadlari bo'yicha beriladi. O'quv quroli, kichik kalibrli miltiqlar ta'limga muassasasi va o'quv punktlariga faqat ichki ishlar organlari ruxsatnomasi bilan ta'limga muassasasi va korxona direktorining ishonchnomasiga asoslanib beriladi.

YOCHQBT uchun mo'ljallangan o'quv quroli va kichik kalibrli miltiqlar ta'limga muassasasi rahbariga qurolni olish haqida xabar berilgan kundan boshlab ta'limga muassasasi tomonidan 10 kun ichida MIBdan olinishi kerak.

Ta'limga muassasalarini va korxonalarini tomonidan belgilangan muddat ichida olinmagan o'quv qurol - aslahalar va kichik kalibrli miltiqlar ta'minlovchi organlarga qaytarib beriladi. Kichik kalibrli patronlar MK «Vatanparvar» tashkiloti orqali ta'limga muassasalariga beriladi. Ta'limga muassasalarini va o'quv punktlarini kichik kalibrli patronlar (o'qlar) ta'minlash uchun ta'limga muassasasining direktori tuman MK «Vatanparvar» tishkilotiga buyurtma taqdim etadi. MK «Vatanparvar» tashkiloti o'ziga qarashli tumanining barcha ta'limga muassasalarini va

o‘quv punktlari bo‘yicha bu patronlarga bo‘lgan miqdoriy ehtiyojni aniqlaydi va tushgan buyurtmalarni viloyat MK «Vatanparvar» tashkilotiga yo‘llaydi. Ta’lim muassasalariga va o‘quv punktlariga olingan qurolini besh kun ichida ichki ishlar organiga ro‘yxatga qo‘yishlari va uni saqlash huquqini olishlari kerak.

Qurolini saqlash huquqi ruxsatnomasini uch yil muddatga ta’lim muassasasi direktorining nomiga beriladi.

Ta’lim muassasasi direktori hamda ta’lim muassasasi yoki korxonaning nomi, manzili o‘zgarsa ruxsatnoma ichki ishlar organiga besh kun ichida qayta rasmiylashtirish uchun beriladi. Ta’lim muassasalari va o‘quv punktlariga o‘quv qurolini MIB va MK «Vatanparvar» tashkilotiga tashib keltirilishi ta’lim muassasalarining kuch va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Olib kelishda quroslahalar va kichik kalibrli miltiqlar albatta g‘iloflangan, o‘q-dorilar esa sandiqlarga solinib muhrlangan bo‘lishi shart.

Olib kelinadigan quroslahalar, kichik kalibrli miltiqlar va o‘q-dorilarni yo‘l davomida qo‘riqlash va kuzatib borish uchun ikki kishidan kam bo‘lмаган qo‘riqchi ajratiladi.

YOCHQBT bo‘yicha adabiyotlar va ko‘rgazmali qurollar bilan ta’milanishi ta’lim muassasasi tasarrufida bo‘lgan vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar va tashkilotlar hisobidan ta’milanadi (ro‘yxat, 7-ilova, YOCHQBT dasturi 2005,y 64-betga qarang).

Fuqaro mudofaasi bo‘yicha o‘quvchilarni tayyorlash uchun o‘quv materiallari bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi ko‘rsatmasiga asosan fuqaro muhofazasining tegishli bo‘limlari tomonidan ta’milanadi. (5-ilova, YOCHQBT dasturi 2005 y. 62-b. karang). Tibbiy bilim asoslari bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun buyumlar ta’moti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi mablag‘i hisobiga sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan ta’milanadi. (6-ilova, YOCHQBT dasturi 2005 y. 63-betga qarang). YOCHQBT bo‘yicha darsliklar, o‘quv ko‘rgazmali qurollar va pnevmatik miltiqlar va ularning o‘qlari ta’lim muassasasi mablag‘i hisobidan ham buyurtma asosida sotib olinishi mumkin.

(Variant)

*Toshkent shahar Hamza tumani  
Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'iga*

### *Buyurtma*

*Sizdan, yoshlarni chaqiruvg qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayonni ta'minlash maqsadida Toshkent shahar Aviasozlar kasb-hunar kolejini quyida ko'rsatilgan o'quv qurollaslahalar va 2005 yilgi YOCHQBT o'quv dasturining 4-ilovasidagi ro'yxatga muvofiq quyida ko'rsatilgan buyumlar bilan ta'minlashingizni so'rayman:*

- I. 74-Kalashnikov avtomati – 1 ta.
- II. O'quv mashg'uloti uchun 5.45 mm o'q-dorilar – 30 ta.

III. Priborlar va boshqa buyumlar:

1. Kattalar uchun protivogazlar – 50 dona
2. R-2 respiratorlari dona – 25 dona
3. Filtrlovchi himoya kiyimi to'plam – 1 komplekt
4. L-1 rusumli yengil himoya kostyumi to'plam – 1 komplekt va hokazolar.

*Toshkent shahar Aviasozlar kasb-hunar kolleji*

*Direktori: Q. Oxunov.*

*Harbiy rahbar (CHTO'): kapitan H. Husanov.*

Umuman mustaqillikka erishganimizdan keyin ta'lif muassasalarini O'MB bilan ta'minlash bo'yicha juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilda va yangidan-yangi imkoniyatlar tug'iladi. Ayniqsa bu borada ta'lif muassasalarining o'zlariga ham O'MB yaratish uchun o'z moddiy va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xarid qilish huquqi berildi.

Yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishga bel bog'lagan har qanday o'qituvchi, murabbiy o'z sohasini puxta bilishi bilan birga uni yanada takomillashtirishi, oqilona tashshabbuslar ko'rsatishi, eng asosiysi o'z ishining fidoyisi bo'lishi shart ekanligini davr ko'rsatib turibdi.

Oldindagi har qanday masalani hal qilishda eng avvalo xohish va istakning bo'lishi, qolaversa har bir harbiy rahbar (CHTO')ning o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi va uni ijrosiga bo'lgan iltinishi juda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki ta'lif muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha O'MB juda

ko‘p elementlarni o‘z ichiga oladi. Ular tashki muhitda ham va o‘quv binolarining ichida ham joylashgan bo‘lib doimiy ravishda nazorat qilishni talab etadi.

O‘MB tiklash, takomillashtirish va ularni har doim foydalanishga yaroqli holatda ushlab turish faqat harbiy rahbar (CHTO‘)sining gardaniga yuklab qo‘yish bilan ish bitmaydi. Bu borada ta’lim muassasalarining rahbarlari eng katta mas’uliyat egalari hisoblanadilar va zarur bo‘lsa butun pedagogik jamoaning kuchini ham bu ishga qaratishlari shart bo‘ladi.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. YOCHQBT o‘quv xonasi (laborantlar xonasi bilan)ning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
2. Quroq-aslaha va o‘q-dorilarni saqlash xonasining jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
3. Otish joyi (Strelkoviy tir)ning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
4. Qurollarini tozalash va moylash o‘rgatish uchun joyning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
5. Saf tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun maydonining jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
6. Vzvod bo‘yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o‘rgatish joyning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
7. HIA va FH bo‘limidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish joyning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
8. Jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeyi (burchagi)ning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
9. Gimnastik shaharchaning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
10. To‘sinqalar qatori majmuasining jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
11. Jangovar va mehnat shon-shuhrati xonasi (muzeyi, burchagi)ning jihozlanishiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
12. Ko‘chma (yig‘ma) jihozlarga qanday elementlar kiradi ?
13. Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha ko‘rgazmali targ‘ibot vositalariga nimalar kiradi ?

**Tayanch iboralar:** O‘quv-moddiy baza, ta’lim texnika vositalari, maket, model, ko‘rgazma, nazorat qilish texnik vositalari.

---

## **6-§. TA'LIM MUASSASALARIDA RO'YXATDAGI (TABEL) BUYUMLARNI VA O'QUV QUROL-ASLAHALARNING HISOBINI YURITISH VA SAQLASH**

**Mashg'ulotlar uchun o'quv quroli va kichik kalibrli miltiq va ularga o'q-dorilarini olish, qayd etish, tashib keltirish va hisobini yuritish. Kichik kalibrli va pnevmatik qurollarga patronlar olish, saqlash va hisobdan chiqarish.**

Harbiy xizmatga tayyorgarlik ishlarini olib borish uchun O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligi ta'lismuassasalarini va o'quv punktlarini o'quv qurollari, kichik kalibrli miltiqlar, ular uchun patronlar, o'quv texnikasi, individual himoya vositalari, radiatsion va kimyoiy razvedka priborlarini ta'minot ro'yxati bo'yicha bepul ta'minlaydi. Ta'lismuassasalariga, o'quv punktlariga va MK «Vatanparvar» tashkilotiga o'quv qurol-aslahalar, o'q dorilar harbiy okruglar ta'minot organlari tomonidan MIB naryadi bo'yicha beriladi, kichik kalibrli patronlar esa mudofaa ishlari bo'yicha tuman bo'limlarining taqsimoti bo'yicha MK «Vatanparvar» tashkilotlari orqali tarqatiladi.

O'quv qurollari va o'q dorilar, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlarni olish uchun ruxsatnomalar olish, qabul qilib olish, hisob yuritish va ta'lismuassasasida saqlash, «Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash haqida»gi Nizomning yettinchi bobida belgilab ko'rsatilgan. Ta'lismuassasalari o'quv qurollari va o'q dorilarini, kichik kalibrli miltiqlarni tuman (shahar) IIB tomonidan ularni saqlash uchun maxsus jihozlangan xona va ichki ishlar bo'limining o'quv quroli va o'q dorilar olishga ruxsati asosida olinadi va maxsus qurol saqlash uchun jihozlangan xonaning talabga javob berishi haqidagi dalolatnomasiga binoan uch oy muhlat bilan beriladi. Foydalanilmagan ruxsatnomalar ichki ishlar bo'limlariga, kichik kalibrli patronlar esa MK «Vatanparvar» tashkilotiga qaytariladi. Ta'lismuassasalariga o'quv qurollari, ular uchun o'q dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlarni berilishi foydalanishga, saqlashga va hisob-kitobini yuri-tishga bevosita javobgar shaxsni shaxsini tasdiqlovchi hujjati, ish-onch bldirilgan nomi va ichki ishlar bo'limlari ruxsatnomasi kabi hujjatlarini taqdim

qilganida amalga oshiriladi. Tuman (shahar) MIB o‘quv qurollari va o‘q dorilarni olayotgan va tarqatayotgan shaxslar ularning texnik ko‘rsatmalari maqsadga mos ekanligiga ishonch hosil qilishlari shart. O‘quv quroli va kichik kalibrli miltiqlar bir oy muddat ichida ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilib va ularni saqlash uchun ruxsatnomaga olinishi kerak, bu ruxsatnomaga ta’lim muassasasi direktori nomiga uch yil muddat bilan rasmiylashtiriladi. Ta’lim muassasasi o‘quv qurollarini saqlash uchun ruxsatnomaga ega bo‘lganidan keyin ta’lim muassasasiga kichik kalibrli patronalar olish (sotib olish)ga ruxsat beriladi. Qurol saqlash xonasi jihozlangandan keyin ichki ishlar organlari markaziy qo‘riqlash pultiga ulanadigan tovush singalining iloji bo‘lmasa yoki bu borada qiyinchilik tug‘ilsa, binoning tashki tomoniga yoki eng yaqin bo‘lgan postga chiqarilgan yoki mahalliy sharoitga qarab ta’lim muassasasining ikki kishidan kam bo‘lmagan xodijnlari (xizmatchilar) ga o‘rnatilgan baland ovozli (sirena) avtomatik tovush signali bo‘lsa o‘qotar qurollarni saqlash 1-2 yillik muddatga ruxsat beriladi. Ta’lim muassasasi direktori o‘zgargan taqdirda va ta’lim muassasasining nomi va manzili o‘zgartilsa qurol saqlash ruxsatnomasi o‘n kun muddat ichida qayta rasmiylashtirilishi kerak.

**Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash bo‘yicha  
O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi  
muassasalarini qurol-yarog‘ va anjomlar bilan ta’minalash**

**RO‘YXATI**

(Bepul ta’minaladi)

№	Nomlanishi	Ta’lim muassasasi				MSSL	
		Umumta’lim		O‘rta-maxsus, kasb-hunar			
		Miq-dori	Xizmat-muddati	Miq-dori	Xizmat-muddati	Miqdori	Xizmat-muddati
1	2	3	4	5	6	7	8
<b>Artilleriya qurollari* (Mudofaa vazirligining RAK xizmati ta’minalaydi)</b>							
1.	5,45 mm (7,62mm) kalibrli Kalashnikov o‘quv avtomati, dona	3	Mud-datsiz	5	Mud-datsiz	10 ta vzvod-ga	-

2.	5,6 mm. li kichik kalibrli FOZ-8 miltig'i, dona	3	Mud-datsiz	5	Mud-datsiz	5 ta vzvod-ga	-
3.	5,45 mm (7,62 mm) kalibrli Kalashnikov avtomati uchun o'qlar**, dona	-	-	-	-	9	-
4.	5,6 mm. li kichik kalibrli miltiq uchun o'qlar**, dona	25	1 yil	25	1 yil	O'quv-reja bo'yicha ba- jariladigan mashqlar shartlari bo'yicha belgilanadi	
5.	Kalashnikov avtomati uchun 5,45 mm (7,62 mm) kalibrli o'quv o'qlari, dona	90	10 yil	90	10 yil	90 ta vzvod-ga	10 yil
6.	O'quv qo'l gra- natalari, dona: – himoyalovchi F-1 (RGO) – hujumga o'tuv- chi RGD-5 (RGN) – kumulyativ RKG-3	3 3 3	10 yil 10 yil 10 yil	3 3 3	10 yil 10 yil 10 yil	9 ta vz- vodga 9 ta vz- vodga 9 ta vz- vod ga	10 yil 10 yil 10 yil
7.	Komandir yashiklari, dona	1	Mud-datsiz	2	Mud-datsiz	1	Mud- dat-siz
8.	Uloqtirish u- chun o'quv qo'l granatalari, dona	10	Mud-datsiz	10	Mud-datsiz	-	-
9.	Binokl, dona	10	10 yil	20	10 yil	20	10 yil

O'quv qurollarni va kichik kalibrli miltiqlarni, ularning o'q-dorilarini tashib keltirilishi ta'lim muassasalarining kuch va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Olib kelishda qurollar va kichik kalibrli miltiqlar albatta g'iloflangan, o'q-dorilar esa qutilarga solinib va muhrlanishi shart.

Tashib keltiriladigan qurollar, kichik kalibrli miltiqlar va o'q-dorilarni yo'l davomida qo'riqlash va kuzatib borish uchun ikki kishidan kam bo'limgan qo'riqchi ajratiladi.

### **O'quv qurollarni va o'q-dorilarni, kichik kalibrli miltiq va ularning patronlarini mashg'ulotlar o'tkazish uchun tarqatish va qabul qilish hisobini yuritish**

Ta'lim muassasalarida ro'yxatdagi (tabel) o'quv qurollarni va o'q dorilarni, kichik kalibrli miltiqqlarni va ular uchun patronlarni, shuningdek, sotib olingan kichik kalibrli miltiqlarni va ularning patronlarini «O'quv qurollar, o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va ular uchun patronlar va o'quv buyumlarini ro'yxatga olish va foydalanish kitobi» bo'yicha hisobga olinadi.

### **O'quv qurollar, o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va ular uchun patronlar va o'quv buyumlarini ro'yxatga olish va foydalanish kitobi**

t/r №	Qayd etish sanasi	qurol nomi seriyasi № va chiqqan yili	Qabul qilingan va tarqatilgan hujjatning №__	Oldi-berdi hisobi			IIB tomonidan ber-n ruxsatnomaning berilgan sanasi va raqami « » №_07 y.
				olindi	berildi	qoldi	
1.	17.03. 2007 y.	7,62 mm Kalash. avtom. MS №1953-67 1990 y.	a) TMIB nakl №72 16.10.88 ichki ishlar organiga topshirilib 17.09.90 y akti bilan yo'q qilingan	bitta	bitta	ikkita	19.1.89 y. № 14

## Bu kitob raqamlanishi va varoqlari ip bilan bog‘lanib, ichki ishlar organlari muhri bilan muhlanishi kerak

O‘quv qurollari va o‘q dorilarni kichik kalibrli miltiq va ularning patronlarini qabul qilib olish uchun yo‘q hujjatlari asos bo‘ladi. Sotib olingan kichik kalibrli miltiq va patronlari uchun esa sotuvchi tashkilotning hisob varaqasi asos bo‘ladi. O‘quv qurollarini va o‘q dorilarni ta’lim muassasasidan olib chiqish va tarqatish, dala mashg‘ulotlarda va ta’lim muassasasiga qarashli otish joylari (strelkoviy tirda mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun ta’lim muassasasining ruxsati bilan olib boriladi. Agarda dala mashg‘ulotlari yig‘in usulida olib borilsa, unda ularni o‘tkazish joylarida qurollarni saqlash uchun xona ajratilib uni qo‘riqlashni tashkil etiladi. MIBB ruxsati bilan o‘quv quroli va kichik kalibrli miltiqlar YOCHQBT bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun boshqa ta’lim muassasasiga berilishi mumkin, bunday hollarda ularni qabul qilib olish ta’lim muassasasi direktori tomonidan amalga oshiriladi, direktor ularni yo‘qotib yoki o‘g‘irlanib ketish hollarini oldini olish maqsadida mustahkam va ishonchli saqlanishini tashkillaydi va olingan o‘quv qurollari va o‘q dorilar (mashg‘ulot o‘tkazilganidan keyin) berilgan kuni qaytarilishi kerak.

O‘quv qurollari va o‘q doirlarni, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlarni mashg‘ulotlarga va o‘q-otishga berilganidan va olib chiqilganidan so‘ng ularni o‘q-dori, kichik kalibrli miltiq, ro‘yxatdagi (tabel) buyumlarni oldi-berdi kitobiga kerakli yozuvlar qayd etiladi.

### 1. O‘quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlar

№ t/r	Berilgan vaqtি	Qurol nomi va seriyasi № _____	Berili-shiga asos	Berildi			Qaytarildi	
				soni	Kimga bealdi	Olganligi haqida imzo	soni	Imzo sana

### 2. Kichik kalibrli patronlar

t/r №	Berilgan vaqtি	O‘q-dori-larning nomi	Berili-shiga	Berildi	Qaytarildi

				soni	Kimga berildi	imzo	Ishlat ilma-di	Nosoz gilzalar (osech kali)	Qabul qilingan vaqt va imzo.
--	--	--	--	------	---------------	------	----------------	-----------------------------	------------------------------

### 3. Ro‘yxatdagi (tabel) o‘quv o‘q-dorilar va buyumlar

t/r №	Beril-gan vaqtি	o‘q-dori-ning nomi	Berili-shiga asos	Berildi			Qaytarildi	
				Soni	patron oluvchi-ning I.F.	Olingan-ligi ha-qida imzo	soni	Qabul qilingan vaqtি imzo

Kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlarga patronlar – alohida temir (stal) yashikda (seyf) qulf osilib va muhrlangan holda saqlanadi. Yashik (seyf)ni devor yoki polga mahkamlaganda uni patroni bilan olib ketilishining oldi olinishi kerak. Temir (stal) yashikni (seyfni) quroq saqlash shkafiga joylashtirish mumkin. Shu bilan birga u shkafga mahkam biriktirilib, payvandlanishi, qulflanishi va surgut bilan muhrlanishi kerak. O‘quv o‘q-dorilari jihozlangan tokchalarda, o‘quv patronlari esa bundan tashqari taxta tuyachalarida (tik holatda) saqlanadi. O‘q-dorilarning har bir turi tagiga nomi yozilib, yopishtirib chiqiladi. Qayd etish kitobi raqamlanib, varaqlaridan ip o‘tkazib bog‘lab ta’lim muassasasining muhri bilan muhrlanadi. Kichik kalibrli miltiq va pnevmatik qurollarning patronlarini hisobdan o‘chirish direktori tomonidan otish mashg‘ulotlari uchun patronlarni tarqatish ro‘yxati (vedomosti) bilan dalolatnoma (akt) asosida amalga oshiriladi.

**Quroq saqlash xonasini jihozlashga qo‘yiladigan talablar va o‘quv qurollari, kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlarni ehtiyojlashni, saqlashni, tashkil etish».**

Ta’lim muassasasida mavjud o‘quv qurollari va o‘q-dorilari, kichik kalibrli miltiq va ular uchun patronlar quroq saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalarda saqlanadi. Quroq saqlash xonasi quyidagi talablarga javob berishi kerak: boshqa yordamchi, xizmat xonalardan mustahkam devorlar, tomi va poli to‘silgan bo‘lib, xonaga kirish imkoniyatini qoldirmaydigan darajada mustahkam bo‘lishi kerak.

Ichki devorlar metall to‘rli (reshyotka) to‘sqliar, 80 mm li, har biri temir (stal) asosga ega gopobeton panellari bilan qoplangan yoki 120 mm li mustahkam g‘ishtdan devorli bo‘lishi kerak. Ilgari qurilgan imoratlarda temir (stal) to‘rlar (reshyotka) bilan mustahkamlangan taxta devorlarga ruxsat etiladi: ikkita mustahkam va ishonchli ikkita tambalarga (kamida ikkita ichki qulf) ega ikkita eshik bo‘lishi kerak. Shu bilan birga eshiklar 40 mm qalinlikdagi taxtadan bo‘lib ikki tomonidan metall bilan qoplangan bo‘lishi kerak. Tashki eshik muhrlanashi yoki plombalanishi shart. Eshikning asosi metaldan qilinadi. Ilgari qurilgan imoratlarda taxta asosli eshiklarga ruxsat etilib, ular 30 x40 mm li temir (stal) burchaklar bilan kuchaytirilib devorga qalinligi 10-12 mm li uzunligi 120-150 mm dan kam bo‘lmagan maxsus tayyorlangan temir (stal) mixlar bilan mahkamlanadi. Agarda havo almashish uchun deraza bo‘lsa, ularga 100 x10 mm dan katta bo‘lmagan stal temir (stal) panjaralar o‘rnatilib ular orqali kirish imkoniga yo‘l qo‘yilmaydi.

– Oynalarda ichki tomonidan yoki romlar o‘rtasida temir (stal) panjaralar bo‘lishi lozim. Birinchi qavatda joylashgan xonalarda deraza oynalari temir (stal) yoki taxta (ikki tomoniga metall qoplangan) to‘sqliar bilan yopiladi. Panjaralar temir (stal)lari 80 mm chuqurlikka beton quyib mustahkam o‘rnatiladi. Deraza to‘sqliari qulflanib muhrlanishi yoki tambalab qo‘yilishi kerak. Eshik derazalarga va devorlarni mustahkamlash uchun qo‘yilayotgan panjaralar 15 mm li qalinlikdagi temir (stal)lardan tayyorlanib ularni har bir tutashgan nuqtasi payvandlanib, 150 x 150 mm li katakchalar hosil qiladi.

– Qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlanib, yashirin o‘tkazgich bilan elektr manbasiga ulangan bo‘lishi, deraza, eshik, shiplarga belgi beruvchi datchiklar o‘rnatilib ichki ishlar organlari kuzatuv markaziy pultiga ulangan bo‘lishi yoki qo‘ng‘irog‘i (srenasi) binoning tashqarisiga o‘rnatilib korxona va tashkilotlarni qo‘riqlash postiga, qorovulga yoki ta’lim muassasasining ikkitadan kam bo‘lmagan xodimlari (xizmatchilaridan eng yaqinlariga o‘rnatilgan alohida mustaqil ishlaydigan (avtonomniy) signalizatsiyaga ega bo‘lishi kerak.

– O‘t o‘chirish jihozlariga (ognetushitel) ega bo‘lishi;  
– 200 mm dan katta diametrli injenerlik tarmoqlarini xonadan o‘tishi man etiladi.

Quroq saqlash xonasi o‘zining hajmi bilan o‘quv urollari va o‘qdorilar, kichik kalibrli miltiq, ularning patronlaridan tashqari boshqa ro‘yxatdagi o‘quv buyumlarini joylashtirish imkoniga ega bo‘lsa, u ichki devor yoki temir (stal) panjara va eshik bilan bo‘linishi mumkin.

Xonaning ichkari tomonida o'quv qurollari va o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlar saqlanishi kerak. Xonaning yaqin old qismida individual himoya vositalari radiostansiya, radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa mulklar saqlanishi mumkin. O'quv qurollari kichik kalibrli miltiqdan alohida saqlanadi. Agarda alohida saqlash uchun shkaf bo'lmasa, o'quv qurolini kichik kalibrli miltiq bilan saqlashga ruxsat beriladi. Bu holda uning saqlanish joyi «o'quv quroli» yozushi bilan ajratilib qo'yiladi. Kichik kalibrli miltiqqlarning zatvorini alohida seyfda saqlash mumkin. Buyumlar saqlanadigan xonada mulklar ro'yxati yozib qo'yilgan bo'lib, unda shkaflar (piramidalar) soni, yashiklar (seyflar) ko'rsatilib, ularning tartib raqami va qanday muhr bilan muhrlanganligi ko'rsatiladi hamda o'quv o'q-dorilari soni qayd etiladi. Shkaflar (piramidalar) yashiklar (seyflar) eshiklarining ichki tomonida ularda saqlanayotgan o'quv quroli, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlar soni va turlari yozib ko'rsatib qo'yiladi. Shkafning (piramidaning) har bir bo'limida o'quv quroli va kichik kalibrli miltiqning seriya, raqam va turi ko'rsatilib yozib qo'yilishi kerak. Shkafda (piramidada) o'quv quroli bilan birga alohida ajratilgan joylarida (bo'limlarda) o'qdon, yog' solingan idishcha (maslyanka), alohida qismlari va o'qdonlar uchun xaltalar saqlanadi.

Shkaflarda (piramidalarda) o'quv quroli kichik kalibrli miltiqlarni saqlashda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

- Avtomatning o'q-dorilari olib qo'yilib, avtomat saqlagichga qo'yiladi, o'qdon, nayza-pichoq yechib qo'yilib, tepkisi tushirib qo'yiladi.

- Kichik kalibrli miltiqning o'q-dorilari olib qo'yilib, tepki tushirib qo'yiladi, zatvori olib qo'yilib, alohida saqlanishi mumkin.

- Kamarlari bog'lab (qistirilib) qo'yiladi.

O'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlar soz holatda, to'la jamlidka, toza va qurol moyi bilan moylangan holda saqlanishi kerak.

#### **Qat'iyan ta'qiqlanadigan harakatlar:**

- O'quv qurollarini, kichik kalibrli miltiq va ularning patronlaridan YOCHGBT dasturi bo'yicha o't otish mashqlarini bajarish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlar uchun foydalanish;

- O'quv qurollar va o'q-dorilarni ta'mirlab va jangovar foydalanish holatiga keltirish;

- O'quv qurolidan turli xildagi patronlardan foydalanib o'q otish;

- zavod raqamiga ega bo'limgan o'quv qurolini saqlash;

- jangovar qurolni, ularning patronlarlarini, qo'l granatasi, tankka va

piyodalarga, qarshi minalarni, signal raketalarini va palahton (xolostiyi) patronlarni quroq saqlash xonasida (kichik kalibrli miltiq va ularning patronlaridan tashqari) o'qituvchilar xonasi va boshqa xonalarda saqlash.

Quroq saqlanadigan xona, shkaf (piramida) va yashiklar (seyf) kalitlari o'quv quroli va o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlarni saqlash va foydalanish uchun bevosita javobgar shaxsda saqlanadi. Qolgan ehtiyoj kalitlar – ta'lismuassasasi direktorining seyfida o'quv quroli va o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlarni saqlash va foydalanish uchun javobgar shaxsning muhri bilan muhrlangan alohida yashikchada saqlanadi. Quroq, o'q-dorilar saqlash va foydalanishga javob beruvchi shaxs bo'lmagan taqdirda quroq saqlanadigan xonani ta'lismuassasasi direktori va ta'lismuassasasi ikki xodimi bilan birgalikda ochishlari mumkin, shu bilan birga quroq, o'q-dori kichik kalibrli miltiq va patronlarni hisobini yuritilishini, nazorat qilish jurnaliga tekshirilgan vaqt, shkaflarda (piramidalarda), yashiklarda (seyflarda) saqlanayotgan o'quv qurollari, kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlar va ular uchun patronlar soni yozib, qayd etib qo'yiladi. O'quv quroli va o'q-dorilarni ta'lismuassasasi direktorining ruxsati bilan ta'lismuassasasida, DO'M(y)da va ta'lismuassasidagi otish joylarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun beriladi va olib chiqiladi. MIBB ruxsati bilan o'quv qurollari, o'q-dorilar va kichik kalibrli miltiqlar boshqa ta'lismuassasasiga YOCHQBT bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun ham berilish mumkin. O'quv qurollari va o'q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlarni mashg'ulot va o'q otish uchun berilib, olib chiqilganidan so'ng ularni qayta topshirishda o'quv quroli o'q-dorilar, patronlar va ro'yxatdagi buyumlarni oldi-berdi kitobida kerakli yozuvlar bilan qayd etib qo'yiladi.

O'quv quroli va kichik kalibrli, pnevmatik miltiqlarni tozalash va moylash maxsus ajratilgan joyda harbiy rahbar va CHTO'larning nazorati ostida bajariladi, shu bilan birga o'qotish ishi bo'yicha kerakli ko'rsatmalarga (nastavleniya) amal qilish zarur. O'quv quroli, kichik kalibrli miltiq va patronlar yo'qotilsa yoki o'g'irlansa, darhol tekshiruv o'tkazilib, aybdorlar esa javobgarlikka tortilishi kerak. Bunday hollarda ta'lismuassasasi direktori o'quv quroli va kichik kalibrli miltiqlar ro'yxatga olingan joy bo'yicha ichki ishlar organlariga, MIBga, yuqori turuvchi tashkilot boshliqlariga zudlik bilan xabar berishi va ularni izlash bo'yicha keskin choralar ko'rishi lozim. O'quv quroli, kichik

kalibrli miltiqlar o‘g‘irlanishi va yo‘qotilishi har bir holatida tekshiruv ishlari olib boriladi va natijalari ichki ishlar organlarigi, MIBga, ta’lim muassasalari direktorlariga buyruq tarzida yetkaziladi. O‘quv quroli va o‘q-dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlarni saqlash va foydalanish qoidalarining talablari buzilgan holda va ulardan noqonuniy foydalanilganda aybdor shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

### **Qurollarni ta’mirlashni tashkil etish. Ro‘yxatdagi buyumlar, ularni olish, saqlash, tarqatish va ta’mirlash**

Ta’lim muassasasida mavjud bo‘lgan ro‘yxatdagi qurollarni ta’mirlash MIB orqali ta’minlovchi okruglar naryadlari bo‘yicha harbiy okrug ta’mirlash ustaxonalarida bepul ta’mirlanadi. Kichik kalibrli miltiq va xalq ta’limi bo‘limlari va o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari boshqarmalari yoki ta’lim muassasasining mablag‘lari hisobiga sotib olingan buyum va mulklar xalq ta’limi bo‘limlari va o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari boshqarmalari mablag‘i hisobiga MK «Vatanparvar» ustaxonalarida ta’mirlab beriladi. O‘quv qurollarini va kichik kalibrli miltiqlarni ta’mirlashga topshirish qaydnomasi bo‘yicha amalga oshirilib, unda qurolning nomi, seriyasi, raqami va nosoz tomonlari ko‘rsatiladi. Yo‘qotilgan va foydalanishga yaroqsiz qurol va kichik kalibrli miltiqlar ichki ishlar tuman (shahar) organlari vakillari, MIBB, xalq ta’limi bo‘limlari va o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari boshqarmalari vakillaridan tashkil topgan komissiya tomonidan yaroqsiz yoki yo‘qotilgan deb topilgandan, keyin ro‘yxatdan chiqariladi. YOCHQBT tashkil etish va o‘tkazish uchun ta’lim muassasasiga beriladigan buyumlar va mulklar ro‘yxati YOCHQBT dasturi 4-ilovasida berilgan. Unda ro‘yxat buyumlar va mulklarning nomi, soni va xizmat muddati ko‘rsatilgan.

### **XULOSA**

Yer yuzida mamlakatimizdan boshqa turli xil davlatlar ko‘p, lekin insonning tuqqan onasi bitta bo‘lganidek, o‘zbeklar uchun O‘zbekiston ham yagonadir.

Ona bag‘ri go‘dak uchun qanday hayotbaxsh bo‘lsa, O‘zbekiston biz uchun shunday huzurbaxshdir. Bu tuyg‘uni tuyush uchun Vatanni yurakdan his qilmoq va sevmoq kerak.

Vatanparvarlik jumlai jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg‘udir. Ulardan birining bu haqdagi fikriga qulq tutaylik:

G.Gegel (nemis faylasufi) Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo’lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

Vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, qadrdon tuproq bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran idroq etish, unga chin farzandlarcha munosabatda bo‘lish, undan bir hissa narsa olinsa, yuz hissa qilib qaytarish Vatanni anglash va ardoqlashning yana bir ko‘rinishidir.

Shunday ekan xalqimizning o‘tmishi, buguni va kelajagi bo‘lgan Vatanimizni asrab avaylash yo’lida qilinayotgan ishlarning katta kichigi bo‘lmasa kerak, bu ishda eng asosiysi unga nisbatan sadoqatli bo‘lishdir.

Oramizda ana shunday kechinmalar bilan yoshlarni Vatan himoyasigi munosib qilib tarbiyalash ishlarida ham, o‘zbekcha aytganda jonini kuydirib oqilona ish tutayotgan kishilar soni oz emas.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatga hozirlik ko‘rayotgan yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini tashkil qilish bo‘yicha o‘quv materiallari mujassamlangan va birinchi marta nashrga tayyorlanayotgan darslikning yaratilishi ham Vatanga holis va beminnat xizmatning bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblansa ajab ermas.

Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997-yildagi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi hamda 2002 yilning 12 dekabrida qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunlarini hayotga tatbiq etilishini va O‘zbekiston Respublikasining «YOCHGBT» nizomi (1994-y.) talablarining xuquqiy asoslarini belgilaydi, shuningdek uni hayotga tatbiq etishdagi tartib va qoidalarini, yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berishi bilan ahamyatga molikdir.

---

## **II bob. CHAQIRUVGA QADAR HARBIY TA'LIM METODIKASI**

### **KIRISH**

Mustaqillik tufayli Vatanimiz o'zining Qurolli Kuchlariga ega bo'ldi. Qurolli Kuchlarimiz safida xalqimizning qahramonona an'analariga sodiq bo'lgan o'g'lonlari o'zlarining yigitlik burchlarini ado etmoqdalar.

Ular mamlakatimizning himoyasi, xalqimizning tinchligini saqlash uchun uchun doimo shay turadilar, har qanday mashakkatlarni engishga tayyordirlar.

Bu borada kasb-hunar kollejlari akademik litsey va u'mum ta'lismaktablarining, xususan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari ta'lismuassasalari o'quvchilari o'rtasida Vatanga muhabbat, bobolarimizning jangovar an'analariga sodiqlik, harbiy kasbga qiziqtirish ruhida tarbiya qilishdek eng mas'uliyatli vazifani bajaradilar, O'zbekiston Respublikasining «Umumiylarbiy majburiyat va umumiylarbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuniga binoan yoshlarni Respublikamizning Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlaydilar.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quvchi yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi bo'lib, o'rta maktablar va o'rta maxsus kasbhunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladigan majburiy fandir.

Mashg'ulotlar jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga olib boriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmunini o'quvchilarda yuksak siyosiy onglilikni shakllantirish, ularda mustaqil Vatanning himoyachisi bo'lish uchun mas'uliyat hissini tarbiyalash, mustaqillik dushmanlariga nafrat ruhini uyg'otish va Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lishlikka da'vat etuvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi.

Yoshlarni chaqiruvga qadar yoshlarni boshlang'ich tayyorgarligi vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'langan holda o'quvchilarga Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishda zarur bo'ladigan siyosiy, ruhiy va jismoniy tayyorgarliklarini berishga imkon yaratadi, ularda O'zbekiston Qurolli Kuchlariga muhabbat va ofitserlik kasbiga qiziqish uyg'otadi.

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligining sifati, uning tarbiyaviy ahamiyati harbiy rahbar CHTO‘ ning harbiy va pedagogik bilimi darajasiga, uning ma’naviy yetukligiga va metodik mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. O‘quv qo‘llanmaning 2-qismi o‘quvchi yoshlarni Vatan himoyasiga har tomonlama tayyorlashdagi harbiy rahbar, CHTO‘ ning mas‘uliyatli vazifalarini muvaffaqiyatli uddalashlarida bevosita foydalanishlari uchun tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanmadagi o‘quv materiallar yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasiga qo‘yilgan davrning dolzarb masalalarini yechishga qaratilgan bo‘lib Nizomiy nomidagi TDPU «CHHT» faqultetining o‘qituvchi-professorlarining 2001–2007-o‘quv yillarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qoshidagi o‘rta maxsus kasbhunar ta’lim markazi tomonidan tashkil qilingan respublikamizning barcha viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida o‘tkazilgan amaliy va o‘quv-metodik seminarlarda va bevosita ta’lim muassasalarining o‘zida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanmaning mazmuni yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini tashkil etishda va uslubiy to‘g‘ri olib borishda yangicha samarali yondashuvlar to‘g‘risidagi mavzularni o‘z ichiga oladi.

---

## **7-§. YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIGI FANI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI OLIB BORISHNING ASOSIY SHAKLLARI VA USLUBLARI**

### **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni olib borishdagi asosiy shakl va uslublarning tavsifi**

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni olib borishdagi ta’lim berish ham xuddi boshqa fanlardagi kabi ta’lim jarayoni (o‘qituvchini faoliyati) va o‘zlashtirish jarayoni (o‘quvchilarning faoliyati)dan iborat bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonidagi faoliyatlar bilimlarni, malakalarni va ko‘nikmalarni egallashdan iborat bo‘ladi. O‘qitish jarayoni tarbiya jarayoni bilan chambarchars bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Bu esa o‘quvchilarda nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilar milliy mustaqillik g‘oyasi asosida tarbiyalanadilar, ularda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga va harbiy xizmatga nisbatan qiziqishni va e’tiqodini o‘yg‘otadi va shakllantiradi.

Malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quv jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Malaka – o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar asosida qo‘yilgan vazifa va sharoitlarga muvofiq harakatlar kompleksini bajarish demakdir. Bu harakatlarni o‘quvchilar ushbu holatdagini emas, balki boshlang‘ich sharoitlar o‘zgartirilganda ham bajara olishlari kerak. Malakani shakllantirishga xarita yordamida azimutni aniqlashni misol qilish mumkin.

Ko‘nikma – biron bir harakatni ko‘p martalab takrorlash orqali hosil qilinadi.

Ta’lim berish jarayoni ketma-ketlik bilan aniq amalga oshiriladi. Ketma-ketlik o‘z navbatida quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: *o‘quvchilar oldiga topshiriq qo‘yish; o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqishni hosil qilish; o‘quvchilar tomonidan yangi materialning qabul qilinishi; qabul qilingan materialni tahlil qilish, umumlashtirish; ilmiy tushunchalarni hosil qilish; qonunlarni o‘zlashtirish; egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish; malaka va ko‘nikma-*

*larni shakllantirish; bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash; o'quvchilar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish; ta'lism berish natijalarini tahlil qilish.*

Ta'lism muassasalarida o'quv masalalari, harbiy - pedagogik fanining yutuqlari va uning tarkibiy qismi – didaktika asosida tuziladi.

Didaktika (grekcha yetaklovchi) bu ta'lism va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i idir.

Harbiy didaktika – bu harbiy ta'lism va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan harbiy pedagogika tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

U ta'lism jarayoni qonuniyatlarini o'rgatadi, prinsiplarini shakllantiradi, uslublarini aniqlaydi va kuzatadi, ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganadi, undan foydalanishning yanada samarali yo'llarini aniqlaydi. Ma'lumot – tizimlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar va ularning jarayonlaridir.

Ta'lism jarayoni va natijasi bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni o'zlashtirish. Ta'lism olishning asosiy yo'li ta'lism hisoblanadi. Ta'lism – bilim, malaka, ko'nikmalarni va anglash faoliyatini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayon ikki taraflama amalga oshiriladi: bir tarafdan unda ta'lism beruvchi (o'qitish), boshqa tarafdan esa ta'lism oluvchi (o'qish) o'qitish va o'qish chambarchas o'zaro bog'liq va o'qitishning yutug'i bir xilda ikkala tomonlarning harakati va faoliyatiga bog'liq.

Ko'pchilikka ma'lumki, o'qishga xohish-istagi bo'lmaganni o'qitish qiyin jarayon. Shunday ekan, o'quv jarayoni o'quvchilarda istak uyg'ota oladigan darajada tashkillash kerak bo'ladi.

Ta'lism jarayonining asosiy mazmuni bilim berish va o'zlashtirishdir. Agar bilimlar amaliy faoliyat asosini tashkil etsa, malaka va ko'nikmalarni aniqlaydi.

Demak, ta'lism jarayonining mazmuni ikkinchi elementning mohiyatiga muvofiq bilimlarni amalda tatbiq qiladigan malaka va ko'nikmalarni berish va o'zlashtirish hisoblanadi. Chuqur nazariy tayyorgarlik yuqori amaliy malaka bilan mustahkamlanishi lozim.

O'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib nazariy bilim oladigan dars hisoblanadi.

Darsni yaxshi tashkil etish, uni qiziq va ko'rgazmali, yuqori g'oyaviy va ilmiy yuqori darajada o'tkazish har bir o'qituvchi uchun majburiy talablardan hisoblanadi.

Bulardan tashqari harbiy rahbar (CHTO') guruhi bilan nazariy materiallarni tashkil etadigan darslardan tashqari, harbiy xona va o'quv joylardagi amaliy mashg'ulotlardan o'qitish, taktik-saf mashg'ulotlari,

harbiy sport o'yinlari, o'zbek xalqining inqilobiy, jangovar va mehnat shuhrati joylariga (harbiy qism, muzeylarga), tashriflar va ekskursiyalar tashkil qilish o'quv kinofilmlar teatr tomoshalarini keng qo'llaydi.

Sinf (nazariy) mag'ulotlari – o'quvchilar tayyorgarligining nazariy vazifalari hal qilinadigan va shu bilan birga ba'zi bir aqliy va sensor ko'nikmalar shakllanishi mumkin bo'ladigan dars turidagi mashg'ulotdir.

Har bir bunday mashg'ulotga asosiy talablar deb yuqori g'oyaviylik, o'quvchilarning hayoti va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini tushunish lozim.

Sinf mashg'ulotlarini nizom qoidalari, o'qotish nazariyasi, qurol va texnikalarning ashyoviy qismlari, ommaviy yakson etish qurolining asosiy ma'lumotlari va maxsus harbiy-texnik tayyorgarlik masalalarini o'rGANISH maqsadida olib boriladi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarining quyidagi asosiy turlari mavjud:

1. Yangi bilimlarni beriladigan nazariy ma'lumotlar berish darsi.
2. Bilim va malakalarni mustahkamlash darsi. Bu dars amaliy shaklda, joylarda, saf maydonida, harbiy xonada o'tkaziladi.
3. Bilim va ko'nikmalarni tekshirish (nazorat) darsi. U og'zaki savol-javob, nazariy (yozma) ishlari yoki amaliy mashg'ulotlar (saf ko'rige, qurol bilan usullarni bajarish va hokazo), nazorat ishlari va mashqlarni o'z ichiga oladi.
4. Qo'shma dars. Harbiy ta'lim tizimida eng keng tarqalgan dars turi, u boshqa dars turlariga oid elementlarning barcha yoki katta qismini tashkil etadi: yangi bilimlarni berish, tekshirish, mustahkamlash va boshqalar.

***YOCHQBT mashg'ulotlarida darsning nazariy, amaliy, namunaviy, taktik, taktik-saf va nazorat shakllari ko'zda tutilgan.***

**Nazariy mashg'ulotlar** (ma'ruza, suhbat)-og'zaki bayon uslubi bilan o'tkazilib, ular o'rganiladigan bo'lim bo'yicha o'quvchilarga ilmiy bilimlarning asosini, shuningdek, dialektik o'zaro bog'liqlikda o'quv materialini, murakkab savolarini ochib berishni, ijodiy fikrlashning rivojlanishi va ularda to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga yordam berishni, nazariya va amaliyotning dolzarb masalalarini, fanning zamonaviy yutuqlarini aks ettirishni va mashg'ulotlarning boshqa turlarini va mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish uchun asos bo'lishi kerak.

**Namunaviy mashg'ulotlar** o'quvchilarni harbiy qismning shaxsiy tarkibining joylashuvi, hayoti, qurollanishi, harbiy texnikasi va

muhandislik qurilmalardan foydalanishning eng samarali uslublari bilan tanishtirishda tashkiliy va uslubiy ishlarni namunali namoyish etish maqsadida o'tkaziladi.

**Amaliy mashg'ulotlar** qurol-yarog‘, priborlar va jangovar texnikani amaliy o'zlashtirish, ularni qo'llash, ishlatish va saqlash uslublarini egallash, ma'lum bir ko'nikmalarni ishlab chiqish va turli usul va harakatlarni bajarish, me'yor va ta'lim dasturiga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarda olingen bilim va ko'nikmalar takomillashtiriladi.

O'quv joyidagi har bir o'quvchining amaliy ishi uning bosh mazmunini tashkil etadi. Amaliy ta'limning yakuniy bosqichi amaliy mashg'ulot hisoblanadi. Ular, odatda joylarda o'tkaziladi. Taktik mashg'ulotlarda o'quvchilarga askar, kuzatuvchining jangovar muhitidagi amaliy majburiyatlarini bajarishi bo'yicha malaka va ko'nikmalar singdiriladi. O'quv savollar o'ylab qo'yilgan reja va taktik sharoitga ko'ra tartib bilan ishlab chiqiladi.

### ***Mashg'ulot (dars)ning tuzilishi.***

Boshqa fan mashg'ulotlari kabi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot (dars)lar ham uch qismdan iborat: kirish, asosiy va yakuniy.

**Kirish qismi** – fanning xususiyatlari, qaysiki, mashg'ulotni (darsni) o'tkazish uslubining mazmuni va miqdor elementlaridan kelib chiqadi. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning har bir darsining majburiy elementi guruh sardori boshqaruvida guruhni saflash va mashg'ulotga tayyorlik haqidagi uning harbiy rahbarga bergan hisoboti hisoblanadi. Bunda buyruqlarni berish va ularni bajarish harbiy nizom talablariga muvofiq bajariladi. Harbiy rahbar (CHTO‘) o'quvchilarga faqat «Siz» deb murojaat qilishi kerak. Eng kam vaqt ni egallaydigan kirish qismi katta tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi va o'quvchi faoliyatiga to'g'ri yo'nalish berishi kerak. Buning uchun maqsad va vazifalar to'g'ri qo'yish va mashg'ulot shakllarini to'g'ri tanlash, shuningdek, qiziqarli misollar keltira olish orqali erishiladi

Bundan tashqari avval o'rganilgan materiallarni o'zlashtirishini nazoratdan o'tkazish takrorlash va o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Harbiy rahbar (CHTO‘) uy vazifasini hamma bajargan yoki bajarmaganligini tekshiradi, odatiy xatolarga e'tibor beradi, o'quvchilarning individual tayyorgarligini baholaydi.

**Asosiy qismda** harbiy rahbar (CHTO') yangi mavzuni va o'quv - tarbiyaviy maqsadlarni va ularni tatbiq qilish yo'llarini e'lon qiladi.

O'quvchilarni qiziqishini shakllanishi uchun maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Harbiy rahbar (CHTO') so'zlaridan olinadigan bilim va amaliy ko'nikmalarining muhimligini va kerakligini o'quvchi his etishi kerak.

Harbiy rahbar (CHTO') o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmaga tayangan holda tushunarli, ishonchli shaklda yangi materiallarni bayon etish kerak, materiallarni usul, harakatlarning elementlar bo'yicha yoki to'laligicha aniq, tartibli ko'rsatish orqali tushuntiradi.

Harbiy rahbar (CHTO') tomonidan safdagi usul, joydagi harakatlar yoki avtomatni qismlarga ajratish va yig'ish tartibini namunali ko'rsatish ta'limning eng samarali usuli sifatida o'zini oqlagan.

Amaliy harakatlarni o'rganishda odatda quyidagi tartib qo'llaniladi:

1. Usul va harakatlarni bajarishda ta'lim oluvchining erishishi kerak bo'lgan tezlikda, harbiy rahbar (CHTO') tomonidan o'rganilayotgan usul va harakatlarni qoida va tartiblarini bajarilishini tushuntirgan holda ko'rsatish;

2. Bajarilayotgan harakatni elementlarga bo'lib, ularni sekinlashtirilgan tezlikda ko'rsatish;

3. Ta'lim oluvchilar bilan ko'rsatilayotgan elementlarni, avval sekin, so'ng meyordagi tezlikda bajarib anglab olish, sinab ko'rish va o'rganish.

4. Alovida elementlarni umumiylar harakatga sekin-asta qo'shish va ko'nikma hosil qilish maqsadida ko'p marta takrorlash va berilgan meyorgacha yetkazishni esda tutish zarur.

Ta'lim berilishining boshlanishida ko'nikma haqida to'g'ri tasavvur yaratilmasdan turib, to'g'ri ko'nikma hosil qilib bo'lmaydi. Harbiy rahbar tomonidan ko'rsatish – bu o'quvchining intilishi kerak bo'lgan namuna bo'lib hisoblanadi. Bayon etishni o'quvchiga yanada tanish va yanada aniq bo'lgan materialardan, asta-sekin uni murakkablashtirib, mavhum tushunchalarga o'tgan holda boshlash kerak.

Tushuntirishni soddadan murakkabga, xususiydan umumiyya (individual uslub) yoki aksincha, avval hodisa tushunchasini berib, so'ng esa uni asoslab, sabab va natijalar bilan bog'liqligini ochib tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amaliyatda ikki usulni bir darsda, ya'ni o'quv materialini qismlarga bo'lib, birini induksiya usulidan foydalangan holda muvaffaqiyatli olib borish, boshqasini esa deduktiv uslubni qo'llagan holda tatbiq qilish mumkin.

O'quv materialini qismlarga bo'lib bayon etib, avval bayon etilgan materiallarni aytيلوْتىغان قىدىلار بىلەن bog'lanishi, fanning ichki va fanlararo bog'liqliklarni hisobga olgan holda keyingi o'quv materialining qismiga asos bo'lib xizmat qilishi uchun uning tuzilishidagi mantiqiylikka qaratish lozim.

Bayon etilgan materiallarni o'quvchilar to'la o'zlashtiriishlari uchun ba'zi bir qoidalarga rioya qilish kerak:

- Umumiy va ortiqcha fikrlashlardan kochish, fikrni aniq va lo'nda ifoda etish.
- Kirish so'zi, uzun gaplarni, extiyojsiz ergashgan qo'shma gaplar va sifatdoshlarni ishlatmaslik.
- Imkon boricha murakkab atamani sodda tushuncha bilan, chet tili so'zini esa ona tili so'zi bilan almashtirish.
- O'quvchilar uchun yangi bo'lgan so'zlar va tushunchalarni sinf yozma taxtasiga yozib chiqish.
- Materialni tartib bilan bayon etganda, ularni alohida elementlarga bo'lish.
- Darslarda o'quvchilarning diqqat-e'tibori va faoliyatini oshirishga krishish.

Oxirgi qoidani esda tutgan holda doim rioxaya qilish shart bo'ladi. Agar o'quvchilar dars jarayonida faol bo'lishmasa, hech qanday pedagogik ta'sir etish vositalari ularni chuqur va mustahkam bilimlar bilan ta'minlay olmaydi.

Darslarda o'quvchilarning doimiy e'tiboriga erishish uchun o'quv materialiga qiziqish uyg'otib va muntazam ushlab turiladi.

Ma'lumki, qiziqishni butun dars mobaynida ushlab turishdan ko'ra uyg'otish yengilroq. O'quvchilarni qiziqtirish, ongli faoliyatini faollashtirish, butun dars mobaynida mavzuga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish vazifikasi turlicha hal qilinadi. Bu harbiy rahbar (CHTO')ning individual xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi, pedagogik tajribasi va hokazolarga bog'liq.

Darsda o'quv materialini bayon etishda o'quvchilarga savollar berish tavsiya etiladi. Harbiy rahbar (CHTO') tomonidan savol berib qolinishi ehtimoli borligi uchun o'quvchilar uni diqqat bilan eshitadilar.

O'quvchilarning javobi o'quv materialini qanchalik o'zlash-tirilganligini darajasini bildirib xulosa qilishga imkon beradi.

O'quv materialini og'zaki bayon etishda nafaqat nutq madaniyati tilning sofligi, ehtiyojsiz ishlatiladigan ortiqcha so'zlarning yo'qligi («aytiladi», «anaqa», «demak», «kerak bo'lsa» va hokazo) balki buyruq

berishga xos bo‘lgan ixchamlik, aniqlik, to‘g‘rilik, ifodalilik ham muhim hisoblanadi.

Bularning hammasiga mashq qilish orqali erishiladi va harbiy rahbar (CHTO‘)ning doimiy mustaqil ishi natijasi hisoblanadi.

Darsni qiziq olib borish qobiliyati tez o‘zlashtirilib olinmaydi, faqatgina o‘quv materialini bilish buning uchun kamlik qiladi. Ayrim hollarda o‘quvchilarning darslardan chalg‘ishiga sabab bo‘lib tushuntirishlarni quruq so‘z bilan bir xil oxangda, zerikarli olib borilgani bo‘ladi.

Odatda, bunday o‘qituvchining mashg‘ulotlarida o‘quvchilarни o‘zlashtirishi yuqori bo‘lmaydi. Bunga yo‘l qo‘yilmaslik uchun harbiy rahbar (CHTO‘) og‘zaki bayon etish uslubini yaxshi bilishi va muntazam ravishda nutq madaniyatini takomillashtirishi kerak.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslar samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchidagi tashki ko‘rinish, yurish-turish, so‘zlash va muomala madaniyati, o‘quv materialini chuqur bilishi, usul va harakatlarni naminali darajada bajara olishi kabi harbiy rahbarning individual fazilat va xislatlari katta ahamiyatga ega.

Ozodlik, saramjonlik, ixcham va chaqqonlik, topqirlik uddaburonlik, shuningdek, harbiy kiyimbosh kiyish O‘R QK nizomi bilan belgilangan harbiy xizmatchilarga bo‘lgan majburiy talablardir.

**Darsning yakuniy qismi** – bu natijalarning tahlilidir. Darsning bu qismi o‘quvchilarga o‘rganilgan materiallarning asosiy masalalarini nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘liqligini eslatishni maqsad qilib qo‘yadi.

Harbiy rahbar (CHTO‘) bu qisqa vaqt ichida darsning asosiy mazmunini qisqacha qaytarib o‘tadi, ijobiy va salbiy tomonlarni ko‘rsatadi.

Mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish maqsadida ularga savollar bilan murojat qilinadi.

Mustaqil tayyorlanish uchun vazifa beriladi. Harbiy rahbar (CHTO‘) mavzuning vazifasini, bo‘limlarini qanday qilib mustaqil o‘rganish kerakligini, tushuntirib o‘tadi.

Mustaqil ish berilishida ko‘rsatmalar aniq lo‘nda va tartib bilan tushuntirilishi kerak. Darsning yakuniy qismiga bir soatlik mashg‘ulotning 5–7 (agar 80 daqiqalik mashg‘ulot bo‘lsa, 10–12 daqiqqa) daqiqa ajratiladi.

Harbiy rahbar (CHTO‘) o‘zining yuqori tashkilotchiligi va o‘ziga muntazam talabchanlik bilan mashg‘ulotlarni yaxshi tashkil qilishi va o‘tkazishi mumkin.

Dala mashg‘ulotlarini o‘tkazishda avtomatdan o‘qotishni tashkil qilish va tayyorgarlik masalalarini ko‘rib chiqish borasidagi ishlarga harbiy rahbar (CHTO‘)ning katta e’tibor berishi talab etiladi.

U xavfsizlik choralariga amal qilishni qisqa vaqtli harakatning bir martalik jarayoni emasligini bilishi kerak, odatda, ular mashg‘ulotni tayyorlash va o‘tkazishning barcha bosqichlarida muntazam o‘tkaziladi.

*Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish paytida xavfsizlikni ta‘minlashga bo‘lgan muhim talablar quyidagilar hisoblanadi:*

- sanitar gigiyena sharoiti noma'lum bo‘lgan joyda mashg‘ulot o‘tkazish man etiladi; mashg‘ulotlar uchun mozorlarga yaqin joylardan va oqar suv tushadigan joylardan foydalanish qat’iyan man etiladi;

- taktik mashg‘ulot va harbiylashtirilgan o‘yinlarda jangovar va kichik kalibrli o‘qlarni ishlatish, o‘quv qurolidan turli o‘qlar bilan o‘qotish, topib olingan granata, snaryad, mina va boshqa portlamay qolgan narsalarni tegish qat’iyan man etiladi (ta’lim oluvchilarda topilgan o‘q va portlaydigan narsalarni darhol olib qo‘yish kerak);

- palaxton (xolostoy) patronlarni ishlatish, paketalar va signal potronlaridan foydalanish faqat mashqda qatnashayotgan harbiy xizmatchilarga va harbiy rahbarga xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda ruxsat beriladi;

- palaxton (xolostoy) patronlarni faqat jangovar quroldan otishga ruxsat beriladi;

- o‘quv granatalarini mashg‘ulot qatnashchilaridan 70-100 m bo‘lgan masofadan uloqtirishga ruxsat beriladi;

- taktika yoki harbiy topografiya bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun mashg‘ulot joyiga borishda transport yuradigan yo‘llarni kesib o‘tayotganda, yo‘l chegaralarida qizil bayroqchalar bilan belgi beruvchilarni joylashtirish va saf tortib aholi punktlaridan yo‘l cheti bo‘ylab o‘tishi kerak. Saf kolonnasining oldi va orqa tomonlarida oq va qizil bayroqli belgi beruvchilar yurishi kerak (tungi paytda yoritgichlar bilan). Belgi beruvchilarni o‘quvchilar orasidan eng intizomli va yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lganlar hisobidan tayinlanishi lozim.

Otish tayyorgarligi bo‘yicha taktik mashg‘ulotlarni o‘tkazishda otish tayyorgarligi mashg‘ulotlaridagi xavfsizlikni ta‘minlash uchun avvalambor, ularning yaxshi tashkil qilinganligiga, ta’lim oluvchilarning mashg‘ulotlarga jalb qilingan butun shaxsiy tarkibini yuqori intizomiga, mustahkam bilim va xavfsizlik qoidalariga aniq rioya qilish bilan ta‘minlanadi.

Harbiy xonada, o‘quv joylarida, mashg‘ulotlar paytida, tanaffus vaqtida man etiladigan harakatlar:

- mashg‘ulot rahbarining ruxsatisiz qurolni olish;
- YOCHQBT dasturini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlar uchun o‘quv quroli, kichik kalibrli, pnevmatik miltiqlar va ularning patronlarini ishlatish;
- odamga, hayvon va havoga jangovar qurolni, shuningdek, o‘quv qurolni ham o‘qtash (yo‘naltirish);
- qurolni qarovsiz qoldirish;
- miltiq va patronlari, qo‘l granatalarining zapallarini, qurolning jo‘valangan (pressovanniy) va mustahkamlangan (zavaltsovanniye) qismlarini ajratish.

O‘quv quroli va kichik kalibrli, miltiqlarni tashib keltirishda o‘qsizlantrilgan va jildlangan bo‘lishi shart. Qurolni o‘quv binolariga va dala o‘quv mashg‘ulotlariga, otish mashqi shaharchasiga, otish joyiga olib borishda va qayta tashib keltirishda faqat «tasmaga» yoki «yelkaga» holatida olib yurish lozim.

Bundan tashqari har bir mashg‘ulot oldidan sinfda, harbiy xonada rahbar barcha jangovar qurol aslahalarni va o‘quv qurollarni tekshirib chiqishi kerak. Ayniqsa mashg‘ulotlarda qurol-yarog‘larning jangovar namunalarini tasodifan ishlatishga yo‘l qo‘ymaslik uchun patron, granata, granata zapallarini yaxshilab ko‘zdan kechirib chiqish kerak.

Harbiy rahbar (CHTO‘) avtomatning barcha o‘quv namunalari yog‘och va plastmassa qismlari qora rangda bo‘lishini bilishi kerak. Stvol qutichasi, uning qopqog‘i, stvol, qo‘ndoq o‘qdon va boshqa qismlarga «O‘quv» tamg‘asi bosiladi.

Har bir avtomatning o‘quv namunasi, shuningdek, ta’mirlash tashkilotining o‘quv varianti ekanligini bildiradigan tamg‘asiga va ishlangan zavodning nazorat belgisiga ega bo‘lishi kerak.

Belgi avtomat ishlab chiqaruvchi zavod belgisi bilan, tamg‘a esa zavod tamg‘asi bilan yonma-yon qo‘yiladi. O‘quv avtomatining stvol og‘zi qismining yuqorisidan va past qismining o‘qdon tomonidan ikki taraflama ochiq uzun o‘yiqqa (50x3mm) ega bo‘lishi kerak.

Stvol qutichasiga pastdan stvoldagi o‘yiqni qisman yopadigan plastinka payvandlanadi. Stvol qutichasi qopqog‘i qopqoq oldi devoridan 100 mm narida ikki taraflama ochiq uzun yoriqqa ega bo‘lishi kerak. O‘quv qurolining tepki bosilgandan keyin zarbalovchi qismining uchi o‘tmaslashtiriladi.

O‘quv qo‘l granatalari (RGD–5 va f–1 granatalarining qobiqlari ularga qobiq bo‘lib xizmat qiladi). Jangovarlaridan farqlanishi maqsadida hujumda qo‘llaniladigan qo‘l granatalarini qora rangga bo‘yaladi. Mudofaada qo‘llaniladigan qo‘l granatalariga bundan tashqari uzunasiga va eniga oq chiziqlar qo‘yiladi.

### **«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi» fani mashg‘ulotlarida ta’lim berishning ilg‘or uslublari**

Yoshlarni chaqiruvga radar boshlang‘ich tayyorgarligi mashg‘ulotlarida ta’lim berishning ilg‘or uslublarini tatbiq qilish.

**Ta’lim uslublari** – bu ta’lim beriuvcchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi, ya’ni bilimsizlarni bilimga, malakasizlarni malakaga yetaklaydigan ish vositalaridir.

Ta’lim uslublarining ko‘p turlari mavjud. Ulardan asosiyлари bo‘lib o‘quv materialini og‘zaki bayon etish (hikoya qilish, tushuntirish, ma’ruza), suhbat, mashq qilish, amaliy ish, materialni mustaqil o‘rganish, ko‘rsatib berishlar hisoblanadi.

**Bayon etish** – bu asosiy o‘quv materiallarni tashkil qiladigan, hodisa va voqeliklarni qisqa, obrazli, emotsiyal bayon qilib berishdir. Bayon qilishning hikoya shakli bilan bir qatorda unda muhokama, tasvir elementi ham bor.

Hikoya qilishda hikoya (tartibli, mantiqiy bog‘langan bayon), tasvirlash (qurok va jangovar texnikani tashki qo‘rinishini va tuzilishini va ma’lumot yetkazish yo‘llarini og‘zaki so‘z bilan yetkazish) muhokama (fikrlarni mantiqiy tartibini bog‘liqligi, xulosalar qilish). Bayon etishga 20–30 daqiqa ajratiladi.

Odatda bayon etish tushuntirish, turli ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan olib boriladi.

**Tushuntirish** – bu murakkab savollar, qoidalar, tamoyillar, qonunlar va namoyish etishlar bilan birikkan, qurollarning va priborlarning qismlari, sxemalar, harakat usullarini qa’tiy tartibini mantiqiy bayon etish.

Tushuntirishda qonunlar jarayoni bilan hodisalar ma’nosini ochib berish va muhokama qilish, isbotlash markaziy o‘rinni egallaydi. Materialni tushuntirishda harbiy rahbar lo‘nda xulosa va ta’riflarni aniq ifoda qilib, gapiradi.

Fikrini faollashtirish va to‘g‘ri tushunganini nazoratdan o‘tkazish uchun harbiy rahbar ta’lim oluvchilarga savollar beradi va javobni talab etadi.

**Ma’ruza** – bayon etiladigan materialni keng yoyilgan nazariy yetkazilishining ilmiy tahlili. Ma’ruzaning bosh maqsadi ta’lim oluvchiga ularning kelgusi mustaqil ishida yordam berish. Ma’ruzada mavzuning eng murakkab asosiy qoidalari bayon etiladi.

Adabiy manbalar tahlil qilinadi va mazkur muammo ustida kelajakda qanday ishlash kerakligi haqida maslahatlar beriladi.

Ma’ruzada hikoya qilish va tasvirlash, dalil va namunalar tahlili, tushuntirish va isbotlar, umumlashtirish va hulosalar elementlarini birgalikda mujassam etadi.

O‘quv materialini og‘zaki bayon etishga asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi: bayon mazmunining iqroriyligi, o‘zlashtirilishning yengilligi, ko‘gazmalilik, eslab qolish mustahkamligi.

**Suhbat** – o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan sodda va tushunarli qilib boyitishning ma’qul imkoniyatlaridan biri. Bu yerda suhbat o‘quv materialini muhokama qilish shakllaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari suhbat ta’lim oluvchilarda ilgari olingan bilimlarni aniqlash, ularni chuqurlashtirishi va tartibga solishga yordam beradi.

Maqsadga ko‘ra suhbat yetkazuvchi (yangi bilimlarni yetkazish), yoyilgan (oligan bilimlarni tartibga solish, chuqurlashtirish va mustahkamlash), nazariy - tekshiruvchi (o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini tekshirish) bo‘lishi mumkin.

Suhbat oldindan tayyorlangan, maqsad, vazifa, mazmunga ega bo‘lib va o‘quvchilarni bilim darajalarini e’tiborga olingan holdagina ijobjiy natijalar berish mumkin.

**Mashq qilish** – o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarga ega qilish va ularni takomillashtirish maqsadida ma’lum bir usul va harakatlarni murakkablashtirilib boriladigan bir necha bor takrorlashdir.

Mashq borishida quroq va jangovar texnikadan foydalanishning va xizmat ko‘rsatishning amaliy usullari, otish, taktik va texnik masalalarni hal etish usullari, piyoda safdagi, avtomobil va jangovar mashinalardagi harakatlarni bajarish.

O‘quvchilar tomonidan bajarilayotgan mashqlarning maqsadini, mazmuni va qat’iy tartibini tushunish katta ahamiyatga ega. Murakkab mashq va harakatlarni tarkibiy qismlariga bo‘lish mumkin. O‘quvchilar mashq paytida avval to‘g‘ri harakatlarga erishadilar, keyin esa tezlikni orttiradilar.

**Amaliy ish** – quroq va jangovar texnika xizmati, saqlanishi, tejalishi, quroqni qismlarga ajratish va yig‘ishni bajarish va boshqa harakatlar bo‘yicha o‘quvchilarni o‘qitilishining yakunida muhim va

amaliy uslub hisoblanadi. Ularning olib borilishida o‘quvchilar olgan malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar va takomillashtiradilar.

O‘quv materialini mustaqil o‘rganish – maket, kesma namuna, amaldagi sxema va boshqa o‘quv qo‘llanmalardan foydalangan holda qurolni qismlarga ajratish va yig‘ish yo‘li orqali amalga oshiriladi.

U odatda maslahat, ko‘rsatma, qo‘llanmalarni takrorlash, boshqa adabiyot va ma’lumotnomalardan foydalanish bilan olib boriladi.

Mustaqil ish sifatini oshirishda asosiy o‘rinni uning tashkil qilinishi, vazifa hajmini aniqlash, yordam ko‘rsatishni harbiy rahbar tomonidan nazarot qilish egallaydi.

Ta’lim amaliyotida **kompleks uslub** eng keng tarqalgan. Bunda bir mashg‘ulotda ta’lim-tarbiyaning bir nechta uslublari ishlatiladi. O‘quvdala yig‘inlarida yuqorida qo‘rib chiqilgan mashg‘ulot shakllari va uslublariga qo‘srimcha quyidagilar ishlatiladi:

Amaliy, **taktik-saf** va taktik mashg‘ulotlariga ta’lim oluvchilar avtomat maketlari, protivogazlar, piyodachilarning kichik belkuraklari va kamarlarda kurakchalarning jiddlari va bayroqchalar bilan chiqadi.

Bundan tashqari, har bir ta’lim oluvchida granatalar uchun xaltachalar va o‘quv granatalari bo‘lishi kerak.

Barcha ta’lim oluvchilar joylarda amaliy usul va harakatlarni bajara olishi uchun kiyingan bo‘lishi kerak. Bu mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish uchun guruh va seksiya sardorlari ichidan yordamchilar tayyор lash mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan oldin tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, bunda—ularni quruqlikdagi qo‘sminlarning jangovar nizomi (3-qism) qoidalari bilan tanshtirish, harakatlarni mashq qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hamda xavfsizlik choralarini o‘rganib chiqish kerak.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tizimida eng yaxshi harbiy rahbarlar tajribasiga ko‘ra dasturlashtirilgan ta’lim, muammoli, bilim va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, tayanch konspektlari bo‘yicha o‘qitish, musobaqali va hokazo uslublari kabi samarali uslublari keng tarqalgan.

**Dasturlashtirilgan** ta’lim uslubi bu o‘quv materialini yanada samaraliroq qismlarga ajartish hamda mashg‘ulot rahbarining joylardan olinayotgan ma’lumotlarni, ya’ni ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materialining har bir qismi o‘zlashtirilishi sifati haqida qaytarma a’loqlalar yordamida (mashina yordami yoki mashinasiz) uzluksiz olish.

Bu uslub o‘quv materialini yanada maqsadga muvofiqli tartib va hajmda berishga yordam beradi. Bu uslubni muvafaqqiyatli tatbiq qilish uchun yaxshi o‘ylab chiqilgan didaktik material talab qilinadi.

**Muammoli** olib borish – bu ta’lim oluvchilarga so‘ngi xulosalar e’lon qilinmaydi, balki faqat to‘g‘ri qaror qabul qilish va haqiqatga erishish, uchun kerak bo‘lgan to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi.

O‘rganiladigan material muammoli xususiyatga ega bo‘lishi uchun ta’lim oluvchilar bilan nafaqat muammo deb qabul qilinadigan, balki ularni qiziqtirgan, to‘g‘ri javobni qidirish xohish va zaruriyatini uyg‘otadigan asosiy masalani topish juda muhim.

Mashg‘ulotda (darsda) muammoli vaziyatni yaratish ta’lim oluvchilarning o‘rganilgan materialga qiziqishini oshiradi va shu bilan birga ulardagagi fikrlash faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

**Tayanch konspektlari** bo‘yicha ta’lim uslubi (Shatalov uslubi deb ataladigan) o‘quv materiali ta’lim oluvchilarga yanada muhim qoidalarni, sanalarni, ta’riflarni, nomlari va ular bilan bog‘liqligini aks etadigan tayanch konspektlari yordamida beriladi. Tayanch konspektlari bo‘yicha o‘qitishda o‘tilgan materialni yanada mustahkam o‘zlashtirish, mustaqil tayyorlanishda uni takrorlash va eslab qolish uchun ketadigan vaqtini qisqartirishga erishiladi.

**Musobaqali** uslub kim tezroq va yaxshiroq harakat, usul ma’yorlarni bajarishdir. U ta’lim oluvchilarda tortishuvchanlik, yaxshilarga tenglashishga intilish, ortda qolganlarga yordam berish va ularni ilg‘orlar darajasiga yetkazish xislatlarini rivojlantirish uchun yo‘naltirilgan musobaqali uslub, taktik, otish, saf tayyorgarligi va boshqa bo‘limlar bo‘yicha usullarni ishlab chiqishda va normativlarni bajarishda ishlatiladi.

Shunday qilib, o‘quvchilar ta’limidagi asosiy uslublarining didaktik vazifasi, tuzilishi va muvaffaqiyatli tatbiq qilish shartlari tavsiflanadi. O‘tkaziladigan mashg‘ulot uchun harbiy rahbar ta’lim uslublarini tanlashda o‘quv-tarbiyaviy vazifaning xususiyati, o‘quv materialining mazmuni, tayyorlanganlik darajasi, moddiy baza holatidan kelib chiqadi.

Bunda ijod belgisi bo‘lib, ofitser pedagogning o‘z tajribasiga tanqidiy qarashi, eskirib qolgan usullardan voz kechib, ta’lim uslubiyotidagi yangilikni, ilg‘orlikni ishlatishi katta o‘rin tutadi.

### **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni o‘tkazishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ularning o‘ziga xos tomonlari**

Hozirgi kunda texnologiyalashtirishning yangidan - yangi usullari ilmiy-texnik taraqqiyot ishlab chiqarish sohasi bilangina cheklanib qolmay, balki ta’lim sohalariga ham kirib keldi.

Bugungi kunda ta'lif sohasida ham informatsion axborot, ta'lif va boshqa texnologiyalar to'g'risidagi fikr yuritilibgina qolmay amaliy ishlar ham qilinmoqda.

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, texnos – san'at, mahorat, logos – ta'lifot degan ma'nolarni bildiradi.

Texnologiyalashtirish – obyektiv jarayon bo'lib, ta'lif evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish tayyorgarlik davridir. Texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi ta'lifotga muvofiq keladi.

Texnologiya deyilganda ashylarni qayta ishlash uslublari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi.

Siyosiy lug'at (M., 1989)da texnologiyaga shunday izoh beriladi: 1) ishlab chiqarish jarayonida ashylar, materiallar, yarim tayyor ashylarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarish metodlari yig'indisi; 2) ashylar materiallar va yarim xomashylarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan.

«Qomusiy lug'at»da shunga yaqin izoh beriladi, biroq unda batafsilroq izoh beriladi. «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejamli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarni bajarish» (M., 1979).

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini aniqlash usullarini taklif etadi. Hozirgi davr ta'lif texnologiyalari muammosi shundaki pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologik muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

### **Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari**

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lif amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rinnegallaydi, lekin uni pedago-

gikaning mukammal lug‘atlari (tezaurus)dagи o‘rnи hali noma’lumligicha qolib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta’limot deb hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan.

Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta’riflari mavjud. Ayrim mualliflar o‘qitish texnologiyalariga fan va san’at oralig‘idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash sifati bilan bog‘laydilar.

Shunday qilib, bir tomonlama yondashuvda o‘qitish texnologiyalari o‘qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi.

Unda texnologiya o‘quv jarayonini texnikalashtirishni taqozo qiladi. Boshqa yondashuvda texnologiya ta’lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta’minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiya ta’limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Ma’lumki, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilari ning malakasini va mahoratini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining buyruqlariga, yo‘riqnomalariga, ko‘rsatmalariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligining buyruq va ko‘rsatmalariga, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuniga va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»larining talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

*Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi» fani bo‘yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda ularning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olinishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.*

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni tashkil etish va olib borilishi boshqa fanlar bilan deyarli bir xil bo‘lsada o‘ziga xos tomonlari shundaki, mashg‘ulotlarning shakllari turli tumanligi (nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktiksaf, nazorat) va ularning aksariyat qismi amaliy bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgärliklari bo‘yicha mashg‘ulotlari o‘quv va jangovar qurollar bilan bog‘liqligi, mashg‘ulotning katta qismi YOCHQBT bo‘yicha o‘quv-moddiy bazalar bilan chambarchars bog‘liqligidadir.

Bu bilan YOCHQBT mashg‘ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kutilganidek yaxshi samara bermaydi degani emas.

Shu kungacha YOCHQBT mashg‘ulotlarini tashkil qilish va ularni o‘tkazish bo‘yicha yetarlicha tajriba to‘plangan.

Endilikda bu boradagi ishlarni rivojlantirish va mavjud ta’lim tizimini tubdan isloq qilish kadrlar tayyorlash zamonaviy milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga ijtimoiy tajribaga, shu bilan birga qurolli kuchlarimizdagi olib borilayotgan islohotlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarga tayangan holda, uzuliksiz ta’lim tizimini barcha shakldagi ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ta’minlovchi ilg‘or uslubiy texnologiyalar sifatida amalga oshirish soha mutaxassislarining oldidagi muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi.

YOCHQBT mashg‘ulotlarida ta’lim berishning yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha Nizomiy nomli TDPU «CHHT» yo‘nalishidagi harbiy fakultetining Toshkent shahar Aviasozlar kasb-hunar kolleji bilan hamkorligida olib borilgan ishlarning natijasi ijobiy ahamyatga ega bo‘ldi.

Misol ta’riqasida YOCHQBT o‘quv dasturining otish tayyorgarligi bo‘limidagi «Kalashnikov avtomati, GP-25 stvolosti granatamyoti, parchalanuvchi qo‘l granatalarining asosiy ashyoviy qismlari» mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulot jarayonida «Blits o‘yin», «Tarmoqlar» (Klaster), «Bumerang», «Aylanma», «Sinetik» texnologiyalari qo‘llanilganligini keltirish mumkin. Qo‘llanilgan texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirishda va ularni mustaqil ish bajarishlarida fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish ijobiy natija berdi.

Bu borada ta’kidlash joizki, har bir pedagog - ofitser tavsiya etilgan texnologiyalarni samara beradiganini tanlay olishi, shu bilan birga o‘quvchilarning faolligini oshirishda o‘quv faoliyati shakllarining qo‘llashdagi uning pedagogik mahorati va ijodiy faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bo‘ladigan mashg‘ulot uchun mashg‘ulot rahbari pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy qilishda o‘quv-tarbiyaviy maqsad-larning xususiyatlari, o‘quv materialining mazmuni, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va o‘quv-moddiy bazaning ahvoldidan kelib chiqib ish tutadi.

Bundan tashqari rahbar o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashi, samarasiz bo‘lib qolgan eski uslublardan voz kechib, ta’lim berishning ilg‘or yangi uslublarining ishlatishi katta o‘rin tutadi.

## Mavzu yuzasidan savolar

1. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borishdagi qanaqa shakl va uslublarni bilasiz?
2. Didaktika va harbiy didaktikaga ta’rif bering?
3. Sinf (nazariy) mag‘ulotlari – qanday mashg‘ulotlar turiga kiradi va qanday maqsadlarda olib boriladi?
4. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslarining qanday asosiy turlarini bilasiz?
5. Ta’lim uslublari deganda nimani tushunasiz va qanaqangi uslublarni bilasiz?
6. YOCHQBT darslarida qo‘llaniladigan nazariy, amaliy, namunaviy, taktik, taktik-saf va nazorat shakllari haqida aytib bering?
7. Mashg‘ulot (dars)ning tuzilishi mazmunini aytib bering?
8. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish paytida xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan muhim talablarga nimalar kiradi?
9. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi» fani mashg‘ulotlarida ta’lim berishning ilg‘or uslublarini aytib bering?
10. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni o‘tkazishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ularning o‘ziga xos tomonlarini aytib bering?

*Tayanch iboralar:* *Shakl va uslublar, didaktika va harbiy didaktika, ta’lim uslublari, mashg‘ulot (dars)ning tuzilishi, ilg‘or uslublar, pedagogik va innovatsion texnologiyalar.*

Talabalar bilan yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha mashug‘lotlarni olib borishning asosiy shakllari va uslublari mavzusini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik innavatsion texnologiyalar.

*«Guruuning savol-javob hisobotini qayd etish texnologiya»si asosan chaqiruvga qadar tayyorgarlikni tashkil etish va uning metodikasi fani bo‘yicha seminar, amaliy va yarim guruhli mashg‘ulotlarda yuritiladi. Bu jadval dars jarayonida to‘ldirib borilib asosiy maqsad qilib talabalarning mustaqil faoliyatini yanada oshirish va ularni faoliyatini obyektiv baholar olinadi. Mashg‘ulot jarayonida talabalar tomonidan mavzu yuzasidan o‘zaro berilgan har bir mantiqiy savol ham va berilgan savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob ham jadvalga qayd etib boriladi. Mashg‘ulotning yakuniy qismida jadvalda familiyasi qayd*

etilgan talabalar faoliyatiga munosib baholanadilar. Jadval o'qituvchining o'zi yoki u tayinlagan talaba tomonidan to'ldirib boriladi. Savol javob jarayonini o'qituvch tomonidan boshqarilib turiladi.

### Guruhnинг savol-javob hisobotini qayd etish texnologiyasi

Savollar hisoboti						
No	1-Jamoa	ball	2-Jamoa	ball	3-Jamoa	ball
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Javoblar hisoboti						
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

«Aylanma texnologiyasi» talabalar bilan asosan seminar, amaliy va yarim guruhli mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Bunda talabalarni mustaqil dars o'tishlariga tayvorgarlik darajalari oshiriladi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan shakl va uslublarini mashg'ulot mazmunidan kelib chiqib to'g'ri tanlay oishlari uchun bilim va malakalarini mustahkamlaydi, shuningdek, tajribalarini oshiradi. Talabalar ish bajarish jarayonida jadvalda ko'rsatilgan YOCHQBT mashg'ulotlarining shakllariga mos keladigan uslublarini topib belgilashlari kerak bo'ladi. Mazkur texnologiyani qo'llash bilan o'qituvchi talabalarni mustaqil fikrlashlari

*va ishlashlari uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari texnologiyani qo'llash bilan ishning jamoaviy, guruhli va individual shakllarini ham tashkil etadi.*

№	Qo'llaniladigan uslublar	Mashg'ulotlarining shakllari.											
		Nazariy		Ama- liy		Ko'r- gazmali		Tak- tik		Taktik saf		Nazo- rat mashg'.	
		1	2	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2
1.	Hikoya												
2.	Tushuntirish												
3.	Ma'ruza												
4.	Musobaqali uslub												
5.	Tayanch konspektli o'qitish uslubi. (Shatalov uslubining nom.)												
6.	Suhbat												
7.	Mashq (trenirov)												
8.	Amaliy ish												
9.	O'quv materialini mustaqil o'rganish												
10.	Dasturlashtirilgan o'qitish uslubi												
11.	Muammoli uslub												
12.	Bilim va malakani bosqichma-bosqich shakllantirish												
	Umumiy soni												

«Aylanma» texnologiyasi  
YOCHQBT mashg‘ulotlarini shakllariga mos bo‘lgan ulubni tanlang

«Aylanma» texnologiyasi. To‘g‘ri javoblar

**Blits – o‘yin «Men mashg‘ulot tashkilotchisi» texnologiyasini seminar va mustaqil tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ko‘proq qo‘llash tavsiya etiladi.** Bu texnologiya talabalarning kasbiy pedagogik amaliyotini o‘tkazishlarida va keyinchalik o‘qituvchilik faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha ayrim o‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish jarayonidagi mantiqiy ketma-ketligiga jiddiy yondoshmaydilar. Mazkur texnologiyani qo‘llash orqali talabalarning mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish jarayonidagi mantiqiy tizim ketma-ketligini bosqichma-bosqich to‘g‘ri olib borishlari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari hosil qilinadi. Shuningdek, doimiy ravishda ularning tajribalari orttirilib boriladi.

Blits – o‘yin «Men mashg‘ulot tashkilotchisi».

Mantiqiy to‘g‘ri javoblar.  
Blits – o‘yin «Men mashg‘ulot tashkilotchisi»

N	To‘g‘-ri javob	Tala-ba ja-vobi	Xa-to	O‘z fikrida qolish.	Harakatlar mazmuni
1	9				Konspekt rejasini yozish (tuzish)
2	6				Kerakli ko‘rgazmali materialdan saralab, tanlab olish.
3	4				Adabiyotlarga muofik bo‘limlarni o‘rganib chiqish qo‘sishimcha adabiyot va nizomlardan moddalarni bilish.
4	10				Konspekt rejasini tasdiqlatish.
5	7				Namoyish etiladigan mashq va usullarini trenirovka (mashq) qilish.
6	1				Mavzuni, baholash mashg‘ulot joyini, o‘quv-tarbiyaviy maqsadini aniqlash.
7	3				Mashg‘ulotni olib borish uchun samarali uslublarni aniqlash, belgilash.
8	2				O‘quv savollarini belgilash va ularni

					ommalashdagi vaqtni bo'lib chiqish.
9	5				O'rganiladigan materialni boshqa umumta'lim fanlari bilan bog'liqligini aniqlash zarur hollarda fan o'qtuvchilari bilan suhbatlashish va darslariga qatnashish.
10	8				Mashg'ulot o'tkazishga jalb qilingan seksiya komandirlari bilan yo'riqli, uslubiy mashg'ulot o'tish.

### *Baholash mezoni*

«5»	10 j.	100%
«4»	7 j.	71%
«3»	4 j.	55%

---

## **8-§. HARBIY RAHBAR, CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK O'QITUVCHISINING MASHG'ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO'RISHI VA MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISHI**

### **Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi**

Yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayonining asosiy shakli o'quv dastur va haftalik rejaga muvofiq nazariy va amaliy mashg'ulotlar ko'rinishida o'tiladigan «dars» hisoblanadi. Masmuni va tuzilishiga ko'ra dars o'quv jarayonini yakunlangan qismini bildirishi, didaktik va tarbiyaviy maqsadlar hamda harbiy ta'lim talablariga to'g'ri kelishi lozim. Har bir harbiy rahbar, CHTO' barcha chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'limlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni uslubiy to'g'ri olib borishni bilishga majbur. Uslubiy mahorat asosida ularning pedagogik va harbiy bilimlari, yaxshi amaliy tayyorgarligi va ta'lim-tarbiya tamoyillarini, uslublarini va uslubiy yo'llarini ijodiy tatbiq qilish qobiliyati yotadi.

Nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilar nizom va harbiy ish boshqaruvini qoida va talablarini, shuningdek, egallagan bilimlarini haqiqiy harbiy xizmatni o'tash vaqtida qanday foydalanishlari to'g'risida maslahat va tavsiyalarni o'rganadilar.

Harbiy rahbar (CHTO') odatga ko'ra nazariy mashg'ulotlarni ta'lim texnika vositalaridan va didaktik materiallardan foydalanib bayon etish va suhbat shaklida olib boradi. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda mashqlar, usullar, harakatlar va meyorlarni bajarish texnikasini o'rganishlari va mustahkamlashlari hamda jihozlangan maydonchalardan va mashg'ulot joylaridan, shuningdek, priborlardan quroldan, individual himoya vositalaridan, muhandislik qurilmalaridan, sport-snaryadlari va jihozlaridan foydalanib o't otish va boshqa vazifalarini yechishni o'rganishlari kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazishda harbiy rahbar CHTO'ning shaxsiy namunasi va darsga munosabati shug'ullanuvchilar uchun ta'siri muhim ahamiyatga ega.

Ijobiy shaxsiy namuna rahbarning yuqori darajadagi amaliy tayyorgarligi mashg‘ulotni to‘g‘ri o‘tkazishining uddalay olishi, mashqni to‘g‘ri va chiroyli ko‘rsatish (usul, harakat), ularni qisqa va tushunarli qilib tushuntirish va shu bilan birga ta’lim oluvchilarni qiziqtira olish bilan ifodalanadi.

Rahbar dars vaqtini tejamli ishlatishni, uning natijasini unumli bo‘lishidagi shartlarga rioya qilishni hamda har bir mashg‘ulotga kerakli mashq, usul va harakatlarni to‘g‘ri tanlay olishni, ularning bajarilish tezligini aniqlashni, ya’ni boshqa so‘zlar bilan aytganda, dars jarayonida dars hajmini to‘g‘ri qismlarga bo‘lishni bilishi shart.

Tajribali rahbar ta’limni elemetlarga bo‘lib emas, balki murakkab bo‘limgan mashqlar bilan to‘laligicha olib boradi va imkon boricha tezroq mashq qilishga o‘tadi. Ta’limni berishda batafsil tushuntirishlar va qayta ko‘rsatib berishlarga bir daqiqani ham bekor ketgazmasdan g‘ayrat va ildamlik bilan olib borish muhimdir.

Amaliy mashg‘ulotni to‘liq o‘tkazish uchun rahbar o‘quvchilarni qurol-yarog‘larni, jangovar texnikani, qurol-aslahalarni o‘rganishlarida xavfsizlik choralariga rioya qilishlariga majbur qilishi shart, bundan tashqari rahbar yordam berishni va xavfsizlikni amalga oshirishni bilishi, jarohat yetishi va baxtsiz hodisalarni oldini olish choralarini ko‘rishi kerak.

Rahbar darsga ongli, vijdonan yondashishi lozim. Ishonchli va aniq buyruqlar berish, ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish darsni qiziqarli olib borishga yordam beradi. Haddan ziyod hovliqish, baqiroqlik va shug‘ullanuvchilar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Rahbar nafaqat eng muhim malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish haqida o‘ylashi, balki ularni harbiy qasamyod va umumharbiy nizom talablari ruhida tarbiyalashi, barcha imkoniyatlarni ishga solib, yuqori intizomiylilikni va ishchanlikni oshirishga erishishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda rahbar saf nizomi talablarini buzishga yo‘l qo‘ymasligi, bunda asosiy e’tiborni amaliy harakatlarni to‘g‘ri bajarishga qaratish, turli shartlarni va mashqlarni bajarishda bor kuch bilan harakat qilinishini ta’minlashi kerak.

Darsda yuqori tashkiliylikni ushlab turish uchun rahbarning o‘zini tutishi katta ahamiyatga ega. Uning toza va ixcham ko‘rinishi, qaddining rostligi, o‘quvchilarga nisbatan yuqori talabchanligi mashg‘ulotlarni yanada muvaffaqiyatli o‘tishiga yordam beradi.

Intizomni mustahkamlash va mashg‘ulotlarga o‘quvchilarni qiziqtirish maqsadida rahbar eng harakatchan intizomli va epchil o‘quvchilarni rag‘batlantirishi, beparvolarini esa qattiq talab qilib, ulurda o‘zlarining harbiy va jismoniy tayyorgarliklari uchun mas’uliyat hissini uyg‘otishga intilishi lozim.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda harbiy rahbar uchun ularning asosiy tamoyil va qoidalarini bilish yetarli emas. Yana ularni amaliyatda mohirona tatbiq qilish, har bir mashg‘ulotda mashq, usul va harakatlarni mashq qilishi katta foyda beradigan shart-sharoitlarni yaratishni bilish muhim. Shunday qilib mashg‘ulotlar rahbariga quyidagi turli talablar qo‘yiladi:

- amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazuvchi harbiy rahbar (CHTO‘) mashg‘ulotlarni yaxshi sifatli o‘tkazilishini ta’minlashga majbur;
- muntazamlik bilan vazifa murakkabligini va hajmini oshirish;
- bir vaqtida barcha o‘quvchilar bilan shug‘ullanish va har biriga individual yondashish;
- mashg‘ulotlar yuqori zichligiga va shug‘ullanuvchilarni faolligiga intilish;
- o‘quvchilarda jasurlik va qat’iylikni tarbiyalash.

Bunday mohirlikka har bir mashg‘ulotni mulohaza bilan o‘ylab, o‘tkazish orqali yaratiladi. Bunday munosabat yetarli tajriba orttirish, kerakli tashkiliy va uslubiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yordam beradi.

Yoshlarning chaqiruvga qadar tayyorgarlik darsining sifati va samaradorligi harbiy rahbarni unga tayyorgarlik darajasining sifatiga bog‘liq. Mashg‘ulotga tayyorlanishda harbiy rahbar, CHTO‘ga quyidagilar tavsiya etiladi:

- o‘quv savollari bo‘yicha o‘quv materialini, mavzu mazmuni va hajmini, mashg‘ulotning tuzilishi, o‘quv maqsadlari va tarbiyaviy yo‘nalishini, aniqlash;
- YOCHQBT va boshqa fanlar bo‘yicha o‘tgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganliklarini aniqlash;
- bo‘ladigan mashg‘ulotda bu bilim va ko‘nikmalardan qanday foydalanish mumkinligini o‘ylab chiqish;
- mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubi va tartibini aniqlab olish;
- mashg‘ulotda qanday texnik vositalarni, o‘quv qurollarini, harbiy buyum va qurol - yarog‘larini ishlatishni aniqlab chiqish;
- kerakli nizom va ko‘rsatmalar darslik va uslubiy qo‘llanmalar bo‘limlarini, mazkur mavzu bo‘yicha boshqa adabiyotlarning bandlarini o‘rganib chiqish;

- mavzuni yanada chuqurroq o‘rganib chiqish uchun o‘quvchilarga tavsiya qilish mumkin bo‘lgan adabiyotlarni tanlash;
- usul va harakatlarni bajarishni mashq qilib qo‘yish;
- o‘quvchilarga mustaqil ish uchun vazifa aniqlab qo‘yish.

Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda muvofiq keladigan ko‘rgazmali qurollarni (plakatlar, sxemalar, maketlar, priborlar diafilmlar) saralash maqsadga muvofiq bo‘ladi, ular mavjud bo‘lmasa o‘quvchilar yordamida tayyorlash tavsiya etiladi.

Taktik, o‘t ochish va otish tayyorgarligi va harbiy tapografiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish yuqori darajasini ta’minlash shartlari belgilangan joy, o‘quv maydonchasini oldindan o‘rganish va tayyorlash, taktik tayyorgarlik bo‘yicha esa bundan tashqari taktik vaziyat va dushman harakatlarini belgilash tartibini aniqlashdan iborat.

Mashg‘ulotga tayyorlanish odatda mashg‘ulot rejasini (reja - konspekt) tuzish bilan yakunlanadi, bunda mashg‘ulot rejası shaklining elementlari bo‘lishi talab etiladi, reja-konspektining yozilishi esa ixtiyoriy bo‘lishi mumkin – bu harbiy rahbar (CHTO‘) ning shaxsiy tayyorgarligi va pedagogik tajribasiga bog‘liq.

Odatda, konspekt rejasida mashg‘ulot dasturning qaysi bo‘limi bo‘yicha va nechanchi sinf (kurs) o‘quvchilari bilan olib borilishi kerakligi, o‘quv-tarbiyaviy maqsadlar, mavzu nomi, mashg‘ulot tartib raqami, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt, uslub, joy, moddiy ta’mnot, qo‘llanmalar, mashg‘ulot borishi (shu bilan birga harbiy va ta’lim oluvchilar harakatlari), mashg‘ulotda beriladigan buyruqlar, taktik tayyorgarlik bo‘yicha esa bundan tashqari, har bir ishlab chiqiladigan savol bo‘yicha taktik vaziyat mazmuni, uy vazifasi ko‘rsatiladi.

Mashg‘ulot rejasini mashg‘ulotgacha 6–7 kun oldin ta’lim muassasasi direktoriga ko‘rib chiqish uchun berish tavsiya etiladi. Bu unga mazkur mavzu bo‘yicha dastur talablari, dars rejası va o‘tkazish uslubini birma-bir o‘rganib chiqishga va mashg‘ulotni o‘tkazishda harbiy rahbarga amaliy yordam ko‘rsatishga imkon beradi.

### **Darsga o‘quv moddiy baza va ta’lim-texnika vositalarini tayyorlash**

Mashg‘ulotlarga tayyorlanishda harbiy rahbarning o‘quv-moddiy baza va ta’lim texnik vositalarini tayyorlashi muhim omillardan hisoblanadi. Harbiy xona YOCHQBT o‘quv-moddiy bazasining asosiy elementlaridan hisoblanadi. U muntazam ravishda ozoda va tartibli

bo'lishi, ko'rgazmali quollar o'z vaqtida yangilanishi va ularning mavzu va mazmuni yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi dasturiga to'g'ri kelishi kerak.

Imkoniyat boricha xona katta, yorug' joyda joylashishi va ikki o'rinli stollar, har bir o'quvchi uchun alohida stul, harbiy rahbar uchun stol va sinf yozuv taxtasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

YOCHQBT dasturining har bir bo'limining asosiy mazmunini aks etadigan stendlar bilan bezatilishi kerak. Priborlar, ko'rgazmali quroq va quroq-aslaxalardan tashqari boshqa o'quv buyumlarini saqlash uchun harbiy xona yonida o'quv priborlari, buyumlari va ko'rgazmali quollar o'quv dasturining bo'lim va mavzulari bo'yicha tartibga solinadigan, har bir turiga muvofiq alohida to'plami bilan tokcha, shkaflarda joylashadigan laborantlik xonasi ko'zda tutilishi kerak.

Xonani jihozlashda kinoapparat va kinoekranni joylashtirish masalasi o'ylab chiqilishi lozim.

Xonaning kengligi unda guruh navbatchisi majburiyatlarini amaliy o'rganish uchun imkoniyat bersa o'quv joyini jihozlash mumkin bo'ladi.

YOCHQBT bo'yicha o'quv jarayonidagi qo'gazmali vositalar quyidagi turda bo'lishi mumkin:

– buyumlar ko'rgazmasi – bu real quroq namunalari, FM priborlari, harbiy texnika va boshqalar;

– tasviriy ko'rgazma – bu sxema va plakatlar, rasm va suratlar, maket va modellar, diafilm va o'quv kinofilmlari, mashq qilish uchun moslamalar;

– so'z - obrazli ko'rgazma – bu voqealarni, turli jasoratlarni yorqin tasvirlab berish, o'xshatish va taqqoslashlarni ishlatish.

Ko'rgazmali quollar maksimal darajada qisqa va asosiy narsalarni yoki hodisa mohiyatini ifodalashi, kerakli o'lchov va tushunarli bezakka ega bo'lishi va bunda rejalarни qabul qilish psixologiyasining ba'zi bir xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Buning barchasini harbiy xonani jihozlash va darsni o'tkazishda e'tiborga olish lozim.

Darslarda ko'rgazmali qurollarni ishlatishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish shart:

– ko'p sonli ko'rgazmali qurollarga berilib ketmaslik;

– birdaniga barcha ko'rgazmali qurollarni osib ko'rsatmasdan ularni materialni bayon etish vaqtida ko'rsatish;

– ko'rgazmali qurollarni ko'rsatishda ularning mazmunini o'quvchilar yaxshi anglashlari uchun kerakli tushuntirishlarni berish;

– mashg‘ulot o‘tishda ko‘rgazmali qurollarning turli shakllarini birga qo‘sish;

– ko‘rgazmali qurollarni ko‘rsatilgandan va o‘quvchilar kuzatib bo‘lishganlaridan keyin o‘quvchilar tomonidan xulosalar qilinadi.

Ta’limda ko‘rgazmali qurollardan diafilm va kinofilmlar o‘ta muhim hisoblanadi.

Harbiy rahbar, CHTO‘ mashg‘ulotdan oldin ularni ko‘rib chiqishi, namoyish qilish rejasini tuzishi, ya’ni ko‘rsatish paytida qachon va qanday izohlar berish kerakligi haqida fikrashi kerak bo‘ladi. Bundan so‘ng namoyish etilgan o‘quv filmlar bo‘yicha o‘quvchilar bilan qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot rahbarini mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida hozirgi kunda o‘quvchilarining texnika taraqqiyotidan yaxshigina xabardor ekanligini, ularning internet tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligini, ularda filmlar va boshqa manbalar orqali har xil ma’lumotlarga ega bo‘lib, o‘z fikrlari va qarashlari shakllanganligini e’tiborga olib tegishli xulosalar chiqargan holda mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishini taqozo etiladi.

*Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha  
mag‘ulot o‘tish uchun tuziladigan reja-konspektkning shakli. (Variant)*

«Tasdiqlayman»  
Toshkent shahar  
Aviasozlar kasb-hunar kolleji  
direktori: Q.Oxunov  
«15» yanvar 2007-y.

3-kurs 97-guruh talabalari bilan YOCHQBT fani bo‘yicha harbiy ish asoslari bo‘limidan 1-mavzu 2-mashg‘ulotni o‘tkazish uchun

### Reja -konspekt

Mavzu soni \_\_\_\_\_

Mashg‘ulot soni \_\_\_\_\_

O‘quv-tarbiya maqsadlari; \_\_\_\_\_

Vaqti: 80 minut. Mashg‘ulot joyi: \_\_\_\_\_

Shakli: \_\_\_\_\_ Uslubi: \_\_\_\_\_

Mashg‘ulotda ko‘riladigan o‘quv savollar: 1. \_\_\_\_ 2. \_\_\_\_ 3. \_\_\_\_ 4. \_\_\_\_

Mashg‘ulotning moddiy ta’minoti: \_\_\_\_\_  
Qo‘llanmalar va adabiyotlar: \_\_\_\_\_

### ***Mashg‘ulot o‘tkazish tartibi***

#### *I. Mashg‘ulotning kirish qismi – 10 min.*

1. Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligini aniqlash – 2 min.
2. O‘tilgan mashg‘ulotni eslatish va qisqacha savol-javob o‘tkazish; 6 min.
3. Yangi mavzuni mazmunini va o‘quv-tarbiyaviy maqsadini e’lon qilish – 2 min.

#### *II. Asosiy qism*

Mashg‘ulot bosqichlari, bajariladigan ishlar, ko‘riladigan savollar	Vaqt	Uslubiy ko‘rsatmalar
1. O‘quv savol.		
2. O‘quv savol.		
3. O‘quv savol.		

#### *III. Mashg‘ulotning yakuniy qismi – 10 min.*

1. O‘tkazilgan mashg‘ulot bo‘yicha savol-javob – 6 min.
2. Mashg‘ulot bo‘yicha xulosalar 1 min.
3. Talabalar faoliyatini baholash 1 min.
4. Talabalarga navbatdagi mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish va mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq – 2 min.

*Mashg‘ulot rahbari:*

*kapitan H.Husanov*

*Sana: « » 2007-y.*

### ***Mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘quv joylariga yordamchilarni tayyorlash***

YOCHQBT bo‘yicha mashg‘ulotlarni sifatli o‘tkazishda, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun ba’zida harbiy rahbarga yordamchilar talab qilinadi.

Harbiy rahbar (CHTO‘) mashg‘ulot o‘tishda yordam beradigan yordamchilar uchun o‘quv joylarga alohida rejalar tuzilib ularda

mashq qilinadigan o‘quv savollarni yoki usul va harakatlarni, mashg‘ulotning maqsadini, moddiy ta’minotini va o‘quv savolini, usul, harakatlarni mashq qilish tartibini, me’yor ko‘rsatkichlarini va baholash tartibini ko‘rsatishi mumkin.

O‘quv joylari uchun, bunday rejalarini yo‘riqli ko‘rsatmalar deb ataladi. Yo‘riqli ko‘rsatmalar 15, 20 sm li vatman qog‘ozda bajarish va ularni tutqichli fanerga mustahkamlab qo‘yish yaxshi bo‘ladi.

Odatda, seksiya sardorlari yoki yaxshi tayyorlangan intizomli o‘quvchilarni yordamchilar qilib tayinlanadi.

Harbiy rahbar CHTO‘ mashg‘ulot boshlanishi arafasida yoki oldindan ishonch hosil qilish uchun yordamchilar bilan qo‘srimcha mashg‘ulotlar o‘tkazishi kerak.

Bunda u tayinlangan yordamchilarni materialni yaxshi o‘zlashtirganliklarini pribor va boshqa o‘quv buyumlaridan foydalanish qoidalari o‘rganganliklarini, me’oriy ko‘rsatkichlar va baholash tartibini bilish yoki bilmasliklarini tekshirib oladi. Faqat shundan so‘ng yordamchilarga o‘quv joylarida mashg‘ulotlarni o‘tkazishlariga ruxsat beradi.

YOCHQBT o‘quv mashg‘ulotlarini uslubiy jihatdan to‘g‘ri, yuqori pedagogik darajada va harbiy ishni yuqori saviyadagi bilim bilan olib borish uchun harbiy rahbar (CHTO‘) ning o‘zi u yoki bu mashg‘ulotga sifatli tayyorlanishi va o‘quv-moddiy bazani va ta’lim texnik vositalarini, shuningdek, zaruriyat bo‘lsa mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun yordamchilarni ham tayyorlab qo‘yishi va bu ishlarni mukammal darajada bo‘lishini ta’minlashi shart.

Harbiy rahbar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa haqida»gi, «Harbiy xizmat umumiylar harbiy majburiyati haqida»gi qonunlari, harbiy xizmatga respublika fuqarolarini tayyorlash haqidagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va asosiy qoidalari bilan tanishtirishda o‘quvchilar ularning ma’no va mazmunini, Vatan himoyasi bo‘yicha o‘z vatanparvarlik burchini albatta ado etishga tayyor bo‘lgan mustaqil davlat fuqarosi ma’naviy qiyofasini tasvirlaydigan buyuk ma’naviy qadriyatlar sifatida qabul qilishlariga erishish uchun harakat qiladi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari o‘sib kelayotgan avlod jismoniy va ma’naviy, vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yoshlarni davlat mehnati va mudofaasiga tayyorlash.

YOCHQBT asosiy vazifalariga harbiy bilimlar kerakli hajmini o‘zlashtirish, jismoniy tayyorgarlik, o‘z vatani harbiy tarixini, ramzlarini va

tamoyillarini o'rganish, vatanparvar fuqaro, sodiq jangchini shakllantirish kiradi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» jarayonida o'quvchilar:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilishi;
- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinchalarining vazifalarini;
- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarni, O'zbekiston Ruspublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi Qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini o'rganishi;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganish va anglashi;
- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishi;
- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nani mustahkam bo'lishi;
- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat.

Yuqorida qayd etilganlarga erishish, erishganda ham muvafaqiyatli yerishish har bir harbiy rahbar (CHTO') ning imkoniyatlari yetarli bo'lavermaydi.

Biroq shunga qaramay o'quv dasturi talablarini bajarilishida harbiy rahbar (CHTO') ning faoliyati muhim omillardan bo'lib qolaveradi.

Tajribali harbiy rahbar (CHTO')lar mashg'ulot o'tkazish uchun, ayniqsa amaliy mashg'ulotlarda o'quv joylariga yordamchilarni tayyorlashni o'z vaqtida amalga oshiradilar.

Buning bilan ular mashg'ulot samaradorligini oshirib, o'zlariga qulaylik, o'quvchilarga mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyatini yaratadilar.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish tartibini aytib bering.
2. Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazishda harbiy rahbar CHTO'ning shaxsiy namunasi va darsga munosabati shug'ullanuvchilar uchun qanday ahamyatga egaligini tushuntirib bering.
3. YOCHQBT bo'yicha o'quv jarayonidagi ko'rgazmali vositalar turlarini aytib bering.
4. Mashg'ulotlarga tayyorlanishda harbiy rahbarning o'quv-moddiy baza va ta'lif texnik vositalarini tayyorlashini muhim omillardan biri ekanligi haqida gapirib bering.
5. Darslarda ko'rgazmali qurollarni ishlatalishda nimalarga rioya qilish shart?
6. Harbiy rahbar, CHTO' mashg'ulotdan oldin TTVlarni tayyorlashda qanday ishlarni bajarishi kerak bo'ladi?
7. Mashg'ulot o'tkazish uchun o'quv joylariga yordamchilarni tayyorlashning nima zarurati bor?
8. YOCHQBT o'quv mashg'ulotlarini uslubiy jihatdan to'g'ri, yuqori pedagogik darajada va harbiy ishni yuqori saviyadagi bilim bilan olib borish uchun qanday ishlarni bajarishi kerak bo'ladi ?

**Tayanch iboralar:** mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, shaxsiy namuna, ko'rgazmali vositalar, ta'lif texnik vositalari, yordamchilarni tayyorlash.

---

## **9-§. KIRISH MAVZUSI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH USLUBIYOTI**

### **Kirish mavzusi**

**1-4-mashg‘ulot.** O‘zbekiston Respublikasining Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va uning mudofaaga qaratilganligi. O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida» gi va «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarining umumiylar mazmuni. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimi.

YOCHQBT umumta’lim maktablari va o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv dasturidagi majburiy o‘quv fanidir.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida YOCHQBTning tarixiy zaruriyati. Uning zamonaviy shart-sharoitdagi ahamiyati. YOCHQBTning mohiyati, maqsadi va vazifasi. YOCHQBT dasturining umumiylar mazmuni.

**O‘quv tarbiyaviy maqsadlari.** O‘quvchilarga YOCHQBT fanining maqsadini va uning ahamiyatini tushuntirish. YOCHQBT dasturining umumiylar mazmuni bilan tanishtirish. Ularni vatanimizga va qurolli kuchlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** 1.O‘zbekiston Respublikasining Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va uning mudofaaga qaratilganligi. 2. O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi va «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarining umumiylar mazmuni. 3. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimi. YOCHQBT umumta’lim maktablari va o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv dasturidagi majburiy o‘quv fanidir. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida YOCHQBTning tarixiy zaruriyati. Uning zamonaviy shart-sharoitdagi ahamiyati. 4. YOCHQBTning mohiyati, maqsadi va vazifasi. YOCHQBT dasturining umumiylar mazmuni.

**Shakli:** Nazariy.

**Uslubi:** Suhbat, hikoya.

**Vaqti:** 160 daqiqa.

**Joyi:** YOCHQBT xonasi yoki ta'lif muassasining shon-shuhrat muzeyi (burchagi).

**O'MT:** YOCHQBT dasturi va O'R qonunlari, mavzuga oid ko'rgazmalar. Multimediya, slaydlar. Ta'lif muassasining shon-shuhrat muzeyi (burchagi).

**Foydalanilgan adabiyotlar:** 1. YOCHQBT dasturi, O'zbekiston Respublikasi Koistitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi O'zbekiston Respublikasining «Mudofaato'g'risida»gi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlari.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** Har bir mashg'ulotning kirish qismi 10–12 daqiqadan davom etadi. Bunda mashg'ulot rahbari dastlab guruh komandirining axborotini qabul qilib salomlashadi, undan keyin o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib, guruh ro'yxati bo'yicha yo'qlama o'tkazadi. Har bir mashg'ulotning kirish qismi mashg'ulotning asosiy qismini samarali o'tkazish uchun zamin yaratishga xizmat qilishini ko'zda tutiladi.

Asosiy qism. 60 daqiqa.

*1-o'quv savoli. – 35 daqiqa.* O'zbekiston Respublikasining Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Mudofa doktrinasi va uning mudofaaga qaratilganligi.

Harbiy rahbar, CHTO' dars materialini bayon qilishdan avval «Vatan» tushunchasini izohlab berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamma ham Vatan nima ekanini his eta oladimi? Birov uchun Vatan bu uy-joy, bolachaqa. Boshqalarga esa to'kin-sochin yashash uchun qulay joy, undaylar uchun qayerda yashash oson bo'lsa, o'sha yer Vatan. Butun Yer yuzini Vatanim deb biluvchi kimsalar ham bor, albatta. Ularni odatda kosmopolitlar deb ataydilar. Oddiy xalq iborasi bilan aystsak, ularni bevatlanlar ham deyish mumkin.

Tarixiy Vatanni, ajdodlar xotirasini unutib yuborgan kimsalar, o'zları hozirda yashab turgan mamlakatlariga ham sadoqatli fuqarolar bo'lolmaydilar. Chunki haqiqiy fuqaro bo'lish uchun avvalo chin inson bo'la olishi shart.

Vatanni nima uchun ona-Vatan deymiz? Bizning kurrai zaminimiz butun yer yuzida yashayotgan besh milliarddan ziyod xalqlar uchun vatan bo‘lsa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hudud ona vatandir. Vatan atamasi aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o‘zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, muayyan qabila yashagan joy o‘sha qabilaning Vatani hisoblangan. Jondosh va tildosh qabilalarning ittifoqidan elat paydo bo‘lgan. Elat yashagan hudud el deyiladi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo‘lishi bilan Vatan tushunchasi elat, ya’ni xalq va davlat tushunchalarini o‘ziga qamrab olgan. Davlat va Vatan bir ma’noni ifodalaydi. Biz O‘zbekiston Respublikasi deganda ona-Vatanni tushunamiz. Vatan deganda O‘zbekiston Respublikasini idroq etamiz.

Insoniyat tarixida Vatan to‘g‘risidagi va uni tashqi dushmanlardan himoya qilish to‘g‘risidagi masala katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ona yurtimizga tashqi dushmanlarning tajovuzi ko‘p martalab bo‘lib turgan. Shiroq, Spitamen, Muqanna, J.Manguberdi kabi yurtdoshlarimiz jonlarini Vatan ozodligi uchun fido qilganlar. A.Temur, Z.M.Bobur singari buyuk sarkardalarimiz buyuk davlatga asos solganlar. Keyingi 770 yil ichida xalqimiz ikki marotaba tobelikka tushib qoldi. 1220 yildan 1370-yilgacha Chingizzoniylar xalqimiz ustidan hukmronlik qildilar. Bu tobelikdan xalqimiz Amir Temur bobomiz rahnamoligida ozod bo‘lgan. Ikkilamchi tobelik davri o‘tgan asrning o‘rtalaridan to 1991-yilgacha davom etdi. Bu tobelikdan Yurtboshimiz I. A. Karimov boshchiligidagi ozod bo‘ldik. Ushbu ma’lumotlar o‘quvchilarga yetkazilgandan keyin harbiy rahbar, CHTO‘ O‘zbekiston Respublikasining Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi ekanligini, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat Mudofaasi to‘g‘risidagi yozuvlarning mazmunini, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligini tushuntiradi va izohlaydi.

*2-o‘quv savoli – 35 daqqaq. O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi va «Umumiyligi harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarining umumiyligi mazmuni.*

Mashg‘ulot rahbari dastlab o‘quvchilarga mamlakatimiz mustaqillikka erishgach o‘zining armiyasiga ega bo‘lganligini, harbiy xizmatning huquqiy asoslari yaratilganligini ta’kidlab o‘tadi.

Undan keyin quyidagilarni bayon etadi. Mustaqilligimizga erishganimizdan keyin O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlari va harbiy doktrinasi qabul qilindi.

O'qituvchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini davlatimizning mudofaasiga tegishli bo'lim, bob va moddalarini o'qib eshittiradi. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir.

Demak, Vatan himoyasi faqat harbiy kasbdagi kishilarninggina emas, kasbidan, yoshidan, millati va jinsidan qatinazar har bir fuqaroning burchidir. Mashg'ulot rahbari O'zbekiston Respublikasini «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuning 4-moddasini o'qib eshittiradi.

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

1. Muddatli harbiy xizmat.
2. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat.
3. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat.
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan erkak fuqarolar chaqiriladilar. Muddatli harbiy xizmat muddati 12 oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun-9 oy).

O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi Oliy Majlisning qaroriga binoan qabul qilingan.

Mudofaa doktrinasi – O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining asosini tashkil etadi va milliy xavfsizlik davlat konsepsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi uch qismdan iborat:

1. Umumiy qoidalar.
2. Doktrinaning siyosiy aspektlari.
3. Doktrinaning harbiy-tashkiliy aspektlari.

O'quv savolning yakunida o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob va bir oz tushuntirish va izohlar beriladi.

*3-o'quv savoli – 30 daqiqa.* Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimi. YOCHQBT umumta'lim maktablari va o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quv dasturidagi majburiy o'quv fanidir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida YOCHQBTning tarixiy zaruriyati. Uning zamonaviy shart-sharoitdagi ahamiyati.

Mashg'ulot rahbari o'quv savolini yoritishda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani O'zbekiston Respublikasi «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq tashkillanadi va olib boriladi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» chaqiriq yoshigacha va chaqiriq yoshida bo'lgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

Shundan keyin mashg'ulot rahbari o'quvchilarga YOCHQBT kursning vazifasini tushuntirishni boshlaydi va kerakli joylarini izohlab beradi.

«Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» kursining vazifasi yoshlarga ta'lim jarayonida quyidagilarni o'rgatishdan iborat:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;

- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinlarning vazifalarini;

- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarni, O'zbekiston Ruspublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi Qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganish va anglash;

- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishish;

- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek, jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nana mustahkam bo'lish;

- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirish.

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar quroq va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat. Yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shirlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Shundan so'ng hayotiy misollar keltirib o'quvchilarning savollariga javob beradi.

4-o'quv savoli – 36 daqiqa. YOCHQBT ning mohiyati, maqsadi va vazifasi. YOCHQBT dasturining umumiyligi mazmuni. Mazkur o'quv savol bo'yicha mashg'ulot rahbari dastlab dastur bo'limlarini va ularga ajratilgan dars soatlari bilan tanishtiradi. Undan keyin o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni yetkazadi. Ular quyidagilardir: «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorligarlik» fani uchun o'g'il bolalarga – 140 soat; qiz bolalarga – 70 soat (36 soat «Fuqaro muhofazasi»ga va 34 soat «Tibbiy bilim asoslari»ga) ajratilgan.

Mashg'ulotlar umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining oxirgi ikki yilda haftasiga ikki soatdan o'qitiladi.

Ta'lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorligarlik» fani o'tilmagan yoki mazkur fan bo'yicha sinovdan o'tmagan yoxud yakuniy bahosi «qoniqarsizz» deb topilgan chaqiriq yoshidagi o'spirinlar bilan shahar yoki tuman hokimligining qarori bilan tashkil qilingan MSSL da 160 soatlik dastur asosida ushbu fan o'tiladi.

Ta'lim muassasalarida «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorligarlik» fani nazariy, amaliy, nazorat va dala-o'quv mashg'ulotlari (yig'lnlari) shaklida o'tkaziladi.

Nazariy mashg'ulotlar asosan, ma'ruza yoki suhbat shaklida materiallar va ta'limning texnik vositalaridan foydalananilgan holda o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarda asosiy tushunchalar, ta'riflar hamda mavzuning asosiy qoidalari qarab chiqiladi. Adabiyotlar, Nizomlar talabi, ko'rsatmalar tahlil qilinadi. Maslahatlar, tavsiyalar beriladi, olgan bilimlarni boshqa mashg'ulotlarda hamda harbiy xizmatni o'tash davrida qanday qilib qo'llash mumkinligi tushuntiriladi.

Amaliyot mashg'ulotlari ta'lim muassasalarining belgilangan talablarga asosan jihozlangan o'quv maydonlari va joylarda o'quv qurollari, asboblari, snaryadlari, nishonlar va boshqa ko'chma o'quv jihozlaridan foydalangan holda o'tkaziladi.

Nazorat mashg‘ulotlari dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi» va «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limlari bo‘yicha faqat o‘g‘il bolalar uchun dala o‘quv mashg‘ulotlari (yig‘ini) yakunida, «Harbiy xizmat asoslari» va «Fuqaro muhofazasi» bo‘limlari bo‘yicha esa mazkur bo‘limlar o‘qitilishi yakunlangandan keyin o‘qituvchilar tomonidan ta’lim muassasalarida o‘tkaziladi.

Ta’lim muassasalarida «Harbiy xizmat asoslari» bo‘limi bo‘yicha o‘g‘il bolalar bilan, «Fuqaro muhofazasi» bo‘limi bo‘yicha esa o‘g‘il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

Nazorat mashg‘ulotlarida o‘quvchilar dasturda ko‘rsatilgan me‘yorlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. O‘quvchilarning yakka tartibdagi bahosi dasturdagi bo‘limlar bo‘yicha nazorat mashg‘ulotlarida uning har bir me‘yori bajarilganligi uchun olgan baholari yig‘indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

«*a’lo*» – agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig‘i «*a’lo*» bahoga, qolganlari esa «*yaxshi*» bahoga bajarilgan bo‘lsa;

«*yaxshi*» – agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning 50 % dan ortig‘i «*a’lo*» va «*yaxshi*» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo‘lsa;

«*qoniqarli*» – agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning bajarilishiga qo‘yilgan «*qoniqarsiz*» baho bittadan ko‘p bo‘lmasa;

«*qoniqarsiz*» – me‘yorlar bo‘yicha ikkita va undan ko‘p qoniqarsiz baho bo‘lsa.

Ta’lim muassasalarida bitiruvchi kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko‘nikma va malakalari ni mustahkamlash va yuqorida dastur bo‘limlarida ko‘rsatilgani bo‘yicha nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunlik dala o‘quv mashg‘ulot (yig‘in)lari o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulot (yig‘in)lar quyidagicha o‘tkaziladi:

– umumta’lim maktablarida 11-sinf o‘quvchilari bilan, akademiq litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan mart va may oylarida;

– kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o‘quvchilari bilan o‘qitishning oxirgi davrida o‘tkaziladi;

– tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o‘quv punktlaridagi o‘quvchi o‘g‘il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o‘tkaziladi.

Uch kunlik dala o‘quv mashg‘uloti (yig‘ini) – (DO‘M) quyidagi tartibda olib boriladi:

– bir vaqtning o‘zida barcha yoki bir nechta ta’lim muassasalari tuman (shahar) o‘quv punktlarining o‘quvchi bolalarini mudofaa sport sog‘lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqdagi bo‘lgan harbiy qismlarga yig‘ish yo‘li bilan;

– bitta ta’lim muassasasining (TM) o‘quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o‘quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig‘ish yo‘li bilan.

– har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg‘ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig‘ish yo‘li bilan;

DO‘M(Y) o‘tkazish vaqtini va tartibini Mudofaa ishlari bo‘limlari tuman (shahar) xalq ta’limi organlari, viloyat (shahar) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig‘i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida Nazorat me’yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo‘yicha bajariladi.

«Harbiy ish asoslari» bo‘limi bo‘yicha:

– nishonni ilg‘ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish;

– o‘t ochish joyini tanlash, yotib otish uchun joy (okop) tayyorlash;

– jang maydonida avtomatdan o‘t ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish);

«Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha (4-mavzu, 13–14-mashg‘ulotlarda o‘tkaziladi):

– avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylash (KA);

– avtomatdan otish bo‘yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqli dan otish mashqini bajarish);

– o‘qdonga xonaki o‘qlarni joylash;

– portlovchi qo‘l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo‘yicha 1(2)-mashqlarni bajarish.

«Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limi bo‘yicha:

– turnikda tortilish;

– 1000 yoki 3000 metrga yugurish;

– to‘sqli yo‘lidan oshib o‘tish, umumnazorat mashqini bajarish;

– qo'l kurashi (jangi) amallarini bajarish.

DO'M(Y) uchun umumiy baho quyidagicha qo'yiladi:

«*a'lo*» – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi» bo'limlari bo'yicha olingan baho – «*a'lo*» «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo'limidan esa «yaxshi» bahodan past bo'lmasa, shuningdek, «namunali», «yaxshi» odob-axloqqa ega bo'lsa;

«yaxshi» – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi», bo'limlari bo'yicha olingan baho «yaxshi» bahodan kam bo'lmasa, «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo'limidan esa «qoniqarli»dan kam bo'lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo'lsa;

«qoniqarli» – agarda «Harbiy ish asoslari»dan tashqari biron bir boshqa bo'limdan bitta «yaxshi» bahosi yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo'lsa;

«qoniqarsiz» – agarda ikki va ortiq bo'limlar bo'yicha olingan baho «qoniqarsiz» bo'lsa, shuningdek «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloq bilan yoki «qoniqarli» baho, ammo «qoniqarsiz» odob-axloqqa ega bo'lsa.

DO'M(Y) nazorat mashg'ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan komissiya tarkibi o'tkazadi.

O'quvchi bolalarga nazorat mashg'ulotlarida qo'yilgan baholar qaydnomasi komissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta'lim muassasasi direktoriga jo'natiladi. DO'M(Y) ga qo'yilgan umumiy baho sinf jurnaliga DO'M(Y) belgisi bilan yozib qo'yiladi.

Viloyat (tuman, shahar) hokimligi tomonidan tashkil etilgan o'quv punktlarida YOCHQBT dan o'tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo'limlar bo'yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o'tkaziladi, ularning nazorat mashg'ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi.

MSSL nazorat me'yorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo'yicha boshqarma, jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo'lgan komissiya tuziladi. YOCHQBT bo'yicha yillik (kurs) baho o'quvchilarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo'yiladi.

YOCHQBT bo'yicha yakuniy baho DO'M(Y)ning umumiy bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo'yiladi va quyidagicha aniqlanadi:

«*a'lo*» – agarda DO'M(Y) uchun «*a'lo*» baho, shuningdek, YOCHQBT bo'yicha yillik (kurs) bahosi «yaxshi» bahodan past bo'lmasa;

«yaxshi» – agarda DO‘M(Y) uchun «yaxshi» baho bo‘lsa, shuningdek, BCHT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«qoniqarli» – agarda DO‘M(Y) uchun «qoniqarli» baho bo‘lsa, shuningdek BCHT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«qoniqarsiz» – agarda DO‘M(Y) uchun yoki yillik (kurs) bahosidan birontasi «qoniqarsiz» bo‘lsa.

YOCHQBT ning yakuni bo‘yicha ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i tuziladi (tayyorlanadi). Bu buyruqqa DO‘M(Y) jarayonida o‘quvchilar ko‘rsatgan natijalar tahliliga asoslanib, shuningdek, joriy o‘quv yili YOCHQBT dasturining qay tartibda bajarilganligiga qarab YOCHQBTning yakuniga baho beriladi.

Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot yakunida ta’lim muassasi direktorining YOCHQBT fanini o‘qitilishini boshlash va guruh va seksiya komandirlarining tayinlash to‘g‘risidagi buyruqni o‘quvchilarga eshittiradi va tayinlangan o‘quvchilarni familiyalarini e’lon qiladi, ularning vazifalarini tushuntiradi.

Savol bilan murojat etgan o‘quvchilarning savollariga javob beradi. Shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etadi.

**Yakuniy qism.** Har bir mashg‘ulot uchun 10 daqiqadan vaqt ajratiladi.

Har bir mashg‘ulotning yakuniy qismida mashg‘ulot rahbari yakuniy qismda ko‘zda tutilgan barcha tadbirlarni o‘tkazadi va o‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun har bir o‘tilgan mavzu mashg‘ulotlari yuzasidan o‘quvchilarga savollar bilan murojat qiladi, savollar beradi. Shu qatorda o‘quvchi yaxshi anglamagan o‘quv materiallarga duch kelinsa, qisqacha izoh berib tushuntiriladi. O‘quvchilarga mustaqil tayyorlanishlari uchun vazifalar beriladi.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. «O‘zbekiston Respublikasining Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi» degan yozuvlarning mohiyati nimada ?

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat Mudofaasi to‘g‘risida nimalar yozilgan ?

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va uning mudofaaga qaratilganligi haqida nimalarni bilasiz ?
4. O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi va «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarining umumiylar mazmunini aytib bering.
5. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimi.
6. YOCHQBT umumta’lim maktablari va o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv dasturidagi majburiy o‘quv fani ekanligini tushuntirib bering.
7. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida YOCHQBTning tarixiy zaruriyati. Uning zamonaviy shart-sharoitdagi ahamiyati nimada ekanligini aytib bering.
8. YOCHQBTning mohiyati, maqsadi va vazifasini va YOCHQBT dasturining umumiylar mazmunini qisqacha tushuntirib bering.

*Tayanch iboralar; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi, O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi va «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlari. Majburiy o‘quv fan, mohiyat, maqsad, vazifa.*

---

## **10-§. YOCHQBT DASTURINING «HARBIY ISH ASOSLARI» BO‘LIMI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH USLUBIYOTI**

Mazkur bo‘lim mashg‘ulotlarini olib borishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarning o‘quv materiali bo‘yicha tasavvurlari yanada chuqurroq bo‘lishi uchun maksimal darajadagi o‘quv moddiy ta‘minotdan tashqari qo‘srimcha adabiyotlardan mumkin qadar ko‘proq foydalanishlari va o‘qituvchining o‘quv materiali bo‘yicha puxta bilim va tajribaga ega bo‘lishi alohida ahamyatga egadir.

Ushbu bo‘limdagi mag‘ulotlarda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni seksiyalarning tarkibi va jangovar harakatlarning asoslari bilan tanishtiradi, o‘quvchilarda boshlang‘ich harbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi, shuningdek, ularda jasurlik, mardlik, qa’tiylik, o‘z kuchiga ishonch, jangovar vazifalarni bajarishga shaylik kabi ruhiy va jangovar sifatlarni tarbiyalaydi.

Mazkur bo‘lim bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar YOCHQBT xonasida joy maketidan, plakatlar va sxemalardan foydalanilib olib boriladi. Yangi bilimlarni yetkazishda asosiy uslublardan tushuntirish, mashq qilish va amaliy ish uslublari hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda askarning jangdagi harakatini o‘rganadilar. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar harakat usullarini dastlab qismlarga bo‘lib, keyin to‘liqligicha o‘rganadilar.

O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni mashg‘ulotni to‘xtatmagan holda, qo‘srimcha komandalar berish orqali yoki mashg‘ulotni qisqa fursatga to‘xtatib yo‘l qo‘yilgan xatoni qayta ishslash orqali bartaraf qilinadi.

Mashg‘ulot rahbari agar uslubiy jihatdan ma’qul deb topgan ayrim mashg‘ulotlarni mantiqiy tizimini hisobga olib qo‘sib olib borishi mumkin bunga asosiy sabab bo‘lib, birinchidan, haftalik rejani mantiqiy to‘g‘ri tuzilishi bo‘lsa, ikkinchidan, ta’lim muassasasi tomonidan tuzilgan mashg‘ulotlar jadvalida YOCHQBT mashg‘ulotlarini haftasiga yoki to‘rt soat ketma-ket qo‘yilishidir.

O‘quv dasturining harbiy ish asoslari bo‘limi mashg‘ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda ta’kidlash joizki, mashg‘ulot rahbari tavsiya etilgan texnologiyalarni samara

beradiganini topa bilishi, shu bilan birga o'quvchilarning faolligini oshirishda ish shakllarining qo'llashdagi uning pedagogik mahorati va ijodiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bo'ladigan mashg'ulot uchun mashg'ulot rahbari pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy qilishda o'quv-tarbiyaviy maqsadlarning xususiyatlari, o'quv materialining mazmuni, o'quvchilarning tuyyorgarlik darajasi va o'quv-moddiy bazanining ahvoldidan kelib chiqib ish tutadi.

Bundan tashqari o'quv savollarini o'rganilishida mashg'ulot rahbari ta'lim muassasining o'quv-moddiy bazasini holatini inobatga olib mashg'ulotni shakl va uslublarini belgilaydi.

Mashg'ulotning o'quv moddiy ta'minotida ko'rsatilib o'tilgan o'quv vositalaridan samara beradiganlarini ajratib oladi. Bu bilan u mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishida va uni o'tkazish jarayonida chalg'ib ketishlikning oldini oladi.

Mashg'ulot rahbari ta'lim texnika vositalaridan foydalanib, bo'lim mavzulariga doir o'quv filimlaridan foydalanganida har bir 80 daqiqalik mashg'ulot film, vaqt 25-30 daqiqadan oshmasligi kerak.

«Harbiy ish asoslari» bo'limi bo'yicha mashg'ulotlarida ham dusturning boshqa bo'limlari kabi ko'rgazmali qurollarni ishlatalishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish to'g'ri bo'ladi:

- ko'p sonli ko'rgazmali qurollarga berilib ketmaslik;
- birdaniga barcha ko'rgazmali qurollarni osib ko'rsatmasdan ularni materialni bayon etish vaqtida ko'rsatish;
- ko'rgazmali qurollarni ko'rsatishda ularning mazmunini o'quvchilar yaxshi anglashlari uchun kerakli tushuntirishlarni berish;
- mashg'ulot o'tishda ko'rgazmali qurollarning turli shakllarini birga qo'shish.

Ko'rgazmali qurollarni ko'rsatilgandan va o'quvchilar kuzatib bo'llishganlaridan keyin o'quvchilar tomonidan xulosalar qilinadi.

### **Harbiy ish asoslari bo'limining ta'limiy vazifalari**

**O'quvchilar tasavvurga ega bo'lishlari shart:**

- zamonaviy armiyalarining quroq-aslaha va texnikalarini jangovar xususiyatlari haqidagi.

**O'quvchilar:**

- umumqo'shin jangi asoslarini, askarning jangovar majburiyatini, o't ochish va manyovr (jang maydonida qo'shnlarning dushmanga

zarba berish uchun qulay vaziyatni egallash maqsadidagi harakati) turlari va razvedka o'tkazish asoslarini.

*O'quvchilar quyidagilarni uddalashlari shart:*

- otish va kuzatish uchun joy tanlashni va uni jihozlashni;
- belgilangan maydonda kuzatuv olib borishni, joy atrofidagi narsalarga nisbatan nishonlarning joylanishini aniqlashni, kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berishni;
- parchalanuvchi va tankka qarshi qo'l granatalarini qo'llashni;
- tankka qarshi minalarini o'rnatish, ular o'rnatilgan joylarni aniqlash va guruh (seksiya) tarkibida mina maydonlaridan yo'l ochib o'tishni bilishlari shart.

*O'quvchilar:*

- axloqli, irodali, matonatli, mard, g'alabaga ishonuvchi, o'zini tutabilishi, tashabbuskor bo'lishi;
- askarining jangdagi harakatlari, usullari va amallarini to'g'ri tez va aniq bajarish;
- jang maydonida turli usullar bilan harakatlanish;
- joylarda mo'ljalni xaritasiz aniqlash, azimut bo'yicha harakatlanish amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart.

### ***1-mavzu: Umumqo'shin jangi asoslari***

**1-mashg'ulot.** Jang haqida tushuncha. Umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadi. Umumqo'shin jangining asosiy turlari. Askarning jangdagi majburiyatları. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni zamonaviy jang to'g'risida tushunchaga ega qilish. O'quvchilarni taktik jang to'g'risida chuqurroq o'rganishlari va jang sharoitida quroq turlarini samarali qo'llash zarur ekanligini anglashlariga erishish.

**O'quv savollari:** 1. Jang haqida tushuncha. Umumqo'shin jangining tavsifi, uning maqsadi. 2. Umumqo'shin jangining asosiy turlari. 3. Askarning jangdagi majburiyatları. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.

**Shakli:** Nazariy.

**Uslubi:** Tushuntirish, hikoya, suhbat.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y.

**YODHQBT o'quv qo'llanmasi, -qism, 2005-y.**

**O'MT:** Joy maketi, multimediya, slaydlar, mavzuga oid plakatlar, diastim. Askar ekipirovkasing ro'yxatiga kiradigan buyumlar.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o'quv savoli – 10 daqiqa.* Jang haqida tushuncha. Umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadi.

Dastlab o'quvchilarga jang bu – jang olib borayotgan tomonlar, bo'linma va qismlarning tashkillangan qurolli to'qnashuv ekanligi tushuntiriladi. Keyin o'quvchilarga «Nima uchun jang dushman ustidan qozonishning yagona vositasidir deyiladi?» savoli tashlanib o'quvchilarni diqqati tortiladi va ulardan mustaqil ravishda javob kutib faolliklari oshiriladi.

Mashg'ulot rahbari umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadi haqida tayyorlagan barcha vositalardan foydalanib o'quv savolining mazmunini batafsil yoritadi. O'quv savolni mazmuni yoritilgandan so'ng materialni mustahkamlash uchun quyidagi mazmunda savollar beriladi: *1. Jang deganda nimani tushunasiz?* *2. Nima uchun zamonaviy jangni umumqo'shin jangi deyiladi?* *3. Umumqo'shin jangini ta'rif berishga harakat qiling.*

*2 - o'quv savoli – 10 daqiqa.* Umumqo'shin jangining asosiy turlari.

Mashg'ulot rahbari ikkinchi o'quv savolini yoritishda jang olib borishdan maqsad va qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan usullarga qarab turlarga bo'linishini ta'kidlaydi. Keyin jangning hujum va mudofaa turlari bo'lishini va jangning asosiy

turi bo'lib hujum jangi hisoblanishini aytib tushuntiradi. Jangning asosiy turi bo'lib hujum jangi hisoblanishining sababi qat'iy hujum bilangina dushmanni to'la tor-mor etish mumkin bo'ladi. Ana shundan keyin avvaldan tayyorlab qo'yilgan joy makedidan foydalanim taktik vaziyatni tartib bilan qisqa va lo'nda qilib hujum jangiga tavsif berib uni qanday amalga oshirilishi tushuntiriladi. Ikkinci o'quv savolining materiallarini o'rgatib bo'lingandan keyin odatdagidek savollar beriladi:

1. Jang turlari qanday omillarga qarab bo'linadi ?

2. Jang turlari qanday maqsadlarni ko'zlaydi ?

3 - o'quv savoli -10 daqiqa. Askarning jangdagi majburiyatlar.

Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.

Mazkur o'quv savolni jangdagi o'rni tushuntirish bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Askarning jang paytidagi o'zining burchlarini puxta bilishi va chuqur anglashi uning jang maydonidagi harakatlanishini ongli va uddaburonlik bilan bajarishiga yordam berishini mashg'ulot rahbari ta'kidlaydi. Mashg'ulot rahbari quriqlikdagi qo'shnlarning jangovar nizomidan askarning jangdagi majburiyatirini o'qib eshittiradi. Undan keyin o'quvchilarga askar nafaqat o'z majburiyatlarini puxta bilishi, balki seksiya komandirining majburiyatini ham bilishga majbur ekanligini aytib sabablarini tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga savollar bilan murojat qilib ularning faolligini oshirishga harakat qiladi.

Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi masalasida ham mashg'ulot rahbari alohida to'xtalib o'tadi. Askarning shaxsiy quroli masalasidagi majburiyatlarini izohlaydi va askarning ekipirovkasiga kiradigan ro'yxatdagi buyumlarni iloji boricha namunasini ko'rsatishga harakat qilishi tahsinga sazovor bo'ladi.

O'quv savolining yakunida o'quvchilarining savollariga javob beradi.

### Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- mavzu va uning maqsadini eslatish;

- o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob;

- o'tilgan mashg'ulotning tahlili;

- o'quvchilar faoliyatini baholash;

- mustaqil ishlash uchun vazifa berish;

- mashg'ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** Motoo‘qchi seksiyasining tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni motoo‘qchi seksiyasining tarkibi va jangovar imkoniyatlari bilan tanishtirish. Motoo‘qchi seksiyasining qurollari va jangovar texnikasiga bo‘lgan ishonchni orttirish.

**O‘quv savollari:** 1. Motoo‘qchi seksiyasining tarkibi, qurollanishi va jangovar texnikasi. 2. Motoo‘qchi seksiyasining jangovar imkoniyatlari.

**Shakl:** Nazariy, ko‘rgazmali.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalananilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism. 2005-y.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhnинг mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

Seksiyalarning tarkibi shtatlar va tabellar (ro‘yxatlar) bilan aniqlanadi, shuningdek, seksiyasining jangovar vazifasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa.* Motoo‘qchi seksiyasining tarkibi, qurollanishi va jangovar texnikasi. Mashg‘ulot rahbari dastlab o‘quvchilarga motoo‘qchi bo‘lim eng quyi taktik bo‘linma bo‘lib

motoo‘qchi guruhning tarkibiga kirishi tushuntiriladi. So‘ngra darsga tayyorlab qo‘yilgan sxemalardan yoki multimediyalardan foydalaniб, motoo‘qchi seksiyaning tarkibi, qurollanishi va jangovar texnikasi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. BMP dagi motoo‘qchi seksiyaning BTRdagi motoo‘qchi seksiyadan nafaqat tarkib jihatdan, balki qurollanishi bo‘yicha ham farq qilishini aytish zarur, shuningdek, BMP va BTRlarning vazifalari va jangovar imkoniyatlari tushuntiriladi. Yana shuni tushuntirish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida mavjud bo‘lgan BMP va BTRlar boshqa davlatlarning armiyalaridagi xuddi shunday jangovar texnikalardan mutlaqo qolishmaydi.

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa.* Motoo‘qchi seksiyaning jangovar imkoniyatlari.

Ikkinchi o‘quv savolini mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga seksiya mustaqil ravishda kuchli qurol-yaroqlarga ega bo‘lib, dushmaning tanklari va boshqa o‘t ochish vositalari bilan muvaffaqiyatli tarzda jang qila olishini, uning jonli kuchi va past uchayotgan samolyot va vertolyotlarni yo‘q qila olishini tushuntirishdan boshlaydi. O‘qituvchi seksiya hujumda va mudofada guruh, tarkibida harakat qilishni, lekin razvedkada va qo‘riqlashda mustaqil ravishda harakat qilishni aytadi. Seksija jangovar vazifaga, dushmanning harakati va joyning tuzilishiga qarab BMP (BTR)da, piyoda yoki tankda desant holida harakat qilish mumkin. Aytilganlarni multimedya yoki slaydlar kuzatuvida olib borish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulot yakunida mashg‘ulot rahbari. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomidan foydalaniб motoo‘qchi seksiyaning hujumdagи va mudofadagi imkoniyatlarni tanishtiradi.

Mustahkamlash uchun savollar. 1. Motoo‘qchi seksiya hujumda qancha masofani egallashi mumkin? 2. Motoo‘qchi seksiya mudofada dushmaning qancha kuchini yo‘q qilish imkoniyatiga ega?

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- mavzu va uning maqsadini eslatish;
- o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob;
- o‘tilgan mashg‘ulotning tahlili;
- o‘quvchilar faoliyatini baholash;
- mustaqil ishlash uchun vazifa berish;
- mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** O‘t ochish – jangda dushmanni yakson qilishning asosiy vositasi. O‘t ochish turlari. Jangdagi manyovrlar to‘g‘risida tushuncha. Manyovr turlari, seksiyaning jangovar harakatlarini ta’minlash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga o‘t ochish turlari va o‘t ochish – jangda dushmanni yakson qilishning asosiy vositasi ekanligini, shuningdek, manyovr turlari haqida tushuncha berish. Ularda jang maydonidagi yuz beradigan vaziyatlarda jangovar qurol imkoniyatlardan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishdek uddaburonlikni tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** 1. O‘t ochish – jangda dushmanni yakson qilishning asosiy vositasi. O‘t ochish turlari. 2. Jangdagi manyovrlar to‘g‘risida tushuncha. Manyovr turlari, seksiyaning jangovar harakatlarini ta’minlash.

**Shakl:** Nazariy, ko‘rgazmali.

**Uslub:** Tushuntirish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism. 2005-y.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. O‘t ochish – jangda dushmanni yakson*

qilishning asosiy vositasi. O‘t ochish turlari. Mashg‘ulot rahbari tomonidan o‘quvchilarga o‘t ochish bu – turli xil qurollardan nishonni yo‘q qilish uchun o‘t ochish ekanligi haqida tushuncha berish. U jangovar vazifani bajarishda dushmani yo‘q qilishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilishligi ta’kidlanadi. O‘quvchilarga o‘t ochishning kuchi uning samarali bo‘lishga bog‘liq ekanligini, o‘t ochishning samarali bo‘lishi esa kutilmaganda to‘satdan o‘t ochish va yuqori aniqlik va manyovr qilishda ekanligini anglatish kerak. Buning uchun mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga slayd yoki rangli plakatlar kuzatuvida quyidagilarni tushuntiradi: Motoo‘qchi seksiyalari o‘t ochishning bir necha turlarini qo‘llashlari mumkin: 1. O‘t ochishning vazifalari xarakteriga ko‘ra alohida nishonga o‘t ochish va markazlashgan o‘t ochishga (bir necha o‘t ochish vositalarini yoki butun seksiyani bitta nishonga qarata o‘t ochishi)ga bo‘linadi. 2. O‘t ochishni yo‘nalishi bo‘yicha - frontal o‘t ochish (nishon frontga perpendikulyar yo‘nalgan), qanotdan o‘t ochish (dushman qanotlariga) va kesishma o‘t ochish (2 yoki undan ko‘proq yo‘nalishlardan bitta nishon bo‘ylab). 3. O‘t ochishning kuchi bo‘yicha- bitta-bittalab, qisqa va uzun uzlucksiz o‘t ochishlarga bo‘linadi. Mashg‘ulot rahbari o‘t ochishning turlarga bo‘linishini gapijar ekan, hikoyani joy maketida ko‘rsatish orqali davom ettirishi yoki bo‘lmasa ko‘rsatib unga izohlar berish tavsiya etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar. 1. O‘t ochish deganda nimani tushunasiz? O‘t ochish necha turga bo‘linadi.

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa.* Jangdagi manyovrlar to‘g‘risida tushuncha. Manyovr turlari, seksiyaning jangovar harakatlarini ta’minalash.

Mashg‘ulot rahbari ikkinchi savolni o‘rganishga o‘tar ekan manyovr qilishning mohiyati va qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minalashda manyovrning ahamiyatini tushuntiradi. Manyovr o‘t ochish va bo‘linma harakatlari bilan amalgalashiriladi.

O‘t ochish bilan bir vaqtida manyovr qilish, dushmani yo‘q qilishning yanada samaraliroq usuli hisoblaniladi. Jangda guruh oldida bir varaqayiga ahamiyati turlicha bo‘lgan nishonlar, ya’ni jonli kuchlar, o‘t ochish vositalari, jangovar mashinalar paydo bo‘lib qolishi mumkin.

Butun seksiyaning yoki bir necha o‘t ochish vositalarining o‘t ochishini bitta muhim nishon bo‘yicha markazlashtirish, o‘t ochishni bir nishondan 2-chisiga ko‘chirish yoki o‘t ochishni qo‘shni seksiyaga yordam berish uchun qanotlarga qo‘chirish – bu o‘t ochish bilan bir vaqtida manyovr qilish demakdir.

Bo'linmalar bilan manyovr qilish dushmanning eng kuchsiz joylariga o't ochish uchun qulay holatni egallash maqsadida yoki dushmanning qanoti yoki ort tomoniga kutilmagan hujumni amalga oshirish uchun qulay yo'nalishga chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Jangda ikki xil manyovr amalga oshiriladi: egallab olish (oxvat) va aylanib o'tish (obxod). Egallab olish – bu dushmanning uncha uzoq bo'limgan qanoti va ort tomoniga manyovr qilish demakdir.

Bunda frontdan haraqat qilayotgan bo'linmalar bilan yaqin o'zaro bog'liq harakatlar saqlanib qoladi. Aylanib o'tish - dushmanning qanot va ort tomoniga bo'lgan ichkariroq kirish uchun manyovr qilishdir. Bundan tashqari mashg'ulot rahbari egallab olish va aylanib o'tishni birlashtirib amalga oshirilishi mumkinligini tushuntiradi.

Mashg'ulot rahbari yuqorilarda keltirilgan o'quv materiallari va ko'rsatilgan tavsiyalar bilan cheklanmaydi, qo'llanma va adabiyotlardan qo'shimcha ma'lumotlar keltiradi va boyitadi. Undan o'quvchilarni manyovr va ularning turlari haqida tasavurga ega qilish va mohiyatini anglatishga erishish talab etiladi. Buning uchun u maksimal darajada zamonaviy ta'lim-texnika vositalaridan va kerakli o'quv materiallaridan foydalanishni bilishi shart. O'quv savolning yakunida mustahkamlash uchun bir nechta savollar beriladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'uloga yakun yasash.

**4-mashg'ulot.** Zamonaviy armiyalarning asosiy qurol-aslahalaridan: samolyot, vertolyot, tank va zirhli mashinalarning taktik va texnik ko'rsatkichlari, ularning zaif joylari.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni zamonaviy asosiy qurol-aslahalaridan: samolyot, vertolyot, tank va zirhli mashinalarning taktik va texnik ko'rsatkichlari, ularning zaif joylari bilan tanishtirish. Zaruriyat tug'ilganda ular bilan jang olib borishda o'ziga nisbatan ishonchini orttirish.

**O‘quv savollari:** 1.Zamonaviy armiyalarning asosiy quroslaslahalaridan: samolyot, vertolyotlarning taktik va texnik ko‘rsatkichlari, ularning zaif joylari.

2.Zamonaviy armiyalarning asosiy quroslaslahalaridan: tank va zirhli mashinalarning taktik va texnik ko‘rsatkichlari, ularning zaif joylari.

**Shakl:** Nazariy. Ko‘rgazmali.

**Uslub:** Tushuntirish. Suxbat, xikoya.

**Vakt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. «El» firmasi tomonidan tayyorlangan «havo nishoni» qurilmasi yoki sxema.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Zamonaviy armiyalarning asosiy quroslaslahalaridan: samolyot, vertolyotlarning taktik va texnik ko‘rsatkichlari, ularning zaif joylari.* O‘quv materiallarini multimediya yoki rangli diafilmlar, plakatlar yordamida o‘rganiladi. Bu yerda ayniqsa mashg‘ulot rahbari uchun multimediya materiallari qo‘l keladi. Birinchi o‘quv savolini mustahkamlash uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

Shuning uchun bu vaqt ichida zamonaviy armiyalarni taktik aviatsiyasining asosiy samolyotlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Mazkur o'quv savolni o'rganishda o'quvchilarga diafilim yoki plakatlar bilan ishlashlari uchun vaqt berish to'g'ri bo'ladi.

O'quvchilar o'z daftarlariiga zamonaviy armiyalarning asosiy quroslaslahalaridan: samolyot, vertolyot, tank va zirhli mashinalarning taktik va texnik ko'rsatkichlari, ularning zaif joylari to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarni zamonaviy armiyalarning samolyot, vertolyotlarning taktik va texnik ko'rsatkichlari, ularning zaif joylari bilan tanishtirib bo'lganlaridan keyin seksiyada mavjud bo'lgan qurol-yarog'larni qo'llab ular bilan jang olib borish usullarini tushuntiradi.

O'quvchilarda otish qurol bilan havo nishonini urishga ishonchi ortadi, shuningdek samalyotdan qo'rquvgaga qarshi ruhiy immunitet shakllanadi. O'rgatishda mashg'ulot rahbari havo nishonlarini «El» firmasi tomonidan tayyorlangan «havo nishoni» qurilmasidan yoki sxemadan foydalanadi. An'anaga ko'ra mashg'ulot rahbari mustahkamlash uchun bir nechta savollar bilan o'quvchilarga murojat qiladi.

*2-o'quv savoli – 15 daqiqa.* Zamonaviy armiyalarning asosiy quroslaslahalaridan: tank va zirhli mashinalarning taktik va texnik ko'rsatkichlari, ularning zaif joylari. Ikkinci o'quv savol ham birinchi o'quv savolining o'tkazilish tartibida olib boriladi:

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga kimda-kim dushman tanklarini zaif joylarini bilmasa unga tankning salobati albatta qo'rquv solishini uqtiradi.

Hikoya qilishda mashg'ulot rahbari ikkinchi jahon urushi davridagi tanklarga taqqoslanganda hozirgi zamonaviy tanklar kuchli o't ochish vositalari, zirxli himoyasi, nisbatan yuqori tezligi va manevr (harakat) qilishi, zamonaviy o't ochish va kuzatuv priborlar bilan jihozlanganligini bilan farq qilishini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga zamonaviy tanklarning sifatli tomonlaridan tashqari ularning zaif va nozik joylari ham yo'q emasligi aytilib, suratli plakatlar bilan ko'rsatiladi va tushuntiriladi. O'quv savolini yakunida o'quv materialini mustahkamlash uchun savollar o'quvchilarga berilib ular tushunmagan joylarga qisqacha izohlar beriladi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- mavzu va uning maqsadini eslatish;
- o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob;
- o‘tilgan mashg‘ulotning tahlili;
- o‘quvchilar faoliyatini baholash;
- mustaqil ishlash uchun vazifa berish;
- mashg‘ulotga yakun yasash.

### **2-mavzu. Askarning jangdagi harakatlari**

(O‘quv maydoni mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalarida 1–6 mashg‘ulotlar amaliy o‘tkaziladi).

**1–2-mashg‘ulot.** Mudofaadagi o‘t ochish pozitsiyasi to‘g‘risida tushuncha. Joylardagi predmetlarni mudofaalanishga moslashtirish, o‘t ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko‘zdan yashirish).

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni kuzatuv olib borish va o‘t ochish yakka okop (xandak) va seksiya okoplarini tayyorlash uchun joy tanlay bilishni va ularni niqoblashni o‘rgatish; jang maydonlarida predmetlarni himoyalananish maqsadida foydalanish ko‘nikmalarini tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** 1-*o‘quv savoli.* Mudofaadagi o‘t ochish pozitsiyasi to‘g‘risida tushuncha.

2-*o‘quv savoli.* Joylardagi predmetlarni mudofaalanishga moslashtirish, o‘t ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko‘zdan yashirish).

**Shakl:** Nazariy. Taktik-saf. (Amaliy).

**Uslub:** Tushuntirish. Suhbat, hikoya.

**Vaqt:** 80 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism. 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3- qism. Saf nizomi.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Mudofaadagi o‘t ochish pozitsiyasining maketi.

O'quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, har bir o'quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Signal berish bayroqchalar. Taktik maydon.

### Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

#### Kirish qismi. 10 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

#### Asosiy qism. 60 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 25 daqiqa. Mudosaadagi o't ochish pozitsiyasi to'g'risida tushuncha.* Mashg'ulot rahbari savolni yoritishni seksiyani pozitsiyasini (marrasini) muhandislik jihozlanishining ahamiyatini aytishdan boshlaydi. Tushuntirilayotgan o'quv materiallari slaydlar, diafilim yoki rangli plakatlar kuzatuvida tushuntiriladi. Seksiya marrasining muhandislik jihozlanishi okoplar, panalar joylar, aloqa yo'llarini qurishni va portlaydigan – minalashtirilgan to'siqlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Dushman bilan to'qnash kelmaganida pozitsiyani jihozlash seksiya uchun okopni belgilash (trassirovka qilish)dan boshlanadi. Bunda yer o'yuvchi mashinadan foydalanish mumkin. Dushman bilan to'qnash kelinganda esa pozitsiyani jihozlash o'zi uchun okop qazishdan boshlanadi. Mashg'ulot rahbari yakka okoplarning turlarini tushuntiradi. Okoplar o'qchilar, pulyomyotchilar va granatomyotchilar uchun bo'linadi. Okoplarni qazishda ularning barchasi yotib otish uchun mo'ljallanganadi. Agar 60 sm gacha qazilsa tizzalab otishga mo'ljallangan okopga, 110 sm gacha qazilsa tik gurib otishga mo'ljallangan okopga aylanadi. Qazishda chiqqan tuproq old va yon tomonlariga tashlanadi va 50–60 sm balandlikka ega bo'lgan brustver (do'mlik) hosil bo'ladi. Otish sektorida brustver 30 sm gacha pasaytiriladi va otish uchun joy (oraliq) ochiladi. Okopning ichida o'qdori uchun tokcha qilinadi. Bunday okopni qurish uchun sapyorlar

lopatsasi bilan 1,5 soat, kichik piyodalar lopatsasi bilan 2,5 soat vaqt sarflanadi. Pulemyotdan otish uchun mo'ljallangan okop 2 ta yakka okoplardan va 100 x 100 sm li maydonchadan iborat bo'ladi. Otish sektoridagi brustver 20 sm qalinlikda bo'ladi. Bunday okopni qurish uchun sapyorlar belkuragi bilan 2,5 soat, kichik piyodalar lopatsasi bilan 4 soat vaqt sarf bo'ladi. Granatomyotlar otish uchun mo'ljallangan okop o'qchi uchun mo'ljallangan okopdan yon tomonlarida va orqa tomonda brusveri bo'lmasligi bilan ajralib turadi. BMP (BTR)larning o't ochish pozitsiyasi o't ochish maydonchasi bo'lgan chuqurlik (kotlavan) va tushish va chiqishga mo'ljallangan narvonni vazifasini o't ovchi qurilma (apparel) hamda brusverdan iborat bo'ladi. BMP (BTR) uchun pozitsiya seksiyaning orqa tomonida 50 metr uzoqlikda qaziladi. Bu esa qanotlar tomonga o't ochishni ta'minlab beradi. Mashg'ulot rahbari o'quv savolini tushuntirishni yakunlagandan keyin o'quv materialini mustahkamlash uchun o'quvchilarga bir nechta savol beradi.

*2-o'quv savoli – 35 daqiqa. Joylardagi predmetlarni mudofaalanishga moslashtirish, o't ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko'zdan yashirish).* Mazkur o'quv savol ham avvalgi o'quv savolini olib borish tartibi singari olib boriladi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga o'quv savolini mazmunini tushuntirishni quyidagilar bilan boshlaydi. Joylardagi premetlarni mudofaalanishga moslashtirish, o't ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko'zdan yashirish). Mashg'ulot rahbari seksiya uchun okop yakka okoplarni birlashtirishdan hosil bo'lishini aytib tushuntiradi. Natijada front bo'ylab manevr qilish uchun, askarlar o'zaro muloqotda bo'lishlari uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Bu esa jangning borishida askarlarning psixologik holatida ijobiy aksini topadi. Bundan keyin mashg'ulot rahbari seksiya uchun okopning elementlarini tushuntirishni boshlaydi: old va orqa brusveri bo'lgan chuqurlik (chuqurligi 110 sm); pulemyotlar va granatomyotlar uchun zaxira maydonchalari va o'qchilar (avtomatchilar) uchun yacheykalar; BMP (BTR)ga va ort tomonga aloqa yo'llari; o'q-dorilar uchun tokchalar. Keyin okopni o'rab turgan muhit rangiga mos tarzda maskirovka qilish zarurligi aytildi. Okopni jihozlash paytida askarlar har daqiqada jang uchun tayyor turishlari kerakligi uqtiriladi. Seksiya uchun okoplardan transheya hosil qilinadi. Transheya egri chiziqli, siniq bo'lish kerak. Bu zARB to'lqini va oskolka parchasidan jangchilarni talofatini kamaytirish maqsadida qilinadi. Transheya chuqurligi 150 sm. O'quv savolining oxirida o'ralar (shel) haqida tushuncha beriladi. O'ra chuqurligi 150 sm, tubining eni 60 sm,

uzunligi 3 metr kirish qismiga ega bo‘lgan chuqurlikdir. O‘ralar ochiq va yopiq bo‘lishi mumkin. Yopiq o‘ralar ommaviy qirg‘in qurollaridan ham himoya qila oladi. Mashg‘ulot rahbari yuqorida keltirilgan materiallar bilan cheklanmaydi. U zamonaviy ta’lim texnika vositalaridan foydalanib multimedya namoyish etadi va mashg‘ulotni yanada samaraliroq bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

### **Yakuniy qism. 10 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** Mudofaa jangiga tayyorgarlik ko‘rish va uni olib borish. Dushman o‘t ochish tayyorgarligini boshlaganda, dushman tomonidan kimyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar qo‘llanilganda va dushman hujumga o‘tgandagi askarning harakati. Tank va boshqa zirhli nishonlarni yo‘q qilish. Askarning tundagi mudofaada harakati. Dushmanning pastlab uchuvchi nishonlari bilan jang olib borish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga o‘t ochish pozitsiyasini egallashni, dushman o‘t ochish tayyorgarligini boshlaganda va kimyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar qo‘llanilganda va dushman hujumga o‘tgandagi askarning harakatini o‘rgatish. Tank va boshqa zirhli nishonlarni va dushmanning pastlab uchuvchi nishonlari bilan jang olib borish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatish. Jang maydonida ishonch bilan harakatlanish, hal qiluvchanlik va tezkorlik kabi sifatlarni rivojlantirish. Birdamlik va o‘zaro yordam berish fazilatlarni tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** *I-o‘quv savoli.* Mudofaa jangiga tayyorgarlik ko‘rish va uni olib borish. Dushman o‘t ochish tayyorgarligini boshlaganda, dushman tomonidan kimyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar qo‘llanilganda va dushman hujumga o‘tgandagi askarning harakati:

*2-o ‘quv savoli.* Tank va boshqa zirhli nishonlarni yo‘q qilish. Askarning tundagi mudofaada harakati. Dushmanning pastlab uchuvchi nishonlari bilan jang olib borish.

**Shakl:** Nazariy. Taktik-saf. (Amaliy)

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, (mashq qilish).

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3-qism. Saf nizomi.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Mudofaadagi o‘t ochish pozitsiyasining make-ti. O‘quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, har bir o‘quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Signal berish bayroqchalari. Taktik maydon.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o ‘quv savoli. – 15 daqiqa.* Mudofaa jangiga tayyorgarlik ko‘rish va uni olib borish. Dushman o‘t ochish tayyorgarligini boshlaganda, dushman tomonidan kimyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar qo‘llanilganda va dushman hujumga o‘tgandagi askarning harakati.

Ta’kidlash joizki mashg‘ulotning shakli va olib borish uslubi mashg‘ulot joyining sharoitiga qarab o‘zgarishi mumkin. Agar ta’lim muassasasida «Askarning jangdagi harakatlari» mavzusida

kinofilm yoki multimediya mavjud bo'lsa mashg'ulot arafasida sinfdan tashqari ishlarga ajratilgan soatlarda namoyish etish tavsiya etiladi. Birinchi o'quv savoli ko'rileyotganda mashg'ulot rahbari o'quvchilarga o't ochish pozityasi (joyini)ni egallash ikki xil vaziyatda amalga oshirilishini va ulardan biri dushman bilan to'qnash kelmaganda ikkinchisi dushman bilan to'qnash kelinganda o't ochish pozityasi (joyini)ni egallash kerakligini aytadi. Mashg'ulotni boshlanishida mashg'ulot rahbari o'quvchilarning diqqatini tortish uchun quyidagi savollarni beradi: 1.Qo'shin nima maqsadda mudofaaga o'tadi. 2. Mudofaa qurilmalarining vazifasi nimadan iborat? Savollar berilgandan keyin mashg'ulot rahbari o'zi qisqacha qilib, qachonki, qo'shin dushmanning o'q otish vositalariga bevosita duch kelganida va dushman bilan to'qnash kelinmagan vaziyatlarda qo'shin o't ochish uchun qulay joyga joylashish, tanlangan joyni jihozlash va niqoblashi uchun mudofaani egallaydi. Undan keyin o'quvchilar o't ochish uchun joy tanlash usullari bilan uning taktik baholanishi asosida tanishadilar. O'quvchilar bilan mudofaadaga o't joyini tanlash va egallahni askar komandirning ko'rsatmasiga ko'ra joylarda yoki mexanizatsiya vositalari bilan qazilgan transheyalarda joy egallahini o'rganiladi. O'quvchilarga namoyish etilgan diafilm yoki multimediyalardagi epizodlarni eslatib o't ochish uchun qo'yilgan joy tanlash vazifasini har xil sharoitlardagi bajarilish tartibi bilan o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mashg'ulotni olib borish uslubi joyning sharoitiga qarab darsning nazariy, amaliy va ko'rgazmali shakllaridan foydalanish mumkin. Uslublardan tushuntirish uslubi bilan mashq qilish uslubini birgalikda olib borilishi tavsiya etiladi. Dushman o't ochish tayyorgarligini boshlaganda, dushman tomonidan kimyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar qo'llanilganda va dushman hujumga o'tgandagi askarning harakatini o'rgatish fuqarolar himoyasi mashg'ulotlarida o'rganilgan joylardagi buyumlarni himoya xususiyatlaridan foydalanish tartibini eslatish bilan o'tkaziladi. Mashq qilishni guruh tarkibi bilan harakat chog'ida va joyda turganda o'quvchilarni bir-biridan 4-6 qadam oraliq masofaga qo'yib ularga taktik vaziyat tushuntiriladi. «Portlash o'ngda» («Vspishka sprava), (sleva, szadi, speredi)» buyrug'i beriladi. O'quv materiallarini dastlab qismlarga bo'lib, keyin yuxlitligicha mashq qilinadi. «Portlash o'ngda» buyrug'iga muvofiq «Pana joyga», «Janga» buyruqlari berilib o'quvchilarni tez va to'g'ri harakatlanishlariga erishiladi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilar bilan

askarning mudofaadagi harakatlarini o'rganishda o'quvchilarda egallangan pozitsiyani (o't ochish joyini) mustahkam ushlab turishi va dushmanga maksimal darajada talofat yetkazish uchun shaylanish kayfiyatini shakllantirishi va o'quvchilarni zamonaviy jangning artilleriya, komyoviy yonuvchi (kuydiruvchi) qurollar va boshqa qirg'in vositalarini xavf soladigan omillari ta'sirida ruhiy tayyorgarlashi kerak bo'ladi.

*2-o 'quv savoli – 15 daqiqa. Tank va boshqa zirkli nishonlarni yo'q qilish. Askarning tundagi mudofaada harakati. Dushmanning pastlab uchuvchi nishonlari bilan jang olib borish.*

Tank va boshqa zirkli nishonlarni yo'q qilishni yaxshi o'zlashtirish uchun seksiyani zirxni teshib o'tuvchi tanka qarshi vositalarni va dushmanning qalin zirxli tanklari va boshqa texnikalarini to'g'risida ma'lumotga ega maxsus tablitsadan foydalanish samarali bo'ladi. Ayniqsa tankka qarshi qo'l granatalarining jangovar xususiyatlariga to'xtalib o'tish juda muhimdir. Mashg'ulotning oldiga qo'yilgan tarbiyaviy maqsadiga erishish uchun o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi. Tankka qarshi kurash olib borishda jangchida qanday axloqiy-irodaviy sifatlar bo'lishi lozim? U nimani uddalashi kerak? Ushbu berilgan savollarni yoritilishi o'quvchilarda sabr-toqat, botirlik va jasurlik, kurash olib borishda sovuqqonli bo'lishga, nishongacha bo'lgan masofani tez aniqlay olishga, tankning harakatlanishiga joy relyefining ta'sirini to'g'ri baholashga tank va boshqa jangovar texnikalar bilan kurash olib borish uchun o't ochish joyini to'g'ri tanlay olishga sidqidildan harakat qilish, kabi sifatlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga tanka qarshi kurash olib borish usullarini o'rgatishda okopdan turib tankka qarshi granatalarni nishonga qarata uloqtirish usullarini ko'rsatib tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga keyingi vaqtarda tankka qarshi kurash olib borishda ko'proq tankka qarshi minalar va granatametlar kengroq qo'llanilayotganligiga e'tiborlarini qaratib Yaqin sharq yoki Iroqdagi zamonaviy janglardan misollar keltirib beradi. Mashg'ulot rahbari askarning tundagi mudofaada jangidagi harakatini o'rganish jangovar tayyorgarlikning muhim vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Keyin tunda olib boriladigan mudofaa jangini o'ziga xos tomonlarini, kunduz kuni bo'ladigan janglardan nima bilan fark qilishini o'quvchilarga aytib tushuntiradi. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tunda bo'ladigan janglarda umumiylashtirish masalalardan tashqari tunda ko'rinishi qiyin bo'lgan joylardagi buyumlarni mo'ljalini

o'llinishiga, tunda ko'rish priborlarni tayyorlash va joylarni yoritilishiga, nurli mo'ljallarni aniqlanishiga qaratiladi. Bundan tashqari askarning tundagi mudofaa jangidagi vazifalarini komandiri tomonidan belgilanishi va unga askar qat'iy amal qilishi shartligini mashg'ulot rahbari o'quvchilarga uqtiriladi. Dushmanning pastlab uchuvchi nishonlari bilan jang olib borish. Dastlab o'quvchilarni dushman samalyotlari va vertalyotlarini farqli belgilarini yaxshi bilish, ularning jangovar xususiyatlarini, qurollarining xarakterini, taktik xunusiyatlarini, shuningdek, ularning zaif joylariga qarata o't ochishning eng yaxshi usullarini tanlash va havo nishonini yo'q qilish imkoniyatlarini berishiga ishonchini komil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyin o'quvchilar pastlab uchuvchi havo nishonlariga o't ochishni qoida va usullari bilan tanishadilar. Havo nishonlariga o't ochish bo'yicha mashg'ulotni imkon qadar maxsus jihozlanlangan o'quv joyida o'tkazish tavsiya etiladi. Avvalgi mashg'ulotda egallangan bilimga tayanib mashg'ulot rahbari o'quvchilarga havo nishonlariga o't ochish usullarini va ularga ochiq joylardan va okop (transheya)dan o't ochishga tayyorgarlik ko'rish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida havo nishonlariga o't ochish qurollarini qo'llashni o'rgatish guruh tarkibida olib boriladi. Buning sababi mazkur mavzu bo'yicha o'quv-moddiy bazani to'liq talabga javob bermasligi va tayyorgarlikka ega seksiya komandirlarining yo'qligi bilan tushuntiriladi. Mashg'ulotni olib borilshida o'quvchilarni dushman samalyotlarini yo'q qilishda ularga qarata o't ochish usullarini egallah ishonchli omil ekanligiga ishonchini hosil qilish zarur va shuning asosida o'quvchilarda ruhiy barqarorligini va axloqiy-ruhiy sifatlari rivojlantiriladi. Shular qatorida eng so'nggi jangovar tajribalardan misollar keltirilishi juda katta tarbiyaviy ahamyatga ega bo'ladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

**Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:**

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahibili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**4-mashg‘ulot.** Askarning hujumdag‘i harakati. Transheya (bir-biriga ulangan okoplar) dan hujumga tayyorlanish va hujumga o‘tish. Jang maydonida harakatlanish usullari va yo‘l-yo‘riqlari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni askarning hujumdag‘i harakatlari, transheya (bir-biriga ulangan okoplar)dan hujumga tayyorlanish va hujumga o‘tish va jang maydonida harakatlanish usullari va yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishtirish. Jang maydonlaridagi kutilmagan har xil vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatish va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

**O‘quv savollari:** 1-o ‘quv savoli. Askarning hujumdag‘i harakati.

2-o ‘quv savoli. Transheya (bir-biriga ulangan okoplar)dan hujumga tayyorlanish va hujumga o‘tish.

3-o ‘quv savoli. Jang maydonida harakatlanish usullari va yo‘l-yo‘riqlari.

**Shakl:** Nazariy. Taktik-saf. (Amaliy)

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, (mashq qilish).

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi. 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3-qism. Saf nizomi.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Mudofaadagi o‘t ochish pozitsiyasining maketi. (O‘quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, har bir o‘quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Mina maydonlarini ko‘rsatuvchi belgilar (tablichkalar), signal berish uchun bayroqchalar. 6 va 10 raqamli nishonlar, yakka tartibdagi himoya vositalari. Adrianova kompasi, (faqat mashg‘ulot rahbari uchun) portlovchi paketlar, signal beruvchi patronlar. Taktik maydon.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

– Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Askarning hujumdagи harakati.* Mashg‘ulot arafasida sinfdan tashqari ishlар uchun ajratilgan soatlar hisobidan «Askarning jangdaga harakati» va «Jangda haraqatlanish usullari» mavzusida multimedya yoki kinofilmini ko‘rsatib ularning diqqatini, hujumni amalga oshirishdagi tezlikka, harakatlarning to‘xtovsizligiga, o‘t ochishni harakat chog‘ida qanday amalga oshirilishini, qo‘l granatalarini uloqtirilishini va qo‘l jangi usullarini bajarilishiga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulotni amaliy shaklda olib borish uchun jang maydonini aks ettiradigan o‘quv joyini o‘quvchilarning yordami bilan avvaldan hozirlaydi. Mazkur mashg‘ulotning xususiyatlaridan biri shuki, uning avvalgi amaliy mashg‘ulotlarda o‘rganilgan va ya’ngi o‘rganiladigan o‘quv materiallarini bir-biri bilan uzviy bog‘liqligidir, yani majmuaviyligidadir. O‘quv savolini o‘rganishda uni bosqichlarga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi. Dastlabki birinchi bosqichda mashg‘ulot rahbari barcha harakatlarni namunali darajada ko‘rsatish bilan tushuntirib izohlaydi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar harakat usullarini mashg‘ulot rahbarining buyrug‘iga ko‘ra qismlar bo‘lib bajaradilar. So‘nggi uchunchi bosqichda ko‘rsatilgan va o‘rganilgan barcha harakat usullari yaxlitligicha bajariladi. Aytish joizki ushbu o‘quv materiallarini o‘rgatishda mashg‘ulot rahbarining tajribasi mashg‘ulotning samarasini belgilaydi.

*2-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Transheya (bir-biriga ulangan okoplar) dan hujumga tayyorlanish va hujumga o‘tish.* Mazkur o‘quv savolini mashq qilishdan oldin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga askar hujumga tayyorgarlik ko‘rishida nima qilish kerakligini aytib beradi, keyin uning jangga otlanishidagi faoliyatini o‘quvchilarga oydinlashtirib okopdan chiqish va hujumga harakatlanish tartibini ko‘rsatadi, shu bilan birga hujumdagи harakat o‘t ochish bilan bir vaqtda bajarilishiga e’tibor qaratiladi. Hujumga otlanayotgan va

hujumga o'tgan askarning harakatini ko'rsatish uchun avtomat va uning o'q-dorilarini olib okopga tushib dushmaniga qarata o't ochishga hozirlik ko'rildi. Keyin «Seksiya hujumga tayyorlan» buyrug'i berilib – o'quv avtomatiga nayza-pichoq, o'qlangan o'qdon taqilishini, chiqarilgan o'qdonni o'qlab sumkaga joylanishini, mo'ljalni 3 yoki «P» ga o'rnatilishini, o'quv granatalarini (bolvanka) tayyorlanishini, anjomlarni harakatga halal bermasligi uchun mahkamlanishini ko'rsatilib undan keyin bir oyoqni o'yib qilingan zinaga qo'yib, qo'l bilan okop qirg'og'idagi to'sin (brustver)ga tayanish holati ko'rsatiladi. Bundan keyin «**Seksiya hujumga – OLG'A**» buyrug'i bo'yicha okopdan saqrab chiqib, oldinga harakatlanganda to'xtamasdan o't ochib harakatlanish tartibi ko'rsatiladi.

*3-o'quv savoli – 10 daqiqa. Jang maydonida harakatlanish usullari va yo'l-yo'riqlari.* O'quvchilarni askarni jang maydonida harakatlanish usullariga o'rgatish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab o'qituvchi askarning jang maydonida harakatlanishida qaysi bir usulni tanlashi joyning relyefiga va dushman hujumining shiddatiga bog'liq ekanligini tushuntiradi. Keyin ildam qadam bilan yurib harakatlanish, yugurib, yotib va emaklab harakatlanish usullarini qanday bajarilishini o'zi ko'rsatadi. Shundan so'ng o'quvchilarni amaliy o'rgatishga kirishiladi. O'quvchilarni harakat usullarini bajarishni boshlashlari uchun «**O'quvchilar To'raqo'ziyev, Imomov va Sobirovlar, marra tomon ildam qadamlar bilan – OLG'A**» buyrug'i beriladi. Agar o'quvchilar harakatlanish chog'ida xatoga yo'l qo'ysalar ularni to'xtatish va yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatib mashqni davom ettiriladi. Xatolarni baland yaxshi eshitiladigan ovozda va aniq ko'rsatish kerak, toki uni qolgan o'quvchilar ham eshitib xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qilsinlar. Jang maydonidagi bajariladigan barcha harakat turlarini bajarilishida o'quvchilar tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan xatolarni asta-sekinlik bilan qismlarga bo'lib ko'rsatiladi va mashq qilinadi. Jang maydonida harakatlanish chog'ida dushmanni ko'zdan qochirish juda katta xato ekanligi ham o'quvchilar ongiga singdirilishini mashg'ulot rahbari avvaldan rejalashtiradi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'z vaqtida tanbeh berish va harakatlarni takrorlash orqali erishiladi. O'rganilgan o'quv şavollari yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun umumiy tahlil o'tkazilishi tavsiya etiladi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**5-mashg‘ulot.** Jangda har xil to‘sqliarni yengib o‘tish. Okop va transheyalarda o‘t ochish va qo‘l jangi olib borish va hujumda dushmanni yo‘q qilish (yengish) usullari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni jangda har xil to‘sqliarni yengib o‘tish, okop va transheyalarda o‘t ochish va qo‘l jangi olib borish va hujumda dushmanni yo‘q qilish (yengish) usullari bilan tanishtirish. Jang maydonlaridagi kutilmagan har xil vaziyatlardagi sabr-matonatli bo‘lishni tarbiyalash, tezkorlikka, uddaburonlikka o‘rgatish va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

**O‘quv savollari:** 1-o ‘quv savoli. *Jangda har xil to‘sqliarni yengib o‘tish.*

2-o ‘quv savoli. *Okop va transheyalarda o‘t ochish va qo‘l jangi olib borish va hujumda dushmanni yo‘q qilish (yengish) usullari.*

**Shakl:** Nazariy. Taktik-saf. (Amaliy)

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, (mashq qilish).

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlilikdagi qo‘sining jangovar nizomi 3-qism. Saf nizomi.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimedlyn va slaydlar. Taktik maydon maketi. O‘quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, har bir o‘quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Minn maydonlarini ko‘rsatuvchi belgilar (tablichkalar), signal berish uchun bayroqchalar. 6 va 10 raqamli nishonlar, yakka turtibdag‘i himoya vositalari. Adrianova kompasi, (faqat mashg‘ulot rahbari uchun) portlovchi paketlar, signal beruvchi patronlar. Taktik maydon.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Jangda har xil to‘siqlarni yengib o‘tish.*

Ushbu o‘quv savolni yoritishda mashg‘ulot rahbari quyidagilarni bayon etadi. Hujum qilishda dushmanning himoya to‘siqlariga ro‘paro‘ kelish ehtimoli borligini va bu to‘siqlardan biri minalashtirilgan maydon ekanligini o‘quvchilarga aytadi. Dushman minalashtirgan maydondan o‘tish seksiya komandirining qa’tiy ko‘rsatmasiga ko‘ra bajarilishi alohida ta’kidlanadi. Seksiya komandiri seksiya shaxsiy tarkibiga vazifa qo‘yishda, hujum qilish yo‘nalishini va harakatlanish usullarini, shuningdek, to‘siqlardan o‘tish qoida va tartibini ko‘rsatib tushuntiradi. O‘ndan keyin avvaldan tayyorlangan taktik mashg‘ulot uchun sharoitga ega joyda o‘quv savoli mashqlar yordamida o‘rganiladi.

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Okop va transheyalarda o‘t ochish va qo‘l jangi olib borish va hujumda dushmanni yo‘q qilish (yengish) usullari.*

Dushmanni yo‘q qilish usullarini o‘rgatishni qismlarga bo‘lib o‘rgatish tavsiya etiladi. Bostirib kelayotgan piyodachilarga avtomatdan o‘t ochish; qo‘l granatalari bilan hujumga tashlangan dushman piyodachilarini yo‘q qilish; okopga yaqinlashayotgan yoki o‘tib bo‘lgan dushman tanklarini tankka qarshi granatalar bilan yo‘q qilish; okopga yorib kirgan piyodachilarni yo‘q qilish shular jumlasidandir. Mshk harakatlarini to‘g‘ri bajarish uchun har bir bajarilayotgan mashq elementlariga mos keladigan buyruqlar beriladi. Ushbu o‘quv savolining mazmuni avvalgi mashg‘ulotlarda o‘rganilganligi tufayli ko‘proq

amaliy mashq qilishga e'tibor qaratiladi. O'quv savollar o'rganilib bo'lingandan keyin o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib tuyulgan joylarga mashg'ulot rahbari izohlar berib o'tadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**6-mashg'ulot.** Dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) okop qazish va dushman ko'zidan niqoblash.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) okop qazish va dushman ko'zidan niqoblash usullari bilan tanishtirish. O'quvchilardagi uddaburonlik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

**O'quv savollari:** 1-o'quv savoli. *Dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) okop qazish.*

2-o'quv savoli. *Okopni (egallangan joyni) dushman ko'zidan niqoblash.*

**Shakl:** Nazariy. Taktik-saf. (Amaliy)

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish, (mashq qilish).

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo'shilarning jangovar nizomi 3-qism. Saf nizomi.

**O'MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediyu va slaydlar. Taktik maydon maketi. O'quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, har bir o'quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Minn maydonlarini ko'rsatuvchi belgilar (tablichkalar), signal berish uchun buyroqchalar. 6 va 10 raqamli nishonlar, yakka tartibdagi himoya vositalari. Adrianova kompasi, (faqat mashg'ulot rahbari uchun) portloychi paketlar, signal beruvchi patronlar. Taktik maydon. Sapyorlar kurakchasi.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o ‘quv savoli. Dushman o‘qi ostida (o‘t ochib turgan paytda) o‘t ochish pozitsiyasini egallash (okop qazish).* O‘quv savolni o‘rganilishida mashg‘ulot rahbari ta’lim muassasining o‘quv-moddiy bazasining, holatini inobatga olib mashg‘ulotni shakl va uslublarini belgilaydi. Mashg‘ulotning o‘quv moddiy ta’midotida ko‘rsatilib o‘tilgan o‘quv vositalaridan samara beradiganlarini ajratib oladi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga dushman o‘qi ostida (o‘t ochib turgan paytda) o‘t ochish pozitsiyasini egallash (okop qazish) qachonki, hujum paytida olg‘a yurishni iloji qolmaganda, ya’ni dushman avvaldan egallangan o‘t ochish pozitsiyasidan juda ham kuchli va to‘xtovsiz o‘t ochgan va kutilmaganda to‘satdan hujum uyuştirgan paytda, shuningdek, ko‘zda tutilgan jangovar vazifa bajariladi seksiya komandirining buyrug‘iga ko‘ra amalga oshirilishini aytadi. Keyin bunday vaziyatlarda seksiya komandirlari, yuqori turuvchi boshliqlarning qaroriga ko‘ra «To‘xta, o‘t ochish pozitsiyasi egallansin» buyrug‘ini beradi. Ushbu o‘quv savolini o‘rganish uchun vaqt chegaralanganliga sababli avvaldan tayyorlab qo‘yilgan okop namunasini (rangli plakatdan) ko‘rsatib, uning o‘lchamlarini, egallash va qazish tartibini tushuntiradi. Shu joyda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga o‘t ochish pozitsiyasini egallash paytida qanday vazifa bajarilishidan qat’iy nazar askar dushmanni ko‘zdan kochirmaslikni va shaxsiy quroli har doim o‘zi bilan birga va qo‘llashga shay holatda bo‘lish kerakligini alohida uqtiradi.

*2-o ‘quv savoli. Okopni (egallangan joyni) dushman ko‘zidan niqoblash.*

Mazkur o'quv savol bo'yicha ham avvaldan hozirlab qo'yilgan okop namunasidan foydalanib okopni (egallangan joyni) dushman ko'zidan nikoblash tartibini ko'rsatib uning ahamyatini tushuntiradi. O'quvchilarning e'tiborini niqoblangan o't ochish pozitsiyasini atrofdagi ko'rinish bilan mos kelish, ya'ni sezilmashlik darajasini tu'minlanishiga qaratiladi. Undan keyin mashg'ulot rahbari o'quvchilarga okop qazilayotganda qurolni to'g'ri qo'yish tartibini va kichik savyorlar kurakchasiidan mohirona foydalanish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib o'quvchilarning ham bu ishni bajara olishlariga erishish uchun harakat qiladi. O'quv savollari o'rganilib bo'lingandan keyin o'quvchilar tomonidan beriladigan savollarga javob va izohlar beriladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**7–8-mashg'ulot.** Amaliy. Ushbu mashg'ulotlar 1–3-mashg'ulotlarda ko'rsatilgan o'quv savollari bo'yicha DO'M (y) da o'tkaziladi.

**9–10-mashg'ulot.** Amaliy. Ushbu mashg'ulotlar 4–6-mashg'ulotlarda ko'rsatilgan o'quv savollari bo'yicha DO'M(y)da o'tkaziladi.

### **7–10-mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

Ma'lumki, uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlari (yig'ini) – (DO'M) bir vaqtning o'zida barcha yoki bir nechta ta'lim muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining o'quvchi bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan yoki bitta ta'lim muassasasining (TM) o'quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o'quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig'ish yo'li bilan bularning iloji bo'lmagan taqdirda har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg'ulot maydonlariga, otish,

joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig'ish yo'li bilan o'tkaziladi. Uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlari asosan mashg'ulotning taktik, taktik-saf, ko'rgazmali va nazorat shakllarida olib boriladi. Uslublardan ko'proq mashq qilish (trenirovka), amaliy ish va musobaqali uslublardan foydalanish tavsiya etiladi. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash o'quv dasturinig talabiga muvofiq mazkur faning o'qitilishi, ayniqsa uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlari harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shinlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatilishini ko'zda tutadi.

Ushbu talabdan kelib chiqib uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazilishi uchun dastur ilovalarida ko'rsatilgan o'quv-moddiy bazaning elementlari va o'quv moddiy ta'minotning ro'yxatdagi buyumlari bilan ta'minlanishi hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Biroq bu masalalarni hal qilishda harbiy rahbar, CHTO'ning o'rni harakatga keltiruvchi markaziy o'rin bo'lib hisoblanadi.

Harbiy rahbar, CHTO'ga soha mutaxasisi sifatida DO'M(Y) mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazilishi uchun uchraydigan muammolarini hal qilishda o'z vaqtida tayyorgarlik ko'rib borish tavsiya etiladi.

### **3-mavzu. Razvedka**

**1-mashg'ulot.** Razvedka qilish usullari. Jang maydonini kuzatish. Askarning kuzatuvchi sifatida faoliyati. Kuzatuvchi va uning vazifasi. Joylarni o'rganish usullari, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatish. Kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga razvedka qilish, jang maydonini kuzatish va joylarni o'rganish usullarini, askarning kuzatuvchi sifatida faoliyatini, kuzatuvchining vazifasini, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatishni, kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish yo'l-yo'riqlarini o'rgatish. Talabalarda mas'uliyat hisini oshirish.

**O'quv savollari:** 1-o'quv savoli. *Razvedka qilish usullari. Jang maydonini kuzatish. Askarning kuzatuvchi sifatida faoliyati. Kuzatuvchi va uning vazifasi.*

2-o'quv savoli.  *Joylarni o'rganish usullari, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatish. Kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish.*

**Shukl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish .

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalaniqan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3-qism.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar, jangovar texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Taktik maydon maketi. Adrianova kompasi. Binokl, periskop.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi.

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o‘quv savoli –15 daqiqa. Razvedka qilish usullari. Jang maydonini kuzatish. Askarning kuzatuvchi sifatida faoliyati. Kuzatuvchi va uning vazifasi.* Bu mashg‘ulotda o‘quvchilarni keyingi navbatda bo‘ladigan taktik-saf mashg‘ulotiga tayyorlanadi. Ularga kuzatuv priborlari, masofani aniqlash, kuzatuv maydonini o‘rganish, axborot berish tartibini va daftarga qayd etishni o‘rgatiladi. Razvedka mavzusini o‘rgatilishida mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga razvedka ta’minotining asosiy turlarini tashkil etish va olib borish bo‘yicha bilimlarni beradi. Birinchi o‘quv savolini o‘rganish multimediya, stend va diafilmlardan keng foydalaniib suhbat uslubi bilan olib boriladi. O‘quvchilar bilan avval o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlarni qo‘llagan holda o‘t ochish joyini (pozitsiyasini) tanlash, egallah usullarini o‘rganish vaqtida

kuzatish uchun joyni tanlash va jihozlashga, dushman haqida razvedka ma'lumotlarini olish maqsadida joylarni ko'zdan kechirish va kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish tartibiga qo'yiladigan talablarni oydinlashtiriladi. Razvedkada qo'yilgan vazifalarni bajarishda o'ta mas'uliyatli va onglilikni o'quvchilarda shakllantirish, ularni o'rganiladigan savollar bo'yicha belgilangan talablarga qat'iy amal qilish zarurligiga, shuningdek, razvedkada juda kichik intizomsizlik ham kechirib bo'lmaydigan holatlighiga iqror qilish juda muhimdir.

*2-o 'quv savoli – 15 daqiqa. Joylarni o'rganish usullari, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatish. Kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish.* Oldindan tayyorlagan sxemadan foydalanib o'quvchilarga joyni kuzatish va mahalliy predmetlarni o'rganish tartibi tushuntiriladi. Dushmanni faqat o'ta xushyorlik, sergaklik va tinimsiz kuzatish orqali ilg'ash mumkinligini o'quvchilarga uqtiriladi. Keyin joy maketidan foydalanib o'quvchilarga mahalliy predmetlarni ko'zdan kechirish tartibi haqida tushunchalar beriladi. Kuzatish sektori uzoqligi bo'yicha 3 ta zonaga bo'linadi: yaqin zona 400–500 metr; o'rta zona 1000 metrgacha; olis zona – ko'rinish imkonining chegarasigacha. Zona chegarali joylarida yaqqol ko'rinish turadigan mo'ljallar bo'yicha belgilanadi. Joyni ko'zdan kechirish yaqin zonadan boshlanadi. Bunda chapdan o'ngga qarab kuzatiladi. Yakin zonani kuzatib bo'lingach, shu tartibda qolgan zonalar kuzatiladi. Dushmanni niqoblanishini oshkora qilib qo'yadigan belgilarga qarab ilg'ab olish mumkin. Bunga zanjir va g'ildirak izlari, so'qmoqlar, bosilgan barg va maysalar, tutunlar misol bo'la oladi. Nishonlarni mo'ljallarga nisbatan holatini kuzatuvchi ko'zchama qilib yoki optik uskunalar yordamida aniqlaydi. O'quvchilar mashg'ulot rahbari yordamida nishonni aniqlashgach, zudlik bilan komandirga doklad qilinishini, karta yoki sxemaga belgilanishi va kuzatish jurnaliga qayd etilishi shartligini bilishlari kerak. O'quvchilarga doklad qilish va kuzatish natijalarini qayd etish jurnalidagi shaklini daftarlariga yozib olishlari tavsiya etiladi.

### Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.

- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** Dozor (dastlabki kuzatuv). Razvedkachilarining faoliyati haqida tushuncha. Askarning dozorchi sifatida faoliyati. Atrofni va joylardagi narsalarni ko‘zdan kechirish tartibi. Dushmanning kichik guruhlari bilan duch kelganda dozorchinig faoliyati.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga dozor (dastlabki kuzatuv) razvedkachilarining faoliyati, askarning dozorchi sifatidagi faoliyati haqida tushuncha berish va atrofni va joylardagi narsalarni ko‘zdan kechirish tartibini, dushmanning kichik guruhlari bilan duch kelganda dozorchinig xatti-harakatini o‘rgatish. Talabalarda mas’uliyat hisini oshirish.

**O‘quv savollari:** *1-o‘quv savoli.* Dozor (dastlabki kuzatuv). Razvedkachilarining faoliyati haqida tushuncha. Askarning dozorchi sifatida faoliyati.

*2-o‘quv savoli.* Atrofni va joylardagi narsalarni ko‘zdan kechirish tartibi. Dushmanning kichik guruhlari bilan duch kelganda razvedka dozorinig faoliyati.

**Shakl:** Nazariy. (Amaliy)

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi, 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3-qism. Harbiy topografiya, o‘quv qo‘llanma.

**O‘MT:** Mavzuga oid plakatlar. Multimediya va slaydlar. Taktik maydon maketi. Adrianova kompasi. Binokl, periskop.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.

- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli. Dozor (dastlabki kuzatuv). Razvedkachilarining faoliyati haqida tushuncha. Askarning dozor sifatidagi faoliyati.* Ushbu mashg‘ulotda o‘quvchilar razvedkada kuzatuvchining xatti-harakatlarini bajaradilar. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar seksiya tarkibida kuzatuvchining harakatlarini bajarishlaridan oldin ularga qisqacha qilib razvedka qanday tashkil qilinishi to‘g‘risida quyidagilarni yetkazadi: razvedka dozoriga tayinlangan seksiya komandiri razvedga yo‘nalishi, razvedkaning boshlanish vaqt, o‘zi va o‘rinbosarining joyini, dushman haqida ma’lumot beradigan ko‘rsatmalarni beradi. O‘quv savolini o‘rgatish metodikasi taktik-saf mashg‘ulotlaridagi kabi askarning jangdagi harakatlari o‘qitilishi bo‘yicha olib boriladi. Kuzatuvchining roli va harakatlarini o‘rganilishida o‘quvchilarining asosiy e’tiborini kuzatuv va o‘t ochish uchun eng qulay joyni tezlik bilan tanlay olishlariga va kuzatuv natijalari haqida aniq ma’lumot berilishi shart ekanligiga qaratilishi lozim. Dozor harakatlarini mashq qilishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarda dushman harakatlarini oldindan ko‘ra olish va ular bilan duch kelinganda qat’iy harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutilishi kerak.

*2-o‘quv savoli. Atrofni va joylardagi narsalarni ko‘zdan kechirish tartibi. Dushmanning kichik guruhlari bilan duch kelganda dozorchinig faoliyati.* Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar bilan o‘quv qo‘llanma va quruqlikdagi qo‘s Shinlarning jangovar nizomi qoidalariga muvofiq dozorning harakatlanish tartibini, seksiya komandiri bilan aloqasini, jarliklarni, o‘rmonlarni, aholi yashaydigan punktlarni, qir-adir va va tog‘lik joylarni, ko‘prik, daryo va boshqa joylarni ko‘zdan kechirish bo‘yicha dozor majburiyatlarini oydinlashtiradi. Bu joyda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga aniq harakat va usullarni ko‘rsatadi. Nazorat savollari bilan o‘quvchilarni sinovdan o‘tkazib, ularning o‘quv materialini tushunishlariga amin bo‘lgandan so‘ng mashg‘ulot rahbariga o‘quvchilar bilan taktik vaziyatni chandalab ko‘rishni amalda qo‘llab ko‘radi, masalan: vazifa yo‘qlatilgan dozor razvedkachi – yo‘nalish bo‘yicha piyoda harakatlanayotgan (yo‘nalish joylar ko‘rsatiladi) dushmanning sonini, tarkibi va faoliyatini aniqlash tavsiya

ctiladi. Dastlabki holatda seksiya komandiri (mashg'ulot rahbari) dushmani aniqlash uchun oldinga va dozor razvedkasi harakat yo'nalishi tomoniga bir juft razvedkachi dozorni tayinlaydi va ularga kerakli vazifalar qo'yiladi, vazifalar qo'yilishida harakat yo'nalishi, uzoqlashish masofasi, joy va joylardagi buyumlarni ko'zdan kechirish va harakat tartibi, shuningdek, komandir bilan aloqa uchun bog'lanish yo'llari ko'rsatiladi. Tayinlangan razvedkachi dozorlarni vazifani tushunganliklarini tekshirib qo'rib seksiya komandiri (mashg'ulot rahbari) qo'yilgan vazifani bajarishga kirishishlari uchun buyruq beradi. Razvedkachi dozorlarning harakatlarini baholashda mashg'ulot rahbari o'quvchilar yo'l qo'ygan xato va to'g'ri bajarilgan usullarni ko'rsatadi. Mashg'ulot rahbari vaqt-vaqt bilan «To'xta» komandasini berib razvedkachi dozorlarining o'rmini almashtirib turadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot yakunida o'quvchilarning faoliyati tahlil qilinada va ularga baho qo'yilib e'lon qilinadi. Mustaqil tayyorlanishlari uchun uyga topshiriq beriladi.

## **4-mavzu: Pozitsiyaning muhandislik qurilmalari ularni niqoblash**

**1-mashg'ulot.** Portlaydigan va portlamaydigan hamda aralash bo'lgan muhandislik to'siqlari.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni portlaydigan va portlamaydigan hamda aralash bo'lgan muhandislik to'siqlari bilan tanishtirish. Muhandislik to'siqlarining ahamyatini anglatish.

**O'quv savoli:** Portlaydigan va portlamaydigan muhandislik to'siqlari.

**Shakl:** Nazariy. (Ko'rgazmali)

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo'shinglarning jangovar nizomi 3-qism.

**O'MT:** Mavzuga oid sxema yoki plakatlar. Multimediya va slaydlar. «Muhandislik to'siqlari» diafilm (dushman hujumiga g'ov bo'ladigan turli to'siqlar).

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

Ushbu mashg'ulot o'quv dasturda ta'lim muassasasining o'quvmoddiy bazasidan kelib chiqib nazariy shaklda o'tkazilishi ham mumkin. Biroq bu mashg'ulotni ko'rgazmali shaklda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'rgazmali mashg'ulotni o'tkazish uchun harbiy rahbar, CHTO'ga mashg'ulotni o'tkazilish joyini va vaqtini tuman mudofaa ishlari bo'limi boshliqlari va akademik litsey, KXK va umumta'lim ta'lim muassasasi boshqarmalari bilan birga otaliqda bo'lgan harbiy qism komandiri bilan kelishilgan holda belgilab, ta'lim muassasasining o'quv rejasiga tasdiqlanishiga qadar ta'lim muassasasi direktorlariga yetkazilishi va ta'lim muassasasining o'quv rejasiga kiritilishi tavsiya etiladi. Mashg'ulot kuniga qadar mashg'ulot rahbari harbiy qism vakilini mashg'ulotning mazmuni va o'quv maqsadlari bilan tanishtirishi va birgalikda mashg'ulotni o'tish tartibini oydinlashtirishi shart. Mashg'ulotning boshlanishida o'quvchilarga ular harbiy ish asoslarini o'rganayotganliklarini, o'rganilayotgan o'quv materiallar harbiy ilmning asosiy qismi ekanligini, uning maqsadi va mazmünini qisqacha bayon qilishi zarur. Bu borada o'quvchilarga zamonaviy jangda muhandislik to'siqlarining ahamiyati sezilarli darajada oshganligini bu esa qo'shin va harbiy qismlarning zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanib borayotganligi, umumqo'shin janglarini

boshqacha tus olib borayotganligi, oddiy va ommaviy qirg‘in qurollarining qudrati oshib borishi bilan bog‘liqligi tushuntiriladi. Bundan tashqari muhandislik to‘sqliari uch xil bo‘lib ular portlaydigan, portlamaydigan va aralash (portlaydigan va portlamaydigan to‘sqliarni aralash qo‘llanishi) turlarga bo‘linishi ta’kidlanadi.

Muhandislik qurilmalarining namunalari ko‘rsatilayotgan o‘quv joylarida harbiy qism tomonidan darsga tayyorlangan serjant yoki ofitser bo‘lishi kerak. Har bir guruh o‘quvchilari mashg‘ulot rahbarining buyrug‘i bo‘yicha belgilangan rejaga asosan bir o‘quv joyidan ikkinchisiga o‘tadilar. O‘quvchilarga shaxsiy tarkib va jangovar texnika uchun mo‘ljallab jihozlangan okop namunalarini ko‘rsatish bilan bir qatorda ularni niqoblash qoidalari va tartiblarini ham ko‘rsatilib tushuntirib boriladi. Undan keyin odatdagidek mavzu yuzasidan bir necha savol-javob o‘tkaziladi.

### Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg‘ulot qisqacha tahlil qilingandan so‘ng o‘quvchilar faoliyati baholanadi va uya vazifa beriladi. Uya vazifa qilib muhandis qurilmalarining chizmalari va rasmlarini ma’lumotlari bilan keltirish beriladi.

**2-mashg‘ulot.** BTR, pulemyotchilar, granatamyotchilar, avtomatchilar uchun jihozlangan okop namunalarini, shaxsiy tarkib uchun yopiq o‘ralarni va qurilgan, jihozlangan transheyalarni ko‘rsatish. Yotib (tizzalab) otish uchun bir kishilik okopni qazish va niqoblash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga BTR, pulemyotchilar, granatamyotchilar, avtomatchilar uchun jihozlangan okop namunalarini, shaxsiy tarkib uchun yopiq o‘ralarni va qurilgan, jihozlangan transheyalarni, yotib (tizzalab) otish uchun bir kishilik okopni qazish va ularni niqoblash tartibini ko‘rsatib tushuntirish. Muhandislik qurilmalarini va ularni niqoblashdan ko‘zda tutilgan maqsadni anglatish.

**O‘quv savoli:** BTR, pulemyotchilar, granatamyotchilar, avtomatchilar uchun jihozlangan okop namunalarini, shaxsiy tarkib uchun yopiq o‘ralarni va qurilgan, jihozlangan transheyalari. Yotib (tizzalab) otish uchun bir kishilik okopni qazish va niqoblash.

**Shakl:** Amaliy. ( Ko‘rgazmali)

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, amaliy ishni bajarish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. (Taktik maydon).

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi 3-qism.

**O‘MT:** Mavzuga oid sxema yoki plakatlar. Multimediya va slaydlar. Muhandislik qurilmalari (okoplarning turlari, transheyalar). Diafilm «Muhandislik qurilmalar».

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism.** 30 daqiqa.

Ushbu mashg‘ulotni o‘tkazish arafasida o‘quvchilarning mustaqil ish soatlari hisobidan «Muhandislik qurilmalar» diafilmi yoki mavzu bo‘yicha multimediyanı namoyish etishni foydasi katta. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish tartibini tushuntiradi. Mazkur mashg‘ulot ham 1-mashg‘ulot kabi harbiy qism xududida o‘tkazilishini, o‘quvchilarning kiyimbosh kiyish tartiblarini, harbiy qism hududidagi belgilangan tartibga qat’iy amal qilish shart ekanligini uqtiradi. Agar mashg‘ulotni harbiy qism hududida o‘tkazishni imkonli topilmagan taqdirda ta’lim muassasasining hududida ham mashg‘ulot amaliy shaklda o‘tkazilishi mumkin. Buning uchun mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot boshlanishidan bir necha kun ilgari o‘quvchilarning bevosita yordamida mashg‘ulot jarayonida o‘rganilish ko‘zda tutilgan barcha muhandislik qurilmalarini tayyorlab oladi. Shundan keyin mashg‘ulot boshlanishida o‘quvchilarga ularning ko‘z o‘ngida turgan va jihozlandan muhandislik qurilmalar bo‘yicha bir

nechta savollar berilib ularning faolligi oshirilib, e'tiborlarini mashg'ulotga jalg qilinadi. O'quvchilarning javoblarini eshitib bo'lgach mashg'ulot rahbari ularni to'ldiradi. Mashg'ulot rahbari mashg'ulot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun dastlab mashg'ulot mazmunini aytib tushuntiradi. Undan keyin o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga izohli javoblar beradi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot qisqacha tahlil qilingandan so'ng o'quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko'ra ularning faoliyati baholanadi va uyga vazifa beriladi. Uyga vazifa qilib muhandis qurilmalarini chizmalari va rasmlarining ma'lumotlarini keltirish va rasmlarini o'lchamlari bilan chizib kelishni berish tavsiya etiladi.

### **5-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qo'llaniladigan minalar**

**1-mashg'ulot.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tankka va piyodalarga qarshi asosiy minalar, ularning texnik tavsifi, umumiyl tuzilishi va ishslash tamoyili.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tankka va piyodalarga qarshi asosiy minalarini va ularning texnik tavsifi, umumiyl tuzilishi va ishslash tamoyili bilan tanishтирish. Dushmanga qarshi kurashda minalarning ahamyatini anglatish.

**O'quv savollari:** *1-o'quv savoli.* Tankka qarshi minalar (M), ularning taktik-texnik ko'rsatkichlari, umumiyl tuzilishi va ishslash tamoyili.

*2-o'quv savoli.* Piyodalarga qarshi minalar (PM), ularning taktik-texnik ko'rsatkichlari, umumiyl tuzilishi va ishslash tamoyili.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005 y.

**O'MT:** Mavzuga oid plakatlar, slaydlar. Tankka va piyodalarga qarshi o'quv mashq uchun minalar.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismining so‘ngida mashg‘ulot rahbari muhandislik to‘sqliarining ta’rifini berishi va ular jangning barcha turlarida qo‘llanishini o‘quvchilarga uqtiradi. Ularga muhandislik to‘sqliari dushmanga talofat yetkazish, uning manyovrini qiyinlashtirish va uning olg‘a harakatini sekinlashtirish uchun qo‘llanish, muhandislik to‘sqliari uch xil bo‘lib portlaydigan, portlamaydigan va aralash (portlaydigan va portlamaydigan to‘sqliarni aralash qo‘llanishi) muhandislik to‘sqliarga bo‘linishini aytib tushuncha beriladi.

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Tankka qarshi minalar, ularning taktik-texnik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.* O‘qituvchi savolni yoritishni tankka qarshi minalar dushmanning tanklari va boshqa jangovar texnikasini ishdan chiqarishga mo‘ljallangan ekanligini tushuntirishidan boshlaydi. Keyin mashg‘ulot mazmunini bayon etishni boshlaydi. Birinchi tankka qarshi mina rus harbiy muhandisi Karbishev tomonidan 1924-yilda ishlab chiqarilgan. Plakatdan eng ko‘p tarqalgan tankka qarshi minalar TM-57 va TM-62 larni ko‘rsatib, ularni taktik-texnik tavsifini keltiradi: og‘irligi 9–10 kg; portlovchi zaryad miqdori – 6,5 va 7 kg; mina diametri – 320 millimetrdan; mina balandligi 110 va 330 millimetr; mina ishga tushish uchun zarur bo‘lgan kuch 200–500 va 150–600 kg. Mashg‘ulot rahbari minaning umumiy tuzilishini o‘quv minani ko‘rsatib tushuntiradi. Bunda avvaldan tayyorlangan rasmli plakat yoki TM ni kesilgan maketidan foydalangan holda uning tuzilishini aytib tushuntiradi. Tuzilishi: korpus, portlovchi modda zaryadi (trotil), portlagich, markaziy va yon tomondagi oraliq detonatorlar. Minaning ishlash tamoyilini o‘quvchilar

yaxshi tushunishlari uchun ularga portlatgichning umumiy tuzilishini, ya’ni korpus, zarba beruvchi mexanizm, jangovar cheka (saqlagich)lardan tuzilganligini aytish va ko’rsatish zarur. Minalarni harakatlanish tamoyilini tushuntirilayotganda TM–57 va TM–62 lar fugas ta’sirini ko’rsatadigan minalar, ya’ni harakat obyektini portlash mahsulotlari (ya’ni juda yuqori bosim va juda yuqori harorat) bilan ishdan chiqarishini aytildi. Bu minalarni qopqog‘iga 150–600 kg yuk tushganda qopqoq ezilib portlatgich bilan birga portlagichning zarba beruvchi mexanizmi oraliq detonatorga taqalguncha pastga qadaladi. Egiluvchi qopqoq yanada ezilgach zarba beruvchi mexanizm ishga tushib ketadi. Bunda zapal detanatorining kapsuli o’t oladi va portlash yuz beradi. Zapalning portlashidan mina zaryadi ham portlaydi. Mustahkamlash uchun savollar. 1. Tankka qarshi minalar nima maqsadida ishlatiladi?. 2. Minaning asosiy qismlarini aytинг. 3. Mina harakatga kelishi qanday sodir bo‘ladi ?

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Piyodalarga qarshi minalar (PM), ularning taktik-texnik ko’rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash prinsipi.*

Ikkinchchi o‘quv savolini o‘tkazish uslubi avvalgi o‘quv savolining o‘tkazish uslubi bilan bir xil. Piyodalarga qarshi minalarning harakat tamoyilini quyidagicha tushuntirish zarur. Portlatgichdan saqlovchi hal-qani sug‘irib olingach jangovar prujina harakati ostida kesuvchi element (rezak) metall elementni (vaqtinchalik saqlagichni) kesib tashlaydi va mina jangovar holatga keladi. Kesish vaqt 2,5 minut bo‘lib bu minani xavfsiz sharoitda o‘rnatish uchun yetarlidir. PMD–6 va PMN minalarini qopqog‘iga ezilsa va POMZ–2 minasini tortilgan ipiga uzilsa zarba beruvchi vosita (udarnik) ozod bo‘ladi. Ozod bo‘lgan zarba beruvchi vosita jangovar prujina ta’siriri ostida zapalni yondiradi va portlash yuz beradi. O‘quv savoli yuzasidan mustahkamlash uchun savollar beriladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** Tankka va piyodalarga qarshi minalarni o‘rnatish tartibi, yashirin o‘rnatilgan minalarning belgilari va ularni topish yo‘l-yo‘riqlari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni tankka va piyodalarga qarshi minalarni o‘rnatish tartibi, yashirin o‘rnatilgan minalarning belgilari va ularni topish yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishtirish. Jangda minalarni qo‘llash bo‘yicha bilim va malakalarga bo‘lgan intilishni rivojlanТИRISH.

**O‘quv savollari:** *1-o‘quv savoli.* Tankka va piyodalarga qarshi minalarni o‘rnatish tartibi.

**2-o‘quv savoli.** Yashirin (nikoblanib) o‘rnatilgan minalarning belgilari va ularni topish yo‘l-yo‘riqlari.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, amaliy ish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Ta’lim muassasasining hududidan ajratilgan qulay joy.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** Tankka va piyodalarga qarshi o‘quv mashq uchun minalar. Sapyorlarning kichik kuraklari.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

**O‘quv savollari:** *1-o‘quv savoli.* Tankka va piyodalarga qarshi minalarni o‘rnatish tartibi. Savollni yoritishning minalashtirilgan maydonni tushuntirishdan boshlash zurur. Minalashtirilgan maydonlar

orqali muhim marralar, tayanch punktlari, artilleriya pozitsiyalari va boshqaruv punktlari himoya qilinadi.

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni tankka qarshi minalarini, keyin esa piyodalarga qarshi minalar (PMD–6 yoki PMN)ni o‘rnatishni tushuntiradi. Mashg‘ulot rahbari avvaliga TM–57 va TM–62 undan keyin POMZ–2M minasini o‘rnatish va niqoblash tartibini ko‘rsatish bilan birga tushuntiradi. Tankka qarshi minalar o‘rnatib bo‘lingach 5–8 sm li tuproq qatlami bilan piyodalarga qarshi minallari esa 1–2 sm qatlam bilan ko‘mib qo‘yilishi va ko‘mishda bilinib qolmasligi uchun ko‘riladigan chora-tadbirlarga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi. O‘quvchilarga PMD–6 va PMN minalari o‘rnatilgan joydan olib, zararsizlantirib bo‘lmasligini, ularni turgan joyida portlatib yuborish shart ekanligini alohida uqtiriladi.

*2-o‘quv savoli. Yashirin (niqoblanib) o‘rnatilgan minalarning belgilari va ularni topish yo‘l-yo‘riqlari.* Minalar o‘rnatilgach ular ko‘zdan yashiriladi (niqoblanadi), ammo ayrim sabablarga ko‘ra mina nikobini oshkor qilib qo‘yuvchi belgilar ham bo‘ladi. Bular mina ustida tuproqni do‘mpayib turishi, qishda qorga iz tushib bosilishi, ko‘milgan joyning tuprog‘i cho‘kib turishi, minalashtirgan joyda unutilib qolgan anjomlar, mashina va odam izlari, ko‘rsatkichlar, tortib qo‘yilgan iplar, yer yuzidan chiqib turgan mina «mo‘ylovchalari» bo‘lib hisoblanadi, bazan minani biron qismi ko‘rinib qolishi mumkin. Mashg‘ulot rahbari ikkinchi o‘quv savolini o‘tishni boshlaganda har bir tushuntirilayotgan mazmunni bevosita o‘quv minalari o‘rnatilgan joyda va aynan aytilgan narsalarni ko‘rsatish bilan hamohang olib borishi to‘g‘ri bo‘ladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot qisqacha tahlil qilingandan so‘ng o‘quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko‘ra ularning faoliyati baholanadi. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun olib kelingan buyumlar ko‘zdan kechiriladi va tartibga solinib saqlash joyiga olib boriladi.

### **6-mavzu. Joylarda xaritasiz chamalash (mo‘ljal olish)**

**1-mashg‘ulot.** Chamalash (mo‘ljal olish)ning mohiyati. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga chamalashning mohiyatini, kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo

tomonlarni aniqlashni o‘rgatish. Jangovar vaziyatlarda joylarda xaritasiz chمالаш аhamyatining muhimligini anglatish.

O‘quv savollari: *1-o ‘quv savoli*. Chamalash (mo‘ljal olish)ning mohiyati to‘g‘risida tushuncha.

*2-o ‘quv savoli*. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlash.

**Shakl:** Nazariy. (Amaliy).

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, amaliy ish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi yoki ta’lim muassasasining hududidan to‘g‘ri keladigan.

**Foydalanolgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** Kompas (iloji boricha har bir o‘quvchiga), soat, strelkali soat siferblati maketi, plakatlar.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o ‘quv savoli – 15 daqiqa.* Chamalash (mo‘ljal olish)ning mohiyati to‘g‘risida tushuncha. Mashg‘ulot rahbari ushbu mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayonida uni o‘tkazish joyini, kerak o‘quv vositalarini avvaldan hozirlab qo‘yadi. Mashg‘ulotni boshlashda dastlab chamalash (mo‘ljal olish) va uning mohiyati to‘g‘risida tushunchasi beriladi. Chamalash (mo‘ljal olish) deb ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan va atrofdagi boshqa premetlardan alohida ajralib turuvchi mahalliy

predmetlar yoki relyef elementlariga aytildi. Shundan keyin mashg'ulot rahbari avvaldan tayyorlagan barcha o'quv vositalardan foydalanib ko'rsatib tushuntirishni boshlaydi. Chamalash (mo'ljal olish)larga nisbatan nishonlarning holati aniqlanadi. Chamalash (mo'ljal olish) gorizont tomonlari, relyef va mahalliy predmetlarga nisbatan o'zining holatini va turli ob'yektlarining holatini aniqlash demakdir.

Avvalo, gorizont tomonlariga bo'lgan yo'naliшlar aniqlanadi va chamalash, (mo'ljal olish)lar bilan belgilab qo'yiladi hamda ko'z bilan chamalab chamalash (mo'ljal olish)gacha bo'lgan masofa aniqlanadi. Mashg'ulot rahbariga gorizont tomoniga bo'lgan yo'naliш yuzi bilan o'sha tomonga qaragan holda o'ng qo'lni cho'zib ko'rsatish va chamalangan narsani aytish tavsiya etiladi.

O'quv materiali mazmuni o'rganilib bo'lingandan keyin o'quv-chilarga savollar beriladi va o'qituvchi ko'rsatgan amaliy harakatni mustaqil bajarish buyuriladi.

*2-o'quv savoli. – 15 daqiqa. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlash.*

Ushbu o'quv savoli materiallarini o'rganishni gorizont tomonlarini aniqlashning asosiy usullarini sanashdan boshlanadi. Kompas yordamida gorizont tomonlarini aniqlashga o'tishdan avval Adrianov kompasining tuzilishi va ishlash tamoyilini tushuntirish lozim.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga kuchli elektromagnit maydonlar, yirik metall buyumlar kompas strelkasini haqiqiy holatidan o'zgartirib yuborishi mumkinligini o'qtirish shart. Shuning uchun ta'kidlash kerakki kompas bilan ishlayotgan elektr uzatish tarmog'i, temir yo'l va metall inshootlaridan 40–50 metr uzoq masofada turish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot rahbari o'zi kompas bilan gorizont tomonlarining yo'naliшni aniqlaydi undan keyin o'quvchilar mashg'ulot rahbari kuzatuvida mustaqil ravishda gorizont tomonlarining yo'naliшni aniqlashni davom ettiradilar. O'quvchilarni kompas yordamida gorizont tomonlarining yo'naliшini aniqlashni bilib olishganliklariga mashg'ulot rahbari ishonch hosil qilganidan keyin samo jismlari yordamida, avvalo quyosh yordamida gorizont tomonlarining yo'naliшni aniqlashni o'rgatishga o'tiladi.

Undan katta hajmdagi soatdan foydalanib gorizont tomonlarining yo'naliшni aniqlash ko'rsatib tushuntiriladi. Bunda soatdagи strelkalar o'sha paytdagi haqiqiy vaqtga to'g'irlanib qo'yiladi. Agar tun qorong'usida gorizont tomonlarining yo'naliшni aniqlash zarur bo'lsa katta va kichik ayiq yulduz turkumlaridan foydalanib qutb yulduzini

topish zarur bo‘ladi. Qutb yulduzi doimo shimol tomonda ko‘rinadi. Qorong‘ilikda gorizont tomonlarining yo‘nalishni aniqlashni mashg‘ulot rahbariga diafilim va rangli plakatlardan ko‘rsatib tushuntirish tavsiya etiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot yakunida o‘tkazilishi kerak bo‘lgan barcha tadbirlar o‘tkazilgandan keyin o‘quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko‘ra ularning faoliyati baholanadi. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun olib kelingan o‘quv vositalarning yaxlitligi va holati ko‘zdan kechiriib tartibga solinadi va saqlash joyiga olib boriladi.

**2-mashg‘ulot.** Magnit azimuti va uni aniqlash. Joylardagi narsalar azimutini va magnit azimuti bo‘yicha yo‘nalishni aniqlash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga magnit azimuti, joylardagi narsalarning azimutini va magnit azimuti bo‘yicha yo‘nalishni aniqlashni o‘rgatish. O‘quvchilarda kuzatuvchanlik, topqirlik, aniqlik kabi muhim sifatlarni rivojlantirish va joylarning jangovar vazifani bajarishga ko‘rsatadigan ta’siri to‘g‘risida xulosalarini boyitish.

**O‘quv savoli:** Magnit azimuti va uni aniqlash. Joylardagi narsalar azimutini va magnit azimuti bo‘yicha yo‘nalishni aniqlash.

**Shakl:** Amaliy. (Nazariy).

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, amaliy ish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi yoki ta’lim muassasasining hududidan mashg‘ulot o‘tishga to‘g‘ri keladigan joy.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** Plakat, kompas, chizg‘ichlar, planigetlar, qadam o‘lchagich, qog‘oz, qalam.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

– Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning

mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlamu o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

Magnit azimuti va uni aniqlash. Joylardagi narsalar azimutini va magnit azimuti bo'yicha yo'nalishni aniqlash.

Mashg'ulot rahbari ushbu o'quv savol mazmunini bayon qilar ekan «Azimut» nima ekanligiga ta'rif beradi. Magnit azimuti – bu soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha o'lchanadigan magnit meridiananing shimol yo'nalishidan to predmetning yo'nalishigacha bo'lgan gorizontal burchakdir. Mashg'ulot rahbari tushuntirishda davom etib magnit azimutining miqdori  $0^{\circ}$ dan  $360^{\circ}$  gacha bo'lishi mumkinligini, agar o'lchov haqiqiy meridianga nisbatan olib borilsa, haqiqiy azimut deyilishini aytadi. Magnit azimutini aniqlash uchun magnit strelkasining tormozi bo'shatilib kompas aylantiriladi, kompasni aylantirish shimolga qaragan strelka  $0^{\circ}$  ni ya'ni «S» harfning ustiga yetgunicha davom etadi. Keyin kompasni shu holatda ushlab, kompas qopqog'ini burab mushkani predmet o'nalishi tomonga qaratiladi. Mushka oldidagi ko'rsatkich ko'rsatayotgan shkaladagi hisob (raqam) ko'rsatilgan predmetgacha bo'lgan magnit azimuti bo'lib hisoblanadi. Mashg'ulot rahbari mazkur mashg'ultni olib borishda dastlab ta'lim muassasasining hovlisidan qulay bo'lgan joyni tanlab oladi. Predmetlarning azimutini aniqlash bo'yicha barcha to'g'ri harakatlarni o'quvchilarga o'zi ko'rsatib tushuntiradi. Shundan keyin o'quvchilarga ko'zga yaqqol tashlanib turgan mahalliy predmetlardan ko'rsatib kompas yordamida ularning magnit azimutini va ularga bo'lgan taxminiy masofani aniqlashni buyuradi, o'quvchilar faoliyatini kuzatib zarur bo'lgan joylarda tuzatishlar kiritib turadi. Planshetdan foydalanib topilgan yo'nalish sxemaga kiritiladi. Undan keyin teskari berilgan vazifa bajariladi, ya'ni berilgan azimut bo'yicha ko'rsatilgan predmetga bo'lgan yo'nalish topiladi va bu predmet planshet yordamida sxemaga kiritiladi. Mashg'ulot mazmunini yaxshi o'zlashtira olmagan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilib ularga qo'shimcha yordam beriladi.

Mustahkamlash uchun savollar. 1. Azimut deganda nimani tushunasiz? 2. Azimut burchagi qanday aniqlanadi?

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarini aniqlash. Azimut bo‘yicha harakatlanish tartibi, to‘sirlarni aylanib o‘tish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilar tomonidan 1 va 2 mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini va malakalarini mustahkamlash. Mustaqil ravishda berilgan azimut bo‘ylab yurishga o‘rgatish. Topqirlik, tashabbuskorlik, murakkab va notanish muhitda mustaqil qaror qabul qila olish tajribalarini oshirish. O‘quvchilarda kuzatuvchanlik, topqirlik, aniqlik kabi muhim sifatlarni rivojlantirish.

**O‘quv savollari:** *1-o‘quv savoli.* Kompas, soat, kuyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarini aniqlash.

*2-o‘quv savoli.* Azimut bo‘yicha harakatlanish tartibi, to‘sirlarni aylanib o‘tish.

**Shakl:** Amaliy. (Nazariy).

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, mashq qilish, amaliy ish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Ta’lim muassasasining hovlisi yoki YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** Kompaslar, planshetlar (yo‘nalish sxemasi bilan), qadam o‘lchagichlar.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

Mashg‘ulot o‘tish joyi oldindan o‘rganib va belginalib qo‘yiladi.

Tanlangan harakat yo‘nalishini oldindan tekshirib qo‘yish, oraliq va buriish joyidagi mo‘ljallangan narsalarni aniqlash va harakat yo‘nalishi sxemasini tuzishga e’tibor beriladi. O‘quvchilar kompas va yo‘nalish sxemasi bo‘lgan planshetlar bilan ta’minlanadilar.

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

1-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarini aniqlash. Ushbu o‘quv savol 1-mashg‘ulotning 2-o‘quv savolini o‘tkazish metodikasi bilan bir xilda o‘tkaziladi. Biroq mazkur mashg‘ulotda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlariga ko‘proq vaqt ajratiladi.

2-o‘quv savoli. – 20 daqiqa. Azimut bo‘yicha harakatlanish tartibi, to‘siflarni aylanib o‘tish. Mashg‘ulot rahbari barcha harakatlarni boshlashdan avval o‘quvchilarni guruhlarga bo‘ladi. Guruh komandirlari etib eng yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilarni tayinlaydi. Mashg‘ulot rahbari guruh komandirlariga yo‘nalishning boshlanish nuqtasida (ya’ni «a» nuqta) mo‘ljal olishni va natijalarni aytishni buyuradi. Olingan mo‘ljal to‘g‘ri ekanligini tekshirib bo‘lgach mashg‘ulot rahbari azimut bo‘ylab yurishning maqsadi joylarda magnit azimuti bilan berilgan yo‘nalishni va yo‘nalish sxemasida ko‘rsatilgan musofani ushslash ekanligini ta’kidlaydi. Undan keyin yana bir karra o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi faoliyatini tekshirib o‘tadi. Harakat yo‘nalishi kompas yordamida aniq ushlab boriladi, maxsul esa qadam bilan o‘lchanadi. Harakatni boshlash uchun azimut kompas bo‘yicha qo‘yiladi. Bunda kompasning o‘yiq joyidan mushkasi orqali o‘tadigan chiziq harakat yo‘nalishini ko‘rsatadi. Shu yo‘nalishda kompasning o‘yiq joyidan mushkasi orqali qarab qandaydir

oraliq mo'ljal tanlab olinadi. Tanlangan mo'ljalga qarab harakat qilishdan avval kompas strelkasini tormozlab qo'yiladi. Tanlangan oraliq mo'ljal yo'nalishida harakatlanish jarayonida masofa o'lchanib borilishi kerak.

O'lhash juft qadam orqali (chap oyoq bilan boshlanadi) amalga oshiriladi. O'rtacha novchalikdagi odamning ikki qadami 1,5 metrga teng. Birinchi oraliq mo'ljalga yetib kelgach, avvalgi azimut bo'ylab qaraladi va yo'nalishning ikkinchi nuqtasi (ya'ni «B» nuqta) ko'rinnmasa yana bitta oraliq mo'ljal (mo'ljal ) tanlanadi.

Harakat davom ettirilib ikkinchi nuqta «B» nuqtaga, ya'ni burilish nuqtasiga yetib kelinadi. Ikkinci nuqtada sxemaga binoan kompas bo'yicha navbatdagi azimut o'rnatiladi.

Shu tartibda azimut bo'ylab yurishda ketma-ket bir mo'ljaldan ikkinchisiga o'tib oxiriga ( tayinlangan) nuqtagacha davom etiriladi.

Azimut bo'ylab yurishda yo'nalishning burilish nuqtasigacha chiqish aniqligi joyning xarakteri, qo'rinish sharoiti, kompasda azimutni aniqlash va masofani o'lhashdagi xatoliklarga bog'liq bo'ladi. Odatda, yo'nalish nuqtasidan og'ish masofaning o'ndan bir qismidan oshmaydi. Shuning uchun yo'nalish sxemasidan og'ish yuz berganda burilish nuqtasidagi mo'ljalni bosib o'tilgan masofaning o'ndan biri radiusi doirasida topish mumkin. Agar harakat yo'nalishida tabiiy yoki sun'iy to'siqlar uchrab qolsa, harakat yo'nalishida to'siqning narigi tomonidagi mo'ljal (oriyentir) belgilab olinadi, ungacha bo'lgan masofa aniqlab olinadi va uni bosib o'tilgan yo'lga qo'shiladi, to'siq aylanib o'tiladi va tanlangan mo'ljalda kompas bo'yicha uzilgan yo'l yo'nalishini aniqlab olinadi va harakat davom ettiriladi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilar faoliyatini kuzatib yo'l-yo'lakay tuzatishlar kiritib boradi, shu qatorda yo'l qo'yilgan xotolarni o'quvchilarning o'zları anglab yetishlariga chorlaydi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot yakunida o'tkazilishi kerak bo'lgan tadbirlar o'tkaziladi. Keyin o'quvchilar faoliyati baholanadi. Mashg'ulot o'tkazish uchun olib kelingan o'quv vositalarning yaxlitligi va holati ko'zdan kechirilib tartibga solinadi va saqlash joyiga olib boriladi.

## 11-§. OTISH TAYYORGARLIGI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining bo‘linma va harbiy qismlarining otish tayyorgarligiga bo‘lgan yuqori talablari ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ushbu bo‘lim bo‘yicha boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik vazifalarini ma’lum miqdorda belgilab beradi. Otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarida o‘quvchilar Kalashnikov avtomati, GP-25 stvolosti granatamyoti va oskolkali (parchalanuvchi) qo‘l granatalarining qismlarini va jangovar xususiyatlarini o‘zlashtirishlari, avtomatdan otish va granatalarni uloqtirish malakalarini egallashlari, qurol-aslaha va o‘q-dorilarni avaylash va saqlash qoidalari bilan tanishishlari va avtomatdan jangovar patron bilan otish bo‘yicha amaliy malakalarni egallashlari zarur. Otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarida xavfsizlik choralariga katta e’tibor berish va ularga so‘zsiz amal qilishni o‘quvchilardan talab qilish shart bo‘ladi. O‘qitish jarayonida yoshlarda Qurolli Kuchlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini shakllantirish kerak, jangovar qurollarga e’tiqodli bo‘lishni singdirish va harbiy xizmatga zarur bo‘ladigan dovyuraklik, jasurlik, qiyinchiliklarni yengishda mardonavorlik kabi sifatlarni tarbiyalash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

*O‘quv dasturning otish tayyorgarligi bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilar:*

- Kalashnikov avtomati, GP-25 stvol osti granatamyoti, parchalanuvchi qo‘l va tankka qarshi granatalarining jangovar xususiyatlari, tuzilishi, ishlash prinsiplarini;
- qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otish qoidalari; bilishlari;
- avtomatni otishga tayyorlashni, unda qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otish usullarini bajarishni;
- avtomatni tozalashni va moylashni;
- burchak kattaligi yordamida nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash usullarini;
- parchalanuvchi qo‘l va tankka qarshi granatalarni, har xil holatda uzoqligka va uniqlikka uloqtirish texnikasini;
- parchalanuvchi qo‘l va tankka qarshi granatalarni uloqtirish mashqlarini bajarishni uddalashi;
- boshlang‘ich mashq shartlari bo‘yicha avtomatdan jangovar o‘q bilan otish amalini bajarish;

– kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o‘q otish mashqlarini bajarish amaliy ko ‘nikmalarga ega bo ‘lishi shart.

## YOCHQBT dasturining «Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish va olib borish uslubiyoti.

Ta’lim muassasalaridan vaqtinchalik o‘quv qurol-aslahalarni va o‘quv o‘q-dorilarni olib qo‘yilganligi munosobati bilan otish tayyorgarligi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarning asosiy qismini nazariy shaklda o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, dastur talabiga ko‘ra ta’lim muassasining rahbari o‘quv qurol-aslahalarni ta’lim muassasalariga berish va ularni saqlash haqida maxsus buyruq yoki boshqa hujjat olmaguncha, uning tegishli vazirlik va tashkilotlardan ta’lim muassasasini maxsus tabelga muvofiq qurol-asлаha, artilleriya va muhandislik vositalari bilan ta’milanishini talab qilish huquqiga ega emas.

Otish tayyorgarligi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni talab darajasida olib borishni ta’minlash uchun ta’lim muassasalarining rahbarlari harbiy okrug qo‘mondonlarining ta’lim muassasalarini otaliq tashki-lotlarga, ya’ni Mudofaa Vazirligi tassarufidagi bo‘linma, harbiy qism va harbiy kafedralarga biriktirib qo‘yilganligi to‘g‘risidagi buyruqqa asoslanib ish ko‘rishlari to‘g‘ri bo‘ladi.

Ta’lim muassasining rahbari ta’lim muassasiga yaqin masofada joylashgan bo‘linma, harbiy qism va harbiy kafedralarning komandir va boshliqlari bilan buyruqqa asoslangan holda hamkorlik rejasini tuzadilar.

Hamkorlik rejasida otish tayyorgarligi bo‘limi bo‘yicha rejalaشتirilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarni otaliqda bo‘lgan tashkilot bilan hamkorlikda o‘tkazishga harakat qilinadi. Keyingi vaqtarda otish mashqlarini kompyuterlashtirilib olib borish keng yo‘lga qo‘ymoqda.

Kompyuter yordamida o‘tiladigan mashg‘ulotlar, otish tayyorgarligi bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilishda muhim ahamyatga ega ekanligini tajribalar ko‘rsatib turibdi. Shunga qaramay haqiqiy jangovar quroldan otish maydonlarida jangovar o‘qlar bilan mashqlarni bajarish qo‘zlangan maqsadga erishishda eng yaxshi vosita ekanligini unutmaslik shart.

Otish tayyorgarligi bo‘yicha uslubiy mashg‘ulotlar sinfda, otish joyi (tir)da, oliy o‘quv yurtining o‘quv-mashq shaharchalarida va amaliy mashg‘ulotlar uchun maxsus o‘quv joylarida ham o‘tkazilishi mumkin. Otish tayyorgarligi bo‘yicha *nazariy* mashg‘ulotlarni olib borilishida o‘quvchilar otish asoslari va qoidalari bo‘yicha zarur bilimlarni egallaydilar.

*Amaliy* mashg‘ulotlar Kalashnikov avtomati, stvol osti granatamyoti, qo‘l granatalari va boshqa qurollarni o‘rganish, shuningdek, quroldan otish usullarini egallash, ularni tozalash va saqlashni o‘rganish uchun tashkil qilinadi. Otish tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlarda quyidagi asosiy uslublar qo‘llaniladi: hikoya, tushuntirish, suhbat, ko‘rsatish, mushq (trenirovka) va otish.

O‘qitish uslublarini tanlash mavzu mashg‘ulotining turiga bog‘liqdir. Bir mashg‘ulotning o‘zida bir nechta uslublar qo‘llanishi mumkin. Shunday qilib avtomatdan otish usullarini o‘qitishda ko‘rsatish, tushuntirish va mashq uslublari qo‘llanishi mumkin. Namunali harakatlarni o‘quvchilarga ko‘rsatish uchun mashg‘ulot rahbarining o‘zi yoki yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilardan birining yordamida ko‘rsatishi mumkin.

Dastlab usul (harakatlar) keraklicha tempda to‘liq ko‘rsatiladi, keyin esa qismlarga bo‘lib asta-sekinlik bilan o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni ko‘rsatilib, tushuntirilib olib boriladi. Otish tayyorgarligini o‘qitishda «Men qanday bajarsam, sen ham shunday bajar», taqlididagi uslub keng tarqalgan.

Hozirgi kunda yangi pedagogik innavatsion texnologiyalarning «Otish tayyorgarligi» bo‘limining mashg‘ulotlarida o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash ta’lim berish jarayonida juda qo‘l kelmoqda. Masalan, «Bumerang», «Sinetik», «To‘satdan man etish» texnologiyalari shular jumlasidandir.

*Otish tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishni tashkil etish va uslublari quyidagi asosiy talablariga javob berishi kerak:*

– Mashg‘ulotning o‘quv materiali chuqur ilmiy bo‘lishi, mashg‘ulotning mazmuni o‘quv dasturi, boshqaruv hujjatlari, nizomlar, fan va texnikuni erishgan darajasining zamonaviy talablariga to‘liq mos kelishi, mashg‘ulot olib borilishida ta’lim va tarbiyaning asosiy didaktik tamoyillarini samarali qo‘llanishi, yangi o‘rganilayotgan o‘quv materiallari, o‘quvchilarning o‘zlashtirgun bilimlariga tayangan holda, shu qatorda boshqa fanlar bo‘yicha, ayniqsa fizika va matematika bo‘yicha avval o‘rganilgan materiallalar bilan bog‘lanib ketishi;

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilurda quro-yaroqqa nisbatan mehr, etiqodini oshirishi, ularni jangovar imkoniyatlarini puxta egallashi va ularni maksimal darajada qo‘llashni bilishlarini ta’minlashi, bundan tashqari quroq bilan ishlaganda keraklicha e’tibor va ehtiyyotkorlikni o‘quvchilarda shakllantirishi;

– Barcha mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning yuqori intizomini saqlash, o‘rnatilgan hafsizlik chora-tadbirlariga rioya qilishlarini qat’iy nazorat qilish;

– YOCHQBT xona (sinf)ini, o‘quv qurollarni, ko‘rgazmali qo‘llanmalarni, mashg‘ulot o‘tkazish reja-konseptlarini mavjudligi va jihozlanganligi ilg‘or (faol) o‘qitish uslublarni qo‘llashni, tarbiyaviy va o‘quv maqsadlarni bajarilishini ta’minlashi shart;

– Mashg‘ulotning borishida berilgan topshiriqlarni bajarilishini va o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishini doimiy nazorat qilib borishni amalga oshirish. O‘quvchilar bilan qanchalik ko‘p muloqat qilinsa, mavzu o‘quv savollarini o‘zlashtirilishi ko‘rinib boraveriladi;

– O‘quvchilarning har bir malakasi, ularning har bir harakati mashg‘ulot rahbari tomonidan baholangan bo‘lishi shart;

– Mashg‘ulot kun tartibidagi belgilangan vaqtida qa’tiy ravishda boshlanishi va yakunlanishi shart;

– Mashg‘ulot jarayonida va tanaffuslarda mashg‘ulot rahbari o‘quv qurol-yarog‘larini ehtiyoitlash va saqlash uchun choralar ko‘rishi lozim.

Quyida mashg‘ulot rahbarlari uchun dasturning otish tayyorgarligi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy tavsiyalar va ko‘rsatmalar beriladi.

### **1-mavzu: Kalashnikov avtomati, GP-25 stvolosti granatamyoti, parchalanuvchi qo‘l granatalarining asosiy qismlari**

**1-mashg‘ulot.** Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralarini. Avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiyl tuzilishi, ishslash usuli.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga qurol bilan ishlaganda xavfsizlik choralarini, avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiyl tuzilishi, ishslash usulini o‘rgatish. Qurolli Kuchlarimizga va jangovar qurollarga muhabbat ruhida tarbiyalash.

#### **O‘quv savollari:**

**1-o‘quv savoli.** Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralarini.

**2-o‘quv savoli.** Avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiyl tuzilishi, ishslash usuli.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi .

**Foydalaniqan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O'MT:** AK maketi, plakatlar, multimedya va slaydlar.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qism.** 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

Mashg'ulotning boshlanishida YOCHQBT fani otish tayyorgarligi bo'limining vazifalarini o'quvchilarga uqtirish lozim. Keyin o'quvchilaridan bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda mavjud bo'lgan quollar haqida bilganlaricha aytib berishlarini so'rash tavsiya etiladi. Shundan keyin Kalashnikov avtomatining yaratilish tarixi qisqacha qilib bayon etiladi.

*I-o'quv savoli – 15 daqiqa. Qurol-yarog' va o'q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralar. Mashg'ulot rahbari mashg'ulotni boshlashdan avval dustlab avtomat bilan ishlaganda xavfsizlik choralariga amal qilish shartligini uqtiradi. Keyin mashg'ulot rahbaridan mashg'ulotni boshlanishiga qadar avtomat o'qlanmaganligini tekshirish, avtomatni to'liq ko'zdan kechirish, o'qdon (magazin)ni o'qizqantirish davrida ehtiyyot choralarini ko'rish va harakat ketma-kechligini ta'minlanishi talab etiladi. Avtomat tepkisini bosishda avtomat stvoli yuqorida qaratilgan bo'lishi kerak. Avtomat o'qlangan yoki o'qlanmaganligidan qat'i nazar uni odamlarga qaratish qat'iyyan man etiladi. Mashg'ulot yakuniga etganda avtomat saqlagichga qo'yiladi. O'qdonni paxtavon patronlari bilan o'qlaganda ularning ichida jangovar*

patronlar yo‘qligiga ishonch hosil qilishi zarur. Patronning kapsuliga zarba tegishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Otilmay qolgan (osechka) patronlarni o‘quv patronlari o‘rnida ishlatalish mumkin emas. Mashg‘ulot rahbari o‘quv savolini mazmunini bayon etib bo‘lgach bir necha savollarni o‘rtaga tashlab o‘quvchilarning bilimlarni mustahkamlaydi.

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi, ishlash usuli.* Mashg‘ulot rahbari avvalo Kalashnikov avtomati individual qurol bo‘lib uning vazifasi dushmanning jonli kuchini yo‘q qilish ekanligini, avtomatga qo‘l jangida nayza-pichoq qadab qo‘yilishini ko‘rsatib tushuntiradi. Undan keyin Kalashnikov avtomatidan uzlusiz va bittalab o‘q otish mumkinligini, jadvallardan foydalaniб avtomatning jangovar xususiyatlarini aytadi.

Avtomat quyidagi asosiy qism va mexanizmlardan tuzilgan: stvol, stvol qutisi, mo‘jalga olish moslamasi va qo‘ndog‘i bilan; stvol qutisining qopqog‘i; zatvor ramasi gaz porsheni bilan; zatvor; qaytaruvchi mexanizm; tsevyo; o‘qdon; nayza-pichoq; zarbalovchi mexanizm. Avtomat komplektiga tozalagich jihozlar, tasma va o‘qdonlar uchun sumka ham kiradi.

Avtomatning uzlusiz ishlash usulining tamoyili stvol kanalidan gaz porsheniga o‘tayotgan porox gazlarining energiyasiga asoslanadi.

Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot mazmunini bayon etib bo‘lgandan keyin o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi. 1. AKning vazifasi, tuzilishi va jangovar xususiyatlarini aytib bering. 2. Qurol bilan muomala qilinganda xavfsizlik choralarini aytib bering. 3. AK ning asosiy qismlarini aytib bering. O‘quvchilarning javobidan keyin zarur deb topilsa izohlar berib o‘tiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** Avtomatni to‘liq va qisman qismlarga ajratish tartibi. Avtomatning asosiy qism va mexanizmlarining umumiy tuzilishi, vazifalari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga avtomatni to‘liq va qisman qismlarga ajratish tartibini, avtomatning asosiy qism va mexanizmlarining umumiy tuzilishini va vazifalarini o‘rgatish. Qurolyarog‘lar bilan ishlaganda avaylashga va ehtiyoitlashga odatlantirish.

**O‘quv savollari:**

*1-o‘quv savoli.* Avtomatni to‘liq va qisman qismlarga ajratish tartibi.

*2-o‘quv savoli.* Avtomatning asosiy qism va mexanizmlarining umumiy tuzilishi, vazifalari.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniqan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** 2-ta o‘quv avtomati o‘quv patronlari bilan. 2-ta stol. AK maketi, plakatlar, multimedya va slaydlar.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhnинг mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o‘quv savoli – 18 daqiqa.* Avtomatni to‘liq va qisman qismlarga ajratish tartibi.

Avtomatni to‘liqsiz qismlarga ajratish va yig‘ishni ko‘rsatib tushuntirib boradi. Stol ustida avtomat qismlarining joylanish ketma-ketligi qismlarni ajratish tartibiga mos kelishi kerak. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga avtomatni chap qo‘l bilan ushslash kerakligini, o‘ng qo‘l bilan esa uni qismlarga ajratish lozimligini ham o‘zi ko‘rsatib

bajaradi va tushuntiradi. Keyin o‘quvchilarning ichidan xohish bildir-gan 2 nafar o‘quvchiga avtomatni qismlarga ajratish va yig‘ish uchun maxsus stolga taklif qilib ularning harakatini kuzatib boradi va kerak joylarda tuzatishlar kiritadi. Bu hoi vaqtiga bilan boshqa o‘quvchilar bilan ham o‘rin almashib qaytariladi. Mashg‘ulot yakunida mashg‘ulot rahbari o‘quvchilardan avtomatning jangovar xususiyatlarini, ajratish va yig‘ish tartibini, asosiy qism va mexanizmlarini aytib berishini so‘raydi.

*2-o‘quv savoli – 18 daqiqa. Avtomatning asosiy qism va mexanizmlarining umumiy tuzilishi, vazifalari.*

Mashg‘ulot rahbari ikkinchi o‘quv savoliga o‘tishda o‘quvchilarni avvalgi darslarda olgan bilimlarini tekshirishi, o‘quvchilarni quroq qismlarini o‘zlashtirish darajasini aniqlashi va bunga ishonch hosil qilishi zarur. Undan keyin ketma-ketlik tartibida avtomatning qism va mexanizmlarining vazifalarini ko‘rsatib tushuntiriladi. Ko‘rsatib va tushuntirilgandan keyin o‘quvchilar tartib bilan mashg‘ulot rahbarining harakatlarini qaytaradilar. Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot o‘tishdan ko‘zlagan maqsadiga erishgan yoki erishmaganligini aniqlash uchun o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi:

1. Avtomatning stvoli nima uchun xizmat qiladi?
2. Stvol tuzilishini aying.
3. Stvol qutisining tuzilishini aying.
4. Mo‘ljalga olish moslamasining tuzilishini aying.
5. Zarbalovchi mexanizmnning vazifasini aying.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot qisqacha tahlil qilingandan so‘ng o‘quvchilarning faoliyati baholanadi. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun olib kelungan quroq-yarog‘lar, o‘q-dorilarning butligi, holati ko‘zdan kechiriladi va tartibga solinib saqlash joyiga olib boriladi.

**3-mashg‘ulot.** Avtomatni o‘q otishga tayyorlash. O‘qotish vaqtida avtomatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari. O‘qdonni o‘q bilan to‘ldirish, avtomatni o‘qlash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga avtomatni o‘q otishga tayyorlashni, o‘q otish vaqtida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni va ularni bartaraf etish usullarini, o‘q donni o‘q bilan to‘ldirishni, shuningdek, avtomatni o‘qlashni o‘rgatish. Quroq-yarog‘lar

bilan ishlaganda undan mohirona ifodalanishga odatlantirish.

### O'quv savollari:

**1-o'quv savol.** Avtomatni o'q otishga tayyorlash.

**2-o'quv savol.** O'qotish vaqtida avtomatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari.

**3-o'quv savol.** O'qdonni o'q bilan to'ldirish, avtomatni o'qlash.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniman** **adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O'MT:** 2-ta o'quv avtomati 30 ta o'quv patronlari bilan. 2-ta stol. AK maketi, plakatlar, multimedya va slaydlar.

## Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

O'quvchilarga avtomatni tozalash va moylash hamda ehtiyyotlash bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tilgan mashg'ulot yuzasidan bir nechta savollar beriladi undan keyin yangi o'quv materialini o'rgatishga kirishiladi.

**1-o'quv savoli – 10 daqiqa. Avtomatni o'qotishga tayyorlash.**

Birinchi o'quv savolini yoritilishida o'qituvchi avtomatni otishga tayyorlash, avtomatni otish vaqtida benuqson ishlashini ta'minlash uchun bujariladigan ishlarni qisqacha bayon etilgandan keyin avtomatni

otishga tayyorlash jarayoni to‘liq ko‘rsatadi, ya’ni tozalash, avtomatni qismlarga ajratgan holda ko‘zdan kechirish va uni moylash; avtomatni yig‘ilgan holatda ko‘zdan kechirish; o‘qdonni ko‘zdan kechirish. Shuningdek, stvol kanali artib quritish, patronlarni ko‘zdan kechirish va o‘qdonlarni patron bilan to‘ldirish zarurligi ta’kidlanadi. O‘quv savolini materiallarini mustahkamlash uchun navbat bilan o‘rganilgan o‘quv materiallari mashq qilinadi.

*2-o‘quv savoli – 10 daqiqa. O‘q otish vaqtida avtomatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari.*

Mazkur o‘quv savolni tushuntirishda mashg‘ulot rahbari dastlab o‘quvchilarga agar avtomat bilan ishlashda ehtiyyotlab to‘g‘ri foydalanilsa, u uzoq vaqt mobaynida ishonchli va benuqson xizmat qilishligini o‘quvchilarga yetkazish tavsiya qilinadi. Avtomat mexanizmlarning kir bo‘lishi, qismlarning yeyilishi va avtomatni avaylamasdan foydalanish, nosoz patronlarning bo‘lishligi otish vaqtida tutilishlarga sabab bo‘ladi va bartaraf qilishga urinib ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Mashg‘ulot rahbari jadvaldan foydalanib avtomatdan otish vaqtida mumkin bo‘lgan tutilish tavsifini, sabablarini va ularni bartaraf qilish tartibini aytib ko‘rsatib beradi.

*3-o‘quv savoli – 10 daqiqa. O‘qdonni o‘q bilan to‘ldirish, avtomatni o‘qlash.* Mashg‘ulot rahbari rasmiplakatlar, paxtavon patronlardan foydalanib o‘q-dorilarning turlari va tuzilishi haqida batafsil tushunchalar beradi. Jangovar o‘q-gilza, porox zaryadi va kapsul-dan iborat bo‘lishini aytadi. O‘qlar ikki xil bo‘ladi: oddiy va maxsus (trassirovkalovchi va zirhga qarshi – yondiruvchi) patronlar bo‘ladi. Bundan keyin o‘qdonni o‘q bilan to‘ldirish tartibini ko‘rsatib tushuntiradi.

O‘qdonni patron bilan to‘ldirishda o‘qdonni chap qo‘l bilan o‘jni o‘ng qo‘l bilan ushlanishiga o‘quvchilarmin e’tiborini tortadi. O‘qdonni sal yonboshlatib ushlab, boshmaldoq bilan o‘jni o‘qdon ichkarisiga bir oz kuch bilan kiritiladi. Shundan keyin o‘quvchilarni navbat bilan mustaqil bajarishlariga ruxsat beriladi. O‘quvchilarning harakatlarini kuzatib yo‘l qo‘ygan xatolari tuzatilib boriladi. Bu orada o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi: 1. Jangovar o‘qning vazifasini aytинг: 2. Jangovar o‘qning tuzulishini aytинг.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**4-mashg‘ulot.** Avtomatning qo‘srimcha ashyolari. Avtomatni tozalash, moylash tartibi va uni saqlash.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilar bilan avtomatning qo‘srimcha ashyolarini, vazifalarini va otishdan so‘ng tozalash va moylash uchun ulardan foydalanish tartibini va avtomatni saqlash qoidalarini o‘rganish. O‘quvchilarda shaxsiy qurojni jangga doimiy shay holda tutishga javobgarlik xissini tarbiyalash.

**O‘quv savollari:**

*1-o‘quv savoli.* Avtomatning qo‘srimcha ashyolari.

*2-o‘quv savoli.* Avtomatni tozalash, moylash tartibi va uni saqlash.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniqan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O‘MT:** 4 ta o‘qdon, 30 ta o‘quv patronlari bilan. 2 ta stol rasmlı plakat. 3 – 4 moylash ashyolari.

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.

- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

Mashg‘ulot rahbari yangi mavzuni boshlash arafasida avval o‘rganilgan o‘quv materiallari bo‘yicha bir nechta savollar bilan o‘quvchilarga murojat qiladi. Avval o‘rganilgan o‘quv materiallarni takrorlab mustahkamlash, yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish uchun qulay muhit yaratadi.

*1-o‘quv savoli. – 10 daqiqa. Avtomatning qo‘sishimcha ashyolari.* Bu o‘quv savolini quyidagi tartibda o‘rganish tavsiya qilinadi: o‘quvchilarga qo‘sishimcha ashyolarni avtomatni qismlarga ajratish, yig‘ish, tozalash va moylash uchun xizmat qilishi aytildi; ularning nomlarini aytib ko‘rsatiladi: shompol, artgich, ponacha, otvertka, simi dumaloq shyotka, penal, moydoi; har qaysi ashyo qaysi maqsadda ishlatalishini tushuntiradi. O‘quv savoli o‘rganilib bo‘lingandan keyin o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beriladi.

*2-o‘quv savoli. – 20 daqiqa. Avtomatni tozalash, moylash tartibi va uni saqlash.*

Mazkur o‘quv savolni o‘rganishni boshlashda suhbat metodidan foydalanib quyidagi savollarni o‘quvchilarning oldiga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1. Avtomat qachon, qayerda va nima uchun tozalanadi va moylanadi? Avtomatni tozalash va moylash uchun qanday materiallar zarur? 3. Avtomatni tozalash va moylash tartibi qanday? Berilgan savollarga o‘quvchilar bilganlaricha javob qaytarishganliklaridan keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar javobini to‘ldirib to‘g‘ri javobni tushuntiradi. Qanday holatlarda avtomat tozalanishi va moylanishi o‘tkazilishini va tozalash va moylashda qanday materiallardan foydalanishni, tartibini ko‘rsatib tushuntiriladi. O‘quvchilarga moy yupqa qilib avtomatning faqat temir qismiga surtilishi ta’kidlanadi. Shundan keyin har bir o‘quvchiga avtomatni tozalash va moylash uchun ashyolarni tayyorlash va tozalash tartibi o‘rgatiladi. Yangi materiallarni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar mavjud bo‘lgan avtomatlar soniga qarab guruhlarga bo‘linadi va navbat bilan avtomatni tozalaydilar. Mashg‘ulot rahbari guruhlarning ishini kuzatadi va ko‘rsatmalar beradi. Avtomatni saqlash bo‘yicha o‘quv materiallarni o‘quvchilarga yetkazishda qo‘sishnlarda kazarma va lagerlarda

avtomatlar maxsus joylar (piramidalar)da saqlanishi, o'quv mashg'u-lotlari va safarlarda esa eshik, olov, isitish priborlaridan nariroqda quruq joyda saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlardan boshlash kerak. Undan keyin jangovar vaziyatlarda qurol doimo askarning o'zi bilan birga bo'lishi o'quvchilarga uqtiriladi. Avtomatni piramidaga qo'yishda pritsel plankasi tushirilgan, xomut pastga tortilgan, tepki bosib qo'yilgan bo'lishi, avtomat saqlagichga qo'yilgan, o'qdon ajratilib nayza-pichoq avtomatdan ajratilgan bo'lishi kerak. Avtomatni saqlash to'g'risidagi tartib va qoidalar o'quvchilarga yetkailib bo'lingandan keyin o'quv materiallarini mustahkamlash uchun savollar beriladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**Kalashnikov avtomati, GP-25 stvolosti granatamyoti, parchalanuvchi qo'll granatalarining asosiy qismlari mavzusini o'tkazishda qo'llaniladigan pedagogik innovatsion texnologiyalar**




*Sinetik texnologiyani mashg'ulotlarning nazariy shakllaridagi mustaqil ish bajarish uslublari qo'llanilgan darslarda qo'llash tavsiya etiladi. Bu texnologiya o'quvchilarni mavzu bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashda va ularning egallagan bilim darajalarini aniqlashda qo'll keladi. Bundan tashqari o'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarni adabiyotlardan foydalanishga va xotiralarini jamlashga yo'llaydi.*

## «Sinetik» texnologiyasi

Nº	Qismlarning nomlari	Avtomatning asosiy qism va mexanizlari
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		
9		

## «Sinetik» texnologiyasi

Nº	Qismlarning nomlari	Avtomatning asosiy qism va mexanizlari
1	Stvol, stvol korobkasi, mo'ljalga olish moslamasi va qo'ndog'i bilan	

2	Stvol korobkasining qopqog'i	
3	Nayza-pichoq	
4	Qaytarish mexanizmi	
5	Zatvor ramasi gaz porsheni bilan	
6	Stvol tutqichi gaz trubka bilan	
7	Zatvor	
8	Seve (tutqich, dasta)	
9	O'qdon	
10	Zarbalovchi mexanizm	

### «Sinetik» texnologiya

№	Tasnifi	Qurolning turlari	
		AKM	RPK
1	Stvol kalibri, mm	7,62mm.	7,62mm.
2	Haqiqiy o't ochish masofasi, m.	400 m.gacha	800 m.gacha

3	Nishonga olish masofasi, m.	1000m.	1000m.
4	Bir tekis chiziq bo‘ylab o‘qning harakati; – ko‘krak nishonigacha, m. – harakatlanuvchi nishongacha, m.	350m. 525m.	365m. 540m.
5	Bir nuqtaga jamlab (o‘t ochish) otish masofasi, m; – yerdagi nishonlargacha, m. – parashutchilar va samolyotlarga, m.	800 m.gacha 500 m.gacha	800 500 m.gacha
6	Otish tempi, min.	600m. atrofida	600m. atrofida
	– avtomatik otishda	100 m.gacha	150 m.gacha
	– bittalab otishda	40 m.gacha	50 m.gacha
7	Avtomatning o‘qlangan o‘qdon bilan birgalikdagi og‘irligi	3,6kg.	5,6 (6,8)kg.
8	Nayza-pichoqning og‘irligi	450 gr.	-
9	O‘qdonning sig‘imi	30sht.	40 (75)sht.
10	O‘q uchish masofasi	3000m.	3000m.
11	O‘qning nobud qilish imkoniyati saqlangan masofa, m.	1500m.	1500m.
12	O‘qning boshlang‘ich tezligi	715m/s.	715m/s.

### «Sinetik» texnologiya

№	Tasnifi	Qurolning turlari	
		AKM	RPK
1		7,62mm.	7,62mm.
2		400 m.gacha	800 m.gacha
3		1000m.	1000m.
4		350m. 525m.	365m. 540m.

		800 m.gacha 500 m.gacha	800 500 m.gacha
		600m. atrofida	600m. atrofida
5		100 m.gacha	150 m.gacha
		40 m.gacha	50 m.gacha
		3,6kg.	5,6 (6,8)kg.
6		450 gr.	-
		30sht.	40 (75)sht.
		3000m.	3000m.
7		1500m.	1500m.
8		715m/s.	715m/s.

*To'satdan man etish texnologiyasi* qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar ichida o'quvchilar uchun murakkabroq texnologiya bo'lib hisoblanadi. Mazkur texnologiyani qo'llashga qadar o'quvchilar mavzu bo'yicha yaxshi bilimga ega bo'lishlari kerak. Bu texnologiya orqali o'qituvchi o'quvchilarni mavzu bo'yicha chiqur bilimga ega bo'lishlariga, tortishuvlar natijasida ularni qoshimcha adabiyotlarga murojat etishlariga chorlaydi. Texnologiyani qo'llashdan oldin guruh ikki yoki to'rtta kichik guruhlarga bo'linadi. O'quvchilarga tarqatma materillardan foydalanish qoidalari tushuntiriladi. Guruhlar o'z fikrini ifoda etayotganlarida bir-birlarining fikrlarini inkor qilishlarida tartibsizliklarga yo'l qo'yilmasligi uchun mashg'ulot rahbari bu jarayonni diqqat bilan nazorat qilib turadi.

### To'satdan man etish texnologiyasi

«Qoyilmisan» ( <i>«Argument»</i> ) hujum		«Bekor gap» ( <i>«kontr argument»</i> ) qayta hujum

### Kalashnikov avtomati

	1-guruuh	2-guruuh
1	AKM ob-havoning har qanday sharoitida uzoq muddat tozalamasdan janglarda foydalanish mumkin.	AKM tashqi muhit ta'sirida (qor, yomg'ir, chang) ifloslanganda tozalamasdan, yog'lamasdan foydalanish mumkin emas.
2		

**5-mashg'ulot.** Parchalanuvchi qo'l granatalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi va ishlash usuli. Granatalarni uloqtirishga tayyorlash va ko'zdan kechirish. Parchalanuvchi qo'l granatalarini qo'llayotganda xavfsizlik choralarini.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga parchalanuvchi qo'l granatalarining vazifasini, jangovar xususiyatlarini, umumiy tuzilishi va ishlash usulini va granatalarni uloqtirishga tayyorlash va ko'zdan kechirishni o'rgatish. O'quvchilarga parchalanuvchi qo'l granatalarini qo'llayotganda xavfsizlik choralariga qat'iy amal qilishga mas'uliyatini oshirish.

#### **O'quv savollari:**

**1-o'quv savoli.** Parchalanuvchi qo'l granatalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi va ishlash usuli.

**2-o'quv savoli.** Parchalanuvchi qo'l granatalarining umumiy tuzilishi va ishlash usuli.

**3-o'quv savoli.** Granatalarni uloqtirishga tayyorlash va ko'zdan kechirish.

**4-o'quv savoli.** Parchalanuvchi qo'l granatalarini qo'llayotganda xavfsizlik choralarini.

#### **Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O'MT:** O'quv granatalari. Plakatlar, slaydlar. Otish tayyorgarligi bo'yicha qo'llanma.

Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 10 daqiqa. Parchalanuvchi qo'l granatalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi va ishslash usuli.*

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga O'zbekiston Qurolli Kuchlarida mavjud bo'lgan hujumda ishlatiladigan (RGD-5) va mudofaada ishlatiladigan (F-1) parchalanuvchi qo'l granatalari va ulariing vazifalari, jangovar xususiyatlari haqida gapiradi. Parchalanuvchi qo'l granatalarining vazifasini, jangovar xususiyatlarini, umumiy tuzilishini va ishslash usulini tushuntirishda o'quv granatalaridan, rasmiplakatlardan, sxemalardan ifodalaniladi.

*2-o'quv savoli – 8 daqiqa. Parchalanuvchi qo'l granatalarining umumiy tuzilishi va ishslash usuli.*

Mavjud bo'lgan o'quv granatalari va ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalaniman granataning tuzilishi va ularning vazifalarini aytib ko'rsatiladi. Keyin UZRGM zapalini vazifasi va tuzilishi haqida gapirilib tushuntiriladi. O'quvchilarga zapalning har doim jangovar holatda bo'lishini, uni qismilarga ajratish va zarba beruvchi mexanizmlarini ochib ko'rish qat'iyan man etilishi uqtiriladi. O'quv materiallari o'rgatilib bo'llingandan keyin mustahkamlash uchun o'quvchilarga bir nechta savollar beriladi. 1. F-1 va RGD – 5 granatalarini tuzilishini aytib bering. 2. F-1 va RGD – 5 granatalarini vazifasini aytib bering. 2. UZRGM zapalini tuzilishini ko'rsatib aytin. O'rganilgan o'quv materiallari bo'yicha berilgan savollarga o'quvchilarining javoblarini mashg'ulot rahbari to'ldiradi.

*3-o 'quv savoli – 6 daqiqa. Granatalarni uloqtirishga tayyorlash va ko 'zdan kechirish.*

Mashg'ulot rahbari dastlab granatani uloqtirish uchun uni uloqtirishga yaxshilab tayyorlash kerakligini o'quvchilarga aytadi. Undan keyin bu ishlarni qanday bajarilishini mashg'ulot rahbarining o'zi amaliy tarzda har bir harakatni izohi bilan ko'rsatadi: granata sumkadan olinadi, korpus trubkasidan probka burab chiqariladi va uning o'rniga zapal burab qotiriladi. Shu bilan granata uloqtirishga tayyor bo'ldi. Endi o'qituvchi granata uloqtirilganda granataning qism va mexanizmlarini ishslash tamoyilini tushuntiradi. Granata uloqtirilganda xavfsizlik halqasi sug'urib olingani uchun qo'yib yuboruvchi richag zarbalovchini ozod qiladi: zarbalovchini esa o'z navbatida jangovar prujina harakati ostida shiddat bilan oldinga intilib alanga chiqaruvchi kapsulni o't oldiradi. Keyin olov sekinlashtiruvchi kapsulga tutashadi, undan kapsul detonatorga o'tadi. Undan keyin kapsul detonatorlanib granataning zaryadini portlashini keltirib chiqaradi. Bunda granataning qobig'i yorilib oskolkalar har tomonga uchadi. O'quvchilarga shuni alohida ta'kidlash kerakki, alanganuvchi kapsul tez alanga olgani bilan portlash 3,2–4,2 sek. davomida yuz beradi. Bu granatani uloqtirishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida oskolkalarni uzoqroqqa uchishi uchun qilingan.

*4-o 'quv savoli – 6 daqiqa. Parchalanuvchi qo'l granatalarini qo'llayotganda xavfsizlik choralarini.* Mashg'ulot rahbari 4-o 'quv savol bo'yicha o'quvchilarga o'quv materiallarni yetkazadi. Granatalar maxsus granata sumkasida olib yuriladi. Zapallar granatalardan alohida joylanadi, bunda har bir zapal qog'ozga yoki matoga o'rabi qo'yiladi. Granatalar va zapallar sumkaga solinishidan avval ham, zaryadlash vaqtida ham ko'zdan kechiriladi. Zapal solinadigan trubka va zapalning o'zi toza, zanglamagan, saqllovchi halqaning uchlari ikki tomonga qayrilgan bo'lishi kerak, bundan tashqari ko'karib ketgan va yorilgan zapallardan foydalanish ham mumkin emas. Granatani olib yurishda qutilmagan zarbalardan, turtilishlardan, shuningdek, olov, loylik va namliklardan ehtiyyot qilish zarur. Namlanib qolgan va ifloslangan zapal va granatalar komandirning nazorati ostida artib tozalanadi va quritiladi, ularni olov yonida kuritish man etiladi. Portlamagan granatalarga tegish, granatalarni halqasidan osib yurish mumkin emas. O'quv materiallari o'rganilib chiqilgandan keyin o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob qaytariladi, shu yo'l bilan o'tilgan mashg'ulot mustah-kamlanadi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot qisqacha tahlil qilingandan so‘ng o‘quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko‘ra ularning faoliyati baholanadi. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun foydalanilgan o‘quv granatalarini qismlarini jamlab ko‘zdan kechiriladi va tartibga solinib saqlash joyiga qo‘yiladi. Parchalanuvchi qo‘l granatalarini uloqtirishni mashq qilishni topshiriq qilib beriladi.

**Parchalanuvchi qo‘l granatalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi va ishlash usuli. Granatalarni uloqtirishga tayyorlash va ko‘zdan kechirish. Parchalanuvchi qo‘l granatalarini qo‘llayotganda xavfsizlik choralarini mashg‘ulotida qo‘llaniladigan pedagogik innovatsion texnologiyalar.**

### **«Sinetik» texnologiya**

№	Tasnifi	Granatalar	
		RGD-5	F-1
1		310 gr.	600 gr.
2		25m. atrofida	200m. atrofida
3		40-50m.	35-45m.
4		UZRGM 3,2-4,2sek.	UZRGM 3,2-4,2sek.
		3,2-4,2sek.	3,2-4,2sek

### **«Sinetik» texnologiya**

№	Tasnifi	Granatalar	
		RGD-5	F-1
1	Granataning og‘irligi.	310 gr.	600 gr.
2	Haloq qiluvchi oskolka parchalarining uchib borish radiusi.	25m. atrofida	200m. atrofida
3	Granatalarni uloqtirishni o‘rtacha masofasi.	40-50m.	35-45m.
4	Granata zapali.	UZRGM	UZRGM.
	Zapalning alanga olish vaqtি.	3,2-4,2sek.	3,2-4,2sek

## To'satdan man etish texnologiyasi

Parchalanuvchi qo'l granatalari		
Nº	1-guruh	2-guruh
1	Zamonaviy janglarning har qanday turlarida parchalanuvchi qo'l granatalari eng qulay quroq hisoblanadi.	Parchalanuvchi qo'l granatalari faqat yaqin masofalardagi janglarda foydalanish mumkin xolos.
2		

### 2-mavzu. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiq

**1-mashg'ulot.** Miltiqning vazifasi, tuzilishi. Uni o'qlash tartibi. Miltiqni otishga tayyorlash, o'qlash va o'qotishning o'ziga xos tomonlari.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga miltiqning vazifasini, tuzilishini, o'qlash tartibini, otishga tayyorlash, o'qlash va o'q otishning o'ziga xos tomonlarini tushuntirish. O'quvchilarga otish mashqlariga bo'lgan qizishlarini orttirish.

#### O'quv savollari:

1-o'quv savoli. Miltiqning vazifasi, tuzilishi.

2-o'quv savoli. Uni o'qlash tartibi. Vintovka bilan muomala qilinganda xavfsizlik qoidalari.

3-o'quv savoli. Miltiqni otishga tayyorlash, o'qlash va o'q otishning o'ziga xos tomonlari.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish, mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y.

**O'MT:** Plakatlar, slaydlar. Otish tayyorgarligi bo'yicha qo'llanma.

#### Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o'quv savoli – 12 daqiqa. Miltiqning vazifasi, tuzilishi.*

Mashg'ulot dastlab TOZ-8 ning vazifasini tuzilishini o'rgatadi. Undan keyin vintovkani qismlarga ajratib ko'rsatib tushuntiradi.

Tula qurol zavodi (TOZ)ning mahsuloti bo'lgan TOZ-8 vintovkasi boshlang'ich otish mashqini o'rgatish va merganlikni mashq qilish uchun mo'ljallangan.

Vintovkaning jangovar xususiyatlari: Kalibr – 5,6 mm. og'irligi – 3,12 kg.; o'qning boshlang'ich tezligi 310 m/s; o'qning uchish olisligi – 1200–1600 m; o'qning nobud qilish kuchi – 800 m. gacha saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar keltirilgandan keyin o'quvchilarni TOZ-8 ning tuzilishi bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Vintovkaning asosiy qism va mexanizmlari: Stvol, stvol korobkasi va yetaklovchi mexanizm bilan; orqa qopqoq; ochiq mo'ljallash moslamasi (pritsel va mushka); zatvor; qo'ndoq beti (lojasi). Mazkur ma'lumotlarni keltirishda mashg'ulot rahbari slayd va plakatlardan foydalanib ko'rsatib tushuntirishi o'quvchilarga slayd va plakatlardan kerakli joylarini yozib yoki chizib olishlariga imkon berishi kerak.

*2-o'quv savoli – 10 daqiqa. Miltiqni o'qlash tartibi. Vintovka bilan muomala qilinganda xavfsizlik qoidalari.*

TOZ-8 ni o'qlashni ko'rsatish metodi orqali dastlab elementlarga bo'lib keyin to'liq ko'rsatiladi. O'qlash o'ng qo'l bilan amalga oshiriladi. Zatvorni ochib va orqaga tortib, ko'rsatgich barmoq va boshmaldoq bilan o'jni olib patronnikka, ya'ni stvolning patron tushadigan joyiga solinadi; boshmaldoq bilan o'q ichkariga qadalgunicha suriladi; zatvor yopiladi.

Klehik kalibri vintovkani moylash tartibi Kalashnikov avtomatini moylash bilan bir xil. Ammo vintovkani stvolini o'q chiqib ketadigan tomonidan tozalash mumkin emas, chunki shompol stvolning uch qismini ishqnb yeyiltiradi. Bu esa vintovkani aniq otish xususiyatini kamaytiradi.

Stvol kanalini tozalash uchun orqa qopqoq ochiladi, zatvor stvol korobkasidan olinadi; artgichning aylanuvchi qismiga yumshoq qiyqim o'raladi, uni quroq moyiga shimdirilib shompol stvol kanaliga patronnik tomonidan kiritiladi.

Ushbu savolni o'rganilayotganda o'quvchilarga shuni eslatish joizki, mashg'ulot davomidagi xavfsizlikni ta'minlashni darsni puxta tashkil etish, mashg'ulotlarda o'rnatilgan tartib qoidalarga aniq amal qilish va mashg'ulotning barcha qatnashchilarini yuksak intizomi bilan erishiladi.

Mashg'ulot avvalida vintovkani patronnigida o'qni bor yoki yo'qligi tekshiriladi. Qurolni mashg'ulot rahbarining ruxsatisiz olib bo'lmaydi. Quroq o'qlangan yoki o'qlanmagan bo'lishidan qat'i nazar odamlarga qaratish ta'qiqlanadi. Mashg'ulot rahbari yangi materiallarni mustahamlash uchun o'rtaga bir necha savol tashlaydi.

1. TOZ-8 ning vazifasi va umumiy tuzilishini aytинг.
2. Vintovkani o'qlash tartibini aytинг.
3. Vintovkani tozalash tartibi qanday bo'ladi ?
4. Vintovqadan o'q otishni o'ziga xos tomonlari haqida gapiring.

*3-o'quv savoli – 8 daqiqa. Miltiqni otishga tayyorlash va o'q otishning o'ziga xos tomonlari.* Kichik kolibrni vintovkani otishga tayyorlashda ham tozalash va moylashda ham Kalashnikov avtomatini otishga tayyorlashdagi talablar qo'yiladi va tozalash va moylashdagi tartib qo'llaniladi. Kichik kolibrni vintovkadan o'q otishni o'ziga xos tomoni shundaki, otish to'garagida shug'ullanuvchi o'quvchilarning har biri «Mergan o'qchi» ko'krak nishoni uchun otish meyorlarini bajaradilar. Bu haqida mashg'ulot rahbari o'quvchilarga aytishi lozim. Mashg'ulot rahbarlari kichik kolibrni vintovkadan aniq otishni, quroq bilan ishlash qoidalari va uni qo'llashda xavfsiz choralarini, shuningdek, quroq to'g'risida barcha ma'lumotlarni puxta bilishi shart. O'quv savoli yakunlangandan keyin o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berilib izohlanadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.

- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
  - Mashg'ulotga yakun yasash.
- Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiq mashg'ulotida qo'llaniladigan pedagogik innovatsion texnologiyalar.

### «Sinetik» texnologiya

	Tasnifi	Qurolning turlari	
		TOZ-8	TOZ-12
1	Stvol kalibri	5.6 mm	5.6 mm
2	massa(og'irligi)	3.12	3.5
3	Umumiy uzunligi	110sm	110sm
4	Nishonga olish uzoqligi	250 m	250 m
5	O'qning boshlang'ich tezligi	310m/s	310 m/s
6	Otish tezligi	10, 12 ta minutiga	10, 12 ta minutiga
7	O'qning uchish uzoqligi	1200dan 1600m gacha	1200dan 1600m gacha
8	O'qning shikast yetkazish kuchi	800 m	800 m

### «Sinetik» texnologiyasi

№	Tasnifi	Qurolning turlari	
		TOZ-8	TOZ-12
1		5.6 mm	5.6 mm
2		3.12	3.5
3		110sm	110sm
4		250 m	250 m
5		310m/s	310 m/s
6		10, 12 ta minutiga	10, 12 ta minutiga

7		1200dan 1600m gacha	1200dan 1600m gacha
8		800 m	800 m

## «To‘satdan man etish» texnologiyasi

Kichik kalibrli vintovka			
	1-guruh	2-guruh	
Nº	Kichik kalibrli vintovka zamonaviy janglarda ham unumli foydalanish mumkin, chunki jangovar imkoniyatlari shunga imkon beradi.	Zamonaviy janglar juda tezkor olib boriladi. Kichik kaliberli vintovka zamonaviy janglarga mutloqo to‘g‘ri kelmaydi. Sababi jangovar ko‘rsat-kichlari talab darajasida emas.	
1			

### 3-mavzu. Quroldan otish asoslari va qoidalari

**1-mashg‘ulot.** Otish jarayoni va uning davrlari. O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’siri. Qurolning silkinishi va otish burchagi.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga otish jarayoni va uning davrlarini, o‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’sirini va qurolning silkinishi va otish burchagini tushuntirish. O‘quvchilarni qurolning barcha imkoniyatlarini bilishga, undan moxirona foydalana olishga undash.

#### O‘quv savollari:

1-o ‘quv savoli. Otish jarayoni va uning davrlari.

2-o ‘quv savoli. O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’siri.

3-o ‘quv savoli. Qurolning silkinishi va otish burchagi.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT

o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. Otish tayyorgarligi bo‘yicha qo‘llanma.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Otish jarayoni va uning davrlari.*

Mashg‘ulot rahbari dastlab o‘quvchilarga bexato otish uchun nafaqat qurolning tuzilishini bilishlari, balki otish nazariyasining asosiy ma‘lumotlariga ham ega bo‘lishlari shart ekanligini tushuntiradi. O‘qning (snaryadning) uchishi to‘g‘risidagi masalalarni ballistika o‘rganadi. Ballistikaning ikki turi ichki va tashki turlari mavjud. Ichki ballistika o‘jni stvol ichidagi porox gazlari ta’siridagi harakatini o‘rganadi. Tashki ballistika o‘jni (snaryadni) stvol kanalidan chiqib ketgandan keyingi havoda uchishini o‘rganadi. Materialni bayon qilishni otish tushunchasini aniqlab berish bilan boshlash zarur. Otish deb porox zaryadini yonishidan hosil bo‘lgan gazlar ta’sirida o‘jni stvol kanalidan chiqarib tashlanishiga aytildi. Mashg‘ulot rahbari tushuntirishda rasmiplakatdan foydalananib gaz bosimining egri chizig‘ini va o‘jni stvol kanalidagi tezligini egri chizig‘ini ko‘rsatib tushuntiradi. Patrondagidan porox alanga olgan vaqtida hosil bo‘lgan gaz bosimi 250-500 kgs/sm.kv.ni tashkil etadi. Porox yonishda davom etadi va bosim ko‘tarilib, o‘q4-6 sm. masofaga siljiganda bosim eng yuqori darajaga 2800 kgs/sm. kv,ga etadi. O‘q stvol kanalini tark etayotgandagi bosim 300-400 kgs/sm.kv.ni tashkil etadi. Mashg‘ulot bu jarayonni tushuntirib ko‘rsatib bo‘lganidan keyin qisqacha savol-javob o‘tkazadi.

1. Otish deb nimaga aytildi? 2. Ballistika haqida nimalarni bildingiz? 3. Otish quroldan otish jarayonida maksimal bosim qancha bo'lishi mumkin?

*2-o 'quv savoli – 15 daqiqa. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri.*

Mashg'ulot rahbari dastlab o'quvchilarga o'qning boshlang'ich tezligi deb nimaga aytishini tushuntiriladi. O'qning boshlang'ich tezligi deb o'qning stvol kanalini tark etayotgandagi tezligiga aytildi. O'qning boshlang'ich tezligi qurolni muhim jangovar xususiyati ekanligini izohlaydi. O'qning boshlang'ich tezligi qancha katta bo'lsa o'qning uchish olisligi ortadi, o'qning teshib o'tish va shkast yetkazish xususiyati ortadi, shuningdek, o'qning uchishiga tashqi muhitning ta'siri pasayadi.

O'qning boshlang'ich tezligi stvolning uzunligiga, porox zaryadining miqdoriga o'qning massasiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi o'quv savoli bo'yicha ham o'quvchilar bilan savol javob o'tkazilib ularning bergen savollariga javob beriladi.

*3-o 'quv savoli. Qurolning silkinishi va otish burchagi.*

Mazkur o'quv savolni tushuntirishda mashg'ulot rahbari o'quvchilar e'tiborini qurolni silkinishidan cho'chimaslik kerakligini va asosiy diqqatni hafszilik qoidalariga amal qilish shart ekanligiga qaratadi. Undan keyin qurolning silkinishi sabablarini tushuntiradi. Otishda stvol kanalidagi gazning bosimi o'jni faqat oltinga surib qolmay, qurolni ortga ham turtadi. Otish vaqtida qurolni ort tomonga qilgan harakatiga qurolning silkinishi deyiladi. Avtomatdan otganda silkinish kuchi 2 kgs.m (19,6 Dj) dan oshmaydi va o'q otuvchiga shkast yetkazmaydi. Porox gazlarining bosim kuchi (silkinish kuchi) va silkinish kuchiga qarama-qarshi kuch (qo'ndoq tayanchi, qo'ndoq tutkichi, qurolning og'irlik markazi va hokazo) qarama-qarshi tomonlarga bitta to'g'ri bo'limgan yo'nalishga joylashgan. Mashg'ulot rahbari shu va otishning boshqa muhim jarayonlarini joylarni multimedya tasvirlari bilan ko'rsatib, tushuntirib borishi to'g'ri bo'ladi. Shundan keyin o'quvchilarning tushunmay qolgan joylarini savollar berish yo'li bilan aniqlanib qaytadan qisqacha izohlanadi.

**Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar:

– Mavzu va uning maqsadini eslatish.

- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** O‘q trayektoriyasining (uchish yo‘lining) hosil bo‘lishi, o‘q tegishi (nishonga olishni) imkonи bo‘lмаган va bo‘lgan joylar, shuningdek o‘lik bo‘shliklar hamda ularning amaliy ahamiyati.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga o‘q trayektoriyasining (uchish yo‘lining) hosil bo‘lishini, o‘q tegishi (nishonga olishni) imkonи bo‘lмаган va bo‘lgan joylarni, shuningdek, o‘lik bo‘shliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda ularning amaliy ahamiyatini tushuntirish. O‘quvchilarni qurolning barcha imkoniyatlarini bilishga, undan mohirona foydalana olishga odatlantirish.

**O‘quv savollari:**

*1-o ‘quv savoli.* O‘q trayektoriyasining (uchish yo‘lining) hosil bo‘lishi.

*2-o ‘quv savoli.* O‘q tegishi (nishonga olishni) imkonи bo‘lмаган va bo‘lgan joylar.

*3-o ‘quv savoli.* O‘lik bo‘shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyati.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniqan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi 1-qism, 2005-y. Otish tayyorgarligi bo‘yicha qo‘llanma.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 12 daqiqa. O‘q trayektoriyasining (uchish yo‘lining) hosil bo‘lishi.*

Mazkur o‘quv savolni o‘rganish o‘quvchilar uchun bir oz o‘ziga xos qiyinchilik tug‘dirishini inobatga olib, tushuntirishni ko‘rgazmali tarzda olib borish tavsiya etiladi. El ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan tayyorlangan aynan shu mavzu uchun maxsus maket yordamida o‘quvchilarga ko‘rinadigan qilib batafsil tushuntiriladi. Undan tashqari o‘q trayektoriyasini multimediya tasvirlari yordamida tushuntirish orqali ham maqsadga erishsa bo‘ladi. Havoda uchayotgan o‘qqa ikki xil kuch ta’siri o‘tkazadi. Bu kuchlarning biri tortishish kuchi ikkinchisi havoning qarshilik kuchidir. O‘qlarning ta’siri ostida egik chiziq hosil qilib uchadi. Bu chiziq trayektoriya deyiladi. Shundan keyin traektoriya to‘g‘risida barcha ma’lumotlar ko‘rgazmali vositalar yordamida batafsil tushuntiriladi

*2-o‘quv savoli – 10 daqiqa. O‘q tegishi (nishonga olishni) imkonni bo‘lman va bo‘lgan joylar. Mashg‘ulot rahbari ushbu o‘quv savolni bevosita el ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan tayyorlangan maket yordamida hamma o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinishi uchun balandroq joydan ko‘rsatib tushuntiradi. U o‘quvchilarga o‘q tegishi (nishonga olishni) imkonni bo‘lman va bo‘lgan joylarni ta’rifini keltirib boshqa rasmli suratlardan ham foydalanadi.*

*3-o‘quv savoli – 8 daqiqa. O‘liif bo‘shliklar hamda ularning amaliy ahamiyati. Ushbu o‘quv savol ham ikkinchi o‘quv savolini olib borish metodikasi kabi o‘tkaziladi. Bundan tashqari o‘lik bo‘shliklarning amaliy ahamiyati haqida gapiriladi. Ta’kidlash jozki mazkur mashg‘ulot o‘quv savollarini yoritish va tushuntirishda multimedya materiallaridan, slaydlardan yoki maketedan foydalanishning ahamiyati kattaligini mashg‘ulot rahbari yoddan chiqarmasligi shart.*

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** Merganlik. Nishonni tanlash. Joyidan qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otayotganda mo‘ljalni va mo‘ljalga olish nuqtasini tanlash. Otish jarayoniga tuzatishlar kiritish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga merganlikni, nishonni tanlashni, joyidan qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otayotganda mo‘ljalni va mo‘ljalga olish nuqtasini tanlash qoidalari va otish jarayoniga tuzatishlar kiritish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatish. O‘quvchilarni quroldan har xil nishonlarga otish malakalarini oshirish.

#### **O‘quv savollari:**

**1-o‘quv savoli.** Merganlik. Nishonga to‘g‘ri otish elementlari.

**2-o‘quv savoli.** Nishonni tanlash. Joyidan qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otayotganda mo‘ljalni va mo‘ljalga olish nuqtasini tanlash.

**3-o‘quv savoli.** Otish jarayoniga tuzatishlar kiritish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanimanligi adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. Otish tayyorgarligi bo‘yicha qo‘llanma.

**O‘MT:** O‘quv quroli Kalashnikov avtomati yoki pnevmatik vintovka. Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Merganlik Nishonga to‘g‘ri otish elementlari.* Mashg‘ulot rahbariga mashg‘ulotni boshlanishida avval o‘rganilgan xafsizlik chora-tadbirlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini sinovdan o‘tkazish va mustahkamlash uchun qisqacha savol-javob olib borish tavsiya etiladi.

Keyin avtomatning mo‘ljalga olish moslamasidan tez va aniq mo‘ljalga olish (navodka)ni qanday qilib ta’milanishini ko‘rgazmali vositalar kuzatuvida tushuntiradi.

Mashg‘ulot rahbari pritsellar ochiq, dioprik, optik va elektron - optik (tungi) pritsellarga bo‘linishini aytib avtomatning pritselini (mo‘ljalga olish moslamasini) va navodka elementlarini tushuntiradi.

Navodka (mo‘ljalga olish) – bu stvol kanali o‘qining otish uchun zarur bo‘lgan bo‘shlikdagi holatini berish demakdir. Navodka mushkani to‘g‘ri olish va uni mo‘ljallash nuqtasiga moslashni o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulot rahbari merganlik va nishonga to‘g‘ri otish elementlari to‘g‘risida nazariy bilimlarni berib bo‘lganidan keyin pnevmatik vintovkadan ko‘rsatilgan va tushuntirilgan harakatlarni o‘quvchilarni mustaqil bajarib ko‘rishlari uchun sharoit yaratadi. Navbat bilan bajarayotgan o‘quvchilarni harakatini kuzatib ularni to‘g‘ri bajarishlari uchun ko‘rsatmalar beradi va amaliy yordam ko‘rsatadi.

*2-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Nishonni tanlash. Joyidan qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otayotganda mo‘ljalni va mo‘ljalga olish nuqtasini tanlash. Otish jarayoniga tuzatishlar kiritish.*

Mo‘ljal va mo‘ljallash olish nuqtasi shunday hisob bilan tanlanadiki, otishda o‘rtal trayektoriya nishonning qoq o‘rtasidan o‘tishi kerak. Avtomatdan 300 m. masofagacha otilganda pritsel «P» yoki «3» ga qo‘yiladi, mo‘ljal nishonni pastki qismiga olinadi. Otish masofasi 300 m.dan ortiq bo‘lsa mo‘ljal mos keladigan songa qo‘yiladi, mo‘ljalga olish nuqtasi qilib nishonni o‘rtasi olinadi. Otishga yon tomondan esayotgan shamol salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Otishni to‘g‘rilash mo‘ljallash nuqtasini yonga olib chiqish bilan amalga oshiriladi. Bulardan tashqari

mashg'ulot rahbari otish jarayoniga tuzatishlar kiritish borasida joylardagi nishonlarning joylashuviga va joy sharoitiga qarab mo'ljalga olish yo'l-yo'riqlarini rasmiplakat, komandir yashigi va multimediya tasvirlaridan foydalanib tushuntiradi. Shundan keyin mashg'ulot rahbari o'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini savollar orqali sinovdan o'tkazadi. Ularning javoblaridan hulosalar chiqarib ayrim materillarni lozim topilsa qaytadan tushuntiradi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**4-mashg'ulot.** Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullari. Burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash. Minglik formulasi va uni amalda qo'llash.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullarini, burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlashni, minglik formulasi va uni amalda qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rgatish. O'quvchilarga biriktirilgan qurolning jangovar imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishning ahamiyatini anglatish.

#### **O'quv savollari:**

**1-o 'quv savoli.** Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullari. Burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash.

**2-o 'quv savoli.** Minglik formulasi va uni amalda qo'llash.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniman adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y. Otish tayyorgarligi bo'yicha qo'llanma.

**O‘MT:** O‘quv quroli Kalashnikov avtomati yoki pnevmatik vintovka. Plakatlar, slaydlar. Binokl. Multimediya. Qalam, gugurt qutisi.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o‘quv savoli. Nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash usullari. Burchak kattaligi yordamida nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash.*

Mashg‘ulot rahbari ushbu o‘quv savollarini yoritishda oldindan taylorlangan o‘quv moddiy ta‘minotidan keng foydalanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Ko‘z bilan chamlash haqida gapirganda rasmlı plakatlardan yoki joylardagi narsalardan foydalanib tushuntirishi o‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun oson kechadi. Mashg‘ulot rahbari nishongacha bo‘lgan masofalarni odatda ko‘zchama qilib (sharoitning har qanday vaziyatlarida) va nishonlarning burchak kattaligi bo‘yicha aniqlanishini aytib misollar keltirib tushuntiradi.

Masofani ko‘z bilan chamlash quyidagicha aniqlanadi: nishongacha ma’lum bo‘lgan masofaga qiyoslash orqali; ko‘rish xotirasiga yaxshi tashlanadigan joylarning bo‘laklari bo‘yicha; ko‘rish darjasasi va nishon hajmiga qiyoslab o‘xshatish bo‘yicha.

Agar nishonning o‘lchamlari (bo‘yi, uzunligi, eni) ma’lum bo‘lsa nishongacha bo‘lgan masofa burchak kattaligi bo‘yicha formula yordamida aniqlanadi.

*2-o‘quv savoli. Minglik formulasini uni amalda qo‘llash.*

Minglik formulasini tushuntirishni uning ahamiyatidan boshlash

to‘g‘ri bo‘ladi. Minglik formulasini puxta o‘zlashtirish, jangovar vaziyatlarda qo‘yilgan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli uddalashda qo‘l keladi. Minglik formularsi quyidagicha bo‘ladi:

$D = \frac{V \cdot 1000}{U}$ , bu yerda D – nishongacha bo‘lgan masofa, metrda;

V – nishonning balandligi (eni yoki uzunligi) metrda;

U – nishonning burchak kattaligi minglikda. Nishonlarning burchak kattaligi dala binokli yordamida mingliklar yordamida aniqlanadi. Binokl shkalasining katta bo‘lagi 10 minglikka, kichik bo‘lagi 5 minglikka teng. (0–10, 0–05 deb yoziladi). Nishonlarning burchak kattaliklarini qo‘l osti predmetlari yordamida aniqlash mumkin. Mashg‘ulot rahbari yuqoridagi tushuntirgan o‘quv materiallarini binoql, mahalliy buyumlar va panja, qalam, gugurt qutisi bilan amaliy ko‘rsatadi. Undan keyin o‘quvchilarga mustaqil ravishda mavjud o‘quv vositalaridan; binokl, mahalliy buyumlar va panja, qalam, gugurt qutisidan foydalanib nishongacha bo‘lgan masofani aniqlashni vazifa qilib qo‘yadi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini kuzatar ekan ular yo‘l qo‘ygan xatolarni bartaraf etib boradi va to‘g‘ri bajarishlari uchun ko‘rsatmalar beradi.

### Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi.

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

## **12-§. «HARBIY XIZMAT ASOSLARI» BO‘LIMI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASH VA O‘TKAZISH USLUBIYOTI**

«Harbiy xizmat asoslari» bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlar jara-yonida mashg‘ulot rahbari asosan o‘quv materiallarining mazmuni orqali vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi. U adabiyotlardan, kinofilm materiallaridan, multimediyalardan, diafilim va jadvallardan, shuningdek, plakat va sxemalardan yurtimiz qahramonlari to‘g‘risidagi materiallarni avvaldan saralab qo‘yadi.

Mazkur bo‘lim o‘qitilishida o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi ning mudofaa doktrinasi, «Mudofaa to‘g‘risidagi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlari, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar bilan tanishadilar.

O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yilning 9-oktabridagi Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi uchun qonunligini, ularni o‘z vaqtida aniq va so‘zsiz bajarilishi – har bir harbiy xizmatchining muqaddas burchi ekanligi tushuntiriladi. Harbiy rahbar, CHTO‘ o‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan o‘quv materialini o‘quvchilarning boshqa fanlar orqali egallagan bilimlarini, shuningdek, mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan muhim siyosiy voqealarni o‘quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlar safiga harbiy xizmatga tayyorlash bo‘yicha vazifalar bilan bog‘lab olib borishni ta’minlashi lozim.

Harbiy nizomlarning amaliy harakatlar bilan bog‘liq bo‘limgan joylarini o‘rganishda hikoya, suhbat, tushuntirish uslublaridan foydalanildi va tushuntirishni plakatlar, diafilmlar va o‘quv kinofilmlari yordamida amalga oshiriladi. Guruh bo‘yicha posbonning harakatlari maxsus jihozlangan joyda amaliy o‘rganiladi.

O‘quvchilarga nizomlarni ongli tarzda o‘zlashtirishlariga yordam berish uchun mashg‘ulotlar jarayonida nizom bilan mustaqil ishlashlariga sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

**Dasturning** harbiy xizmat asoslari bo‘limiga yangi «Qurolli to‘qnashuvlar huquqi» mavzusini kiritilishi alohida e’tiborga molikdir,

gap shundaki, O'zbekiston Respublikasi 1949-yilgi Jeneva konvensiya-lari va 1977-yilgi ularga Qo'shimcha protokollarga 1993 yil sentabrida qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomining 19-moddasida *har bir harbiy xizmatchi harbiy harakatlar olib borilayotgan joylardagi harbiy bo'lмаган аholi bilan shuningdek, harbiy asrlar bilan muomala qilishning xalqaro qoidalarini bilishi va ularga rioya etishi lozimligi* belgilab berilganligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida qayd etilganidek, O'zbekiston «xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarini ustunligini» tan olishini anglatadi. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani o'quv dasturiga to'rt soatlik «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusining kiritilishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni bajarish yo'lidagi ishlarga mas'uliyat bilan qarashining qo'rinishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani o'quv dasturi»ga to'rt soatlik «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusini kiritilishi munosabati bilan 5141200-«CHHT» ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr talabalari va hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan harbiy rahbar (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchi)larini «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusi bo'yicha bilim va malakalarini oshirish va uslubiy mahoratlarini yanada takomillashtirish zururiyati yuzaga keldi.

Hozirgi kunda «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» fani majburiy fan sifatida 5141200-«CHHT» ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr talabalariga tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq o'qitilmoqda, dastur asosida o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matni va uslubiy ishlanmalar ishlab chiqilgan. «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» fanini o'qitilishini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan.

### **Harbiy xizmat asoslari bo'limining ta'limiy vazifalari**

#### **O'quvchilar:**

- qurolli to'qnashuvlar huquqi, uning kelib chiqishi haqida va asosiy meyorlarga rioya qilishning ahamiyati to'g'risida;
- jangovar harakat qatnashchisi (kombatant)ning hulq-atvor kodeksi to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning vazifasi, tarkibi va jangovar an'analari haqida;

– harbiy jamoaning shakllanishi va jipslashuvining xususiyatlari, Qurolli Kuchlar va qo'shin turlarining jangovar imkoniyatlari va vazifalari haqida tasavvurga ega bo'lishlari shart.

O'quvchilar:

– qurolli to'qnashuvlar huquqining asosiy talablari va ularga rioya qilishning zarurligini;

– kombat va fuqaro shaxs orasidagi farqlarni, harbiy obyekt bilan fuqaro obyektini farqlashni;

– hujum paytida, shuningdek, mudofaa paytida ham, quro tanlashning asosiy talablarini;

– harbiy harakatlar olib borish usullarini va taqiqlangan qurol turlarini;

– qurolli to'qnashuvlar huquqini buzganligi uchun javobgarlikka tortilish haqida;

– qurolli to'qnashuvlar huquqi tomonidan qabul qilingan farqlovchi emblema va belgilarning vazifasi;

– O'zbekiston Respublikasning «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» hamda «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlari talablarini;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatini tashkillash bo'yicha tadbirlari haqida va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga qo'yish va chiqarish to'g'risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi to'g'risida»gi qarorini;

– harbiy jinoyat, xizmatdan bosh torganligi uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik qonunchiligi haqidagi asosiy qoidalarni;

– O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasining tinch sharoitda va urush vaqtida Qurolli Kuchlarning vazifalari, tarkibi, tuzilish prinsiplari, strategiyasi va qo'llash shart-sharoitlarining asosiy qoidalarni;

– harbiy intizom asoslarini, harbiy nizom, uning harbiy qism va seksiyalar hayoti va faoliyatidagi o'rnini, harbiycha xushmuomalalik qoidalarni, o'zini tutish va harbiycha salomlashishni, askarning safga turishdan oldingi va safdagisi majburiyatlarini bilishi shart.

O'quvchilar:

– qurolli to'qnashuvlar huquqining asosiy qoidalarni to'g'ridan to'g'ri bajarishni;

– harbiy xizmatchi majburiyatlarining mohiyatini tushuntira olish, harbiy unvon (lavozim) bo'yicha kattalarga murojaat qilish, buyruq olganda buyruq bo'yicha yoki vzvod bo'yicha posbon o'rnida harakat qilishni;

– safda yakka tartibda quolsiz saf usullarini va seksiya tarkibida gayta saflanishni to‘g‘ri bajarishni uddalashi shart.

## **2-mavzu. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.**

### **1-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni.**

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonunining mazmun, mohiyatini tushuntirish. O‘quvchilarga qonunning ahamiyatini anglatish.

**O‘quv savoli:** O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Suhbat, tushuntirish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanimanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

Mashg‘ulot rahbari dastlab mashg‘ulotni boshlashda O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni 1992-yili 3-iyul kuni qabul qilinganligini 2001-yili 11-mayda unga o‘zgartirishlar va

qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlanganligini ma'lum qiladi. Undan keyin qonun mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi. Qonunning ikkinchi moddasida shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasining mudofaasi – bu davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi, respublikaning qarashlari va aholining tinch hayotini himoya qilishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy tadbirlar majmuasidir.

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat; boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'rsatish hollari bundan mustasno; xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda jamoaviy xavfsizlik tizimlarida ishtiroq etish; harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik; harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo'lishi; yadroviy va boshqa turdag'i yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish; mudofaaning yetarli darajada bo'lishi; harbiy xizmat sharafli ekanligini ta'minlash.

Mashg'ulot rahbari O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunining modda va prinsiplarini o'quvchilarga tushuntirar ekan ularning hayotdagi tatbig'iga hayotiy misollar keltirib izohlashi muhim o'rinn tutadi. Mashg'ulot mazmuni bayon etilib tushuntirilgandan keyin mashg'ulot rahbariga o'quvchilarini suhbatga chorlash, savollar bilan murojat etib, ularning faolligini oshirish tavsiya etiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**2-mashg'ulot.** O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni. Harbiy xizmat turlari. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash. Fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish va harbiy xizmatga kirishish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunining mazmun, mohiyatini tushuntirish. Ularni harbiy xizmat turlari, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, fuqarolarni chaqiruv uchastkasida ro‘yxatga qo‘yish va harbiy xizmatga kirishish to‘g‘risidagi qonun moddalari bilan yaqindan tanishtirish va qonun talablariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash.

**O‘quv savollari:**

*1-o‘quv savoli.* Harbiy xizmat turlari. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash.

*2-o‘quv savoli.* Fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish va harbiy xizmatga kirishish.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonuni.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa.* Harbiy xizmat turlari. Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash. Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulotning boshlanishida O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonuni 2002-yil 12-dekabrda qabul

qilinganligini va ushbu qonun 9 ta bob 51-moddadan iborat ekanligini, qonunda umumiy harbiy majburiyat, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, fuqarolarni chaqirish punktlarida qayd etish, xizmatga chaqirish, harbiy xizmatni o'tash va boshqa savollarni qonuniy yechimi ko'rsatib berilganligini o'quvchilarga yetkazadi. Shundan keyin mashg'ulot rahbari qonunning 3-moddasida yozilgan qonunning mazmunini o'quvchilarga tushunarli qilib baland ovozda o'qib eshittiradi. Bundan tashqari o'quvchilarga harbiy xizmat turlari va fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash bo'yicha qonun ko'rsatmalar o'qib eshittirilib, ularni hayotiy misollar bilan bog'lab tushunchalar beriladi. Mashg'ulot rahbariga keyingi o'quv savolini tushuntirishni boshlashdan oldin 1-o'quv savol bo'yicha qisqacha savol javob va suhbat o'tkazish tavsiya etiladi.

*2-o'quv savoli – 15 daqiqa. Fuqarolarni chaqiruv uchastkasida ro'yxatga qo'yish va harbiy xizmatga kirishish.*

Fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish va harbiy xizmatga kirishish. Mashg'ulot rahbari O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuning uchinchi bobi sakkizta 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25 moddalardan iborat ekanligini aytib shu moddalardan 18-19- moddalarini o'qib eshittiradi. Mashg'ulot rahbarining o'quv savolni o'tkazish bo'yicha tutgan uslubi birinchi o'quv savolini o'tkazish tartibi kabi bo'ladi. Mashg'ulot rahbari faqat qonun moddalarining mazmunini tushuntirish bilan chegaralanib qolishi to'g'ri bo'lmaydi. Bu borada qonunning mohiyatini o'quvchilarga anglatish juda muhimdir.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

*3-mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni. Harbiy xizmatni o'tash. Rezervdagи xizmat. Muqobil xizmat. Safarbarlik*

**bo'yicha chaqiruv va undan bo'shatish.** «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunni buzganligi uchun mansabdar shaxs va fuqarolarning javobgarligi.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunining harbiy xizmatni o'tash, rezervdagi xizmat, muqobil xizmat, safarbarlik bo'yicha chaqiruv va undan bo'shatish va qonunni buzganligi uchun mansabdar shaxs va fuqarolarning javobgarligi to'g'risidagi qonun moddalari bilan tanishtirish. O'quvchilarni mazkur qonun moddalarini buzmasliklari uchun mas'uliyatlarini oshirish.

**O'quv savollari:**

**1-o'quv savoli.** Harbiy xizmatni o'tash. Rezervdagi xizmat. Muqobil xizmat. Safarbarlik bo'yicha chaqiruv va undan bo'shatish.

**2-o'quv savoli.** «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunni buzganligi uchun mansabdar shaxs va fuqarolarning javobgarligi.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining jinoiy kodeksi.

**O'MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

## Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 15 daqiqa. Harbiy xizmatni o'tash. Rezervdagi xizmat. Muqobil xizmat. Safarbarlik bo'yicha chaqiruv va undan bo'shatish.*

Mashg'ulot rahbari O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunining IV bobidan 26–27–28–29-moddalarini, V bobidan 30-31-32-33-34-35-36- moddalarini, VI bobidan 37-38-39-49-41- moddalarini umumiyl mazmuni bilan tanishtiradi. Bu qonun moddalarini mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijrosi to'g'risidagi hayotiy misollarni o'quvchilarga keltiradi. Mashg'ulot rahbari qonun moddalarini tushuntirishda IV bobdan 26-moddani, V bobdan 30-moddani, VI bobdan 37-moddani o'qib eshittiradi va batafsilroq to'xtaladi.

*2-o'quv savoli – 15 daqiqa. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunni buzganligi uchun mansabdar shaxs va fuqarolarning javobgarligi.*

Mashg'ulot rahbari o'quv savolni O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunining 51-moddasini o'qib, uni izohlashdan boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari harbiy xizmatdan bo'yin tovlagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Davlat organlarining, shuningdek, mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning umumiyl harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor rahbarlari, boshqa mansabdar shaxslari, fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Bundan keyin ushbu o'quv materialini yoritishda mashg'ulot rahbariga «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunni buzganligi uchun mansabdar shaxs va fuqarolarlarga nisbatan qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasining jinoiy kodeksidagi moddalarning mazmuni tushirilgan slaydlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mashg'ulot rahbari o'r ganiladigan moddalar mazmunini o'qib eshittiradi va izohlab beradi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarga moddalarni yozib olishlari uchun imkon beriladi. Mashg'ulotning mazmunini o'quvchilarga yetkazilib bo'lingandan keyin mashg'ulot rahbari o'quvchilar o'r ganilgan materiallar bo'yicha suhbat o'tkazadi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**4-mashg‘ulot.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga qo‘yish va chiqarish to‘g‘risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarori.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga qo‘yish va chiqarish to‘g‘risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarori bilan tanishtirish. O‘quvchilarni mazkur qonunning ahamiyatini anglatish.

**O‘quv savoli:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga qo‘yish va chiqarish to‘g‘risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarori.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga qo‘yish va chiqarish to‘g‘risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarori.

## **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhnинг mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhnинг mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

Ushbu mashg'ulotni o'tkazishdan oldin sinfdan tashqari ishlarga ajratilgan soatlar hisobidan o'rganiladigan o'quv materialini yorituvchi multimediya qo'yib berish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yilning fevral oyidagi 99-raqamli «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga qo'yish va chiqarish to'g'risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarorini mazmun va mohiyatini tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari mazkur qaror yuzasidan o'quvchilar bilan qisqacha o'tkazib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yilning fevral oyidagi 99-raqamli «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi, rezervdagi harbiy xizmatini tashkil etish» va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga qo'yish va chiqarish to'g'risida»gi Nizomning tasdiqlanganligi haqida»gi qarorini bajarish tartibini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga qo'yish va chiqarish to'g'risida»gi Nizom mazmunini tushuntirishga o'tadi. Xuddi shu tartibda mazkur qonunga taalluqli nizom ilovalari ham ketma-ketlik bilan keltirilib o'quvchilarga tushuntiriladi. Mashg'ulot rahbari ushbu o'quv materialini bayon etishda mumkin qadar hayotiy misollar bilan bog'lashi lozim. Mashg'ulot

jarayonida o‘quvchilarni faolligini oshirish maqsadida ularni suhbatga chorlanadi, o‘quvchilar tomonidan aytilgan ma’lumotlarni mashg‘ulot rahbari tomonidan to‘ldirib boriladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**5-mashg‘ulot.** Harbiy nizomlar to‘g‘risida tushuncha. «Ichkii xizmat Nizomi», «Intizom Nizomi», «Saf Nizomi» va «Qorovul xizmati Nizomi»ning asosiy qoidalari bilan tanishish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy nizomlarining asosiy qoidalari bilan tanishtirish. Nizom talablarini harbiy xizmatchilar tomonidan qat’iy bajarilishi shart ekanligini anglatish.

**O‘quv savollari:** 1-o‘quv savoli. Harbiy nizomlar to‘g‘risida tushuncha. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining «Ichki xizmat Nizomi» va «Intizom Nizomi».

2-o‘quv savoli. «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi» va «Qorovul xizmati Nizomi».

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalaniylgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya, kinofilim.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kiritish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 18 daqiqa. Harbiy nizomlar to‘g‘risida tushuncha. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining «Ichki xizmat Nizomi» va «Intizom Nizomi».*

Mashg‘ulot rahbari dastlab O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi to‘g‘risida tushuncha beradi. Ushbu Nizom harbiy xizmatchilarining huquqlari, majburiyatları, ular o‘rtasidagi uzaro munosabatlar, mansabdor shaxslarning majburiyatlarini, shuningdek, ichki tartib qoidalarini belgilashi va harbiy qismlardagi harbiy xizmatchilarining kundalik turmushi va faoliyati ichki xizmat talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishini ta’kidlaydi.

Qo‘sinchilarni ichki xizmat – bu doimiy jangovar shaylikni, shaxsiy tarkib oldidagi vazifalarini uyushgan holda bajarishni va harbiy xizmatchilarining sog‘ligini saqlashni ta’minlashga qaratilgan, shuningdek, ichki tartib va harbiy intizomni saqlab turish uchun xizmat qilishga mo‘ljallangan.

Bu borada mashg‘ulot rahbari harbiy qism yoki ta’lim muassasalarining hayotidan misollar keltirib o‘quv materiallarini yanada tushunarliroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Shudan keyin O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomini o‘rganishga kirishiladi. Intizom Nizom harbiy intizomning mohiyatini, harbiy xizmatchilarining unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlarini, rag‘batlantirish va intizomiy ta’sirlarning ko‘rinishlarini, komandirlarning (boshliqlarning) ularni qo‘llash bo‘yicha huquqlarini belgilashini mashg‘ulot rahbari ta’kidlab, harbiy intizomning ta’rifini keltiradi.

Harbiy intizom – bu barcha harbiy xizmatchilarining qonun va harbiy Nizomlar, shuningdek, komandirlar (boshliqlar) tomonidan belgilangan buyruqlar, tartib va qoidalarga qat’iy va aniq rioya etilishidir. Keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga intizom Nizomidan yuksak harbiy in-

**tizomga qanday erishilishini o‘qib eshittiradi. Yuksak harbiy intizomga:**

- harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fasilatlarni tarbiyalash, komandirlariga ongli ravishda bo‘ysunish;
- har bir harbiy xizmatchining o‘z majburiyatlarini va harbiy nizomlar talablarini bajarishga shaxsiy ma’suliyatini oshirish;
- barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kundalik rejimga qat’iy rioya qilish;
- jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil qilish; komandirlarning o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan kundalik talabchanligi va ularning ijrochiligini nazorat qilish;
- harbiy qismda zarur moddiy-mayishiy sharoitlarni yaratish orqali erishiladi. Yuqoridagi bayon etilgan mazmunlarga doir harbiy qism yoki ta’lim muassasalarining hayotidan lavhalar keltiriladi. Bu borada ayniqsa mashg‘ulot rahbariga qisqa metrajli kinofilim yoki multimediya tasvirlarini namoyish etish juda qo‘l keladi.

*2-o‘quv savoli – 12 daqiqa. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi», «Qorovullik va garnizon xizmati Nizomi».*

Ushbu o‘quv savolini o‘rganilishi ham 1-o‘quv savolini o‘tkazish tartibida olib boriladi. Mashg‘ulot rahbari 2-o‘quv savolining o‘quv materiallari bo‘yicha o‘quvchilarga quydagi o‘quv materiallarini yetkazib tushuntiradi: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomida safda turish, qurol bilan va quolsiz harakat qilish; kichik bo‘linma va harbiy qismlarning piyoda va mashinalarda saf tortishi, harbiycha salom-alikni bajarish, saf qo‘rigini o‘tkazish tartibi; harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini safdagi holati uni olib chiqish va olib ketish tartibi; harbiy xizmatchilarning safga oldi va safdagi majburiyatları belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmati Nizomi garnizon va qorovullik xizmatlarini tashkil qilish va o‘tash, ushbu xizmatni o‘tayotgan garnizon mansabdor shaxslari va harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, qo‘sishlar ishtirokida gornizon tadbirlari o‘tkazish tartiblarini o‘z ichiga oladi. Aholi yashaydigan joylarda yoki undan tashqarida dolmiy yoki vaqtinchalik joylashgan harbiy qismlar garnizonni tashkil qiladi. Har bir garnizonda garnizonlik va qorovullik xizmatlari tashkil qilinadi. Garnizon xizmatining maqsadi garnizonda harbiy intizomni tu‘minlash, qo‘sishlarning hayoti va tayyorgarligi uchun zarur sharoit, trevoga bo‘yicha ularning xatti-harakatlarini va qo‘sishlar ishtirokida garnizon tadbirlari o‘tkazishni ta‘minlashdan

iborat. Qorovullik xizmati jangovar bayroqlarni, harbiy va boshqa ashyolar saqlanadigan omborlarni, qurol-aslaho omborlarini, harbiy va davlat obyektlarini, shuningdek, gauptvaxta hamda axloq tuzatish batalyonlarida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash uchun tashkil qilinadi. Garnizon va qorovullik xizmatlarini amalga oshirishga gornizon tarkibiga kirgan qismlar jalb etiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi.

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

### **3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – davlat harbiy tashkiloti. O'zbekiston Respublikasi Mudofaasining asosi.**

*1-mashg'ulot.* O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasi, tarkibiy tuzilish tamoyillari. Ularning faoliyati asoslari. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvning mahalliy organlari.

O'quv, tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vazifasi, tarkibi va ularni qo'llash tamoyillari bilan tanishtirish. Qurolli Kuchlarimizga nisbatan ishonch va faxr ruhida tarbiyalash.

**O'quv savollari:** 1-o 'quv savoli. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasi.

2-o 'quv savoli. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslari.

3-o 'quv savoli. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvning mahalliy organlari.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi I-qism, 2005-y. O'quvchilarni O'zbe-

**Qurʼon Respublikasi Qurolli Kuchlarining Vatan himoyasi toʻgʼrisidagi qonunlari.**

**OʼMT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### **Mashgʼulotni oʼtish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashgʼulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar oʼtkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashgʼulotga tayyorgarligi toʻgʼrisidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhnинг mashgʼulotga tayyorgarlik darajasini koʼzdan kechirib yoʼqlama oʼtkazish.
- Avval oʼtilgan mashgʼulot boʼyicha qisqacha savol-javob oʼtkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini eʼlon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-oʼquv savoli – 10 daqiqa. Oʼzbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasi, tarkibiy tuzilish tamoyillari.*

Mashgʼulot rahbari dastlab oʼquvchilarga oʼquv materiallarini puxta oʼzlashtirib olishlarining ahamyati haqida qisqacha toʼxtalib, uning muhimligini taʼkidlaydi va ularga savollar berib suhbatga chorlaydi. Mashgʼulot rahbari oʼquvchilarning fikr mulohazalarini tinglab tegishli xulosa chiqargan holda oʼquv materialining mazmunini bayon etishni boshlaydi.

Oʼzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oʼzbekiston Respublikasining davlat suvereniteti hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Mashgʼulot rahbari Qurolli Kuchlarimizning mudofaaga kiritilganligi va oʼziga xos xususiyatlari toʻgʼrisida, shuningdek, Oʼzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qoʼshin turlari toʻgʼrisida maʼlumotlar beradi:

- quruqlikdagi qoʼshinlar;
- harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qoʼshinlari;
- maxnum qoʼshinlar;

Mashgʼulot rahbari har bir qoʼshin turlari toʻgʼrisida sxema, plakat yoki slaydlar kuzatuvida tushunchalar beradi.

Mashgʼulot rahbari xuddi shu usulda davom etib oʼquvchilarga quyidagi maʼlumotlarni yetkazadi: Oʼzbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlari kadrlardan iborat doimiy armiya tamoyili asosida quriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari quyidagi maqsadlarda qo‘llanishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasiga bo‘lgan hujumni qaytarish maqsadida;
- Agressiyadan mudofaa qilish borasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish maqsadida;
- BMT qarori asosida tinchlikparvarlik operatsiyalarini o‘tkazish va «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi doirasida operatsiyalarini o‘tkazish maqsadida.

Jangovar harakatlarni olib borish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo‘mondoni buyruq beradi va qaror qabul qiladi.

Fuqarolar, davlat va jamiyatning xavfsizligiga putur yetkazish uchun ichki vaziyatni destabilizatsiya qilinishini, hukumat organlarining funksiyalarini buzilishini oldini olish va bartaraf qilish uchun Oliy Bosh Ko‘mondon Qurolli Kuchlarni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Uning bu qarori keyinchalik Oliy Majlisda ko‘rib chiqiladi. Shundan keyin 1-o‘quv savollar yuzasidan qisqacha savol-javob o‘tkazilib navbatdagi o‘quv savolini o‘rganishga o‘tiladi.

*2-o‘quv savoli. – 10 daqiqa. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslari.*

Mashg‘ulot rahbari 2–3 o‘quv savollarini o‘rgatishda 1-o‘quv savolini o‘rgatishdagi uslubiy yo‘lni tutadi va shu asnoda tashkillaydi. Ikkinci o‘quv savolini o‘quv materiallarini bayon etishda quyidagi ma’lumotlar yetkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning tarkibi va tuzilishini, vositalarini takomillashtirishni, kadrlar tayyorlashni, mobilizatsion resurslar va zaxiraga bo‘lgan talabni, harbiy qurilishni moliyalashni agressiyani mustaqil ravishda va jamoaviy xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnoma qatnashchilari bo‘lgan davlatlarning qurolli kuchlari bilan birgalikda qaytara oladigan miqdorda ishonchli va yetarlicha ta‘minlash tamoyili bilan bog‘laydi.

Agressiya boshlanishi bilan harbiy harakatlarning asosiy ko‘rinishi bo‘lgan mudofaaga o‘tiladi. Biroq vaziyatga qarab ba’zi aniq yo‘nalishlarda hujum harakatlari olib borilishi inkor etilmaydi.

Shuning uchun tinch vaqtida qo‘sishinlar har qanday holatda, shuningdek, dushman tomonidan yadro quroli qo‘llanilgan holatda ham jangovar harakatlarni olib borishga tayyorlanadilar.

*3-o‘quv savoli. – 10 daqiqa. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvening mahalliy organlari.*

Mashg'ulot rahbari uchinchi o'quv savolining o'quv materiallarini bayon etishni boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Bosh Qo'mondoni – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida besh harbiy okrugi mavjud:

1. Toshkent harbiy okrugi;
2. Sharqiy harbiy okrug;
3. Janubiy-G'arbiy maxsus harbiy okrug;
4. Markaziy-G'arbiy okrug;
5. Shimoliy-G'arbiy harbiy okrug;

Mashg'ulot rahbari Respublikamizdagi viloyatlarda Mudofaa ishlari boshqarmalarining va tumanlardagi mudofaa ishlari bo'limlarining faoliyatlari to'g'risida tushuncha berib o'quvchilarni o'quv materiali bo'yicha bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi savollar beradi:

1. O'zbekiston Qurolli kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni kim?
2. O'zbekiston hududida nechta harbiy okrug mavjud, ularni qanday nomlanishini ayting ?
- 3 . Viloyat mudofaa boshqarmalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Tuman mudofaa ishlari bo'limlarining vazifalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

### Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg'ulotga yakun yasash.

**J-mashg'ulot. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari, IIVning Ichki va qorovul qo'shnulari, Davlat chegaralarini qo'riqlash bo'yicha milliy xavfafsizlik qo'shnulari va O'zbekiston Respublikasi Fuvqulodda Vazlyatlar vazirligining vazifalari va jangavor fuksioniyatlari. Qo'shn turlari va ularning vazifalari.**

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Qurolli Kuchlarimizga nisbatan ishonch va faxr ruhida tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** 1-o‘quv savoli. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining IIVning ichki va qorovul qo‘sishlari, Davlat chegaralarini qo‘riqlash bo‘yicha milliy xafsizlik qo‘sishlari va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari va jangovar imkoniyatlari.

2-o‘quv savoli. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining qo‘sish turlari va ularning vazifalari.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. «Vatan himoyasi muqaddas burch» o‘quv qo‘llanma.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. multimedya.

## Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

1-o‘quv savoli – 12 daqiqa. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining IIVning ichki va qorovul qo‘sishlari, Davlat chegaralarini qo‘riqlash bo‘yicha milliy xavfsizlik qo‘sishlari va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar vazirligining vazifalari va jangovar imkoniyatlari.

Ushbu mashg‘ulotni boshlanishidan yetarlicha vaqt ilgari mashg‘ulotga doir o‘quv materiallardan tashqari ta’lim texnika vositalari (TTV) ham foydalanishga tayyorlanadi. TTV yordamida o‘quv materialining mazmuni ekranga uzatilib o‘quvchilarga tushuntiriladi.

Mashg‘ulot rahbari ushbu mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida hozirgi kunda o‘quvchilarning texnika taraqqiyotidan yaxshigina xabardar ekanligini, ularning ko‘pchiligi internet tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligini, ularda filmlar orqali ham yetarlicha ma’lumotlar bor bo‘lib, bu borada o‘z fikrlari va qarashlari shakllanganligini e’tiborga olib tegishli xulosalar chiqargan holda tayyorgarlik ko‘rishi taqozo etiladi.

Mazkur o‘quv materiallarini yoritishda mashg‘ulot rahbariga ko‘proq «O‘zbekiston» nashryoti tomonidan nashr etilgan «Vatan himoyasi muqaddas burch», deb nomlangan adabiyot materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasidan tashqari o‘quv savolini mazmuniga doir boshqa adabiyotlardan foydalanib yanada boyroq material to‘plash va o‘quvchilarga yetkazish mashg‘ulot rahbarini ma’lum miqdorda ijodiy faoliyatini belgilab mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari va jangovar imkoniyatlari to‘g‘risidagi o‘quv materiallarini esa mashg‘ulot rahbari fuqarolar himoyasi instituti tomonidan tayyorlangan o‘quv adabiyotlardan va plakatlardan foydalanib o‘quvchilarga yetkazadi. O‘quv savolining yakunlanida o‘quv materiali yuzasidan o‘quvchilar bilan qisqacha savol-javobli suhbat o‘tkaziladi.

2-o‘quv savoli – 18 daqiqa. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining qo‘sishin turlari va ularning vazifalari.

Mashg‘ulot rahbari 2-o‘quv savolini TTV yordamida o‘quv materiallarini ekranga uzatib ularning kuzatuvida ko‘rsatib tushuntirishni boshlaydi. Qo‘sishin turlarining jangovar texnikalari va qurolyurog‘lari haqida gap ketganda ularni ekranda ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari quyidagi qo‘sishin turlaridan iborat:

1. *Quruqlikdagi qo‘sishlar;*
  - Motoo‘qchi qismlar.
  - Tank qismlari.
  - Artilleriya.
  - Tezkor harakat qiluvchi kuchlar qismlari.
2. *Harbliy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo‘sishlar;*
  - Qiruvchi-o‘qchi saniolyotlar.

- O‘qchi samolyotlar.
- Maxsus aviatsiya.
- Radio texnika qismlari.
- Zenit- raketa qismlari.

*3. Maxsus qo‘shinlar:*

- Muhandislik bo‘linmalari.
- Aloqa qismlari.
- Avtomobil qismlari.

*Quruqlikdagi qo‘shinlar* jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal qilishda asosiy o‘rinni egallaydi. Ular quruqlikdagi dushmanlarni uzilkesil tor-mor qilishda hal qiluvchi vazifani bajaradi.

*Harbiy havo kuchlarini tashkil qiladigan kuchlar «porshenli samolyotlardan tortib» bugungi zamonaviy reaktiv mashinalargacha yetib keldi.* Ular 3000 km/soat tezlikda va 30 km dan ko‘proq balandlikda uchish imkoniyatiga ega. Yuqori darajadagi manevr, olis masofalarga ucha olish, dushmanning juda ichkarisidagi obyektlarini ham yo‘q qila olish, havodan dushmanlarga kutilmagan zarbalarini bera olish – bu armiyamiz harbiy havo kuchlarining asosiy jangovar xususiyatlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining aviatsiyasi har qanday ob-havo sharoitida tovushdan tez uchadi va turli jangovar raketalar bilan ta’minlangan. Hozirda «Havo-havo», «Havo-yer» sinfdagi raketalar samolyotlarimizning asosiy quroliga aylangan. Zamona-viy samolyotlarning vertikal tarzda uchib-qo‘nadigan, uchayotganda qanotlarining geometrik holatini o‘zgartirib oladigan ko‘p maqsadli turlari mavjuddir.

*Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari.*

Raketa-yadro quroliniing paydo bo‘lishi, raketa va aviatsion texnikaning rivojlanishi mamlakatni havo hujumidan mudofaa qilish tizimiga yangi talablarni qo‘ydi.

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining asosiy vazifalari muhim ma’muriy - siyosiy markazlarni, sanoat markazlarini, aerodromlarni va boshqa davlat va harbiy ahamiyatga molik inshootlarni dushmanning havo zarbasidan himoya qilish bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari ixtiyorida radiotexnika, zenit va raketa qismlari, shuningdek, havo hujumiga qarshi aviatsiya kuchlari mavjuddir.

Radiotexnika qismlari zamonaviy radiolokatsion stantsiyalar bilan ta’minlangan. Ular uzlaksiz ravishda havo bo‘shligini kuzatadilar, aniqlangan havo nishonlarini farqlaydilar, ularning tezligi, balandligi va

*yo'nalishini aniqlab boshqa qo'shincharga ham xabar beradilar.*

Zenit va raketa qismlari o'z ixtiyorida turli masofadan nishonlarni yo'q qila oladigan va ko'p maqsadli zenit-raketa komplekslariga ega. E'tiborlisi shuki, ikkinchi jahon urushida dushmanning havodagi bitta samolyotini urib tushirish uchun 400–600 dona snaryad sarflangan bo'lsa hozirda bitta raketaning o'zi bu ishni uddalaydi.

*Maxsus qo'shinchalar* quruqlikdagi qo'shincharning jangovar harakatlarini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

*Muhandislik bo'linmalari* hujumda qism va bo'linmalarning olg'a harakatlarini ta'minlab beradi, yo'l va ko'priklarni ta'mirlaydi va quradi, suv to'siqlardan qo'shincharni o'tkazishni ta'minlaydi, minalashtirilgan maydonlarni tozalaydi. Mudofaada esa mudofaa marralarini va pozitsiyalarini jihozlaydi, to'siqlar o'rnatadi.

*Aloqa qismlari* jangning barcha turlarida ishonchli aloqani ta'minlab beradi. Shu maqsadda aloqa qismlari yaqin va olis masofalardan uzlusiz aloqani ta'minlab beradigan eng zamonaviy radiotexnika, simli va uyali aloqa vositalari bilan ta'minlangan.

*Quruqlikdagi qo'shinchalar* qo'shincharning ichida eng asosiysi va ko'p sonligidir, shuning bilan birga eng qadimiysi hamdir. Uni tashkil qiladigan piyoda, otliq, artilleriya va tank qo'shinchari hujumda qat'iy harakatlari va mudofaada mustahkam turishi bilan ajralib turgan.

*Motoo'qchi qismlar* kurashning turli vositalari bilan qurollangan va to'la motorlashtirilgan. Ularning qism va bo'linmalari piyodalarniig jangovar mashinasi (BMP) va bronetransporter (BTR) larda harakat qiladilar va jang olib boradilar.

Avtomat pulemyot va tankka qarshi vositalar (PTURS) bilan ta'minlangan motoo'qchi qismlar dushmanning mudofaasini muvafqiyatli yorib o'tib, shiddatli hujum qilib, dushman bilan to'qnashib uni yo'q qila olish qudratiga ega.

*Tank qo'shinchalar* quruqlikdagi qo'shincharning asosiy zarbdor kuchini tashkil qiladi va jangovar harakatlarda eng ahamiyatli vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan.

Og'irligi 40 tonnagacha bo'lgan tanklar o'rta tanklar deyiladi. Ular pushka va bir nechta pulemyot bilan qurollangan. Tanklar dushmanning jonli kuchi, o't ochish vositalari, tanklari bilan jang olib borishga mo'ljallangan.

Og'irligi 20 tonnagacha og'irlikka ega bo'lgan tanklar yengil tanklar deyiladi. Ular 1 ta pushka va 1 ta pulemyot bilan jihozlangan bo'ladi.

*Quruqlikdagi qo'shinlarning artilleriyasi* zambaraklar (pushka), gaubitsalar, reaktiv qurilmalar, minometlardan iborat bo'lib, dushmanning tanklarini juda uzoq masofalardan ham yo'q qila olishga qodir.

Artilleriya stvolining tuzilishiga qarab o'yiq stvolli va silliq stvolli artilleriyaga, kalibriga qarab kichik kalibrli (20–57 mm), o'rta kalibrli (76–152 mm) va yirik kalibrli (152 mm dan katta) artilleriyaga bo'linadi.

Stvolli artilleriya o'z ichiga zambarak (pushka), gaubitsa va minometlarni oladi.

Zambarak – nisbatan uzun stvolga ega bo'lgan artilleriya vositasi bo'lib snaryadga yuqori boshlang'ich tezlik bera oladi (600–1000 m/sek), Zambarakning kalibri 57 mm dan 152 mm gacha bo'ladi. Zambaraklar dushmanning jonli kuchini, inshootlarni, tez yuradigan nishonlarni yo'q qilish uchun ishlataladi.

Gaubitsalar – zambarakka nisbatan kalta stvolga ega bo'lgan artilleriya vositasidir. Snaryadning boshlang'ich tezligi 500–600 m/sek. ga teng. Gaubitsalar dushmanning yashirin obyektlarini, himoya inshootlarni, kuzatuv punktlarini, blindajlarini buzish uchun ishlataladi.

Minomet-silliq stvolli artilleriya vositasi. Uning tuzilishi sodda, vazni yengil, tez ota oladi, trayektoriyasi juda tikka, kalibri 82 mm dan 240 mm gacha.

*Tezkor harakat qiluvchi kuchlar qismlari* – dushman ichkarisida turli muhim hududlarni egallash, ularni o'z qo'shinlari kelguncha ushlab turish, ularga dushmanni tor-mor qilishda yordam berish kabi jangovar vazifalarni bajaradi. Jangovar texnikalarning desantini amalga oshirish uchun maxsus samolyotlardan foydalaniladi. Ma'lumki, o'quvchilar uchun bunday ma'lumotlar juda katta qiziqish uyg'otadi va ularda turli xil qiziqarli savollar tug'iladi.

Mashg'ulot rahbari bunday vaziyatni avvaldan bilishi va o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berish uchun vaqt ajrishi kerak bo'ladi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob.
- O'tilgan mashg'ulotning tahlili.
- O'quvchilar faoliyatini baholash.

- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy o‘quv yurtlari. Ularga qabul qilish qoidalari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o‘mini gapirib berish. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy o‘quv yurtlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish va ularga qabul qilish qoidalarini tu-shuntirish.

**O‘quv savollari:** 1-o‘quv savoli. Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o‘rni.

2-o‘quv savoli. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy o‘quv yurtlari. Ularga qabul qilish qoidalari.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. «Vatan himoyasi muqaddas burch» o‘quv qo‘llanma.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlamni o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asonly qismi.** 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 12 daqiqa. Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o'rni.* Mashg'ulot rahbari ushbu savolni yoritishda slaydlardan foydalanib, mumkin qadar hayotiylik bilan ko'proq bog'laydi. Shuningdek, mashg'ulot mazmunini bayon etishda o'quvchilarni e'tiborini tortish va yanada tushunarli bo'lishi uchun o'quv materialini mazmuniga qarab his-hayajonni ifoda etish ham samara beradi. Mashg'ulot rahbari 1-o'quv savol mazmuni sifatida o'quvchilarga quyidagilarni bayon etadi:

Armiyamiz jangovar tayyorgarligining sifati doimiy ravishda ofitserlar bilan tashkil etiladigan komandirlar tayyorgarligiga ham bog'liqdir. Bu narsa o'z yo'lida yaxshi tayyorgarlikka ega komandirlar o'zlarining shaxsiy tarkibini jangovar shaylikka qay darajada o'qitishi va ularni tarbiyalashiga, shuningdek, Vatanni mardonavor himoya qilishga tayyorlashiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikni qo'lga kiritgach yangi armiyani vujudga keltirish borasida keng ko'lamli islohotlarni davom ettirmoqda. Bunda, ayniqsa, ofitserlar va serjantlar tayyorlashning sifatiga katta e'tibor qaratilgan.

Harbiy sohadagi olib borilayotgan chuqur islohotlar, mustaqil davlat-larga terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlarning mavjudligi, shuningdek, harbiy qismlarini yuqori darajadagi jangovar shayligini oshirish zarurati – Komandir va boshliqlarga yangi talablarni vujudga keltiradi. Bu taablarning mazmuni quyidagilar bo'lib hisoblanadi; bugungi kun ofitseri g'oyaviy va siyosiy yetuk, mustaqillik g'oyalarga sodiq, Vatanga halol xizmat qilish namunasi, intizomli, yuqori darajadagi komandirlik irodasiga ega, askarlarni o'qitishni va tarbiyalashni ilg'or metodlarini egallagan, ulkan harbiy, texnikaviy umummadaniyat bilim zaxiralariga ega, jangning natijasini oldindan ko'ra biladigan bo'lishi kerak.

Mashg'ulot rahbari yurtimizda etishib chiqqan, yurtimiz uchun jonini fido qilgan sarkardarlarning (masalan: A.Temur, J.Manguberdi, Shiroq, Dukchi Eshon kabi) jangovar faoliyatlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Harbiy kadrlarning eng ko'p sonli qismi – bu serjantlar. Serjantlar oddiy askarlarning bevosita boshliqlari hisoblanadilar. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar tufayli serjantlarning roli yanada ortdi. Respublikamizda birinchi maro'eba serjantlarni tayyorlash maktablari ochildi. 2002-yil 29–30-avgust kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchla-rining Oliy Bosh Qo'mondoni I. A. Karimov shunday degan edi: «Bugungi kunda qurolli kuchlarni

tashkil qilishni zamonaviy tamoyillariga asoslangan yangi tizimi joriy etilmoqda, avvalo, quyi harbiy bo‘linmalarining tashkiliy shtat tarkibi, ularning qurollanishi, nizom talablari va vazifalari qaytadan qo‘rib chiqilmoqda, yuqori pog‘onalarda esa bo‘linmalar va maxsus operatsiyalar o‘tkazuvchi qismlar shakllantirildi va ular hozirda takomillashtirilmoqda.

Harbiy xizmatchilarni tayyorlashning butunlay yangi shakllaridan serjantlar maktabi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu maktablarda o‘qish kompyuter texnologiyalarini qo‘llash, modellashtirish va stimulyatsiya kabi turli harbiy mashq amaliyotlarini o‘z ichiga olgan holda o‘tkazilmoqda».

Hozirgi kunda serjantlar maktabi respublikamizning barcha harbiy okruglarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning bitiruvchilari askarlarni o‘qitib, tarbiyalamoqdalar va shaxsiy tarkibni jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorlamoqdalar.

*2-o‘quv savoli – 18 daqiqa. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy o‘quv yurtlari. Ularga qabul qilish qoidalari.*

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga 2-o‘quv savolning mazmunini bayon etishni boshlaydi. Tushuntirish jarayonida Respublikamiz oliy harbiy bilim yurtlari va serjantlar maktablarini joylashgan manzillari bilan qiziqqdan o‘quvchilarga bilim yurtlarining manzillarni mashg‘ulotdan keyin yozib olishlari mumkin ekanligi avvaldan aytib qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun malakali ofitser kadrlar tayyorlash mudofaa doktrinasi, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublika Mudofaa vazirining buyruqlari va talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ayni paytda respublikamizda to‘rtta oliy harbiy ‘bilim yurti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakultetida harbiy ofitser kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

## **TOSHKENT OLIY UMUMQO‘SHIN QO‘MONDONLIK BILIM YURTI**

1918-yil 12-iyulda tashkil etilgan. Ushbu bilim yurtida:

- motoo‘qchi bo‘linmalarini jangovar qo‘llash;
- qo‘shin razvedkasi bo‘linmalarini jangovar qo‘llash;
- shaxsiy tarkib bilan ishlash ixtisosliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Manzili. Toshkent OUKBYU: 700052. Toshkent sh. Parkent ko‘chasi, 2.

## **CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDONLIK – MUHANDISLIK BILIM YURTI**

1918-yil 16-noyabrda Rossiya Federatsiyasining Nijegorod shahrida tashkil topgan. Ikkinchiji jahon urushi boshlangach, 1941-yilning 15-noyabri kuni Chirchik shahriga ko‘chirilgan. Ushbu bilim yurtida:

- tank bo‘linmalari, qismlari va qo‘shilmalarini jangovar qo‘llash;
- jangovar texnikalarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha muhandislar;
- havo – desant bo‘linmalari, qismlari va qo‘shinmalarini jangovar qo‘llash;
- shaxsiy tarkib bilan ishlash ixtisosliklari bo‘yicha ofitser kadrlar tayyorlanmoqda.

*Manzili. Chirchiq OTKMBYU: 702115, Chirchiq shahri, A.Temur, 15.*

## **SAMARQAND OLIY HARBIY AVTOMOBIL QO‘MONDONLIK- MUHANDISLIK BILIM YURTI**

1969-yili 20-noyabrda tashkil topgan. Bilim yurtida:

- avtomobil bo‘linmalari, qismlari va qo‘shilmalarini qo‘llash;
- avtomobil texnikalarini ekspluatatsiya qilish va ta’mirlash;
- artilleriya bo‘linmalari, qismlari va qo‘shilmalarini qo‘llash;
- sapyor-muhandis bo‘linmalari qismlari va qo‘shilmalarini jangovar qo‘llash;
- ta’minot xizmati mutaxassisligi bo‘yicha ofitser kadrlarni tayyorlash tashkil etilgan.

## **JIZZAX OLIY HARBIY AVIATSIYA BILIM YURTI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchoar Oliy Bosh Ko‘mondoni I. A. Karimovning tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-martdagagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Bilim yurtida harbiy uchuvchilar va aviatsiya - muhandisligi mutaxassisliklari bo‘yicha ofitser kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va harbiy ilmiy ishlarni tashkil etish yo‘lga qo‘ylgan. Bilim yurtida: samolyot uchuvchi muhandisi;

- samolyot, vertolyot va dvigatellar bo‘yicha texnik;

- radioelektron jihozlar bo‘yicha texnik;
- aviatsiya qurollari bo‘yicha texnik mutaxassisliklari ofitser kadrlar tayyorlaydi.

## **TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSI-TETINING MAXSUS FAKULTETI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 13-may-dagi qaroriga asosan tashkil topgan. Hozirgi kunda maxsus fakultetda yettita kafedra tashkil qilingan bo‘lib, ularda:

- o‘rta quvvatli radiostantsiya va koinot aloqa stantsiyalari bo‘linmalarini qo‘llash;
- ko‘p kanalli troposfera va uzoq masofali aloqa bo‘linmalarini qo‘llash;
- qo‘sishnlarni avtomatlashtirilgan boshqaruvi va maxfiy aloqa;
- kriptogrammali himoya xizmati va axborot xavfsizligini ta’minlash;
- radiotexnik razvedka va radioelektron kurash;
- havo hujumidan mudofaa, radiotexnika va zenit-raketali qo‘sishlarini jangovar qo‘llash bo‘yicha ofitser kadrlar tayyorlanmoqda. Harbiy o‘quv yurtlariga tugallangan o‘rta ma’lumotli O‘zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari qabul qilinadi:
  - 17 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar, shu jumladan, o‘qishga qabul qilingan yili 17 yoshga to‘lgan fuqarolar;
  - ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo‘lmagan, 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar.

Mazkur shaxslar bilim yurtiga kirish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limlaridan olishlari mumkin. Bundan tashqari mashg‘ulot rahbari xuddi mana shu tartibda serjantlar maktablari haqidagi ma’lumotlarni ham o‘quvchilarga qisqa va tushunarli qilib yetkazadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.

- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**4-mashg‘ulot.** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an’analari, ularning hozirgi bosqichda rivojlanishi. Harbiy qasamyod va uning qo‘sishinlar hayoti, o‘qishi hamda jangovar faoliyatidagi ahamiyati. Harbiy qismning jangovar bayrog‘i harbiy qadriyat, qahramonlik va shon-sharaf ramzi.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni Qurolli Kuchlarimizning jangovar an’analari bilan tanishtirish. Harbiy qasamyodning mohiyatini va jangovar bayroqning ahamiyatini tushuntirish. Qurolli Kuchlarimizning jangovar an’alariga va harbiy qasamyodga sodiqlik ruhida tarbiyalash.

**O‘quv savollari:** 1-o ‘quv savoli. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an’analari, ularning hozirgi bosqichda rivojlanishi.

2-o ‘quv savoli. Harbiy qasamyod va uning qo‘sishinlar hayoti, o‘qishi hamda jangovar faoliyatidagi ahamiyati.

3-o ‘quv savoli. Harbiy qismning jangovar bayrog‘i harbiy qadriyat, qahramonlik va shon-sharaf ramzi.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. «Vatan himoyasi muqaddas burch» o‘quv qo‘llanma.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.

- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o'quv savoli – 10 daqiqa. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari, ularning hozirgi bosqichda rivojlanishi.*

Mashg'ulot rahbaridan bu mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda qo'shimcha manbalardan foydalanib boy ma'lumotlarga ega bo'lishi talab etiladi. U adabiyotlardan, kinofilim materiallaridan, multimediyalardan, diafilim va jadvallardan mashg'ulotga oid materiallarni avvaldan saralab qo'yadi. Tayyorlangan TTV ni qo'llab ularning kuzatuvida mashg'ulot mazmunini bayon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari – bu jangchilarining tarixan shakllangan tinch va urush davrlarida hulq me'yori bo'lib qolgan, jangchilarни o'zining jangovar burchini namunali o'tashga, mustaqil Vatanga, O'zbekiston xalqiga halol va vijdonan xizmat qilishga faol undaydigan odatlar va ma'naviy qoidalardir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari askarlarining muhim jangovar an'analari quyidagilardan iborat:

- mustaqil Vatanga muhabbat, o'z kuchiga ishonch, Vatan himoyasiga doimo shay turish;
- harbiy qasamyodga sodiqlik;
- jangovar mahoratini takomillashtirishga doimo intilish, yuksak intizomlilik;
- buzilmas jangovar o'rtoqlik, komandirlarga hurmat va uni jangda himoya qilish;
- o'zining harbiy qismiga muhabbat.

Mashg'ulot rahbari Qurolli Kuchlarning jangovar an'analalarini hozirgi kundagi qo'rinishlariga misollar keltirib izohlab beradi.

*2-o'quv savoli – 10 daqiqa. Harbiy qasamyod va uning qo'shinlar hayoti, o'qtshi hamda jangovar faoliyatidagi ahamiyati.*

Mashg'ulot rahbari dastlab matnini balandroq ovozda ifodali o'qib beradi, keyin harbiy qasamyodni davlat ahamiyatiga molik huj-jut ekanligini tushuntiradi.

Har bir yosh askar Qurolli Kuchlar safiga kirar ekan muhim siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan harbiy qasamyodni qabul qiladi.

Harbiy qasamyod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyul qarori bilan tasdiqlangan. Uning matni bilan ichki xizmat nizomi ochiladi.

Harbiy qasamyodda mustaqil Vatanimiz va O‘zbekiston xalqining vatan ximoyachisiga bo‘lgan talabi va uni o‘zining shaxsiy qarash va ishonchlari uyg‘unlashib ketgan. Jangchi qasamyodni qabul qilgach uni o‘zining imzosi bilan yanada mustahkamlaydi. Endi qasamyod harbiy hayotning buzilmas qonuniga aylanadi, undan bir lahma ham qaytish mumkin emas.

Aynan qasamyodni qabul qilishlik bilan yosh askarga O‘zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi qonunlari, harbiy nizomlar, komandir va boshliqlarning buyruqlarida ko‘zda tutilgan xizmat majburiyatlarini so‘zsiz bajarish uchun butun javobgarlik yuklatiladi.

Hali qasamyodni qabul qilmagan yosh askarga jangovar topshiriq berish, unga jangovar texnika va qurol biriktirish, unga intizomiy ta’sir choralarini qo‘llashda bandi qilish mumkin emas.

Mashg‘ulot rahbari harbiy qasamyodni kelib chiqishi qadim-qadimga borib taqalishi va qasamyodning jangchilarni ma’naviy-jangovar sifatlariga bo‘lgan talablarini tushuntiradi. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- Halol jangchi bo‘lish. Bu avvalo, beg‘arazlik, sodiqlik bilan o‘zining xalqiga xizmat qilishlik, mehnatga va jamiyat oldidagi burchlariga vijdonan yondashishdir.

- Halol jangchi deb yana shunday jangchiga aytiladiki, o‘zining shaxsiy ishlaridan xizmat burchlarini yuqori qo‘yadi, jang paytida dushmanidan g‘olib chiqish uchun har qanday xavf xatarga ikkilanmay mardona bora oladigan, o‘zining va o‘rtoqlarining xatolarini komandirlardan yashirmay chin ko‘ngildan oldini olib, uni bartaraf eta oladigan bo‘lishi kerak.

Jasur jangchi bo‘lish, jasur jangchi bo‘lishlik qadimdan xalqimizga xos fazilatdir. Bu fazilatlar ayniqsa xalqimizga tashqaridan tajovuz bo‘iganda yaqqol namoyon bo‘lgan. Jasur jangchi bo‘lishlikning asosini jangchining yuqori darajadagi siyosiy ongliligi, vatanga va mustaqillik g‘oyalariga bo‘lgan muhabbatini tashkil qiladi.

Shu joyda mashg‘ulot rahbari jasurlik namunasini uzoq tariximiz qahramonlaridan tashqari mustaqil Vatanimiz uchun jonlarini fido qilgan yaqin tariximizning zamonaviy qahramonlari timsolida ham keltiradi.

Sergak jangchi bo‘lish – bu avvalo doimiy jangovar shaylikda bo‘lish: qurolini va jangovar texnikani doimo shay holatda tutish, o‘zini vatan himoyasida turganligini doimo yodda tutish demakdir.

Sergaklik har joyda kerak: jangovar navbatchilikda, taktik mashg‘ulotlarda, vaxtada qorovulda va kundalik xizmatda. Xizmatda sergak bo‘lish – demak bu dushman ayg‘oqchisiga oramizga xoh havo orqali, xoh yer orqali, xoh suv orqali kirib olishga, agressor va terror-chilarga Vatanimizga qo‘qqisdan zarba berishga imkon bermaslikdir.

*3-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Harbiy qismning jangovar bayrog‘i harbiy qadriyat, qahramonlik va shon-sharaf ramzi.*

Mashg‘ulot rahbari dastlab jangovar bayrog‘ning tasviri tushirilgan katta hajmdagi rangli plakat yoki slayddan jangovar bayrog‘ni o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinadigan joyga qo‘yiladi. Bulardan tashqari harbiy qismning jangovar bayrog‘ining ramzlarining ahamyatini tushuntirishda jangovar bayrog‘ning tantanali tadbirdargi turgan faxrli joyini ko‘rsatadigan rasmiplakatlarni ham o‘quvchilarga ko‘rsatish tavsiya etiladi.

Harbiy qismning Jangovar Bayrog‘i sharaf, matonat va shon -shuhrat ramzidir.

Jangovar Bayroq harbiy qismga u tuzilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Mudofaa vazirligi vakillari tomonidan topshiriladi.

Jangovar bayroq qismning nomi va raqami o‘zgarishidan qat’i nazar doimo harbiy qismning ixtiyorida saqlanadi.

Qismning butun shaxsiy tarkibi jangda Jangovar Bayroqni jon-jahdi va matonat bilan himoya qilishga va uning dushman tomonidan egallab olinishiga yo‘l qo‘yilmaslikka majburdir.

Jangovar Bayroq yo‘qotilganda harbiy qism komandiri va boshqa aybdor shaxslar harbiy sud oldida javob beradilar, harbiy qism tarqatib yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i Jangovar Bayroqning asosi hisoblanadi. Uning uzunligi 145 sm, eni 92 sm.

Ana shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar bilan mashg‘ulot mazmuni yuzasidan qisqacha umumiy savol-javob o‘tkazib izoh talab joylarni tushuntirib o‘tadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishslash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

#### **4-mavzu: Harbiy xizmatchilar va ular orasidagi munosabatlar.**

##### **Harbiy intizom**

**I-mashg‘ulot.** Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatları. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarning huquqlari va majburiyatları.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatları bilan tanishtirish, ularga boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar to‘g‘risida tushuncha berish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarning huquqlari va majburiyatları bilan tanishtirish. Ularda nizom talablariga bo‘ysunish bo‘yicha ko‘nikmalarini hosil qilish.

**O‘quv savollari:** *I-o‘quv savoli.* Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatları.

**2-o‘quv savoli.** Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarning huquqlari va majburiyatları.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi 1-qism, 2005-y. O‘R QK Umumharbiy nizomlari.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

#### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

##### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechi-rib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

#### *1-o ‘quv savoli. Harbiy xizmatchilarining umumiy majburiyatları.*

Mashg‘ulot rahbariga dastlab harbiy nizomlar haqida, O‘zbekiston qurolli kuchlar tarkibining hayotini va faoliyatini harbiy nizomlar bilan belgilab berilishi haqida to‘xtalib, bunda harbiycha tartib, harbiy xizmatchilarining urush va tinch davrlaridagi huquq va majburiyatları, shuningdek, harakat usullari aniq qilib ko‘rsatib berilgani haqida tushunchalar beradi. Keyin Ichki xizmat nizomining 5-moddasini baland ovoz bilan o‘qib eshittiradi. O‘zbekiston Respublikasini qurolli tajovuzdan himoya qilish har bir O‘zbekiston fuqarosining konstitutsiyaviy burchi sanaladi. Mashg‘ulot rahbari o‘qib eshittir-ganlarini lozim deb topilgan joylariga izohlar berib o‘tadi, undan keyin nizomning 13 va 14, 15-moddalarini o‘qib tushuntiradi.

Harbiy xizmatchilarining umumiy majburiyatlarini aytib o‘tilayot-ganda, ta’lim muassasasidagi o‘quvchilar majburiyatlaridan kichik misollar bilan boshlab keyin, harbiy xizmatchilarining namunali xizmatlaridan misollar keltiriladi, bunda badiiy va memuar adabiyotlardan, davriy matbuot materiallaridan foydalanilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Mashg‘ulot rahbari bulardan tashqari o‘quvchilarga xizmat majburiyatlarini namunali bajarayotgan askarlarimizning hayoti va faoliyati to‘g‘risida hikoya qiladigan kinofilmlar va adabiyotlardan ham samarali foydalanishi lozim.

#### *2-o ‘quv savoli. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, to‘g‘ridan-to ‘g‘ri va bevosita boshliqlarning huquqlari va majburiyatları.*

Mashg‘ulot rahbari ikkinchi o‘quv savoli bo‘yicha dastlab o‘quvchilarga rasmiplakatlar yoki slaydlar kuzatuvida quyidagilarni ma’lum qiladi: O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibidagi har bir harbiy xizmatchiga harbiy unvon beriladi. Barcha harbiy xizmatchilar harbiy unvonlariga qarab oddiy askarlar, serjantlar tarkibi, kichik ofitserlar tarkibi, katta ofitserlar tarkibi va oliv ofitserlar tarkibiga bo‘linadi.

Harbiy xizmatchilarga beriladigan harbiy unvonlar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomida va O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va umumiy

harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunida ko‘rsatib berilgan.

Har bir harbiy xizmatni harbiy unvoniga mos ravishda farqlovchi belgilar taqib yuradi: farqlovchi belgilarga pogonlar, ko‘krakdag‘i va yengdagi belgilar; kantlar va lampaslar kiradi. Undan keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarning diqqatini O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibidagi harbiy xizmatchilarning maqomiga va harbiy unvoniga ko‘ra ayrim harbiy xizmatchilar boshqalarga nisbatan boshliq yoxud bo‘ysunuvchi bo‘lishi mumkin ekanligini ta’kidlaydi.

Boshliq bo‘ysunuvchiga buyruqlar berish va ularning ijrosini talab qilish huquqiga ega.

Bo‘ysunuvchi boshliqning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga majburdir. Agar bo‘ysunuvchi o‘ziga nisbatan boshliqni noto‘g‘ri munosabatda bo‘lgan deb hisoblasa ham, boshliq bergen buyruqni bajarib, undan keyin shikoyat qilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar xizmat yuzasidan, hatto vaqtincha bo‘lsa ham, bo‘ysundirilgan boshliqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlar hisoblanadi. Bo‘ysunuvchiga eng yaqin to‘g‘ridan to‘g‘ri boshliq bevosita boshliq deyiladi.

O‘z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko‘ra harbiy xizmatchilarga nisbatan ularning boshlig‘i yoxud bo‘ysunuvchisi bo‘lmagan harbiy xizmatchilar katta yoxud kichik bo‘lishi mumkin.

Kattalik yoki kichiklik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Mashg‘ulot rahbari ko‘rsatish va tushuntirishlarda o‘quv savolini har bir aytilgan mazmunini harbiy xizmatchilar hayotidagi lavhalardan misollar keltirib tushuntiradi. O‘quv savollari yuzasidan yuzaga kelgan savollarga mashg‘ulot rahbari javob beradi.

## Yakuniy qism. 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.
- Mashg‘ulotga yakun yasash.

**2-mashg‘ulot.** Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibi. Harbiy xizmatchilar orasidagi nizom munosablarini buzganlik

uchun javobgarlik. Komandirlar va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlarning umumiy majburiyatları.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari o‘rgatish, buyruq berish va uni bajarish tartibini tushuntirish. Harbiy xizmatchilar orasidagi nizom munosabalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari bilan va komandirlar va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlarning umumiy majburiyatları bilan tanishtirish. Ularda buyruqlarni ongli ravishda bajarishga odatlantirish.

**O‘quv savollari:** 1-*o‘quv savoli*: Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibi.

2-*o‘quv savoli*. Harbiy xizmatchilar orasidagi nizom munosabalarini buzganlik uchun javobgarlik. Komandirlar va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlarning umumiy majburiyatları.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi. 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘R QK Umum harbiy nizomlari.

**O‘MT:** Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismidagi tadbirlar:

- guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish;
- guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish;
- nivval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish;
- yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 18 daqiqa. Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibi.*

**Mashg'ulot rahbari** harbiy xizmatchilar uchun harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari, buyruq berish va uni bajarish tartiblari O'R QKning ichki xizmat va saf nizomlarida belgilab berilganligini aytib ularning mazmunini tushuntiradi. **Mashg'ulot rahbari** tushuntirishda o'rganilayotgan o'quv savolining mazmunini ifodalovchi rasmi plakatlardan foydalanadi.

Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarining birodarlarcha jipsligining ifodasi, o'zaro hurmat va mushtarak madaniyatni namoyon bo'lishining belgisidir. Barcha harbiy xizmatchilar bir-biriga duch kelganda (yetib, o'tib ketganda) Saf nizomi qoidalariiga qat'iy rioya qilgan holda bir-biriga salom berishga majburdirlar.

Harbiy unvoniga ko'ra buysunuvchilar va kichiklar birinchi bo'lib salom beradi.

Harbiy xizmatchilar bundan tashqari:

- noma'lum askar qabriga;
- Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun haloq bo'lgan jangchilarining birodarlik qabristoniga;
- harbiy qismning Jangovar Bayrog'iga;
- harbiy bo'linmalar kuzatib borayotgan dafn marosimiga harbiycha salom beradilar.

Agar boshliq safdagisi xizmatchilarga «Salom o'rtoqlar» deb salom bersa, safdagilar «Assalom» deb alik oladilar.

Agar boshliq harbiy xizmatchiga minnatdorchilik bildirsa, «O'zbekiston Respublikasiga xizmat qilaman», deb javob beradi.

Agar boshliq harbiy qism, bo'linmani tabriklasa, ular uch karra «Ura» deb javob beradilar, agar minnatdorchilik bildirsa, «O'zbekiston Respublikasiga xizmat qilamiz», deb javob beradilar.

Harbiy xizmatchilar har doim yuksak madaniyat va kamtarlik namunasi bo'lib xizmat qilishi, askar or nomusini muqaddas saqlashi zarur.

Harbiy xizmatchilar xizmat masalalari yuzasidan bir-birlariga «Siz»lab murojaat etishlari lozim.

Boshliqlar bo'ysunuvchilarga murojaat etayotganda harbiy unvoni va familiyasi bo'yicha ataydi (Masalan: «Oddiy askar Hasanov») yoki «o'rtoq» so'zini qo'shib faqat harbiy unvoni bo'yicha ataydi (Masalan: «O'rtoq serjant»).

Xizmatdan tashqari vaqtida va safdan tashqari vaqtida harbiy xizmatchilar bir-birlariga nafaqat harbiy unvonlari bo'yicha, balki ism-shariflariga ko'ra, umum qabul qilingan hurmatlash tarzda murojaat qilishlari mumkin.

Buyruq berayotganda yoki olayotganda harbiy xizmatchilar qaddini rost tutib turadilar, agar bosh kiyimi bo'lsa, uning pastki qismiga qo'lni tegar-tegmas qadaydilar va tushiradilar.

Harbiy xizmatchilarga kiyim-kechak cho'ntaklariga qo'lini tiqib yurishi, boshliqning ishtiroqida uning ruxsatisiz o'tirish yoki chekish taqiqlanadi.

Buyruq – komandirning (boshliqning) bo'ysunuvchilarga qaratilgan va ma'lum amallarning majburan bajarilishini, u yoki bu qoidalarga amal qilinishini talab etadigan yoxud u yoki bu tartib qoidalarni belgilaydigan ko'rsatmasidir.

Buyruq bir yoki bir guruh xizmatchilarga yozma, og'zaki yoxud aloqaning texnik vositalari orqali berilishi mumkin.

Buyurish – shtab boshlig'inining harbiy qism komandiri nomidan chiqaruvchi idora qilish xizmat hujjati hisoblanadi.

Buyruq (buyurish) qonunlar va harbiy nizomlarning talablariga muvofiq kelishi lozim.

Buyruqlar bo'ysunganlik yo'sinida beriladi. O'ta zarur bo'lgan holda yuqori turuvchi komandir bo'ysunuvchiga uning bevosita boshlig'ini chetlab o'tgan holda buyruq berishi mumkin.

Komandirning buyrug'i so'zsiz, aniq va o'z vaqtida bajarilishi shart. Buyruq olgan harbiy xizmatchi «Ho'p bo'ladi» deb javob beradi va shundan keyin uni bajaradi.

*2-o'quv savoli – 12 daqiqa. Harbiy xizmatchilar orasidagi nizom munosabalarini buzganlik uchun javobgarlik. Komandirlar va boshqa to'g'ridan-to'g'ri boshliqlarning umumiylajburiyatları.*

Ikkinci o'quv savol bo'yicha o'quvchilarga har bir harbiy xizmatchi harbiy qasamyod talablarini, harbiy nizomlar talablarini bujarmaganligi, intizomni va jamoat tartibini buzganligi uchun shaxsan javobgar bo'lishini, harbiy xizmatchining sodir etgan bunday ishi uchun jinoiy javobgarlikka, moddiy javobgarlikka tortilishi yoki unga intizomli ta'sir choralar qo'llanishini aytadi va misollar yordamida tushuntirildi. Undan keyin mashg'ulot rahbari komandirlar va boshqa to'g'risida O'RQKning ichki xizmat talablarini o'qib eshittiradi va tushunchalar beradi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismidagi tadbirlar:

- mavzu va uning maqsadini eslatish;
- o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob;
- o‘tilgan mashg‘ulotning tahlili;
- o‘quvchilar faoliyatini baholash;
- mustaqil ishslash uchun vazifa berish;
- mashg‘ulotga yakun yasash.

**3-mashg‘ulot.** Harbiy intizom, uning mohiyati va qurolli kuchlar uchun ahamiyati. Askarga nisbatan qo‘llaniladigan rag‘batlantirishlar va intizomiylar choralar. Harbiy jinoyatlarning turlari va ular uchun javobgarlik. Muddatli harbiy xizmatchilar va bir oy muddatli harbiy yig‘inlarga chaqirilgan safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga harbiy intizom mohiyatini va qurolli kuchlar uchun ahamiyatini tushuntirish. O‘quvchilarni askarga nisbatan qo‘llaniladigan rag‘batlantirishlar va intizomiylar choralar, harbiy jinoyatlarning turlari va ular uchun javobgarlik, shuningdek, muddatli harbiy xizmatchilar va bir oy muddatli harbiy yig‘inlarga chaqirilgan safarbarlik chaqiruvi razervidagi harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish. O‘quvchilarda O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga hurmat e’tibor bilan qarashlarini shakllantirish.

**O‘quv savollari:** 1-*o‘quv savoli.* Harbiy intizom, uning mohiyati va qurolli kuchlar uchun ahamiyati. Askarga nisbatan qo‘llaniladigan rag‘batlantirishlar va intizomiylar choralar.

2-*o‘quv savoli.* Harbiy jinoyatlarning turlari va ular uchun javobgarlik. Muddatli harbiy xizmatchilar va bir oy muddatli harbiy yig‘inlarga chaqirilgan safarbarlik chaqiruvi razervidagi harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi.

**Shakl:** Nazariy.

**Uslub:** Tushuntirish, suhbat hikoya.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi. 2007 y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi. 2005 y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism. 2005 y. O‘R QK Umumharbiy nizomlari.

## Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar

### Kirish qismi. 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

### Asosiy qism. 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 15 daqiqa. Harbiy intizom, uning mohiyati va qurolli kuchlar uchun ahamiyati. Askarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirishlar va intizomiylar choralar.*

Mashg'ulot rahbariga ushbu o'quv savollarini bayon etishda kattaroq harflar bilan yozilgan harbiy intizom, uning mohiyati va qurolli kuchlar uchun ahamiyati va askarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirishlar va intizomiylar choralarining mazmuni yozilgan plakatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bularidan tashqari har ikki o'quvchiga bittadan intizomiy nizom tarqatib o'quvchilarga moddalarni o'zları o'qib va yozib olishlari uchun imkon yaratiladi. Mashg'ulot rahbari o'quv savollarini yoritishda har bir mazmunni imkon qadar harbiy xizmatchilarning hayoti bilan bog'lab tushuntiradi.

Harbiy intizom – bu barcha harbiy xizmatchilarning qonun, harbiy nizomlar tomonidan, komandir (boshliq)lar buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy va aniq rioya etilishidir.

Mustahkam harbiy intizom qurolli kuchlarimizni uzlusiz takomillashtirishini jangovar qobiliyati va jangovar shayligini yuqori darajada ushlab turishni asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Intizom janchilarga katta kuch beradi, qo'shinlar shaxsiy tarkibini yagona, mustahkam organizmga aylantiradi. Intizom qo'shinlarni kelishilgan harakatini ta'minlab beradi, minglab va millionlab odamlarni birlashtiradi, ularni belgilangan maqsad sari yetaklaydi. Ana shu joyda

mashg'ulot rahbari ta'lif muassasasidagi eng intizomli guruhning erishgan ijobiy natijalari haqida bir oz to'xtalishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarda yuksak intizomni tarbiyalashning asosiy usuli iqror qilishdir. Ammo iqror qilish o'z harbiy burchiga sidqidildan yondoshmaganlarga nisbatan majburiy choralar ko'rishni istisno etmaydi. Yuksak harbiy intizomga:

– harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarni tarbiyalash;

– harbiy qismda ichki tartibga bo'ysunish, kundalik rejimga qat'iy rioya qilish;

– jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish;

– komandirlarning o'z qo'l ostidagilariga kundalik talabchanligi;

– harbiy qismda zarur moddiy-maishiy sharoitlarni yaratish orqali erishiladi.

Harbiy intizomni buzgan biron kimsa ham javobgarlikdan bo'yin tovlamasligi va biror kimsa begunoh nohaq jazoga tortilmasligi kerak.

Komandirga ochiqchasiga bo'yin egmaslik yoki qarshilik ko'rsatish hollari yuz berganda tartib va intizomni tiklash uchun u aybdorni qonun va harbiy nizom doirasida barcha majburlash choralarini qo'llash, hatto qamoqqa olish va uni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin.

Rag'batlantirish harbiy xizmatchilarni tarbiyalashning va harbiy intizomni mustahkamlashning muhim vositasidir.

Mashg'ulot rahbari ikkinchi o'quv savolini boshlanishida o'quvchilarni o'z oilalaridan yoki boshqa yaqin kishilaridan bo'lgan va harbiy xizmatni o'tayotgan vaqtlarida olgan rag'batlantirishlari haqida gapirib berishlarini aytib suhbatga chorlaydi. Undan keyin Oddiy askar va matroslarga qo'llaniladigan rag'batlantirishlar va intizomiy ta'zir choralarini to'g'risida aytib tushuntirishni boshlaydi.

*Oddiy askar va matroslarga quyidagi rag'batlantirishlar qo'llaniladi:*

– oldin berilgan intizomiy ta'zir choralarini bekor qilish;

– minnatdorchilik e'lon qilish;

– harbiy xizmatchining yurtiga uning harbiy xizmatni namunali bajarayotgani to'g'risida va rag'batlantirish olganligi to'g'risida xabar berish;

– faxriy yorliq, qimmatbaho sovg'a yoki pul bilan mukofotlash;

– harbiy xizmatchini harbiy qism Jangovar Bayrog'i yonida suratga olish bilan taqdirlash;

- a'luchi ko'krak nishoni bilan taqdirlash;
- askarning ismi, familiyasini harbiy qismning Faxriy Kitobiga kiritish;
- askarlarga yo'lga ketgan vaqtidan tashqari 10 kunga ta'til berish.

Harbiy xizmatchi harbiy intizomni yoki jamoat tartibini buzganda komandir uning mas'uliyati va harbiy burchi to'g'risida ogohlantiradi, zarurat taqozo qilganda esa intizomiy ta'sir ko'rsatilishi mumkin.

Intizomiy ta'sir choralari iqror etish usuli askarni tarbiyalashda foyda bermay, askar intizomni buzishda davom etaverganda qo'llaniladi.

*Askarlarga quyidagi intizomiy ta'zir choralari qo'llaniladi:*

- xayfsan;
- qattiq xayfsan;
- askarni navbatdagi harbiy qismdan tashqariga chiqishga ruxsat olishdan mahrum qilish;
- beshta naryadgacha navbatdan tashqari naryadga qo'yish;
- o'n sutkagacha gauptvaxtaga bandi qilish;
- alochining ko'krak nishonidan mahrum qilish.

Askarni intizomni buzishda jinoyat tarkibi bo'lmasa yuqoridagi choralar qo'llaniladi, agar bo'lsa qism komandiri harbiy prokurorni xabardor qiladi, jinoiy ish qo'zg'ab, tergov boshlaydi.

*2-o'quv savoli – 15 daqiqa. Harbiy jinoyatlarning turlari va ular uchun javobgarlik. Muddatli harbiy xizmatchilar va bir oy muddatli harbiy yig'inlarga chaqirilgan safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi.*

Mashg'ulot rahbari ikkinchi o'quv savolini o'tkazishda xuddi birinchi o'quv savolini o'tkazishda qo'llangan uslubni qo'llaydi. O'quv savolini mazmunini bayon etishni boshlanishida mashg'ulot rahbari harbiy intizomni buzgan yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchiga intizomiy ta'zir choralari qo'llanjilishini, agar harbiy xizmatchining harbiy intizomni buzishda jinoyat tarkibi mavjud bo'lsa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilishinj fa'kidlab tushuntirishda davom etadi.

Harbiy xizmatchi Vatanga xiyonat qilgani, harbiy sirni yoygani yoki harbiy sir hisoblangan hujjatni yo'qotgani, harbiy xizmatni bajarish tartiblariغا qarshi amalga oshirilgan jinoyatlari (boshliqqa bo'ysun-maslik, buyruqni bajarmaslik, harbiy qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketganligi, dizertirlik, qorovul xizmati qoidalarini buzganligi va boshqa jinoyatlar) uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

*287-modda.* O'zboshimchalik bilan ketish.

A) Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchi xizmat joyidan bir sutkadan oshiq, lekin o'n sutqadan kam vaqt mobaynida xizmat joyida bo'lmasa uch oydan bir yilgacha muddatga intizom batalyoniga yuborish bilan jazolanadi.

B) Shu harakat urush vaqtida qilinsa – besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi.

*288-modda.* Dizertirlik.

Dizertirlik ya'ni o'z xizmat joyini xizmatdan bo'yin tov lash maqsadida tashlab ketish – besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilishlik bilan jazolanadi.

*270-modda.* A'zolariga ziyon yetkazish bilan harbiy xizmatdan bo'yin tov lash.

A'zolariga ziyon yetkazish, ya'ni harbiy xizmat burchidan o'ziga biron bir zarar yetkazish orqali yoki o'zini kasalga solish, soxta hujjat to'g'rilash yoki boshqa aldov yo'li bilan bo'yin tov lash, bir yil muddatga intizom batalyoniga yuborish yoki 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

*Moddiy javobgarlik deganda* aybdor shaxsning davlatga yetkazilgan moddiy zararni qisman yoki to'la pul qo'rinishida qoplashi (to'lashi) borasidagi qonun tomonidan o'rnatilgan majburiyati qo'yiladi.

Moddiy javobgarlikning maqsadi bo'lgan yetkazilgan zararni qoplashi bir vaqtda aybdorni ma'muriy, intizomi yoki jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod qilmaydi.

Moddiy zararni qoplash miqdori va tartibi aybning qo'rinishi, aybdor shaxsning xizmat toifasi, yo'qotilgan yoki ziyon yetkazilgan buyumning xarakteri va qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Qoplash (to'lash) to'g'risidagi buyruq bo'yicha ushlanma oylik mao-shining 20% miqdorida, o'g'irlik yoki yaroqsiz holatga keltirgani uchun zararni qoplash esa oylik mao-shining 50% miqdorida bo'ladi.

Agar harbiy xizmatchi xizmat oxirigacha yetkazgan zararini qoplab ulgurmasa, qolgan qismini yashash joyida sud ijrochisi orqali undirib olinadi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilar tomonidan o'quv savollari yuzasidan tug'iladigan savollarni taxminan bilishi va ularga javob berish uchun tayyor turishi, buning uchun yetarlicha vaqt ajratishi lozim.

**Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.

### **5-mavzu. Vzvod bo‘yicha kunlik naryad.**

**1-mashg‘ulot.** Vzvod bo‘yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi. Vzvod bo‘yicha posboning majburiyatlari. Navbatchilikdagi posbon o‘z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga vzvod bo‘yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishini va vzvod bo‘yicha posboning majburiyatlarini o‘rgatish. O‘quvchilarni navbatchilikdagi posbon o‘z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda xizmat burchini bajarishdagi mas’uliyatini oshirish.

**O‘quv savollari:** *1-o‘quv savoli.* Vzvod bo‘yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi.

**2-o‘quv savoli.** Vzvod bo‘yicha posboning majburiyatlari. Navbatchilikdagi posbon o‘z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. Posbonning majburiyatlarini amaliy tarzda o‘rganish uchun joy.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi. 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. Ichki xizmat nizomi.

**O‘MT:** Nayza-pichoq 2 dona, yozuvli bog‘lagich yoki beydjik.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechi-

rib yo‘qlama o‘tkazish.

- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 12 daqiqa. Vzvod bo‘yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi.*

Mashg‘ulot rahbari hozirgi sharoitda sergaklik, mustahkam intizom va yuksak uyushqoqlik har doimgidan ham muhimroq ekanligi to‘g‘risida gapiradi va buni bir oz izohlaydi. Keyin mashg‘ulot rahbari Ichki xizmatni bajarish bo‘linmaning qurol-yarog‘larini va mulklarini (buyumlarini) qo‘riqlash bo‘yicha muhim va murakkab vazifa hisoblanishini va shaxsiy tarkibdan Ichki xizmat nizomining barcha holat va talablariga aniq amal qilish va bajarishni talab qilishini uqtiradi. Ichki xizmat nizomining 266-moddasiga binoan sutkalik naryadning vazifalari nimalardan iborat ekanligi, ularni qurollanishi va tarkibini tushuntiradi.

Vzvodning sutkalik naryadi ichki tartibni saqlash, qurollarni va vzvod mulklarini qo‘riqlash uchun tayinlanadi.

Uning tarkibiga vzvod bo‘yicha navbatchi va ikkita vzvod bo‘yicha posbonlar kiradi. Ularning barchasi nayza-pichoq bilan qurollanadi.

Mashg‘ulot rahbari ikkinchi o‘quv savolini e’lon qiladi.

*2-o‘quv savoli – 18 daqiqa. Vzvod bo‘yicha posboning majburiyatları. Navbatchilikdagi posbon o‘z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi.*

Ikkinci o‘quv savolini tushuntirishda mashg‘ulot rahbari Ichki xizmat nizomining 308-moddasini o‘quvchilarga o‘qib eshittiradi va tushuntirib beradi.

Vzvod bo‘yicha posbon askarlardan tayinlanadi, uning qaramog‘ida bo‘lgan qurol-yarog‘lar, o‘q-dori qutilar, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy buyumlarini saqlanishi uchun javob beradi. Vzvod bo‘yicha posbon vzvod bo‘yicha navbatchiga bo‘ysunadi.

Vzvod bo‘yicha navbatdagagi posbon kazarma xonasi ichkarisida kirish eshigi oldida, qurol saqlash uchun xona yaqinida xizmatni o‘taydi.

U quyidagilarga majburdir:

- vzvod navbatchisining ruxsatisiz hech qayoqqa ketmaslikka, qurol saqlash xonasini doimiy kuzatib turishga;
- begona kishilarni xonaga o‘tkazmaslikka;

- vzvoddagi barcha ko‘ngilsiz hodisalar, askarlar yoki serjantlar o‘rtasida nizom qoidalari buzilishlari to‘g‘risida vzvod bo‘yicha navbatchiga zudlik bilan bildirishga;
- shaxsiy tarkibni umumiyl uyg‘otish paytida, «trevoga» paytida yoki yong‘in bo‘lganda tunda uyg‘otishga;
- kun tartibiga muvofiq komandalarni o‘z vaqtida berishga;
- xonalarda ozodalik va tartibni nazorat qilishlikka;
- sovuq paytida harbiy xizmatchilarni xonadan kiyinmasdan chiqishlariga yo‘l qo‘ymaslikka;
- harbiy xizmatchilar faqat ajratilgan paytlarda joylariga, poyabzal va kiyimlarni tozalashlariga ko‘z qulq bo‘lib turishga;
- vzvod komandiri va unda yuqori boshliqlar kelganda «ROSTLAN» komandasini berishga, vzvodning boshqa ofitserlari va boshqa harbiy xizmatchilari kelganda «VZVOD BO‘YICHA NAVBATCHI ESHIKKA» komandasini berishga.

Navbatdagi posbonga o‘tirish, anjom aslahasini yechish va kiyim tugmasini yechish man etiladi. Ozod smena posboni vzvod xonalarida ozodalik va tartibni saqlashga majburdir. U vzvod bo‘yicha navbatchining o‘rnida qolganda uning majburiyatlarini bajarishga majburdir.

Mashg‘ulot rahbari navbatdagi posbon o‘z xizmat vazifalarini bajara-digan joy(post) dagi jihozlardan, vzvod bo‘yicha navbatchining hujjatlari bayon qilingan stendni, yog‘och tumbochka va telefonni, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini, o‘t o‘chirish vositalarini ko‘rsatib tushuntiradi. Ana shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarda o‘rganilgan o‘quv materiallari yuzasidan tug‘ilgan savollarga javob beradi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning yakuniy qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Mavzu va uning maqsadini eslatish.
- O‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob.
- O‘tilgan mashg‘ulotning tahlili.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash.
- Mustaqil ishlash uchun vazifa berish.

**2-mashg‘ulot.** Trevoga e’lon qilinganda, yong‘in chiqqanda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning xatti-harakatlari.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga trevoga e’lon qilinganda, yong‘in chiqqanda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning xatti-harakatlarini o‘rgatish. Ularda xizmat burchini bajarishlarida xushyorlikni oshirish.

**O‘quv savoli:** Trevoga e’lon qilinganda, yong‘in chiqqanda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning xatti-harakatlari.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** YOCHQBT xonasi. Posbonni majburiyatlarini amaliy tarzda o‘rganish uchun joy.

**Foydalanimanligi adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. Ichki xizmat nizomi.

**O‘MT:** Nayza-pichoq 2 dona, yozuvli bog‘lagich yoki beydjik. Hujjatlar doskasi.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot boshlanishidan oldinroq vzvod bo‘yicha posbonning harakatlarini o‘rganish joyni yana bir karra ko‘zdan kechirilib, hozirlab qo‘yiladi.

Bundan tashqari 3–4 nafar o‘quvchini yordamchi sifatida alohida vaqt ajratilib oldindan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilib qo‘yiladi.

O‘quvchilar bilan vzvod bo‘yicha posbonning harakatlarini amaliy tarzda mashq qilish.

Mashg‘ulot rahbari guruh o‘quvchilarini shunday saflashi yoki joylashi lozimki, vzvod bo‘yicha posbonining vazifalarini bajarayotgan o‘quvchining barcha harakatlari to‘la ko‘rinsin.

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarning har biri posbonning roliga qatnashishini ma’lum qilib, ulardan birini navbatdagi posbon roliga qo‘yadi.

Agar navbatdagi posbon rolidagi o‘quvchi harakat chog‘ida xatoga yo‘l qo‘ysa, keyingi o‘quvchi chaqiriladi, shu yo‘l bilan o‘quvchilarning faolligi oshiriladi, ularning o‘rnini almashinadi.

Navbatdagi posbon rolidagi o‘quvchiga beriladigan buyruqlar va buyruq bo‘yicha bajaradigan harakatining mazmuni:

1. Vzvodga vzvod komandiri kirdi va posbonni chaqirdi. Harakat: «Guruh bo‘yicha navbatchi eshikka» komandasasi beriladi.

2. Vzvodga vzvod komandiri kirdi. Harakat: «Rostlan» komandasasi beriladi.

3. Kechasi uplash joyidan yupun holatda askar chiqib keldi va tashqariga qarab yo‘l oldi. Harakat: «O‘rtoq Azizov, to‘xtang, ustki kiyim-boshingizni kiyganingizdan keyin tashqariga chiqishingiz mumkin».

4. Askar uplash joyidan odehyalni olib chiqib tashqariga yo‘l oldi. Haraqat: «O‘rtoq Halilov, to‘xtang». Keyin «Vzvod bo‘yicha navbatchi eshikka» komandasini beradi. Navbatchi kelgach voqeа haqida bildirgi beradi.

5. Soat ertalab 6.00. Kun tartibiga binoan shaxsiy tarkibni uyg‘otish. Harakat: «Vzvod uyg‘on» komandasini beradi.

6. Tungi 2.00 . Vzvod uyquda, Yuvinish xonasida elektr simidan o‘t chiqib yona boshladi. Harakat: «Vzvod bo‘yicha navbatchi eshikka» komandasasi beriladi. Elektr jovonidagi ajratuvchi rubilnik ajratiladi. O‘t o‘chirish vositasi olinib o‘t o‘chiriladi.

7. Shaxsiy tarkib uyquda. «Jangovar trevoga» e’lon qilindi. Harakat: «Vzvod uyg‘on, Jangovar trevoga».

8. Vzvodga boshqa vzvodning komandiri kirdi. Haraqat: «Vzvod bo‘yicha navbatchi, eshikka» komandasasi beriladi.

9. Siz-bo‘sh smena posbonisiz. Vzvod dala o‘quv mashg‘ulotlariga ketdi. Sizning harakatingiz – vzvod bo‘yicha navbatchidan ko‘rsatma olasiz va xonalarni yig‘ishtirishga kirishasiz.

10. Vzvod bo'yicha posbonning xizmat joyida telefon qo'ng'irog'i chalinadi, qo'ng'iroqqa posbon «Vzvod bo'yicha posbon Nazarov», deb javob beradi. Ko'rsatma olgach «Ho'p bo'ladi» deb javob beradi va vaziyatdan kelib chiqib harakat qiladi.

Har bir buyruq yoki ko'rsatma berilgach o'quvchilardan dastlab amaliy harakatlar talab qilinadi, lekin orada nazariy javoblarni ham inobatga olinadi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarning faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradi, ular tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatib boradi. Yuqoridagi faoliyatlar mashq qilinib bo'lingandan keyin boshqa xatti-harakatlarni o'rgatishga o'tiladi.

Ana shundan keyin mashg'ulot rahbari o'quvchilarda o'r ganilgan o'quv materiallari yuzasidan tug'ilgan savollarga javob beradi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko'ra va ularning amaliy faoliyatiga baho qo'yiladi. Mashg'ulot o'tkazish uchun olib kelingan buyumlar va barcha o'quv vositalari ko'zdan kechiriladi va tartibga solinadi. Mashg'ulotning qisqacha tahlili o'tkazilib yakun yasaladi.

#### **6-mavzu. Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari.**

**1-mashg'ulot.** Saf va uning elementlari. Askarning saf oldi va safdag'i majburiyatları. Dastlabki va darrov bajariladigan buyruqlar, «Saflan», «Tekislan», «Rostlan», «Erkin», «To'g'rilan», «Qaytarilsin» komandalarini bajarish. Safda salomga javob berish.

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni saf va uning elementlari, askarning saf oldi va safdag'i majburiyatları bilan tanishtirish. Dastlabki va darrov bajariladigan komandalarini berish va bajarish tartibini, «Saflan», «Tekislan», «Rostlan», «Erkin», «To'g'rilan», «Qaytarilsin» komandalarini bajarishni, safda salomga javob berishni o'rgatish.

**O'quv savollari:** 1-o'quv savoli. Saf va uning elementlari.

2-o'quv savoli. Askarning saf oldi va safdag'i majburiyatları.

3-o'quv savoli. Dastlabki va darrov bajariladigan komandalarini berish va bajarish tartibi.

4-o'quv savoli. «Saflan», «Tekislan», «Rostlan», «Erkin», «To'g'rilan», «Qaytarilsin» komandalarini bajarish. Safda salomga javob berish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalaniłgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y. O'R QK saf nizomi.

**O'MT:** Jihozlangan saf maydoni.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

*1-o'quv savoli – 8 daqiqa. Saf va uning elementlari.*

Mashg'ulot rahbari bиринчи o'quv savolini o'rgatishda guruh tarkibidagi bitta sekсиyani safdan chiqaradi ularni guruh ro'parasiga saflantirib saf, sherenga, qanot, old, orqa, interval, distantsiya, safning eni va bo'yi nima ekanligini tushuntiradi. Shundan so'ng bir sherengali safni ko'rsatadi va uning elementlarini tushuntiradi. Keyin guruhni ikki sherengali safga saflaydi va safning elementlarini ko'rsatadi.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga bir sherengali va ikki sherengali saflar yig'ilgan va yoyiq sherengali bo'lishini bilishlari shart ekanligini aytib tushuntirishda davom etadi. Yig'ilgan sherengali safda turgan harbiy xizmatchilarining tirsagi orasidagi masofa bir kaft sig'adigan darajada bo'ladi. Yoyiq sherengali safda harbiy xizmatchilar orasidagi masofa bir qadam yoki komandir ko'rsatmasi bo'yicha bo'ladi. Mashg'ulot rahbari bir necha o'quvchini yig'ilgan sherengali safga qo'yib, uning elementlarini, so'ngra yoyiq sherengali safga qo'yib uning elementlarini tushuntiradi. Shundan keyin o'quvchilarni bir

kolonnaga, keyin ikki kolonnaga saflab, kolonna bo'linmalarni yurish safiga (poxod safi) saflantirish uchun qo'llanilishini tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari har bir saf elementini tushuntirishda saf nizomida berilgan ta'riflarni buzmasligi shart, saf elementlarini namunali qilib ko'rsatishda guruh safidan ajratib chiqarilgan seksiya tarkibidan foydalanadi.

*2-o'quv savoli – 5 daqiqa* Askarning saf oldi va safdag'i majburiyatları.

Ikkinci o'quv savolini o'tkazishda mashg'ulot rahbariga askarning saf oldi va safdag'i majburiyatlarini baland ovozda tushunarli qilib o'qib berish tavsiya etiladi, shuningdek, ayrim joylariga izohlar beradi:

- quroq-yarog', o'ziga birikitilgan texnika, o'q-dori, shaxsiy himoya vositalari, kiyim kechak, anjomlarni sozligini tekshirish;

- kiyimni to'g'rilash, anjomlarni o'ziga moslashtirish va to'g'ri taqish, o'rtog'iga kamchiliklarni tuzatishda yordam berish;

- safdag'i o'z o'rnini bilish, unga tez va bo'shashmasdan borib turish, harakat vaqtida interval va distantsiyani saqlashlik, ruhsatsiz safdan chiqmaslik;

- safda turgan vaqtida gaplashmaslik va chekmaslik, buyruqlarni diqqat bilan eshitish, ularni boshqalarga halaqit bermay tez va soz bajarish;

- buyruq va komandalarni boshqalarga o'zgartirmay, baland ovozda va aniq yetkazish.

*3-o'quv savoli – 5 daqiqa. Dastlabki va darrov bajariladigan komandalarini berish tartibi.*

Komandalar va ularni berish tartibini o'rganishga kirishishda mashg'ulot rahbari o'quvchilarga komandalar ovoz bilan, signallar, shuningdek, shaxsiy namuna bilan berilishi aytilishi zarur. Ovoz bilan beriladigan komandalar dastlabki va darrov bajariladigan komandalarga bo'linadi.

Dastlabki komandalar aniq, ravshan, baland va cho'zibroq berilishi kerak. Dastlabki komandalar shunday berilishi kerakki, safda turganlar komandirning ularga qo'yadigan keyingi talablarini tushunishlari lozim. Har qanday dastlabki komanda berilganda safdag'i va safdan tashqarida turgan o'quvchilar «qadrostandi» turadi, harakat chog'ida esa, qadamni shaxdam qo'yadi.

Darrov bajariladigan komanda berilganda, komanda darxol va aniq bajarilishi kerak. Biron-bir bo'limmani yoki o'quvchilarni diqqat e'tiborini tortish uchun dastlabki komandani berishda bo'limmaning nomini yoki familiyani aytildi. Masalan: «Guruh- to'xta!», «Ikkinci

seksiya, qadam bos!», «O'rtoq Imomov ortga!». Mashg'ulot rahbari o'quvchilarni dastlabki va darrov bajariladigan komandalarni amalda berilish tartibi bilan tanishtiradi, undan keyin seksiya komandirlariga o'quvchilar bilan 4–5 daqiqa dastlabki va darrov bajariladigan komandalarni mashq qilishga kirishishlariga buyruq beradi. Mashg'ulot rahbari seksiya komandirlarining va o'quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatib turadi va kerakli ko'rsatmalar beradi.

*4-o'quv savoli – 12 daqiqa. «Saflan», «Tekislant», «Rostlan», «Erkin», «To 'g'rilan», «Qaytarilsin» komandalarini bajarish. Safda salomga javob berish.*

Mashg'ulot rahbari yangi mashg'ulotni boshlashdan avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallarni o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun bir nechta savollarni beradi. Saf degani nima? Interval va distantsiya deb nimaga ataladi? Saf elementlarining nomlarini aytib bering.

O'quvchilar bilan qad rostlashni o'rganishda dastlab mashg'ulot rahbari «Saflan» komandasini bajarilishini o'rgatadi. U o'quvchilarni e'tiborini dastlabki holat, ya'ni qad rostlash – barcha saf usullarini to'g'ri va chiroyli bajarish uchun kerak ekanligiga qaratadi. Mashg'ulot rahbari qad rostlashni o'quvchilarga old va yon tomondan namunali qilib ko'rsatadi. Keyin qanday komanda bilan va qanday holatlarda qad rostlanishini tushuntiradi va uni har bir elementini, qismlar bo'yicha qad rostlash tartibini ko'rsatib qisqacha tushuntiradi. Shundan keyin o'quvchilarga «Rostlan» komandasini berib uning bajarilishini tekshiradi va kamchiliklarini ko'rsatib o'tadi, undan keyin esa kadrostplashni qismlar bo'yicha o'rgatishga kirishadi. Buning uchun o'quvchilar yoyiq sherengali safda saf maydonining to'rtburchak chizig'iga poyafzal uchini to'g'irlab turadilar. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga birinchi tayyorgarlik mashqini 2–3-daqiqa bajarishga vaqt berib, mashq bajarilishini kuzatib turadi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etish choralarini ko'radi. Gavdani, qo'l, oyoq, elka va boshni to'g'ri qo'yish uchun tayyorlov mashqini o'tkazish kerak bo'ladi.

Tayyorlov mashqini birinchisi – Gavda va oyoqni to'g'ri qo'yishni to'rt hisobga bo'lib qismlar bo'yicha bajariladi – «Bajar – bir» komandasini bo'yicha, to'g'ri turib, tovonlar juftlanadi; «Bajar – ikki» – oyoq uchlari front chizig'i bo'ylab tovon kengligida yoyiladi, tizzalar bukilmaydi; «Bajar – uch» – gavda bir oz oldinga beriladi va tovonlarni ochmasdan, oyoq uchida ko'tarilib bir vaqtning o'zida

ko'krak ham ko'tariladi, qorin qismi tortiladi, elkalar yoyiladi; «Bajar – to'rt» – gavdani ortga og'ishtirmasdan tavon tushiriladi, tizzalar bukilmaydi.

Tayyorlov mashqini ikkinchisi – qo'l, bosh va yelka holatlarini to'g'ri tutish – bu mashq ham to'rt hisobda qismlarga bo'lib bajariladi – «Bajar – bir» panjalarini yarim musht qilib, kaftni ichkariga qaratib, qo'lni chig'anoq bo'g'inidan bukib, old tomondan kamar belbog'dan bir kaft tepada va gavdadan bir kaft uzoqlikda yerga parallel holda ko'tariladi, bir vaqtda chap qo'l elka bo'g'inidan iloji boricha orqaga qaytarilib bunda tirsaklari bukilmaydi.

«Bajar – ikki» qo'lni yarim musht qilib, bosh barmoqni esa ko'rsatkich barmoqni ustiga tashki yon tomonidan qo'yiladi, qo'yilganda ham shunday qo'yilish kerakki, bosh barmoqning uchi ko'rsatkich barmoqning tashki chegarasidan o'tib ketmasligi kerak.

«Bajar – uch» – panjalarni yarim buklab kaftni ichkariga qaratib qo'llar oyoqlarning yoniga tushiriladi. Qo'llar tushirilganda oyoqlarning yon tomonidan o'rtasida ushlanishi kerak;

«Bajar – to'rt» – boshni to'g'ri qo'yib elkalar yoyiladi, iyakni old tomonga cho'zmasdan yuqoriqoq ko'tariladi, o'zinig oldiga to'g'ri qaraladi, zudlik bilan faoliyat ko'rsatishga shay holatda turiladi.

Tayyorlov mashqini bajarib bo'lgandan keyin mashg'ulot rahbari qadroslashni «Saflan» komandasasi bo'yicha to'liq bajarishni mashq qilishga kirishadi. O'quvchilar «Rostlan» komandasini to'g'ri yoki noto'g'ri bajarganligini tekshirish uchun mashg'ulot rahbari «Oyoq uchida ko'tariling» yoki «Oyoq uchini ko'taring» komandasasi beriladi. Bunda qaysidir o'quvchining oyoq uchi ko'tarilsa qadroslashni noto'g'ri bajargan bo'ladi. Agarda buning aksi bo'lsa, to'g'ri bajarilgan bo'ladi. O'quvchilar qadroslashni to'g'ri bajarishni o'rganib olishganlaridan keyin «Saflan», «Tekislán», «Rostlan», «Erkin», «To'g'rilan», «Qaytarilsin» komandalarini bajarishni va safda salomga javob berishni o'rgatishga kirishadi.

«Erkin» komandasini bajarishni o'rgatishda mashg'ulot rahbari o'quvchilarni «Erkin» komandasini bajarishlarida joydan tarqamasdan, gaplashmasdan, hayolini bo'lmasdan chap yoki o'ng oyoq tizzalarini bo'shatib turishlariga erishmog'i kerak. «To'g'rilan» komandasini bajarishni o'rgatishda mashg'ulot rahbari o'quvchilarga safdag'i joyidan ketmasdan bemalol turib past ovozda so'zlashish va kiyimboshlarini to'g'irlashlari mumkin ekanligini uqtiradi.

«Saflan» komandasini berib mashg‘ulot rahbari guruh safining old tomonidan o‘tib komandani bajarilishini tekshiradi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni «Rostlan» komandasini to‘g‘ri bajarganliklariga iqror bo‘lgandan keyin «Erkin» komandasini beradi bu komandani ham bajarilishini kuzatadi. Yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘irlab mashg‘ulot rahbari bir necha bor mashq qilish uchun komandani qaytaradi, shundan keyin «To‘g‘irlan» komandasini to‘g‘ri va ixcham bajarilishini o‘rgatishga kirishiladi. «Qaytarilsin» komandasida harbiy xizmatchi ushbu komanda berilishidan oldingi holatni egallashi shartligi tushuntiriladi va mashqlarni bajarish jarayonida bu holatga qisqa izoh beriladi.

Boshlikning salomiga alik olishni o‘rgatishda – mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar bilan boshliqning salomiga guruh bo‘lib alik olish mashqini o‘rgatadi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni armiyadagi boshliq va kattalar bilan salomlashishning nizom bo‘yicha qoidalari bilan tanishtiradi. Bu joyda asosiy e’tiborni salomga alik qaytarishdan avval bir to‘xtalib nafas rostlab uni salomlashishda sarflashni chamalab oladilar. O‘quvchilarning bir vaqtida va bir xil salomlashishlariga mashg‘ulot rahbari mashq qilish yo‘li bilan erishadi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar bilan olib borilgan savol-javob natijalariga ko‘ra va ularning amaliy faoliyatiga baho qo‘yiladi. Mustaqil mashq qilishlari va saf elementlarini bilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

#### **2-mashg‘ulot. Qadni rostlash. Joyda turib burilish.**

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilar qadni rostlashni va joyda turib burilishlarni to‘g‘ri bajarishlariga erishish. Buyruqlarni zudlik bilan bajarishga shay holatda turish sifatlarini shakllantirish.

**O‘quv savollari:** *I-o‘quv savoli.* Qadni rostlash.

**2-o‘quv savoli. Joyda turib burilishlar.** «O‘ng- GA», «Chap-GA», «Ort-GA» komandalarini bajarish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalaniman** **adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning

metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi 1- qism, 2005-y. O‘R QK saf nizomi.

**O‘MT:** Jihozlangan saf maydoni.

### **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

#### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

#### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Qadni rostlash.* Ushbu o‘quv savol saf tayyorgarligi bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda o‘rganilgani bois ko‘proq e’tiborni mashq qilishga qaratiladi. Mashq qilish tartibi birinchi mashg‘ulotni olib borishda qo‘llanilgan uslublardan foydalilaniladi.

*2-o‘quv savoli – 20 daqiqa.* Joyda turib burilishlar. «O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ort-GA» komandalarini bajarish.

Joyda turib burilishlarni o‘rgatish uchun mashg‘ulot rahbari dastlab guruhni bir sherengali safga qo‘yib «O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ort-GA» komandalarini bajarilish tartibini ko‘rsatadi. Undan keyin mashg‘ulot rahbari ana shu burilish harakatlarini asta-sekinlik bilan ko‘rsatib, yo‘l-yo‘lakay dastlabki va darrov bajariladigan komandalar bo‘yicha harakatlanish tartibini tushuntirib boradi.

O‘quvchilar «O‘ng – GA» komandasida qismlar bo‘yicha «Bajar – bir» hisobida o‘ng oyoqning tavoni, chap oyoqning uchida gavdaning og‘irligini o‘ng oyoqqa og‘ishtirib buriladilar, shu bilan birga gavdani tik tutib, tizzalar buklanmaydi, burilish vaqtida qo‘llar gavda atrofida harakatlantirilmaydi.

«Bajar – ikki» hisobida chap oyoqni tomonlarga harakatlantirmasdan ildamlik bilan o‘ng oyoqning yoniga qo‘yiladi. Chap oyoqni qo‘yishda front chizig‘i bo‘ylab va tovon kengligida

bo‘lishiga e’tibor berilishi kerak bo‘ladi. Mana shu tartibda «Chap-GA», komandalarini bajarilish tartibi ham olib boriladi.

«O‘ng-GA», «Chap-GA» burilishlarni qismlarga bo‘lib o‘rganilgandan keyin ularni to‘liq bajarishga kirishish mumkin.

Burilishlarni to‘liq bajarishda, faqat oyoq harakatlari bilan chegaralanmasdan, qad rostlashni barcha qoidalariga rioya qilib gavda harakatining yordami bilan ham bajariladi. Mashg‘ulot rahbari «Chap-GA» burilishni qismlar bo‘yicha yoki to‘liq bajarilishni mashq qildirayotganda «Ort-GA» komandasini bajarish tartibini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga o‘quvchilar «Ort-GA» komandasini bajarish tartibi ham «Chap-GA» burilish kamandasini bajarish tartibidek bajarilishini, bunda faqat burilish  $90^\circ$  emas, balki  $180^\circ$  ekanligini va gavda harakati tezkor bo‘lishini bilishlari kerak. Mashg‘ulot rahbari «Ort-GA» burilishni o‘rgatishni ikki hisobiga bo‘lib o‘rgatadi. «Ortga, bo‘lib-bo‘lib, bajar – BIR» komandasini bo‘yicha o‘ng tovon va chap oyoqning uchini bo‘s sh qo‘yib, chap oyoqning tovonida va o‘ng oyoqning uchida, tizzalar bukilmasdan, gavdaning og‘irligini chap oyoqning tovoniga berib, gavdani bir oz oldinga og‘ishtirib birdan buriladi. «Bajar – ikki» hisobida o‘ng oyoq chap oyoqnig yoniga qo‘yiladi, bunda tovonlar juftlangan, oyoq uchlarini oralig‘i tovon kengligida bo‘lishi kerak. Bu usullarni qismlarga bo‘lib to‘g‘ri bajarilishiga erishilgandan keyin mashg‘ulot rahbari ortga burilishni to‘liq bajarishni o‘rgatishga kirishadi. Ortga burilishni o‘rgatishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni ortda turgan oyog‘ini yerdan uzishda shoshilib uzmasliklariga, gavdani chayqalishiga va qo‘llarni gavda atrofida harakatlanib ketmasliklariga e’tiborni qaratishi lozim.

Shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘ngga, chapga, ortga burilishdagi mashqlarni bajarishni ajratilgan vaqt ichida o‘quvchilar bilan seksiya va guruh tarkibida to‘liq o‘zlashtirilguncha mashq qilinadi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni joyda turib burilishlarga o‘rgatishda yo‘l qo‘yiladigan quyidagi xatolarga e’tibor qaratish kerak: komanda berilgandan keyin ham tizzalar to‘g‘irlanmasligiga, burilishlarda qo‘llarni harakatlanib ketishiga, boshni past ushlanishiga, qorin qismi chiqarilib ko‘krak tushurilib yuborilishiga, gavdani ortga og‘ib ketishi va burilishlarni amalga oshirishda oyoqning tovon qismida bajarish o‘rniga butun tagi bilan bajarilishiga, ortga burilishda  $180^\circ$  to‘liq burilmaslikka, shunigdek, oyoqni joyiga qo‘yishda ildam harakat qilmaslikka, burilishlarda gavdani chayqalib ketishiga.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga va savol-javob natijalariga ko‘ra ular baholanadi. Mustaqil mashq qilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

**3-mashg‘ulot. Shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanish. Harakat paytida burilish.**

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishni va harakat paytida burilishlarni o‘rgatish. O‘quvchilarda saf usullarini bajarilishidagi harakat uyg‘unligiga va ularni ixcham va chiroyli bajarilishiga xavas o‘yg‘otish.

**O‘quv savollari:** 1-o ‘quv savoli. Shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanish .

2-o ‘quv savoli. Haraqat paytida burilishlar. O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ortga-YUR» komandalarini bajarish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi 1-qism, 2005-y. O‘R QK saf nizomi.

**O‘MT: Jihozlangan saf maydoni.**

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o ‘quv savoli – 16 daqiqa. Shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanish.*

Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulotni boshlanishida o‘quvchilarni «Saflan», «Tekislan», «Rostlan», «Erkin», «To‘g‘irlan» komandalarini to‘g‘ri bajarishni va joyda turib burilishlarni mashq qilganlik darajasini nazoratdan o‘tkazadi. O‘quvchilarning yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatib, ularni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatiladi. Ana shundan keyin mashg‘ulot rahbariga yangi o‘tiladigan mashg‘ulotni birinchi o‘quv savolini e’lon qilish tavsiya etiladi.

O‘quv savoli e’lon qilingandan keyin mashg‘ulot rahbari shaxdam qadam bilan yurishni avvaliga to‘liq holda, keyin qismlarga bo‘lib qisqacha tushuntirish bilan ko‘rsatib beradi.

Shundan keyin o‘quvchilar mashg‘ulot rahbarining kuzatuvida shaxdam qadam bilan yurish vaqtidagi qo‘l harakati uchun tayyorgarlik mashqini bajartirishga kirishadi. Bu mashq ikki hisobda bajariladi, «Bajar–BIR» hisobi bo‘yicha o‘ng qo‘l oldinga ko‘tariladi. Yarim musht qilingan o‘ng qo‘l tirsakda bukilib, kamar to‘qasidan bir kaft tepada va yarim musht qilingan o‘ng qo‘l tirsakda bukilib, kamar to‘qasidan bir kaft tepada va gavdadan bir kaft uzoqlikda yerga parallel holda to‘xtatiladi, bir vaqtda chap qo‘l elka bo‘g‘inidan iloji boricha orqaga qaytariladi bunda tirsak to‘g‘ri tutiladi, panjalar yarim bukilgan holda bo‘lishi, boshni to‘g‘ri tutish va oldinga tomonga qarash lozim. «Bajar–IKKI» hisobi bo‘yicha chap qo‘l oldinga, o‘ng qo‘l orqaga harakat qiladi. Bu mashq besh, olti marta bajariladi.

Keyin mashg‘ulot rahbari uch hisob bilan bajariladigan shaxdam qadam bilan harakat qilish uchun tayyorgarlik mashqini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot rahbarining «Bajar – BIR» komandasini bo‘yicha o‘quvchilar chap oyog‘i bilan to‘la qadam tashlaydi, oyog‘ining uchini yerdan 15–20 sm ko‘tarib, erga shaxdam qo‘yadi, bir vaqtning o‘zida o‘ng oyog‘ini yerdan ko‘taradi va oldingi uchi chap oyog‘ining tovonigacha olib kelinadi. Haraqat davom ettirilib o‘ng qo‘l bilan oldinga, chap qo‘l bilan orqaga harakat qilinadi, keyin qo‘llar pastga tushirilib chap oyoq uchida turiladi. Navbatdagi «ikki», «uch» hisoblarda tin olinadi. Navbatdagi «Bajar–BIR» hisobi bo‘yicha harakat o‘ng oyoqdan davom ettiriladi, bunda chap qo‘l oldinga, o‘ng qo‘l orqaga harakatlantiriladi.

Mashqni bajarishda dastlabki beriladigan komanda bo‘yicha o‘quvchilar gavdasining og‘irligini oldinga berib, bunda og‘irlikni o‘ng oyoqqa og‘dirishlariga e’tiborni qaratish kerak.

Shaxdam qadam bilan harakatni to‘xtatish uchun o‘ng (chap) oyoq yerga qo‘yilganda «To‘xta» komandasini beriladi. Bunda keyingi oyoq bilan yana bir qadam tashlanib, oyoqlar juftlanib harakat to‘xtatiladi va qad rostlab turiladi. Usullar va harakatlar mashg‘ulot rahbari tomonidan o‘quvchilarga namunali qilib ko‘rsatiladi va shaxdam qadam bilan harakat qilish mashqini avval qismlarga bo‘lib, keyin to‘liq holda mashq qilinadi. Mashg‘ulot rahbari shaxdam qadam tashlash dastlab bir daqiqada 60–70 qadamni tashkil etishini, keyinchalik esa uning surati oshirilib bir daqiqada 110–120 qadamga yetkazilishini o‘quvchilarga tushuntiradi.

*2-o‘quv savoli – 14 daqiqa. Harakat paytida burilishlar. O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ortga-YUR» komandalarini bajarish.*

Mashg‘ulot rahbari ushbu savolni o‘rgatishga kirishishda usul va harakatlarni namunali qilib ko‘rsatish bilan birga tushuntirib ham boradi. O‘ngga burilish uchun darrov bajariladigan komanda o‘ng oyoq yerga qo‘yilishi bilan beriladi. Keyin chap oyoq bilan bir qadam tashlanadi, chap oyoq uchida o‘ngga burilib, o‘ng oyoq bilan qadam tashlab harakat davom ettiriladi. Mashg‘ulot rahbariga bu usulni uch hisob bo‘yicha o‘rgatish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar «Bajar-BIR» hisobida chap oyoq bir qadam qo‘yib qo‘llarni tushirib chap oyoqda turadilar. «Bajar-IKKI» hisobida chap oyoq uchida o‘ngga burilib, o‘ng oyoqda bir qadam tashlaydilar. «Bajar UCH» hisobida chap oyoq o‘ng oyoqqa juft qilib qo‘yiladi. Mashq bir necha marotaba takrorlanadi.

Keyin usul «O‘ng-GA» komandasini bo‘yicha qismlarga bo‘linmasdan to‘liq bajariladi.

Chapga burilish ham shu tarzda amalga oshiriladi. Bunda darrov bajariladigan komanda chap oyoq yerga qo‘yilishi bilan beriladi.

Ortga burilish uchun darrov bajariladigan komanda o‘ng oyoqni yerga qo‘yish bilan bir vaqtida beriladi. Komanda bo‘yicha chap oyoq bilan yana bir qadam tashlanadi, o‘ng oyoq yarim qadam oldinga olinib, bir oz chaproqqa olinadi, ikkala oyoq uchida ildamlik bilan chap tomon bilan burilib, yo‘nalishga tomon chap oyoq bilan harakat davom ettiriladi. Burilishlar vaqtida qo‘llar oyoqlarga mos harakatlanadi

Usul va harakatlarni bajarishni mashq qilish vaqtida q‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni mashg‘ulot rahbari ko‘rsatadi va ularni to‘g‘ri bajarilishiga mashqni qaytarish yo‘li bilan erishadi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga va savol-javob natijalariga ko‘ra ular baholanadi. Mustaqil mashq qilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

**4-mashg‘ulot.** To‘xtab turganda va harakat chog‘ida bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish. Haraqat paytida salomga javob berish. Safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytish.

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga to‘xtab turganda va harakat chog‘ida bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashishni, harakat paytida salomga javob berishni, safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytishni o‘rgatish va mashq qildirish. O‘quvchilarda saf usullarini bajarilishidagi harakat uyg‘unligiga va ularni ixcham va chiroqli bajarishlariga erishish.

**O‘quv savollari:** 1-o ‘quv savoli. To‘xtab turganda va harakat chog‘ida bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish.

2-o ‘quv savoli. Harakat paytida salomga javob berish.

3-o ‘quv savoli. Safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘R QK saf nizomi.

**O‘MT:** Jihozlangan saf maydoni.

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismidagi tadbirlar:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.

- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 10 daqiqa. To‘xtab turganda va harakat chog‘ida bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish.*

Mashg‘ulotning boshlanishida mashg‘ulot rahbari usul va harakatlarnini bajarilishini namunali qilib to‘liq ko‘rsatadi va bajarish tartibini qisqacha tushuntiradi.

Turgan joyda safdan tashqarida harbiycha salom berishi uchun boshliq yaqinlashayotganida 3–4 qadam qolganda boshliq tomonga burilib, qadrostanadi va boshliqning yuziga qarab o‘tib ketguniga qadar boshliqning harakatini nigohi bilan kuzatib qo‘yadi.

Agar bosh kiyim kiyilgan bo‘lsa, bularga qo‘srimcha tarzda o‘ng qo‘l bosh kiyimning pastki qismiga tegar-tegmas qo‘yiladi.

Turgan joyda harbiycha salom berishni mashq qilish uchun guruh o‘quvchilari front bo‘ylab to‘rt qadam oraliq masofani egallab turadi, bosh kiyimlar olinadi, keyin boshliq turli tomonlardan kelgan paytlardagi salomlashish mashq qilinadi.

Harbiycha salomlashishni boshliq chapdan (o‘ngdan, frontdan) komandasini bajarilishini o‘rganish ikki hisob bo‘yicha amalga oshiriladi. «Bajar–BIR» hisobi bo‘yicha boshni boshliq tomonga burib qad rostlanadi, boshliqni harakatlanayotgan yo‘nalishi tomon yuzini burib uni nigohi bilan kuzatib qo‘yadi. «Baja–IKKI» hisobi bo‘yicha boshini to‘g‘rilaydi va o‘zini erkin tutadi. Shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga safdan tashqarida bosh kiyim bilan harbiycha salomlashishni o‘rgatishga kirishadi. Boshliq chapdan (o‘ngdan, frontdan) ro‘paro‘ kelgandagi holatlarda harbiycha salomlashish dastlab qismlarga bo‘lib o‘rganiladi: «Bajar–BIR, «Bajar–IKKI» komandasini bo‘yicha ikki hisobga bo‘lib bajarilishini mashg‘ulot rahbari ko‘rsatib va tushuntiradi. «Bajar–BIR» hisobi bo‘yicha boshliqka besh-olti qadam qolganda o‘quvchi yuzini boshliq tomonga buradi, tovonlarni bir joyga qo‘yadi va shu bilan bir vaqtda o‘ng qo‘lini bosh kiyimining pastki qismiga tegar-tegmas qo‘yadi. Bunda barmoqlar juft bo‘lishligi, o‘rta barmoq bosh kiyimni his qilishligi, tirsaq yelka barobarida bo‘lishi kerak.

Boshliqning yuziga qarab turiladi va uning harakat yo‘nalishi tomon yuzini burib uni nigohi bilan kuzatib qo‘yadi. «Bajar–IKKI» hisobi

bo‘yicha boshni to‘g‘riga qaratadi va shu bilan bir vaqtida o‘ng qo‘lini tushuradi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar bilan dastlab usulni qismlarga bo‘lib va to‘liq bajarilish tartibini mashq qiladi. Bunda o‘quvchilarning diqqatini o‘ng qo‘lini kafti to‘g‘rilingiga, barmoqlarning birlashganligiga, o‘rtalarni bosh kiyimning pustki qismiga tegishiga, tirsagning yelka balandligi bilan bir chiziqda bo‘lishligiga qaratadi.

*2-o‘quv savoli – 10 daqiqa. Harakat paytida salomga javob berish.*

Harakatda qurolsiz bir-biri Bilan uchrashganda yoki quvib o‘tganda salomlashiladi. Haraqatda bosh kiyim kiyilganda harbiycha salomlashish sakkizgacha sanash hisobi bilan o‘rgatiladi. Dastlab mashg‘ulot rahbari usulni to‘liqligicha, keyin esa qismlarga bo‘lib ko‘rsatadi. Bu mashqlar quyidagicha bajariladi:

– «Bajar–BIR» hisobida chap oyoq bilan qadam qo‘yiladi va oyoq yerga tegishi bilan boshliq tomonga bosh buriladi, bir vaqtning o‘zida qo‘l bosh kiyimga olib kelinadi. Chap qo‘l oyoqning son qismini o‘rtasiga qo‘yiladi; «Bajar–IKKI», «Bajar–UCH», «Bajar–TO‘RT», «BESH», «OLTI», hisoblarida o‘ng (chap) oyoqlarda qadamlar bosiladi;

– «Bajar–YETTI» hisobida chap oyoqni yerga qo‘yishda bosh to‘g‘riga qaratiladi; o‘ng qo‘l bosh kiyimdan pastga tushiriladi;

– «Bajar–SAKKIZ» hisobida o‘ng oyoq chap oyoqqa juftlash-tiriladi, o‘ng qo‘l esa oyoqning son qismini o‘rtasiga qo‘yiladi. O‘quvchilar usulni to‘g‘ri tushunganligini ishonch hosil qilgan mashg‘ulot rahbarni guruhni bir kolonnaga tizib, o‘quvchilar bilan mashq qilishga kirishadi. Usulni qismlarga bo‘lib va to‘liqligicha o‘rganib chiqqandan keyin, mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot so‘ngida guruhni bir kolonnaga tizib, har birini o‘z ro‘paro‘sidan o‘tkazib ko‘radi. Bosh kiyimsiz harakatda salomlashishni o‘rgatish uchun mashg‘ulot rahbari oraliq masofani to‘rt qadam belgilab o‘quvchilarni saf maydoni bo‘ylab saflaydi. Mashg‘ulot rahbari qarama-qarshi tomonidan kelayotgan boshliqqa qarab borayotgan bosh kiyimsiz harbiy xizmatchining harakatini namunali qilib ko‘rsatadi. Salomlashish usullari o‘quvchilarga dastlab qismlarga bo‘lib, keyin to‘liqligicha ko‘rsatib bo‘lib, mashg‘ulot rahbari boshliqqa (kattaga) 3-4 qadam qolganda oyoqni yerga qo‘yish bilan bir paytda qo‘llar harakatini to‘xtatadi. Boshni boshliq tomonga qaratib, harakatni davom ettirib boshliqning yuziga qaraydi; boshliqdan o‘tib boshi to‘g‘riga qaralishini va qo‘llar bilan harakatlanish davom ettirilishini tushuntiradi. Mashg‘ulot rahbari bu usulni qismlarga bo‘lib uch-to‘rt

hisobida o'rgatishga kirishadi. Bu joyda agar boshliq qarama-qarshi tomondan kelsa, usul ikki-uch hisobda, agar u joyida turgan bo'lsa, usul to'rt hisobda bajariladi.

Usul «Harakatda salomlashish, boshliq o'ngda (chapda) qismlar bo'yicha bajar – BIR, bajar – IKKI va hokazo. «Bajar–BIR» hisobida chap oyoq bilan qadam tashlanadi, oyoq yerga qo'yilishi bilan qo'l bilan harakatlanish to'xtatiladi va boshliq tomonga buriladi. «Ikki, uch, to'rt,» hisobi bo'yicha qo'l harakati to'xtatilgan, bosh esa boshliq tomonga burilgan holda harakat davom ettiriladi.

Keyingi «Bajar–BIR» bo'yicha chap oyoqda va chap oyoqni yerga qo'yishda bosh to'g'ri ushlanadi va qo'llar bilan harakatlanish davom ettiriladi. Keyin uch qadam yurish qadami tashlanib, xuddi shu tartibda daqiqasiga 60–70 qadam bilan mashq takrorlanadi. Usulni qismlarga bo'lib o'rgatishda mashg'ulot rahbari «Harakatda salomlashish, boshliq chapda, to'rt qadamda, seksiya qadam – BOS» komandasini berib mashq qilishga kirishiladi. Harakatlanish surati daqiqasiga 110–120 qadam bo'lishini ko'zda tutish kerak.

«BOS» komandasida va «bir» hisobida o'quvchilar olg'a qadam qo'yib, qo'llar harakatini to'xtatadi va boshini chapga buradi. «Ikki, uch», to'rt hisobi bo'yicha harbiy xizmatchilar mardonavor holatda o'tadilar, keyingi «bir» hisobida chap oyoqni yerga qo'yishda boshlarini to'g'ri ushlaydilar va «ikki, uch, to'rt» hisobida yurish qadami bilan harakatlanadilar. Keyingi «bir» hisobi bilan salomlashish takrorlanadi. Mashq yakunlanishida mashg'ulot rahbari o'quvchilarni bitta kolonnaga saflab, ularning har birini bajarayotgan usulini o'zining oldidan o'tkazib kuzatadi. O'quvchilarni yo'l qo'ygan xatolarini bartaraf qilish choralarini ko'radi. Mashg'ulot rahbari mashq bajarishni quyidagicha tashkillaydi. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lib 10 metr masofada bir-birlariga qarama-qarshi yo'nalishda bir kolonna qilib saflab undan keyin komandalarni beradi.

Boshliqni quvib o'tishda salomlashish ikki hisobda o'tkaziladi. «Bajar–BIR» hisobida chap oyoq bilan olg'a bita qadam bosiladi va oyoq erga qo'yilishi bilan bosh chapga (o'nga) buriladi va o'ng qo'l bosh kiyimga keltiriladi, chap qo'l harakatdan to'xtatilib oyoqqa qadaladi. «Bajar–IKKI» hisobida qadam bosiladi va chap oyoq bilan navbatdagi qadamni yerga qo'yib boshliqdan o'tib ketishda bosh to'g'ri ushlanadi, o'ng qo'l esa pastga tushiriladi. Shu tartibda mashq qilinib takrorlanadi, mashq qilish sur'ati daqiqasiga 110–120 qadamgacha ko'tarilib borilishi maqsad qilib qo'yiladi.

*3-o ‘quv savoli – 10 daqqa. Safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytish.* Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarni ikki sherengali yoyiq safga saflab ularga yaxshi ko‘rinadigan holatda safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytish tartibini namunali qilib ko‘rsatadi. Bu ishni amalga oshirishda u o‘quvchilardan bittasini boshliq roliga qo‘yadi. Mashg‘ulot rahbari usulni ko‘rsatib bajarish bilan birga qisqacha qilib tushuntirib boradi. Tushuntirishning mazmuni quyidagicha bo‘lishi kerak.

Harbiy xizmatchi safdan chiqishi uchun «Oddiy askar Qulmirzayev, Safdan falon qadam oldin-GA», yoki «Oddiy askar Qulmirzayev, Oldim-GA» komandasi beriladi. U o‘z familiyasini eshitgach «Men» deb javob beradi, safdan chiqish komandasi berilganda «Ho‘p bo‘ladi» deb javob beradi. Birinchi komanda berilganda harbiy xizmatchi shaxdam qadamlar bilan aytilgan masofaga chiqib saf tomonga buriladi. Ikkinci komanda bo‘yicha bir-ikki qadam to‘g‘riga qadam tashlagach, boshliq tomonga buriladi. Qisqa yo‘l bilan boshliq tomonga kelib boshliqqa ikki uch qadam qolganda to‘xtab kelgani to‘g‘risida ma’lum qiladi. Masalan, «O‘rtoq kapitan, oddiy askar Qulmirzayev buyrug‘ingizga binoan yetib keldi». Harbiy xizmatchi ikkinchi sherengadan chiqmoqchi bo‘lsa, oldindagi harbiy xizmatchining yelkasiga chap qo‘lini qo‘yadi. U orqadagi harbiy xizmatini o‘tkazib yuborib joyiga turadi.

Harbiy xizmatchi safga qaytish uchun «Oddiy askar Qulmirzayev, safga tur» yoki «Safga tur» komandasi beriladi. «Oddiy askar Qulmirzayev» komandasi berilganda «Men», deb javob beradi, «Ho‘p bo‘ladi», deb javob berib, keyin harakatni boshlash kerak bo‘lgan yo‘nalish tomon, birinchi qadamni tashlash bilan o‘ng qo‘lni tushiradi, qisqa bo‘lgan yo‘l bilan yurib safdagi o‘zining joyiga turadi.

Mashg‘ulot rahbariga boshliq oldiga borishni uch hisobga bo‘lib o‘rgatish tavsiya etiladi.

«Bajar – BIR» hisobida qadam bosilishiga moslab qo‘llarni harakatlantirgan holda chap oyoq bilan shaxdam olg‘a bir qadam tashlanadi va chap oyoq holati shundayligicha saqlanadi, qo‘llar esa oyoqlarga qadaladi.

«Bajar – IKKI» hisobida o‘ng oyoq qo‘yiladi va bir vaqtida o‘ng qo‘l bosh kiyimga olib boriladi.

«Bajar – UCH» hisobida qo‘l tushurilib oyoqqa qadaladi. Keyin mashq takrorlanadi. Mashg‘ulot rahbari bu harakatlarni o‘rgatish uchun o‘quvchilar orasidagi interval va masofalarni 2–3 qadam qilib

bir kolonnaga saflaydi.

Boshliq oldiga borishni to'rt hisob bilan uch qadam tashlab o'rganiladi, bunda «Boshliq oldiga borishni, to'rt hisobda qismlar bo'yicha uch qadam tashlab uch qadam olg'a harakat bilan «bosh-LA» komandasi bilan amalga oshiriladi.

«Bir, ikki, uch», hisobida olg'a uch qadam tashlanadi, «to'rt» hisobida o'ng oyoq chap oyoq yoniga keltirilib bir vaqtning o'zida o'ng qo'l bosh kiyimga olib kelinadi. Keyingi «bir, ikki, uch» hisobida qo'l bosh kiyim oldida ushlab turiladi, «to'rt» hisobida esa tushiriladi.

Shunday tartibda mashq bir necha bor bajariladi.

Boshliq oldidan qaytishni to'rt hisobda «Boshlik oldidan qaytishni qismlarga bo'lib to'rt hisobda «bosh - LA» komandasi bilan amalga oshiriladi va mashq qilinadi.

«Bajar – BIR» hisobida o'quvchilar o'ng qo'llarini bosh kiyimga qo'yadilar va «Ho'p bo'ladi», deb javob beradilar.

«Bajar – IKKI» hisobida ortga (o'nga, chapga) buriladilar va o'ng oyog'ini qo'yadilar.

«Bajar – UCH» hisobida birinchi qadamda (chap oyoqni yerga qo'yishda) qo'l tushiriladi.

«Bajar – TO'RT» hisobida o'ng oyoq chap oyoq yoniga keltiriladi. Shunday ketma-ketlikda mashg'ulot rahbarining hisob sanog'i bilan mashq bir necha bor bajariladi.

Safdan chiqish, boshliq oldiga borish va safga qaytish usullari qismlarga bo'lib o'rganilgandan keyin, bu harakatlar to'liqligicha o'rganiladi. Mashqni o'tkzishda o'quvchilarni juft-juft qilib bo'linadi. O'quvchilarga bu usullarni o'rgatishda mashg'ulot rahbariga mashqlarni qismlarga bo'lib sakkiz hisobda mashq qildirish tavsiya etiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot yakunida o'quvchilarning amaliy faoliyatiga va savol-javob natijalariga ko'ra ular baholanadi. Mustaqil mashq qilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

**5-mashg'ulot. Seksiya safi. Seksyaning yurish safi va yoyiq safga saflash. Seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash.**

**O'quv, tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga seksiya saflarini ko'rsatib tushuntirish, seksiyani yurish va yoyiq safga saflanishini, seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflanishini, o'rgatish va mashq qildirish. O'quvchilarda saf usullarini bajarilishidagi harakat uyg'unligiga va ularni ixcham va chiroyli bajarishlariga erishish. Ularda uyushqoqlik bilan harakat qilish ko'nikmalarini hosil qilish.

**O'quv savollari:** 1-o'quv savoli. Seksija safi. Seksijani yurish va yoyiq safga saflash.

2-o'quv savoli. Seksijani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko'rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o'quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o'quv qo'llanmasi. 1-qism, 2005-y. O'R QK saf nizomi.

**O'MT:** Jihozlangan saf maydoni.

### **Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

**Kirish qismi.** 5 daqiqa.

Mashg'ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhning mashg'ulotga tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish.
- Guruhning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirib yo'qlama o'tkazish.
- Avval o'tilgan mashg'ulot bo'yicha qisqacha savol-javob o'tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e'lon qilish.

**Asosiy qism.** 30 daqiqa.

**1-o'quv savoli – 15 daqiqa.** Seksija safi. Seksijani yurish va yoyiq safga saflash. Mashg'ulot rahbari dastlab o'quvchilarga seksija uchun, saf nizomida yoyiq saf va yurish safi ko'zda tutilganini ta'kidlaydi. Shundan keyin mashg'ulot rahbari o'quv savolini o'rgatish-da guruh

tarkibidagi bitta seksiyani safdan chiqaradi ularni guruh ro'parasiga saflantirib ko'rgazmali tarzda seksiya saflarini, seksiyaning yurish va yoyiq safga saflash tartibini ko'rsatib tushuntiradi. Tushuntirishda qisqaroq qilib quyidagi mazmunni bayon etadi: Seksianing yoyiq safi shunday safki bunda askarlar front bo'ylab bir chiziqda yonma-yon joylashadilar. Seksianing yoyiq safi bir sherengali yoki ikki sherengali bo'lishi mumkin. Bunday saflar dastlabki saf uchun, tekshiruv, ko'rik, hisob o'tkazish uchun qo'llaniladi.

Seksiyani bir (ikki) sherengali tizilishi «Seksiya bir sherengaga SAFLAN» komandasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Soni to'rt va undan kam bo'yagan seksiya bir sherengali safga joylashadi. Zarur bo'lganda seksiya shaxsiy tarkibi tekislanishi uchun «TEKISLAN», «CHAPGA TEKISLAN» komandasi beriladi.

«TEKISLAN» komandasi bo'lganda o'ng qanotda turgan harbiy xizmatchidan boshqa hamma yuzini o'ng tomonga buradi, bunda iyak ko'tarilgan o'ng qulop chap qulodan yuqoriroq ko'tarilgan bo'ladi. Tekislanish paytida harbiy xizmatchilar bir oz oldinga, orqaga, yonga siljishlari mumkin. Tekislanib bo'lgach «ROSTLAN» komandasi beriladi unga ko'ra barcha harbiy xizmatchilar boshini to'g'ri tutadi, «ERKIN» komandasi berilganda o'zini erkin tutib, o'ng yoki chap tizzani xiyol bukib, gaplashmasdan turiladi.

«TO'G'RILANSIN» komandasi berilganda, safdagi joydan jilmasdan, qurol, kiyim-bosh va anjomlar to'g'rilanadi. «TO'G'RILANSIN» komandasidan avval «ERKIN» komandasi beriladi.

«Seksiya - TARQAL» komandasi berilganda harbiy xizmatchilar safdan chiqishadi. Seksiani yig'ish uchun «Seksiya OLDIMGA» komandasi beriladi, uni eshitgan harbiy xizmatchilar yugurib komandirning yoniga kelishadi va uning qo'shimcha komandasi bilan safga tuzilishadi.

Seksianing yurish safi bir yoki ikki kolonnadan iborat bo'lishi mumkin. To'rt nafar va undan kam bo'lgan seksiya bir qatorli kolonnaga saflanadi.

Joyda turgan seksianing bir nafardan kolonnaga saflanishi «Seksiya bitta (ikkita) kolonnaga SAFLAN» komandasi bo'yicha amalga oshiriladi. Mashg'ulot rahbari tomonidan ushbu komandalar berilib usul bajarilishi mashq qilinadi. Mashq bajarilish arafasida bitta seksiya tarkibi bilan usul bajarilishini va yo'l qo'yilishi odatiy bo'lgan xato va kamchiliklar ko'rsatiladi.

Mashg'ulot rahbari o'quv savolini ko'rsatish, tushuntirish va mashq qilish bilan birga olib boradi.

*2-o ‘quv savoli – 15 daqiqa. Seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash.*

Seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflashni seksiyani bir sherengali safga saflash bilan boshlagan ma’qul. Mashg‘ulot rahbari guruhni seksiya bo‘yicha bir sherengali safga saflab, beriladigan komandalarni eslatadi. Shundan keyin guruh ichidan bitta seksiyani saf o‘rtasiga chiqarib saf tomonga yuzlantirib saflaydi, keyin harbiy xizmatchilarni yoyiq safga saflanish tartibini va safdag'i joyini ko‘rsatib tushuntiradi.

Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarning e’tiborini safdan tashqarida turilgan holatlarda, dastlabki beriladigan komanda berilganda harbiy xizmatchilar komandir tomonga yuzlanadilar va qaddini rotlab turadilar, darrov bajariladigan komandada esa tezlik bilan safdag'i o‘z joyini egallaydilar. Usulni puxtaroq o‘rgatish uchun mashg‘ulot rahbari mashqni bir necha bor qaytarib mashq qildiradi. Buning uchun u, «Qaytarilsin» komandasini beradi.

Seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflashni o‘rgatishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarga seksiyani yurish safi bir yoki ikki kolonnali bo‘lishini eslatish bilan boshlashi to‘g‘ri bo‘ladi.

Seksiyani yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash tartibini tushuntirib bo‘lgandan keyin mashg‘ulot rahbari «Seksiya, bir kolonnaga – saflan» komandasini berib dastlab, bir kolonnaga keyin ikki kolonnaga saflashni asta-sekinlik bilan tezlikni va aniqlikni qo‘sib o‘quvchilarning safda belgilangan interval va distansiyalarni to‘g‘ri olishlariga safda o‘z joyini egallagandan keyin qad rotblab turishlariga, elkalarni oldinda turgan harbiy xizmatchining elkasiga to‘g‘irlab turishlariga e’tiborni qaratib mashq qilishga kirishadi.

Shundan keyin mashg‘ulot rahbari seksiyani yoyiq safdan yurish safiga o‘tishi seksianing «Seksiya, o‘ng-GA» komandasasi bo‘yicha o‘ngga burilishi bilan amalga oshirilishini, ikki sherengali saf o‘ngga burilishda seksiya komandiri o‘ngga yarim qadam tashlashini, seksiya yurish safidan yoyiq safga «Seksiya, chap-GA» komandasasi bilan qayta saflanishini, seksiya ikki qatorli yurish safida turganda buriladigan bo‘lsa, seksiya komandiri oldinga yarim qadam tashlashini ko‘rsatib tushuntiradi mashq qilishda belgilangan vaqtgacha davom etadi.

## **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga va savol-javob natijalariga ko‘ra ular baholanadi. Mustaqil mashq qilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

**6-mashg‘ulot. Seksianing shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishi. Haraqat yo‘nalishini o‘zgartirish. Joyda turib va harakat paytida burilishlar, joyda turib va harakat chog‘ida salomlashish.**

**O‘quv, tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga seksianing shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishini, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish tartibini, joyda turib va harakat paytida burilishlarni joyda turib va harakat chog‘ida salomlashish tartibini dastlabki malakalarni berish va mashq qildirish. O‘quvchilarda saf usullarini bajarilishidagi harakat uyg‘unligiga, ularni aniq, ixcham va chiroyli bajarishlariga erishish, shuningdek, ularda uyushqoqlik bilan harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**O‘quv savollari:** *1-o ‘quv savoli.* Seksianing shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishi. Harakat yo‘nalishini o‘zgartirish.

*2-o ‘quv savoli.* Joyda turib va harakat paytida burilishlar, joyda turib va harakat chog‘ida salomlashish.

**Shakl:** Amaliy.

**Uslub:** Tushuntirish, ko‘rsatish mashq qilish.

**Vaqt:** 40 daqiqa.

**Joy:** Saf maydoni.

**Foydalilanigan adabiyotlar:** «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi, 2007-y. YOCHQBT fani o‘quv dasturi, 2005-y. YOCHQBT o‘quv qo‘llanmasi. 1-qism, 2005-y. O‘R QK saf nizomi.

**O‘MT:** Jihozlangan saf maydoni.

## **Mashg‘ulotni o‘tish tartibi va uslubiy tavsiyalar**

### **Kirish qismi. 5 daqiqa.**

Mashg‘ulotning kirish qismida quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

– Guruh komandiri yoki navbatchi tomonidan guruhnинг mashg‘ulotga tayyorgarligi to‘g‘risidagi axborotini qabul qilish.

- Guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini ko‘zdan kechirib yo‘qlama o‘tkazish.
- Avval o‘tilgan mashg‘ulot bo‘yicha qisqacha savol-javob o‘tkazish.
- Yangi mavzu va uning maqsadini e’lon qilish.

### **Asosiy qism. 30 daqiqa.**

*1-o‘quv savoli – 15 daqiqa. Seksianing shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishi. Harakat yo‘nalishini o‘zgartirish.*

O‘quv savolini o‘rgatishga kirishishdan oldin bundan avvalgi mashg‘ulotda o‘rganilgan saf usullari va harakatlarini o‘zlashtirish darajasi bir qator ko‘zdan kechiriladi. Seksianing shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishini uchinchi mashg‘ulotda o‘rganilgani uchun mashg‘ulot rahbari bu mashg‘ulotda ko‘proq e’tiborni mashq qilishga qaratadi.

Ana shundan keyin guruhn ni seksiya bo‘yicha ikki sherengali safga saflab mashg‘ulot rahbari shaxdam qadam bilan yurishni avvaliga to‘liq holda, keyin qismlarga bo‘lib qisqacha tushuntirish bilan ko‘rsatib beradi.

Shundan keyin o‘quvchilar mashg‘ulot rahbarining kuzatuvida shaxdam qadam bilan yurish vaqtidagi qo‘l harakati uchun tayyorgarlik mashqini bajartirishga kirishadi. Bu mashq ikki hisobda bajariladi, «Bajar–BIR» hisobi bo‘yicha o‘ng qo‘l oldinga ko‘tariladi. Yarim musht qilingan o‘ng qo‘l tirsakda bukilib, kamar to‘g‘asidan bir kaft tepada va gavdadan bir kaft uzoqlikda yerga parallel holda to‘xtatiladi, bir vaqtda chap qo‘l elka bo‘g‘inidan iloji boricha orqaga qaytariladi, bunda tirsak to‘g‘ri tutiladi, panjalar yarim bukilgan holda bo‘lishi, boshni to‘g‘ri tutish va oldingi tomonga qarash lozim. «Bajar–IKKI» hisobi bo‘yicha chap qo‘l oldinga, o‘ng qo‘l orqaga harakat qiladi. Bu mashq besh, olti marta bajariladi.

Keyin mashg‘ulot rahbari uch hisob bilan bajariladigan shaxdam qadam bilan harakat qilish uchun tayyorgarlik mashqini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot rahbarining «Bajar–BIR» komandasi bo‘yicha o‘quvchilar chap oyog‘i bilan to‘la qadam tashlaydi, oyog‘ining uchini yerdan 15–20 sm ko‘tarib, yerga shaxdam qo‘yadi, bir vaqtning o‘zida o‘ng oyog‘ini yerdan ko‘taradi va oldingi uchi chap oyog‘ining tovonigacha olib kelinadi. Harakat davom ettirilib o‘ng qo‘l bilan oldinga, chap qo‘l bilan orqaga harakat qilinadi, keyin qo‘llar pastga

tushirilib chap oyoq uchida turiladi. Navbatdagi «ikki», «uch» hisoblarda tin olinadi. Navbatdagi «Bajar-BIR» hisobi bo'yicha harakat o'ng oyoqdan davom ettiriladi, bunda chap qo'l oldinga, o'ng qo'l orqaga harakatlantiriladi.

Mashqni bajarishda dastlabki beriladigan komanda bo'yicha o'quvchilar gavdasining og'irligini oldinga berib, bunda og'irlikni o'ng oyoqqa og'dirishlariga e'tiborni qaratish kerak.

Shaxdam qadam bilan harakatni to'xtatish uchun o'ng (chap) oyoq yerga qo'yilganda «To'xta» komandasini beriladi. Bunda, keyingi oyoq bilan yana bir qadam tashlanib, oyoqlar juftlanib harakat to'xtatiladi va qad rostlab turiladi. Usullar va harakatlar mashg'ulot rahbari tomonidan o'quvchilarga namunali qilib ko'rsatiladi va shaxdam qadam bilan harakat qilish mashqini avval qismlarga bo'lib, keyin to'liq holda mashq qilinadi. Mashg'ulot rahbari shaxdam qadam tashlash dastlab bir daqiqada 60–70 qadamni tashkil etishini, keyinchalik esa uning surati oshirilib bir daqiqada 110–120 qadamga yetkazilishini o'quvchilarga tushuntiradi.

Harakat yo'nalishini o'zgartirishni o'quvchilarga o'rgatishda ularni bir joyda turganda va harakatlanayotgan chog'ida mashq qildirish yo'li bilan o'rgatiladi. Harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun «Seksiya o'ng (chap) yelka –OLDINGA» komandasini beriladi; shunda saf yetakchisi chap (o'ng ) tomonga buriladi, burilish «TO'G'RIGA» komandasini berilguncha davom etadi safdagilar yetakchini ketidan ergashadilar. Mashg'ulot rahbari harakat yo'nalishini o'zgartirishni seksiya tarkibida ko'rsatib, tushuntirib bo'lganidan keyin butun guruhni saf maydoni bo'ylab bir kolonnaga ketma-ket qilib saflaydi. Guruhni «Saf maydoni bo'ylab qadam – BOS» komandasini bilan harakatga keltirib ularni burchaklardan burilishlarigi e'tiborni qaratadi. Shu alfovza harakat yo'nalishini qarama-qarshi tomonga o'zgartirib mashq davom ettiriladi. Mashq bajarilishida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun mashg'ulot rahbari guruhni «TO'XTA» komandasini bilan to'xtatib, guruhni chapga buradi, keyin o'quvchilarga ular yo'l qo'ygan kamchiliklarni ko'rsatadi va ularni bartaraf qilish choralarini qo'llaydi.

*2-o'quv savoli – 15 daqqa. Joyda turib va harakat paytida burilishlar, joyda turib va harakat chog'ida salomlashish. Mashg'ulot rahbari joyda turib va harakat paytida burilishlar, joyda turib va harakat chog'ida salomlashish usullarini o'rgatishga kirishishdan oldin avval*

o'rganilgan saf amallarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini bir oz sinovdan o'tkazib oladi. Shundan keyin mashg'ulot rahbari o'rganiladigan usullarni takroriy o'rganilayotganligini nazarda tutib tushuntirish va ko'rsatishga vaqtini ko'p sarflamaslikka harakat qilib asosiy e'tiborni mashq qilishga va usullarni bajarish bo'yicha malakalarni oshirishga qaratadi.

Joyda turib burilishlarni o'rgatish uchun mashg'ulot rahbari dastlab guruhni bir sherengali safga qo'yib «O'ng-GA» , «Chap-GA» , «Ort-GA» komandalarini bajarilish tartibini ko'rsatadi. Undan keyin mashg'ulot rahbari ana shu burilish harakatlarini asta sekinlik bilan ko'rsatib, yo'l-yo'laqay dastlabki va darrov bajariladigan komandalar bo'yicha harakatlanish tartibini tushuntirib boradi.

O'quvchilar «O'ng - GA» komandasida qismlar bo'yicha «Bajar - BIR» hisobida o'ng oyoqning tavoni, chap oyoqning uchida gavdaning og'irligini o'ng oyoqqa og'ishtirib buriladilar, shu bilan birga gavdani tik tutib, tizzalar buklanmaydi, burilish vaqtida qo'llar gavda atrofida harakatlantirilmaydi.

«Bajar-IKKI» hisobida chap oyoqni tomonlarga harakatlantirmasdan ildamlik bilan o'ng oyoqning yoniga qo'yiladi. Chap oyoqni qo'yishda front chizig'i bo'ylab va tovon kengligida bo'lishiga e'tibor berilishi kerak bo'ladi. Mana shu tartibda «Chap-GA» , komandalarini bajarilish tartibi ham olib boriladi.

«O'ng-GA», «Chap-GA» burilishlarni qismlarga bo'lib o'rganilgandan keyin ularni to'liq bajarishga kirishish mumkin.

Burilishlarni to'liq bajarishda, faqat oyoq harakatlari bilan chegaralanmasdan, qad rostlashni barcha qoidalariga rioya qilib gavda harakatini yordami bilan ham bajariladi. Mashg'ulot rahbari «Chap-GA» burilishni qismlar bo'yicha yoki to'liq bajarilishni mashq qildirayotganda «Ort-GA» komandasini bajarish tartibini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga o'quvchilar «Ort-GA» komandasini bajarish tartibi ham «Chap-GA» burilish kamandasini bajarish tartibidek bajarilishini, bunda faqat burilish  $90^{\circ}$  emas balki  $180^{\circ}$  ekanligini va gavda harakati tezkor bo'lishini bilishlari kerak. Mashg'ulot rahbari «Ort-GA» burilishni o'rgatishni ikki hisobiga bo'lib o'rgatadi. «Ortga, bo'lib-bo'lib bajar-BIR» komandasasi bo'yicha o'ng tovon va chap oyoqning uchini bo'sh qo'yib, chap oyoqning tovonida va o'ng oyoqning uchida, tizzalar bukilmasdan, gavdaning og'irligini chap oyoqning tovoniga berib, gavdani bir oz oldinga og'ishtirib birdan buriladi. «Bajar-IKKI» hisobida o'ng oyoq chap oyoqning

yoniga qo‘yiladi, bunda tovonlar juftlangan, oyoq uchlarini og‘irlig‘i tovon kengligida bo‘lishi kerak. Bu usullarni qismlarga bo‘lib to‘g‘ri bajarilishiga erishilgandan keyin mashg‘ulot rahbari ortga burilishni to‘liq bajarishni o‘rgatishga kirishadi. Ortga burilishni o‘rgatishda mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarini ortda turgan oyog‘ini yerdan uzishda shoshilib uzmasliklariga, gavdani chayqalishiga va qo‘llarni gavda atrofida harakatlanib ketmasliklariga e‘tiborni qaratishi lozim.

Shundan keyin mashg‘ulot rahbari o‘ngga, chapga, ortga burilishdagi mashqlarni bajarishni ajratilgan vaqt ichida o‘quvchilar bilan seksiya va guruh tarkibida to‘liq o‘zlashtirilguncha mashq qilinadi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilarini joyda turib burilishlarga o‘rgatishda yo‘l qo‘yiladigan quyidagi xatolarga e‘tibor qaratish kerak: komanda berilgandan keyin ham tizzalar to‘g‘irlanmasligiga, burilishlarda qo‘llarni harakatlanib ketishiga, boshni past ushlanishiga, qorin qismi chiqarilib ko‘krak tushurilib yuborilishiga, gavdani ortga og‘ib ketishi va burilishlarni amalga oshirishda oyoqning tovon qismida bajarish o‘rniga butun tagi bilan bajarilishiga, ortga burilishda 180 ° to‘liq bo‘rilmaslikka, shuningdek, oyoqni joyiga qo‘yishda ildam harakat qilmaslikka, burilishlarda gavdani chayqalib ketishiga.

**Harakat paytida burilishlar. «O‘ng-GA», «Chap-GA», «Ortga-YUR» komandalarini bajarish.**

Mashg‘ulot rahbari ushbu savolni o‘rgatishga kirishishda usul va harakatlarni namunali qilib ko‘rsatish bilan birga tushuntirib ham boradi. O‘ngga burilish uchun darrov bajariladigan komanda o‘ng oyoq yerga qo‘yilishi bilan beriladi. Keyin chap oyoq bilan bir qadam tashlanadi, chap oyoq uchida o‘ngga burilib o‘ng oyoq bilan qadam tashlab harakat davom ettiriladi. Mashg‘ulot rahbariga bu usulni uch hisob bo‘yicha o‘rgatish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar «Bajar-BIR» hisobida chap oyoq bir qadam qo‘yib qo‘llarni tushirib chap oyoqda turadilar. «Bajar-IKKI» hisobida chap oyoq uchida o‘ngga burilib, o‘ng oyoqda bir qadam tashlaydilar. «Bajar UCH» hisobida chap oyoq o‘ng oyoqqa juft qilib qo‘yiladi. Mashq bir necha marotaba takrorlanadi.

Keyin usul «O‘ng-GA» komandasini bo‘yicha qismlarga bo‘linmasdan to‘liq bajariladi.

Chapga burilish ham shu tarzda amalga oshiriladi. Bunda darrov bajariladigan komanda chap oyoq yerga qo‘yilishi bilan beriladi.

Ortga burilish uchun darrov bajariladigan komanda o‘ng oyoqni yerga qo‘yish bilan bir vaqtida beriladi. Komanda bo‘yicha chap oyoq

bilan yana bir qadam tashlanadi, o'ng oyoq yarim qadam oldinga olinib, bir oz chaproqqa olinadi, ikkala oyoq uchida ildamlik bilan chap tomon bilan burilib, yo'nalishga tomon chap oyoq bilan harakat davom ettiriladi. Burilishlar vaqtida qo'llar oyoqlarga mos harakatlanadi.

Usul va harakatlarni bajarishni mashq qilish vaqtida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni mashg'ulot rahbari ko'rsatadi va ularni to'g'ri bajarilishiga mashqni qaytarish yo'li bilan erishadi.

*To'xtab turganda va harakat chog'ida bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish.*

Mashg'ulotni boshlanishida mashg'ulot rahbari usul va harakatlarnini bajarilishini namunali qilib to'liq ko'rsatadi va bajarish tartibini qisqacha tushuntiradi.

Turgan joyda safdan tashqarida harbiycha salom berishi uchun boshliq yaqinlashayotganida 3–4 qadam qolganda boshliq tomonga buri-lib, qad rostlanadi va boshliqning yuziga qarab o'tib ketguniga qadar boshliqning harakatini nigohi bilan kuzatib qo'yadi.

Agar bosh kiyim kiyilgan bo'lsa, bularga qo'shimcha tarzda o'ng qo'l bosh kiyimning pastki qismiga tegar-tegmas qo'yiladi.

Turgan joyda harbiycha salom berishni mashq qilish uchun guruh o'quvchilari front bo'ylab to'rt qadam oraliq masofani egallab turiladi, bosh kiyimlar olinadi, keyin boshliq turli tomonlardan kelgan paytdagi salomlashish mashq qilinadi.

Harbiycha salomlashishni boshliq chapdan (o'ngdan, frontdan) komandasini bajarilishini o'rganish ikki hisob bo'yicha amalga oshiriladi. «Bajar-BIR» hisobi bo'yicha boshni boshliq tomonga burib qad rostlanadi, boshliqni harakatlanayotgan yo'nalishi tomon yuzini burib uni nigohi bilan kuzatib qo'yadi. «Bajar-IKKI» hisobi bo'yicha boshini to'g'rilaydi va o'zini erkin tutadi.

Shundan keyin mashg'ulot rahbari o'quvchilarga safdan tashqarida bosh kiyim bilan harbiycha salomlashishni o'rgatishga kirishadi. Boshliq chapdan (o'ngdan, frontdan) ro'paro' kelgandagi holatlarda harbiycha salomlashish dastlab qismlarga bo'lib o'rganiladi: «Bajar-BIR, «Bajar-IKKI» komandasasi bo'yicha ikki hisobga bo'lib bajarilishini mashg'ulot rahbari ko'rsatib va tushuntiradi. «Bajar-BIR» hisobi bo'yicha boshliqqa besh-olti qadam qolganda o'quvchi yuzini boshliq tomonga buradi, tovonlarni bir joyga qo'yadi va shu bilan bir vaqtida o'ng qo'lini bosh kiyimining pastki qismiga tegar-tegmas qo'yadi. Bunda barmoqlar juft bo'lishligi, o'rta barmoq bosh kiyimni his qilishligi, tirsaq elka

barobarida bo‘lishi kerak.

Boshliqning yuziga qarab turiladi va uning harakat yo‘nalishi tomon yuzini burib uni nigohi bilan kuzatib qo‘yadi. «Baja–IKKI» hisobi bo‘yicha boshni to‘g‘riga qaratadi va shu bilan bir vaqtida o‘ng qo‘lni tushuradi. Mashg‘ulot rahbari o‘quvchilar bilan dastlab usulni qismlarga bo‘lib va to‘liq bajailish tartibini mashq qiladi. Bunda o‘quvchilarning diqqatini o‘ng qo‘lini kafti to‘g‘riligiga, barmoqlarning birlashganligiga, o‘rta barmoq bosh kiyimning pastki qismiga tegishiga, tirsakning elka balandligi bilan bir chiziqda bo‘lishligiga qaratadi.

### *Harakat paytida salomga javob berish.*

Harakatda qurotsiz bir-biri bilan uchrashganda yoki quvib o‘tganda salomlashiladi. Harakatda bosh kiyim kiyilganda harbiycha salomlashish sakkizgacha sanash hisobi bilan o‘rgatiladi. Dastlab mashg‘ulot rahbari usułni to‘liqligicha, keyin esa qismlarga bo‘lib ko‘rsatadi. Bu mashqlar quyidagicha bajariladi:

– «Bajar–BIR» hisobida chap oyoq bilan qadam qo‘yiladi va oyoq yerga tegishi bilan boshliq tomonga bosh buriladi, bir vaqtning o‘zida qo‘l bosh kiyimga olib kelinadi. Chap qo‘l oyoqning son qismini o‘rtasiga qo‘yiladi; «Bajar–IKKI», «Bajar–UCH», «Bajar–TO‘RT», «BESH», «OLTI», hisoblarida o‘ng (chap) oyoqlarda qadamlar bosiladi;

– «Bajar–YETTI» hisobida chap oyoqni yerga qo‘yishda bosh to‘g‘riga qaratiladi, o‘ng qo‘l bosh kiyimdan pastga tushiriladi.

– «Bajar–SAKKIZ» hisobida oyoq chap oyoqqa juftlashtiriladi, o‘ng qo‘l esa oyoqning son qismini o‘rtasiga qo‘yiladi. O‘quvchilar usułni to‘g‘ri tushunganligini ishonch hosil qilgan mashg‘ulot rahbarni guruhni bir kolonnaga tizib, o‘quvchilar bilan mashq qilishga kirishadi. Usulni qismlarga bo‘lib va to‘liqligicha o‘rganib chiqqandan keyin, mashg‘ulot rahbari mashg‘ulot so‘ngida guruhni bir kolonnaga tizib, har birini o‘z ro‘paro‘sidan o‘tkazib ko‘radi. Bosh kiyimsiz harakatda salomlashishni o‘rgatish uchun mashg‘ulot rahbari oraliq masofani to‘rt qadam belgilab o‘quvchilarni saf maydoni bo‘ylab saflaydi. Mashg‘ulot rahbari qarama-qarshi tomondan kelayotgan boshliqqa qarab borayotgan bosh kiyimsiz harbiy xizmatchining harakatini namunali qilib ko‘rsatadi. Salomlashish usullari o‘quvchilarga dastlab qismlarga bo‘lib, keyin to‘liqligicha ko‘rsatib bo‘lib, mashg‘ulot rahbari boshliqqa (kattaga) 5–6 qadam qolganda oyoqni yerga qo‘yish bilan bir paytda qo‘llar harakatini to‘xtatadi. Boshni boshliq tomonga qaratib, harakatni davom ettirib boshliqning yuziga

qaraydi; boshliqdan o'tib boshi to'g'riga qaralishini va qo'llar bilan xarakatlanish davom ettirilishini tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari bu usułni qismlarga bo'lib to'rt-olti hisobida o'rgatishga kirishadi. Bu joyda agar boshliq qarama-qarshi tomondan kelsa usul to'rt hisobda, agar u joyida turgan bo'lsa, usul olti hisobda bajariladi.

Usul «Harakatda salomlashish, boshliq o'ngda (chapda) qismlar bo'yicha «Bajar-BIR», «Bajar-IKKI» va hakozo. «Bajar-BIR» hisobida chap oyoq bilan qadam tashlanadi, oyoq yerga qo'yilishi bilan qo'l bilan harakatlanish to'xtatiladi va boshliq tomonga buriladi. «Ikki, uch, to'rt, (besh, olti)» hisobi bo'yicha qo'l harakati to'xtatilgan, bosh esa boshliq tomonga burilgan holda harakat davom ettiriladi.

Keyingi «Bajar-BIR» bo'yicha chap oyoqda va chap oyoqni yerga qo'yishda bosh to'g'ri ushlanadi va qo'llar bilan harakatlanish davom ettiriladi. Keyin uch qadam yurish qadami tashlanib, xuddi shu tartibda daqiqasiga 60–70 qadam bilan mashq takrorlanadi. Usulni qismlarga bo'lib o'rgatishda mashg'ulot rahbari «Harakatda salomlashish, boshliq chapda, to'rt (olti) qadamda, seksiya «qadam – BOS» komandasini berib mashq qilishga kirishiladi. Harakatlanish surati daqiqasiga 110–120 qadam bo'lishini ko'zda tutish kerak.

«BOS» komandasida va «BIR» hisobida o'quvchilar olg'a qadam qo'yib, qo'llar harakatini to'xtatadi va boshini chapga buradi. «Ikki, uch», to'rt (besh, olti) hisobi bo'yicha harbiy xizmatchilar mardonavor holatda o'tadilar, keyingi «bir» hisobida chap oyoqni yerga qo'yishda boshlarini to'g'ri ushlaydilar va «ikki, uch, to'rt» hisobida yurish qadami bilan harakatlanadilar. Keyingi «bir» hisobi bilan salomlashish takrorlanadi. Mashq yakunlanishida mashg'ulot rahbari o'quvchilarni bitta kolonnaga saflab, ularning har birini bajarayotgan usulini o'zining oldidan o'tkazib kuzatadi. O'quvchilarni yo'l qo'ygan xatolarini bartaraf qilish choralarini ko'radi. Mashg'ulot rahbari mashq bajarishni quyidagicha tashkillaydi. O'quvchilarni ikki guruhg'a bo'lib 10 metr masofada bir-birlariga qarama-qarshi yo'nalishda bir kolonna qilib saflab undan keyin komandalarni beradi.

Boshliqni quvib o'tishda salomlashish ikki hisobda o'tkaziladi. «Bajar-BIR» hisobida chap oyoq bilan olg'a bita qadam bosiladi va oyoq yerga qo'yilishi bilan bosh chapga (o'nga) buriladi va o'ng qo'l bosh kiyimga keltiriladi, chap qo'l harakatdan to'xtatilib oyoqqa qadaladi. «Bajar-IKKI» hisobida qadam bosiladi va chap oyoq bilan navbatdagi qadamni yerga qo'yib boshliqdan o'tib ketishda bosh to'g'ri ushlanadi, o'ng qo'l esa pastga tushiriladi. Shu tartibda usul

mashq qilinib takrorlanadi, mashq qilish sur'ati daqiqasiga 110–120 qadamgacha ko'tarilib borilishiga erishishni maqsad qilib qo'yiladi.

### **Yakuniy qism. 5 daqiqa.**

Mashg'ulot yakunida o'quvchilarning amaliy faoliyatiga va savol-javob natijalariga ko'ra ular baholanadi. Mustaqil mashq qilishlari uchun topshiriq va vazifalar beriladi.

#### **7-mavzu. Nazorat mashg'ulotlari**

**1-2-mashg'ulotlar.** «Saf Nizomi»ni asosiy qoidalari bo'yicha bilim-larni tekshirish. Nazorat me'yorlarini bajarish (qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari):

- qadni rostlash;
- joyda turib burilishlar;
- shaxdam qadam bilan harakatlanish;
- harakat paytida bosh kiyim bilan harbiycha salomlashishni bajarish;
- boshliq oldiga borish va uning oldidan qaytish, safga turish.

*Saf tayyorgarligi bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish tashkiliy va uslubiy ko'rsatmalar.*

Nazorat mashg'ulotlari 2–3-kurslar (10–11-sinflar)ning har bir guruhi (sinf) bilan ta'lim muassasasida o'tkaziladi. Buning uchun saf maydoni tayyorlangan bo'lishi shart. Mashg'ulot rahbari nazorat mashg'ulotlarini o'tkazishda va o'quvchilarni baholashda «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi» o'quv dasturining talablariga asoslanishi va unga qat'iy amal qilishi lozim. Tekshirishni o'quvchining tashqi qiyofasini ko'zdan kechirish bilan boshlash kerak. Qad rostlashni rahbar buyrug'idan keyin o'quvchining safdan chiqishiga qarab baholanadi. Har bir safda harakatlanish usullari bir-ikki marotaba takrorlanadi.

*Usul (mashq va harakat)larni bajarish texnikasi quyidagicha baholadi:*

**5 (a'lo)** – agarda usul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilsa;

**4 (yaxshi)** – agarda usul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilib, ammo bir marta bo'lsa ham xatoga yo'l qo'yilsa;

**3(qoniqarli)** – agarda usul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilib, ikkita xatoga yo'l qo'yilsa;

**2 (qoniqarsiz)** – agarda uslul noto‘g‘ri bajarilsa, yoki uch va undan ortiq xato qilinsa.

Harakatlarni bajarishda odatiy xatolardan: ***Qad rostlash*** — oyoq uchlari yoyiq, front chizig‘ida emas, tovon izi kengligida emas, ko‘qrak ko‘tarilib qorin tortilmagan, qo‘l panjalari kaft bilan orqa tomonga qaratilgan, gavda old tomonga og‘ishmagan. ***Joyida turib burilishlar*** — burilishda qo‘llar gavdadan uziladi, burilish butun gavda bilan bajarilmaydi, burilgandan ortdagi oyoq ixchamlik bilan joyiga qo‘yilmaydi, burilgandan keyin oyoq uchlari juda keng yoyilgan, bir chiziqda emas, qad rostlanmaydi, bosh oldinga og‘ishgan. ***Harakat chog‘idagi burilishlar*** — ortga burilish paytida o‘ng oyoq chap tomonga chiqarilmaydi va juda keng qadam qo‘yilib, burilish paytida gavda muvozanati yo‘qoladi, burilish  $90^{\circ}$  yoki  $180^{\circ}$  (gradus) bajarilmagan, oyoq va qo‘l harakatlarida bog‘liqlik yo‘q, bosh pastga egilgan. ***Shaxdam qadam*** — gavda oldinga og‘ishmagan, oyoq tizzalari egiladi, oyoqni yerdan ko‘tarilishi 15 sm dan past, qadam uzunligi va sur’ati saqlanmaydi, qo‘l harakatlari, belgilangan balandlikka ko‘tarilmaydi, qo‘lning aks harakati oxirigacha yetmaydi, qo‘l va oyoq harakatlarida bog‘liqlik yo‘q. ***Harakat chog‘ida harbiycha salomlashish*** — salomlashish 3–4 qadamda emas, oyoqni yerga qo‘yish bilan boshliqqa yuzlanish bir vaqtida emas, qo‘lni bosh kiyimga qo‘yish bilan chap qo‘l harakatini to‘xtalishi bir vaqtida emas, o‘ng qo‘lning o‘rta barmog‘i bosh kiyimning pastki qismiga tegib turmaydi, qo‘llar old tomonga harakatlanganda tirsaklari yelka chizig‘iga paralel emas.

***Safdan chiqish, boshliq oldiga borish, safga qaytish*** – qo‘lni bosh kiyimning pastki qismiga qo‘yish bilan oyoq qo‘yish bir vaqtida emas, boshliq oldiga borishda 2–3 qadamdan ko‘proq yoki kamroq qadam qo‘yilgan, o‘rta barmoq bosh kiyim pastki qismiga tegib turmaydi, safga qaytishda qo‘lning tushirilishi chap oyoqni qo‘yishi bilan bir vaqtida bajarilmasligi va qadam vaqtidan avvalroq tashlanishi. O‘quvchilarning safda yurishlari ularning oltita saf uslulini bajarishlarining har biri uchun olgan baholaridan kelib chiqib, individual baho qo‘yiladi va YOCHQBT mashg‘ulotlaridagi kiyiladigan kiyimbosh qo‘yiladigan talabini bajarilishi hisobga olinadi:

**«5» (a’lo)** – agarda bajarilgan uslullar 50% «a’lo» bahoga bajarilsa, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilsa;

**«4»(yaxshi )** – agarda 50% dan kam bo‘limgan uslullar «a’lo» va «yaxshi» bajarilib qolganlari esa «qoniqarlidan» past bo‘lmasa;

**«3»(qoniqarli)** – agarda biror usluldan «qoniqarsiz» baho olingan bo‘lsa;

«2» (*qoniqarsiz*) – ikki va undan ortiq qoniqarsiz baho olgan bo‘lsa.

Agarda o‘quvchining kiyimboshi YOCHQBT mashg‘ulotlari uchun direktor buyrug‘i bo‘yicha belgilangan kiyimga mos kelmasa yoki o‘quvchi mashg‘ulotga dazmollanmagan, tartibsiz kiyimda kelsa, bu holda baho bir balga pasaytiriladi.

### Savollar

1. Saf tayyorgarlini bo‘yicha nazorat meyorlarida qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlar o‘z ichiga qanday harakatlarni oladi ?
2. Usul (mashq va harakat)larni bajarish texnikasini baholash tartibini aytib bering.
3. O‘quvchilar nechta saf uslulini bajarganliklari uchun individual baho qo‘yiladi va ular tomonidan YOCHQBT mashg‘ulotlaridagi yana qanday talablarni bajarilishi inobatga olinadi ?

## **13-§. NAZORAT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH USLUBIYOTI**

O'zbekiston Respublikasida YOCHQBT fani bo'yicha o'quv dasturi o'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini va vatanparvarlik tarbiyasi holatini tekshiruvdan o'tkazish davlatning hamkorlikda ishlaydigan qator tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiriladi:

– Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, MK «Vatanparvar» tashkiloti markaziy kengashi, «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati;

– Mudofaa ishlari bo'yicha boshqarmalar, ta'lif muassasasi tasarrufida bo'lgan Vazirliklar, shuningdek, ular tarkibiga kirgan organlar chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nazoratlarni o'z rejali asosida amalga oshiradilar.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish ta'lif jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lif jarayonini tashkil etilishida pedagogik to'g'ri yo'l tutilishi, uning borishini va ta'lif natijalarini nazorat qilib borilishini amalga oshirish uchun imkon beradi.

O'quvchilar bilimini tekshirish, baholash, katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat mashg'ulotlari ta'lif muassasasidagi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni yakuniy bosqichi. Buning uchun O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholash va dastur hajmida ularda harbiy ish asoslarini yanada chuqurroq egallashlariga mas'uliyatni oshirish maqsadida nazorat mashg'ulotlarini ta'lif muassasasi direktori yoki uning o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari hamda mudofaa ishlari bo'limi xodimi ishtirokida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Ta'lif muassasalari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari)da hamda oliy ta'lif muassasalari amaliyotida nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha hozirgi kunda katta tajribasi yig'ilgan. Ta'lif muassasalarida nazoratlarning quyidagi turlari mavjud: *joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar*.

**Joriy nazorat** – O‘quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi jarayonida har bir darsda muntazam ravishda olib boriladi. U harbiy rahbar (CHTO‘)ga o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib borishga va o‘quvchilarning o‘z ishini o‘z vaqtida nazorat qilishga, shuningdek, dars natijalarini darhol ko‘rish imkonini beradi. Oliy Ta’lim muassasalarida joriy nazoratlar, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘zda tutuvchi dastur bo‘limlarini ishlab chiqilgandan keyin olib boriladi.

**Oraliq nazorat** – Oliy ta’lim muassasalarida ma’ruzalarni o‘z ichiga olgan dastur bo‘limlarini o‘rganish yakunida, o‘rtta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalarida esa har bir chorak yoki semestr yakunida olib boriladi.

**Yakuniy nazorat** – O‘quvchilar (talabalar)ning o‘quv yili yoki semestr davomida o‘zlashtirishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. yakuniy nazorat mashg‘ulotlari chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning barcha mavzulari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ularda o‘quvchilarning nazorat va amaliy bilim darajalari aniqlanadi.

Nazorat, bilimlarni tekshirish, dasturning turli bo‘limlari bo‘yicha ishlab chiqilgan bilimlar bo‘yicha savollar yoki test majmualaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amaliy malakalarni qurollar, asbob-anjomlar, individual himoya vositalari bilan ishslash jarayonida tekshiriladi va baholanadi.

Bundan tashqari yoshlarni safdag'i qurolsiz yakka tartibda bajariladigan usullarni bajara olish, qizlarni esa birinchi tibbiy yordam ko‘rsata olish ko‘nikma va qobiliyati albatta tekshiriladi.

Nazorat mashg‘ulotlari YOCHQBT dasturi yakunlanishi hamda uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulot (yig‘inl)lari paytida o‘tkaziladi va o‘quvchi yoshlari chaqiruvga qadar boshlang‘ich va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha ularni O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlar xizmatiga tayyorlik darajasini tekshirish uchun yakuniy mashg‘ulot bo‘lib hisoblanadi. Nazorat mashg‘ulotlari dasturning «Harbiy ish asoslari» «Otish tayyorgarligi» va «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limlari bo‘yicha faqat o‘g‘il bolalar uchun dala o‘quv mashg‘ulotlari (yig‘ini) yakunida o‘tkaziladi.

Ta’lim muassasalarining o‘zida esa «Harbiy xizmat asoslari» bo‘limi bo‘yicha o‘g‘il bolalar bilan «Fuqaro muhofazasi» bo‘limi bo‘yicha esa o‘g‘il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

Nazorat mashg‘ulotlarida o‘quvchilar mashqlar (usul va harakatlar)ni bajarish va nazorat meyorlari shartlari bo‘yicha talablarni bajarishlari orqali tekshiriladi. Nazorat mashg‘ulotlari uchun mashq, usul, harakat va

masalalar turlarini harbiy rahbar (CHTO') chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining har bir bo'limi uchun belgilangan normativlar ro'yxatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilar dasturda ko'rsatilgan me'yirlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. O'quvchilarning yakka tartibdagi bahosi dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida uning har bir me'yori bajarilganligi uchun olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

«*a'lo*» – agarda barcha tekshirilgan me'yirlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig'i «*a'lo*» bahoga, qolganlari esa «*yaxshi*» bahoga bajarilgan bo'lsa;

«*yaxshi*» – agarda barcha tekshirilgan me'yirlarning 50 % dan ortig'i «*a'lo*» va «*yaxshi*» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo'lsa;

«*qoniqarli*» – agarda barcha tekshirilgan me'yirlarning bajarilishiga qo'yilgan «*qoniqarsiz*» baho bittadan ko'p bo'lmasa;

«*qoniqarsiz*» – me'yorlar bo'yicha ikkita va undan ko'p qoniqarsiz baho bo'lsa;

Ta'lim muassasalarida bitiruvchi kurs o'quvchilari bilan o'qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, YOCHQBTga ajratilgan vaqt hisobidan **uch kunlik dala o'quv mashg'ulot** (yig'in)lari o'tkaziladi. Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagicha o'tkaziladi:

- umumta'lim məktəb internatlarida 11-sinf o'quvchilari bilan, akademiq litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan mart va may oylarida;

- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan o'qitishning oxirgi davrida o'tkaziladi;

- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi o'quvchi o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

Uch kunlik dala o'quv mashg'uloti (yig'ini) – (DO'M) quyidagi tartibda olib boriladi:

- bir vaqtning o'zida barcha yoki bir nechta ta'lim muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining o'quvchi bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan;

– bitta ta’lim muassasasining (TM) o‘quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o‘quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig‘ish yo‘li bilan;

– har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg‘ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig‘ish yo‘li bilan.

DO‘M(Y) o‘tkazish vaqtini tartibini Mudofaa ishlari bo‘limlari tuman (shahar) xalq ta’limi organlari, viloyat (shahar) o‘rtasi maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig‘i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida Nazorat me’yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo‘yicha bajariladi.

#### **«Harbiy ish asoslari» bo‘limi bo‘yicha:**

– nishonni ilg‘ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish;

– o‘t ochish joyini tanlash, yotib otish uchun *joy* (okop) tayyorlash;

– jang maydonida avtomatdan o‘t ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish).

#### **«Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha (4-mavzu, 13–14-mashg‘ulotlarda o‘tkaziladi):**

– avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylash (KA);

– avtomatdan otish bo‘yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqdan otish mashqini bajarish);

– o‘qdonga xonaki o‘qlarni joylash;

– portlovchi qo‘l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo‘yicha 1(2)-mashqlarni bajarish.

#### **«Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limi bo‘yicha:**

– turnikda tortilish;

– 1000 yoki 3000 metrغا yugurish;

– to‘sqli yo‘lakdan oshib o‘tish, umumnazorat mashqini bajarish;

– qo‘l kurashi (jangi) amallarini bajarish.

#### **DO‘M(Y) uchun umumiyo baho quyidagicha qo‘yiladi:**

«*a’lo*» – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi» bo‘limlari bo‘yicha olingan baho – «*a’lo*» «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limidan esa «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa, shuningdek, «namunali», «yaxshi» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

«yaxshi» – agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi», bo‘limlari bo‘yicha olingan baho «yaxshi» bahodan kam bo‘lmasa, «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limidan esa «qoniqarli» dan kam bo‘lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

«qoniqarli» – agarda «Harbiy ish asoslari»dan tashqari biron bir boshqa bo‘limdan bitta «yaxshi» bahosi yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo‘lsa;

«qoniqarsiz» – agarda ikki va ortiq bo‘limlar bo‘yicha olingan baho «qoniqarsiz» bo‘lsa, shuningdek, «namunali», «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloq bilan yoki «qoniqarli» baho, ammo «qoniqarsiz» odob-axloqqa ega bo‘lsa.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan komissiya tarkibi o‘tkazadi. O‘quvchi bolalarga nazorat mashg‘ulotlarida qo‘yilgan baholar qaydnomasi komissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta’lim muassasasi direktoriga jo‘natiladi. DO‘M(Y) ga qo‘yilgan umumiyl baho sinf jurnaliga DO‘M(Y) belgisi bilan yozib qo‘yiladi.

Viloyat (tuman, shahar) hokimligi tomonidan tashkil etilgan o‘quv punktlarida YOCHQBT dan o‘tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo‘limlar bo‘yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o‘tkaziladi, ularning nazorat mashg‘ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi. MSSL nazorat me’yorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo‘yicha boshqarma, jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo‘lgan komissiya tuziladi. YOCHQBT bo‘yicha yillik (kurs) baho o‘quvchilarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo‘yiladi.

YOQCHBT bo‘yicha yakunly baho DO‘M(Y)ning umumiyl bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo‘yiladi va quyidagicha aniqlanadi:

«a’lo» – agarda DO‘M(Y) uchun «a’lo» baho, shuningdek, YOCHQBT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa;

«yaxshi» – agarda DO‘M(Y) uchun «yaxshi» baho bo‘lsa, shuningdek, BCht bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«qoniqarli» – agarda DO‘M(Y) uchun «qoniqarli» baho bo‘lsa, shuningdek, BCht bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«*qoniqarsiz*» – agarda DO‘M(Y) uchun yoki yillik (kurs) bahosidan birontasi «*qoniqarsiz*» bo‘lsa.

YOCHQBT ning yakuni bo‘yicha ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i tuziladi (tayyorlanadi). Bu buyruqqa DO‘M(Y) jarayonida o‘quvchilar ko‘rsatgan natijalar tahliliga asoslanib, shuningdek joriy o‘quv yili YOCHQBT dasturining qay tartibda bajarilganligiga qarab YOCHQBTning yakuniga baho beriladi.

Nazorat mashg‘ulotlarida o‘quvchilar dasturda ko‘rsatilgan me’yorlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. O‘quvchilarning yakka tartibdagi bahosi dasturdagi bo‘limlar bo‘yicha nazorat mashg‘ulotlarida uning har bir me’yori bajarilganligi uchun olgan baholari yig‘indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

«*a’lo*» – agarda barcha tekshirilgan me’yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig‘i «*a’lo*» bahoga, qolganlari esa «*yaxshi*» bahoga bajarilgan bo‘lsa;

«*yaxshi*» – agarda barcha tekshirilgan me’yorlarning 50 % dan ortig‘i «*a’lo*» va «*yaxshi*» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo‘lsa;

«*qoniqarli*» – agarda barcha tekshirilgan me’yorlarning bajarilishiga qo‘yilgan «*qoniqarsiz*» baho bittadan ko‘p bo‘lmassa;

«*qoniqarsiz*» – me’yorlar bo‘yicha ikkita va undan ko‘p qoniqarsiz baho bo‘lsa.

### Mavzu yuzasidan savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi YOCHQBT dasturi bo‘yicha o‘quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini va vatanparvarlik tarbiyasi holatini tekshiruvdan o‘tkazishni davlatning qaysi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi ?

2. Ta’lim muassasalarida nazoratlarning qaysi turlari mavjud?

3. Joriy nazorat qay tartibda o‘tkaziladi ?

4. Oraliq nazorat qay tartibda o‘tkaziladi ?

5. Yakuniy nazorat qay tartibda o‘tkaziladi ?

6. Nazorat mashg‘ulotlari dasturning qaysi bo‘limlari bo‘yicha, va qachon faqat o‘g‘il bolalar bilan o‘tkaziladi?

7. DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida «Harbiy ish asoslari» bo‘limi bo‘yicha qanday mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar bajariladi ?

8. DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida «Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha qanday mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar bajariladi ?

9. DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limi bo‘yicha qanday mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar bajariladi ?

10. DO‘M(Y) uchun umumiy baho qanday tartibda qo‘yiladi?

**Tayanch iboralar:** *nazorat, tartib, mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar, umumiy baho, yakka tartibdagi baho, yillik baho, yakuniy baho.*

## **14-§. DALA O'QUV MASHG'ULOTLAR (YIG'IN)LARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH USLUBIYOTI**

### **DALA O'QUV MASHG'ULOTLAR (YIG'IN)LARINI TASHKIL ETISH VA ULARNI O'TKAZISH UCHUN JOYLAR**

O'zbekiston Respublikasi YOCHQBT dasturida akademiq litseylar, kasb-hunar ta'lif muassasalarini va o'rta umumta'lim maktab internatlarida uch kun davomida dala-o'quv mashg'ulotlar (yig'inlar)ini o'tkazish ko'zda tutilgan. Dala-o'quv mashg'ulotlar (yig'inlar)i ta'lif muassasalarida bitiruvchi kurs o'quvchilari bilan o'qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunliklik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)lari o'tkaziladi. Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagicha o'tkaziladi:

- umumta'lim maktablarida 11-sinf o'quvchilari bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan mart va may oylarida;
- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan o'qitishning oxirgi davrida o'tkaziladi;
- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi o'quvchi o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

Uch kunlik dala o'quv mashg'uloti (yig'ini) – (DO'M) quyidagi tartibda olib boriladi:

- bir vaqting o'zida barcha yoki bir nechta ta'lif muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining o'quvchi bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan;
- bitta ta'lif muassasasining (TM) o'quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o'quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig'ish yo'li bilan;
- har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg'ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig'ish yo'li bilan;

DO'M(Y) o'tkazish vaqtini va tartibini Mudofaa ishlari bo'limlari tuman (shahar) hokimligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig‘i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarida nazorat me’yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo‘yicha bajariladi. Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)larini tashkillash va o‘tkazish uchun YOCHQBT o‘quv dasturi bo‘yicha jami 18 soat vaqt ajratilgan. Shulardan:

«Harbiy ish asoslari» bo‘limidagi mashg‘ulotlar uchun sakkiz soat.

«Otish tayyorgarligi» bo‘limidagi mashg‘ulotlar uchun to‘rt soat.

«Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limidagi mashg‘ulotlar uchun olti soat vaqt ajratilgan.

Bunda o‘quvchilar «**Harbiy ish asoslari**» bo‘limi bo‘yicha:

– nishonni ilg‘ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berishni;

– o‘t ochish joyini tanlash, yotib otish uchun *joy* (okop) tayyorlashni;

– jang maydonida avtomatdan o‘t ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish)ni;

«**Otish tayyorgarligi**» bo‘limi bo‘yicha (4-mavzu, 13–14-mashg‘ulotlarda o‘tkaziladi):

– avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylashni (KA);

– avtomatdan otish bo‘yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqdan otish mashqini bajarish)ni;

– o‘q donga xonaki o‘qlarni joylashni;

– portlovchi qo‘l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo‘yicha 1(2)-mashqlarni bajarishni.

«**Amally jismoniy tayyorgarlik**» bo‘limi bo‘yicha:

– turnikda tortilishni;

– 1000 yoki 3000 metrga yugurishri;

– to‘sqli yo‘lakdan oshib o‘tish, umumnazorat mashqini bajarishni;

– qo‘l kurashi (jangi) amallarini bajarilishlarini mashq qiladilar va me’yor talablarini bajaradilar.

DO‘M(Y) nazorat mashg‘ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan komissiya tarkibi o‘tkazadi. O‘quvchi bolalarga nazorat mashg‘ulotlarida qo‘yilgan baholar qaydnomasi komissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta’lim muassasasi direktoriga jo‘natiladi. DO‘M(Y) ga qo‘yilgan umumiyl baho

sinf jurnaliga DO‘M(Y) belgisi bilan yozib qo‘yiladi.

Viloyat (tuman, shahar) hokimligi tomonidan tashkil etilgan o‘quv punktlarida YOCHQBT dan o‘tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo‘limlar bo‘yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o‘tkaziladi, ularning nazorat mashg‘ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi.

MSSL nazorat me’yorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo‘yicha boshqarma, Madaniyat va sport vazirligi, MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo‘lgan komissiya tuziladi. YOCHQBT bo‘yicha **yillik (kurs) baho** o‘quvchilarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo‘yiladi.

YOQCHBT bo‘yicha **yakuniy baho** DO‘M(Y)ning umumiy bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo‘yiladi.

Tajribalarni ko‘rsatishicha, dala-o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘inlar)ini samarali olib borish uchun tayyorgarlik jarayonini aniq, ravshan rejalashtirish, shuningdek har tomonlama ta’minalash zarur bo‘ladi.

DO‘M(Y)ning har bir mashg‘uloti uchun zarur bo‘lgan o‘quv-moddiy bazaga ega bo‘lish shart. Har bir bir DO‘M(Y)ga jalb qilingan o‘quvchining ekipirovkasi o‘z ichiga quyidagilarni olishi shart: Kalashnikov avtomatining maketi, protivogaz, ikkita o‘quv qo‘l granata (yoki granataning maketi) haltasi bilan, suv idish (flyaga), bosh kiyim, bel tasmasi, piyodachilar kichik kurakchasi niqobi (chexoli) bilan tumanda (ta’lim muassasasida) belgilanib o‘rnatilgan bir xil turdagи kiyim bosh, yuvinish, taranish uchun ashyolar va yuk haltasi.

Ekipirovkaning hamma buyumlari, tabel buyumlaridan tashqari barchasi ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi yoki ta’milanadi.

DO‘M(Y)ni harbiy qism bazasida o‘tkazish uchun harbiy qism komandiri o‘quv maydonini, o‘q-dori va otish joyini hozirlaydi. O‘quvchilar tarbiyaviy va sport ishlarini olib borish uchun ofitser va serjantlar ajratib beradi.

O‘quvchilar bilan DO‘M(Y)ning mashg‘ulotlari o‘quv qurollaridan, individual himoya vositalaridan va boshqa maxsus anjomlardan shartli ravishda foydalanish bilan maxsus ishlab chiqilgan uslubda olib boriladi.

O‘quvchilar bilan Kalashnikov avtomatidan jangovar o‘q-dorilardan otishni tartibga ko‘ra harbiy qismning yoki mudoffa ishlari bo‘limining tajribali ofitserlari rahbarligida mashg‘ulotning bunday turi uchun belgilangan barcha hafsizlik chora tadbirlariga qat’iy amal qilgan holda o‘tkaziladi.

Ma'rifiy va ma'naviy ishlarga ajratilgan vaqtarda urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, vatanparvarlik mavzusida kinofilimlar ko'rsatiladi va so'ngi ma'lumotlar eshittiriladi. Qachonki, o'tkazilayotgan tadbirlarni o'zbek xalqining hayoti va mehnati, armiyamizning jangovar va ma'rifiy, ma'naviy ishlarining amaliyoti, shuningdek, harbiy qo'shinlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqa vazifalar bilan o'rinli bog'lansagina bu tadbirlarning tarbiyaviy natijasiga erishsa bo'ladi.

Bulardan tashqari ma'rifiy va ma'naviy ishlarga ajratilgan vaqtarda «Vatanparvar» harbiy-sport musobaqalari tashkil etiladi. Guruhlar va seksiyalar o'rtasida granata uloqtirish, to'siqlar qatoridan o'tish va boshqa harbiy yo'nalishli musobaqalar tashkil etiladi. O'quvchilar DO'M(Y) davrida deyarli harbiy qismlarning kun tartibidagidek tartibda yashaydilar.

DO'M(Y)da mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mashg'ulot joyiga har kunlik qatnov bu – ilojsizlik, unumsizroq tadbirdir. Mashg'ulot joyiga har kuni qatnash bu – mashg'ulot joyi uchun hudud tanlash va jihozlash ishlarini noqulay rejalashtirish va moddiy ta'minlanishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Masalan: o'quvchilarni manzilga tashish, ovqatlanishni va tibbiy yordamni tashkil etish va hokazolar. DO'M(Y) o'tkazish bilan bog'liq ishlarni avvaldan boshlash to'g'ri bo'ladi. Anjomlarni tayyorlash, otish qurollarini maketlarini, nishonlarni, har xil to'siqlarni ko'rsatuvchi belgilarni, zarur o'quv texnika va imitatsiya vositalarini, ko'rgazmali qo'llanmalarni avvaldan hozirlab qo'yish tajribali harbiy rahbar (CHTO')ning ishi bo'ladi.

O'quvchilar bilan DO'M(Y)ni har kuni borib kelish bilan o'tkazishda bitta guruhdan ortiq guruhlar bilan chiqish maqsadga muvofiq emas.

Agarda DO'M(Y) ga ikki guruhdan ortiq guruhlar bilan chiqilsa harbiy rahbar (CHTO')ga o'qituvchilardan bittasini, tartibga ko'ra jismoniy tarbiya yoki mehnat o'qituvchilaridan birini yordamchi sifatida biriktiriladi.

DO'M(Y) qanday tashkil etish va o'tkazish masalasini tuman (shahar) hokimligi, shuningdek, mudofaa ishlari bo'limlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda hal qiladilar.

Tajribalarga ko'ra DO'M(Y) tashkil etish bo'yicha ishlarni ma'lum bir ketma-ketlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

DO'M(Y) ga tayyorgarlik ishlari taxminan bir, bir yarim oy ilgari boshlanadi. Tuman (shahar) hokimligi MIB, o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi boshqarmalari birgalikda ta'lim muassasalarining harbiy rahbar (CHTO')i bilan DO'M(Y)ga tayyorgarlik ishlari bo'yicha rejtadbirlar loyihasini ishlab chiqish va ularni o'tkazish muddatlarini kelishib olish maqsadida yig'ilish o'tkazadi.

Rejaga quyidagi masalalar kiritilishi shart:

- o'quvchilarni joylashuv joyini tayyorlash va ovqatlanish tartibini;
- o'quv maydonlarini tanlash va ta'lim muassasalari o'rtaida taqsimlash;
- mashg'ulotlar uchun imitatsiya vositalarini qabul qilib olish;
- mashg'ulotlar uchun reja-konspektlar tuzish va ularni o'tkazish bo'yicha zarur ko'rsatmalarni olish;
- harbiy rahbar (CHTO')i, MIB va harbiy qism ofitserlari bilan ko'rsatmali-uslubiy mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha dala mashg'ulotlari dasturi;
- mashg'ulotlar jadvali va kun tartibini tuzib chiqish;
- sutkalik naryadning hujjatlarini ishlab chiqish;
- vatanparvarlik va ommaviy sport ishlar rejasini ishlab chiqish.

Rejalarning har bir bo'limlariga tadbirlarni bajarilish muddatlari qo'yiladi va mas'ul shaxslar belgilanib qo'yiladi.

Agarda DO'M(Y)ri harbiy qismda bazasida o'tkaziladigan bo'lsa, harbiy qism komandiri bilan kelishiladi.

Zarur buyruq yoki rejalardan ko'chirmalar ta'lim muassasalariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yetkaziladi. Ta'lim muassasalarida DO'M(Y)rini o'tkazish bo'yicha o'z buyruqlari bo'ladi.

Yig'ilishning yakuniga ko'ra o'rtalim maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining boshliqlari DO'M(Y)riga jalb qilingan o'quvchilar, tarkibini, o'tkazish joyi va muddatlarini aniqlaydigan buyriq chiqaradi. Xarajatlar hisobi (smeta)si tasdiqlanadi.

DO'M(Y)rini tashkil etish va o'tkazishni yanada yaxshilash maqsadida quyidagi lavozim egalarini tayinlash lozim:

- oromgohda barcha ishlarga rahbarlik qiladigan va shaxsiy tarkibning intizomiga, o'quv jarayonini tashkil etishga javob beradigan yig'in boshlig'i;
- DO'M(Y) o'quv dasturini sifatli bajarilishiga yo'naltirilgan, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etadigan, yuqori intizomni ta'minlashga va shaxsiy tarkibni ma'naviy va ma'rifiy ahvoliga javob beradigan ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha yig'in boshlig'inining o'ribosari;

- mashg‘ulotlarni rejalashtirish, o‘quv maydonlarni maqsadga muvofiq, samarali foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mashg‘ulotlarni sifatli olib borishni nazoratga olish, yig‘indagi ichki xizmatni tashkil etish va uni olib borish, buyurtmalar, arizalar va hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish majburiyati yuklatilgan o‘quv ishlari bo‘yicha yig‘in boshlig‘ining o‘rinbosari;

- majburiyatiga oromgohga zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan, birinchi navbatda yuqori sifatli oziq-ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash kiramagan xo‘jalik ishlari bo‘yicha yig‘in boshlig‘ining o‘rinbosari. U shuningdek, DO‘M(Y)ga ajratilgan avtoulovlarining texnik holatiga va undan to‘g‘ri foydalanishga ham mas’uldir;

- DO‘M(Y)dagi o‘quvchilarga tibbiy xizmat ko‘rsatadigan va oromgohni sanitар-gigiyenik ahvolini nazoratini amalga oshiradigan vrach tayinlanadi.

Yukqorida ko‘rsatib o‘tilgan lavozim egalari tuman (shahar) hakimligining qarori bilan o‘qituvchilar tarkibidan yoki o‘smirlar bilan ishslash bo‘yicha yaxshi tajribaga ega va maxsus zarur ma’lumotga faollar hisobidan tayinlanadi.

DO‘M(Y)da qatnashayotganlar hisobidan kelib chiqib vzvodlar, guruhlar va seksiyalar shakllantiriladi. Har bir ta‘lim muassasalaridan kelgan o‘quvchilardan guruhlar tashkil etiladi, har bir sinfdan esa seksiya tashkil etiladi.

Qayerda DO‘M(Y)ni o‘tkazish uchun harbiy qism jalb qilingan bo‘lsa guruh komandirlari serjantlardan, seksiya komandirlari esa o‘quvchilardan tayinlanadi. Serjantlar tarkibini jalb qilish imkonini bo‘limgan taqdirda guruh komandirlari etib irodali, intizomli va chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanidan yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilardan tayinlanadi.

O‘quvchilar DO‘M(Y)ga ta‘lim muassasalarida belgilangan kiyimbosh bilan kelishga majbur (belgilangan kiyimboshga va farqlovchi belgilarga o‘xhash, shuningdek Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini farqlovchi belgilarini kiyib, taqib yurish ta’qiqlanadi).

DO‘M(Y)ning boshlanishida o‘quvchilar bilan oldinda turgan o‘quv davri masalalarini tahlil qilish yuzasidan umumiyligi yig‘ilish o‘tkaziladi. Yig‘ilishda ta‘limni yuqori sifatli bo‘lishiga erishish uchun qo‘srimcha chora-tadbirlar ham belgilanishi yanada yaxshi samara berishini unutmaslik lozim.

Shundan keyin o‘quvchilarning individual majburiyatlarining yig‘indisidan kelib chiqib o‘zaro musobaqalar o‘tkazish masalalarini hal

qilish bo'yicha guruqlar yig'ilishi o'tkaziladi. Odatga ko'ra, musobaqalarni o'tkazishni tashkil etish ta'lim sifatini yuqori darajada bo'lishini, o'quvchilarni o'quv dasturining barcha me'yorlarini muvafiqiyatlidir topshirishiga va harbiycha odob-axloqni o'quvchilarda mujassalashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Musobaqalarni oshkora va natijalarini taqqoslab o'tkazilishini ta'minlash shart. G'oliblar uchun taqdirlash sovg'alari (kubok va hokazo) bilan mukofotlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Musobaqa ko'rsatkichlarini kechki yo'qlama yoki ertalabki mashg'ulotlarga tarqatuv safida, shuningdek, mashg'ulotlar yakunidagi tarqatuv safida e'lon qilinadi va devoriy gazetalarda ham yoritiladi. Ko'chma mukofatlarni taqdimotini tantanali ravishda o'tkazish lozim. Bularning tadbirlarni maromiga yetkazib o'tkazilishi musobaqalarni samarali bo'lishida katta rol o'yndaydi.

Ayrim tuman (shahar)larning ta'lim muassasalari 'ma'lum bir sabablarga ko'ra yuqori bosqich o'quvchilari bilan DO'M(Y)ni har kuni o'quv maydonlariga borib kelib o'tkazishlarida yuqorida keltirilgan yig'in o'tkazish uslubiyoti talablariga amal qilishlari to'g'ri bo'ladi.

DO'M(Y)ni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejalarini ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

DO'M(Y)ni muvoffaqiyatlidir o'tkazishning yana bir muhim jihatida ta'lim sohasining rahbarlari tomonidan DO'M(Y)ni tantanali ochilishi bo'lib hisoblanadi. Bunda ta'lim muassasalarining direktorlari, harbiy qism, MIB vakillari, urush qatnashchilari va tuman (shahar) jamoatchilik vakillari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati vakillari, shuningdek, ota-onalar taklif etiladi.

DO'M(Y)ni yuqori saviyada o'tkazilishi shaxsiy tarkibni ko'tarinki ruh bilan ish boshlashlariga turtki bo'ladi. Kun tartibida mashg'ulotlar olib borish, mustaqil tayyorgarlik, ma'naviy va ma'rifiy, ommaviy-sport ishlarni olib borish, jismoniy mashq, asbob-anjomlar va protivogazlarni tartibga keltirish uchun, shuningdek, o'quvchilarning ovqatlanishi, dam olishi va kechki yo'qlama (agar oromgohda tunalsa) o'tkazish uchun ham vaqt ajratiladi.

DO'M(Y)da ommaviy-sport ishlari asosan har xil turdag'i sport musobaqalarini, marsh yurish (brasok)larni, har xil g'ovlardan oshib o'tishlarni va harbiylashtirilgan o'yinlarni o'tkazilishiga qaratiladi.

Bunday mashg'ulotlarni o'tkazishda MK «Vatanparvar» tashkiloti, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Fuqaro shtablari, trener murabbiylar va boshqa ayrim ishchilar jalb qilinadi.

DO‘M(Y)rining yakuni mashg‘ulot rahbarlari va qatnashchilarni barcha-barchasini saf torttirib, tantanali yopiladi. DO‘M(Y)rining yopilishiga ta’lim sohasini vakillarini, harbiy qism, MIB vakillarini va urush va mehnat faxriylarini, MK «Vatanparvar» tashkiloti, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, shuningdek, «Fuqoro himoyasi» shtablari vakillarini ham taklif etish lozim.

Bunda yig‘in boshlig‘i mashg‘ulotlarga yasab yig‘inda faol qatnashganlarni nomlarini atab o‘tadi, yig‘in qatnashchilariga minnatdorchiliklar va boshqa rag‘batlantirishlarni e’lon qiladi ularga kelajakda O‘R QK safida xizmat burchini a’lo darajada o‘tashlari uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib muvaffaqiyatlar tilaydi.

DO‘M(Y)ri yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligining eng muhim yakuniy bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Yoshlarni Vatanni himoya qilishga tayyorgarligini shakllanib borishiga va O‘R QKdagi harbiy xizmat vazifalarini puxta bajarishlariga, shuningdek, harbiy o‘quv yurtlariga kirishga qaror qilgan yoshlarni kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tishlariga ko‘p hollarda DO‘M (Y) rining yaxshi tashkil qilinib, samarali o‘tkazilishiga ham bog‘liq bo‘lib qoladi.

Xuddi shuning uchun ham yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi bo‘yicha qo‘yiladigan yakuniy bahoga o‘quvchilarning DO‘M(Y)rida olgan baholari shartli ravishda inobatga olinadi.

Mazkur ko‘rsatmalar joylardagi boshqa bir imkoniyatlarni inkor qilmaydi. Ta’lim muassasalari va boshqarmalar DO‘M(Y)rini o‘tkazilishiga ijodiy ruhda yondashishlari va uning mazmunini yanada boyitish uchun oqilona tashabbus ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

Bir qarashda uch kunlik qisqa fursatda yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatmalarni amalda o‘tkazish katta qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkinday tuyulishi, biroq bu ishga mas’ul rahbarlarning o‘z mas’ulyatlarini his qilib, DO‘M(Y)rini o‘tkazish uchun sidqidildan yondashilsa, ayniqsa bu ishni boshida turadigan va sifatli o‘tkazilishida asosiy rol o‘ynaydigan harbiy rahbar (CHTO‘)larining bu ishga o‘z vaqtida bel bog‘lashlari DO‘M(Y)rini samarali o‘tkazish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi va bunday ishlar fidokor kishilar tomonidan imkon qadar amalga oshirilib kelinmoqda.

## **Dala-o'quv mashg'ulot(yig'inlari)ga tayyorgarlik ko'rish va mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha harbiy rahbar va «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fani o'qituvchilariga uslubiy maslahatlar**

DO'M(Y)rini muvaffaqiyatli o'tkazish, uni o'z vaqtida o'tkazish va moddiy ta'minlanishiga bog'liq. Shu qatorda mashg'ulotlarni sifatli o'tkazish majburiyati yuklatilgan harbiy rahbar (CHTO')larning mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy tayyorgarligiga katta ahamiyat beriladi.

Tayyorgarlik jarayonida harbiy rahbar (CHTO')lari quyidagi ishlarni bajarishlari shart: o'quv dasturini va muvofiq adabiyotlarni o'rganib chiqishlari; barcha mavzular bo'yicha mashg'ulot o'tkazish tartibini va uslubini aniqlashlari; mashg'ulot o'tkazish joyini ko'zdan kechirib chiqishlari; mashg'ulotni moddiy ta'minlanishini tashkil etishlari; har bir mashg'ulot uchun konspekt-rejasi, ko'rsatmali yozuvlar tuzishlari; o'quvchilarga shaxsan o'zi namuna bo'lib ko'rsatishi kerak bo'lган usul va harakatlarni mashq qilib olishlari; o'quv joylarida o'z yordamchilariga ko'rsatmalar berishlari (o'qituvchi, guruh va seksiya komandirlari).

DO'M(Y)rini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishga uzoq vaqt talab qilinishini hisobga olib, tajribali harbiy rahbar (CHTO')lar tayyorgarlikni o'quv joyiga chiqishdan bir muncha ilgari boshlab yuboradi.

O'quv yilining boshlanishidan oldin harbiy rahbar (CHTO') haftalik rejani tuzishda ichki fanlar bog'liqligini e'tiborga olib, mavzularni o'tish tartibini shunday belgilashi kerakki, DO'M(Y)rini boshlanishiga qadar o'quvchilar mustahkamlanishi va takomillashuvi zarur bo'lган ma'lum bir bilim va malakalarni egallagan bo'lishlari kerak.

Harbiy tayyorgarlikning tamoyillariga amal qilgan holda harbiy rahbar (CHTO') o'quvchi yoshlarga QK tarkibidagi xizmat jarayonida juda qo'l keladigan usul va harakatlarga o'rgatishi, ularda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish lozim.

Harbiy rahbar (CHTO') uchun DO'M(Y)rida dasturning «Harbiy ish asoslari» bo'limidagi mashg'ulotlarni o'tkazish boshqa bo'limlarga nisbatan qiyinroq kechadi. Mashg'ulotlarni o'quv savollariga muvofiq keladigan, avvaldan tayyorlanib qo'yilgan o'quv joyida o'tkazish zarur.

«Harbiy ish asoslari» bo‘limidagi mashg‘ulotlarni yuqori sifatini ta’minlash uchun guruh tayanch punktiga (yoki seksiyani egallaydigan pozitsiyasiga), tikanli sim tortilgan devorlarga (bir qatorli, uch qatorli), devor stenkasiga, uy maketiga, ag‘anab yotgan dov-daraxtlarga, chuqurliklarga (varonki), har xil to‘sqliqlarga, to‘sin va nishonlarga, zaxarlangan hududdan belgi beruvchi ko‘rsatkichlar va jang maydonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa elementlarga ega bo‘lish kerak.

«Harbiy ish asoslari» bo‘limidagi mashg‘ulotlar quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomining talablariga muvofiq o‘tkazilishi shart.

Bu mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi o‘quvchilarni askarning hujumdagisi, mudofaadagi, razvedkadagi harakatlarini va dushmanning tanklariga qarshi kurashishni, samalyot va vertalyotlarga qarshi avtomatdan o‘t ochish usullarini o‘rgatishdan iborat. Bunda ta’lim berishning asosiy uslubi bo‘lib qisqacha tushuntirish bilan ko‘rsatish va har o‘quvchini mashq qildirish hisoblanadi. Mashg‘ulotning o‘quv savollari elementlar bo‘yicha o‘rganiladi. Elementlarning har biri o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri, aniq va tez bajarilishiga qadar mashq qilinadi. Undan keyin o‘quv savoliga taalluqli qolgan harakatlar to‘liq bajariladi.

Qarama-qarshi (dushman) tomonni bildiruvchi kam va zarur miqdordagi nishonlar, maketlar, ko‘rsatuvchi belgilari, agar imkonni bo‘lsa, unda imitatsiya vositalari bilan belgilanadi. Har bir o‘quv savoli mashq qilingandan keyin tahlil o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot rahbarining mashg‘ulot rejasi o‘z ichiga mavzudagi harakat sxemalarini ham oladi.

O‘quv maydoniga chiqishdan oldin o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi va moddiy vositalarning yaxlitligi tekshiriladi.

Mashg‘ulotni oromgohdan chiqilishi bilan boshlash tavsiya etiladi. Mashg‘ulot joyiga harakatlanish uchun ketadigan vaqt dan mavzu mazmuniga doir mashq, usul va harakatlarni o‘rganish uchun foydalilaniladi. Mashg‘ulot joyida mashg‘ulot rahbari mavzu va uning maqsadini, birinchi o‘quv savolini e‘lon qilib uni mashq qilish tartibini tushuntiradi, keyin taktik vaziyatni yuzaga keltirib, qisqacha qilib jangovar vazifa qo‘yadi, ana shundan keyin birinchi o‘quv savolini elementlari bo‘yicha mashq qilishga kirishadi. Mana shunday ketma-ketlik tartibida qolgan barcha nazarda tutilgan o‘quv savollari mashq qilib o‘rganiladi.

Harbiy rahbar (CHTO'ni DO'M(Y) o'tkazishda MIB va harbiy qismlar bilan o'zaro hamkoliklari to'g'risida to'xtalib o'tish zarur. YOCHQBT nizomiga (1994-y.) asosan, okrug, garnizon boshliqlari, MIB bilan birgalikda ta'lim muassasalariga yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi, ommaviy-sport ishlarni va boshqa vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda otaliq tashkilot sifatida harbiy qismlarni buyruq bilan biriktirib beradi.

Harbiy qismlar komandirlari va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha komandirning o'rribbosarlariga, oliv bilim muassasalarining harbiy kafedrasi boshliqlariga, shuningdek, fuqaro himoyasi kurslariga ta'lim muassasalaridagi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tashkil etiladigan va o'tkaziladigan ishlarga otaliq tashkilot yordamini ko'rsatish majburiyati yuklatilgan.

Ular yig'in qatnashchilari bilan jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilari o'rtasida uchrashuvlar o'tkazadilar, o'quvchilarga shaxsiy tarkibni hayoti va faoliyati, turmush tarzi, jangovar texnika va qurolyarog'i bilan tanishtiradilar. Otish maydonlarini, tirlarni, o'quv maydonlarini, imitatsion vositalarni, o'q-dori va qurolyarog'larni hozirlaydilar, otaliq yordami tartibida avtomatdan jangovar o'qdorilardan otish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun ofitser va serjantlardan ajratadilar.

Harbiy rahbar (CHTO')ni DO'M(Y)ni tashkil etish va o'tkazishda MIB, shu qatorda, ta'lim muassasasiga otaliq tashkilot sifatida biriktirilgan harbiy qismlar bilan hamkorlik aloqasini juda yaqindan o'rnatishi lozim bo'ladi. DO'M(Y)ga jalb qilingan o'qituvchi, harbiy qismning ofitser va serjantlari bilan yig'in mavzulari bo'yicha uslubiy-yo'riqliy mashg'ulotlarni MIB ofitserlari rahbarligida o'tkaziladi.

Bunday mashg'ulotlarda o'z navbatida harbiy qism ofitserlari harbiy rahbar (CHTO')ni bilan birgalikda mashg'ulotlarni olib borish uslublarini ishlab chiqadilar. Bu o'z-o'zidan mashg'ulotni o'tkazish jarayonida ayrim o'zaro tushunmovchiliklarga barham beradi.

Harbiy rahbar (CHTO')ni harbiy qism ofitserlari bilan hamkorligini otish tayyorgarligi bo'yicha «Avtomatdan o't ochish» mavzusi misolida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki avtomatdan o'q otish faqat maxsus jihozlangan harbiy qismlarning otish joylarida yoki tirlarda o'tkaziladi. O'quvchilar otish

joyiga chiqqunlariga qadar harbiy rahbar (CHTO') ular bilan otish joyidagi tartib qoidalarni, shuningdek, hafsizlik choralar bo'yicha otish kursi qoidalarni bir-bir o'rgatib chiqishi shart. Otishni boshqarish uchun zarur bo'lgan naryad va tajribali ofitser tayinlanadi. Har bir o'quvchining o'q otishga tayyorgarligini harbiy qism ofitserlari tomonidan harbiy rahbar (CHTO')larni ishtirokida tekshiruvdan o'tkaziladi. O'q otishga faqat avtomat bilan ishslash malakasini egallagan, otish mashqini o'zlashtirgan va otish qirg'og'idaga tartib, qoidalarni bilgan o'quvchilargagina ruxsat etiladi.

Otish vaqtida otish joyining orqa tomonidagi xafsiz hududlarda ofitser yoki tajribali serjant rahbarligida o'quv dasturi bo'yicha o'quvchilar bilan otish tayyorgarligidan mashg'ulotlar o'tish uchun o'quv joylari tashkil etiladi. O'q otishda asosiy e'tiborni xafsizlikni ta'minlanishiga qaratiladi. Jangovar qurol-yarog' va o'q-dorilarni bevosita tir yoki otish joyining o'ziga, jangovar o'q-dorilar bilan ta'minlash joyiga (punkt boepitaniya) yetkazilib beriladi.

Jangovar qurol-yarog'lar o'q-dorilar bilan ta'minlash joyidan (punkt boepitaniya) o'q otish rahbarining yordamchisi tomonidan beriladi, o'q otish yakuniga etgandan keyin qurol-yarog' va o'q-dorilar yana unga qaytarilib topshiriladi.

O'quvchilarga jangovar o'qlarni berilishi, o'q va gilzalarni hisob-kitobi qat'iy ravishda otish kursi talablariga muvofiq olib boriladi. Shu bilan birga o'q tarqatuvchini serjant yoki yaxshi tayyorgarlikka ega askardan tayinlanadi. O'q otish harbiy qism bazasida, MK «Vatanparvar» va sport tashkilotlarining tirlarida o'tkazilgan taqdirda o'quvchilar bilan jangovar quroldan otish mo'ljallangan qurol-yarog' va o'q-dorilar otish vaqtida MIB tomonidan yetkazib beriladi, yoki harbiy qism komandiri bilan kelishilgan holda harbiy qism ixtiyorida bo'lgan qurol-yarog' va o'q-dorilardan foydalananiladi.

Bunday sharoitlarda o'q otishga bevosita rahbarlikni MIBning eng tajribali ofitserlari harbiy rahbar (CHTO')larni ishtiroqida amalga oshiradilar. Ularga yordamchi tariqasida o'q otishni tashkil etish va o'tkazishda MK «Vatanparvar» instruktorlari tayinlaniladi.

Harbiy rahbar (CHTO')larga DO'M(Y)ni tashkil etishda va o'tkazishda, shuningdek, kundalik nazoratini amalga oshirishda uchraydigan muammolarni hal qilish, o'z vaqtida amaliy yordam ko'rsatish uchun tuman (shahar) MIB tomonidan vakil tayinlanadi. Harbiy rahbar (CHTO')lar bunday imkoniyatdan unumli foydalanishni payidan bo'lishlari kerak bo'ladi.

Yig‘in yakunlangandan keyin harbiy rahbar (CHTO‘) MIBga yig‘in o‘tkazilganligini o‘quvchilarni sonini va avtomatdan otishning boshlang‘ich mashqini bajarilish natijalarini aks ettiruvchi hisobot berishi shart.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki keyingi vaqtarda harbiy rahbar (CHTO‘)lari DO‘M(Y)ni o‘tkazish imkoniyatini topa olmayadilar. Kuzatuvlar natijasiga ko‘ra bunday muammoga deyarli ko‘pchilik ta’lim muassasalari duch kelgan. Buning albatta muayyan sabablari mavjud. Ushbu sabablar quyidagicha bo‘lishi mumkin: *Birinchidan*, bunga manfaatdor tashkilotlarning e’tiborsizliklari va moddiy jihatdan ta’minlamasliklari; *Ikkinchidan*, harbiy rahbar (CHTO‘)larni bu sohada mutaxasis emasliklari va o‘z majburiyatlarini bilmasliklari, shuningdek, ularning o‘zlarida bunday ishlarga xohish istakning yo‘qligi. *Uchinchidan*, ta’lim muassasalarining rahbarlari harbiy rahbar (CHTO‘)larni DO‘M(Y)ni o‘tkazish bo‘yicha faoliyatlarini nazoratga olib qo‘llab-quvvatlamasliklari va eng asosiysi yuqori turuvchi barcha manfaatdor tashkilotlar rahbarlarning bu tadbirni nazoratdan chetda qoldirishlari. Shunga qaramay hozirgi kunlarda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini o‘qitilish sifati tobora yaxshilanib bormoqda.

Yangi o‘quv dasturini ishlab chiqilishi, o‘quv qo‘llanmalarni chop etilishi, harbiy sport yo‘nalishidagi «Shunqorlar» o‘yinini respublika miqyosida sovrinli o‘rinlar bilan o‘tkazilishi bunga misol bo‘ladi. Ayniqsa «Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin» deganlaridek bu sohada mutaxassis kadrlarni yetarli va sifatli darajada tayyorlashni yo‘lga qo‘yilishi taxsinga sazovor ishlardandir.

### Mavzu yuzasidan savollar

1. Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)larini tashkil etilishi qanday amalga oshiriladi?
2. Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)larini qanday joylarda o‘tkaziladi?
3. Uch kunlik dala o‘quv mashg‘uloti (yig‘ini) – (DO‘M) qanday tartibda olib boriladi?
4. DO‘M(Y)ni muvaffaqiyatli o‘tkazishning muhim jihatlaridan nimalarni bilasiz?
5. DO‘M(Y)rini o‘tkazish uchun tayyorgarlik ko‘rish jarayonini aytib bering.

6. Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)larida «Harbiy ish asoslari» bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishni o‘ziga xos tomonlarini aytib bering.

7. Harbiy rahbar (CHTO‘)ni DO‘M(Y)ni tashkil etish va o‘tkazishda qaysi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi?

8. Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)larida «Otish tayyorgarligi» bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishni o‘ziga xos tomonlarini aytib bering.

9. Ta’lim muassasalarida DO‘M(Y)ni o‘tkazmasligiga qanday sabablar bo‘lishi mumkin va ularni ijobiy hal qilish mumkinmi?

**Tayanch iboralar:** *Dala o‘quv mashg‘ulotlar (yig‘in)lari, tashkil etilish, tartib, o‘tkazish joyi, sabablar.*

## XULOSA

Vatanni sevmoq bizga sunnatdir. «Vatanni sevmoq iymondandir», deyiladi Hadisi sharifda. Vatanni sevgan, Vatan nima ekanini his etgan, Vatanidan uzoqlashganda uni sog‘inadigan, Vataniga qayerda bo‘lmasin talpinib yuradigan har bir iymonli kishi umr bo‘yi el-yurt qayg‘usi bilan yashaydi.

Ular fidoyi, vatanparvar, fikri tinik, mulohazali odamlardir. Jaloliddin Manguberdi yurtining asoratga tushayotganidan qayg‘urib, jangga otlanadi. Sharq tomondan tug‘ilayotgan xavfning oldini olish maqsadida yetmish yoshga borganiga qaramay Amir Temur qahraton qishda olis safarga otlanadi. Bunday misollarni har bir asrdan, har sohaning vakillari faoliyatidan ko‘plab keltirish mumkin. Ana shunday fidoyi kishilar bizning asrimizda hamnafas bo‘lib yashayotganliklari tufayli yurtimiz mustaqillikka erishdi.

Ammo mustaqillikning asl mohiyatini tushunish, uning qadriga yetish uchun hozirgi kunda faqat yutuqlarimiz to‘g‘risida gapirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Mustaqillikning yuki og‘ir. Uni ko‘tara olish, saqlab qolish naqadar og‘irligini qo‘sishnimizning misoli isbot etib turibdi.

Bizning yurtimizni o‘z ta’siri doirasiga kiritishni istagan va buning uchun barcha nayranglarni, qolaversa, harbiy kuchni ham ishlatishga tayyor bo‘lgan kuchlar qurshovida Vatanimizning mustaqilligini saqlash uchun behisob qiyinchiliklarni boshdan kechirishga to‘g‘ri keldi.

Ayniqsa hozirgi kunlarda butun jahondagi eng tahlikali mintaqalaridan biri bo‘lgan bizning mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash uchun qanchalik oqilona siyosat yurgizish kerakligini, sabot va matonat zarurligini hayotning o‘zi isbot qilib turibdi.

«Mustaqil bo‘lsang—mustaqil bo‘l, Davlat bo‘lsang—davlat bo‘l!» Prizidentimiz aytgan bu so‘zлari uning mamlakatimiz taqdiri, kelajagi haqidagi tashvishli o‘ylarning qisqa va ma’nodor ifodasi bo‘ldi, desak yanglishmaymiz.

Bu iboralarni mustaqillikni e’lon qilish bilan kifoyalanib bo‘lmasligi, uni saqlay bilish, buning uchun esa o‘z xalqini ichki va tashki dushmanlardan himoya qila olish, uning tinch-totuv yashashiga imkoniyat yaratish, o‘z sarhadlarini himoya qilish, mudofaa qudratini ta‘minlash zarur ekanligi haqidagi fikr mujassamligini tushunish qiyin emas.

Respublikamizning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalarida «Chaqiruvga qadar tayyorgarlik»ni o'qitilishi yuqorida ta'kidlangan fikr va xulosalarni amalga oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida quyidagicha yozilgan: «Chaqiruvga qadar tayyorgarlik, shu jumladan, fuqaro mudofasi bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik, o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi».

YOCHQBT o'quv dasturining umumiy tashkiliy-uslubiy ko'rsatmalarida «Ta'lim muassasalaridagi YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatini o'tashida o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishdan iboratdir. Shuningdek, yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shinlarning jangovar faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi» deyilgan.

Shunday ekan aytish mumkinki, Vatanni himoya qilishdek sharaflisihda yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, yurtni asrab avaylashga qodir yigit qizlarni tayyorlashda ta'lim muassasalarining, ayniqsa harbiy rahbar (CHTO')larning o'rni katta ahamyatga ega.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yosh avlodni el-yurtga, Vatanga sadoqatli, iymon e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'rni bor».

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida». 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi».
5. O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonuni. 2001.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni. 2002.
7. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash» o‘quv dasturi. 2005.
8. «O‘smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to‘g‘risidagi Nizomi». 1994.
9. Inoyatov I.YU. Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch». 2001.
10. Abduqahhor Ibrohimov, Hayriddin Sultonov, Nazrulla Jo‘rayev. «Vatan tuyg‘usi». 1996.
11. «Инструкция по организатсии получения, учета и хранения учебного оружия и боеприпасов, малокалиберных винтовок и патронов к ним в учебных заведениях». Воениздат. М., 1982 год.
12. «Рекомендации по оборудование и совершенствованию учебной базы для допризывной и физической подготовки». Воениздат. М., 1985 год.
13. Педагогические основы подготовки студентов в ВУЗе. 1999 г.
14. «Рекомендации по оборудование и совершенствованию учебная база для физической подготовки молодёжи.» Воениздат. М., 1985 год.

# M U N D A R I J A

<b>I bob. CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH</b>	
Kirish.....	6
1-§. Yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatiga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi.....	9
2-§. Ta'lif muassasasi direktori, harbiy rahbar va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisi yoshlarni O'R QK xizmatiga tayyorlash bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonining asosiy tashkilotchilari.....	20
3-§. Ta'lif muassasalarida yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish.....	33
4-§. Ta'lif muassasalarida yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini rejalashtirish.....	56
5-§. Ta'lif muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv-moddiy bazasi va moddiy-texnik ta'minoti.....	70
6-§. «Ta'lif muassasalarida ro'yxatdagi (tabel) buyumlarni va o'quv qurol – aslahalarni hisobini yuritish va saqlash».....	93
<b>II bob. CHAQIRUVGA QADAR HARBIY TA'LIM METODIKASI</b>	
7-§. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani bo'yicha mashug'otlarni olib borishning asosiy shakllari va uslublari.....	106
8-§. Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi va mashg'ulotlarni o'tkazishi.....	127
9-§. Kirish mavzusi mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish uslubiyoti.....	137
10-§. YOCHQBT dasturining «Harbiy ish asoslari» bo'limi bo'yicha ashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish uslubiyoti.....	148
11-§. Otish tayyorgarligi. YOCHQBT dasturining «Otish tayyorgarligi bo'limi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish uslubiyoti.....	197
12-§. «Harbiy xizmat asoslari» bo'limi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash va o'tkazish uslubiyoti.....	232
13-§. Nazorat mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uslubiyoti.....	311
14-§. Dala o'quv mashg'ulotlar (yig'in)larini tashkil etish va o'tkazish uslubiyoti.....	318
Xulosa.....	332
Foydalanilgan adabiyotlar.....	334



**SOTVOLDIYEV ABDULHOSHIM YO'L DOSHEVICH**

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMNI  
TASHKIL ETISH VA UNING METODIKASI**

**Toshkent – «Aloqachi» – 2010**

Muharrir:	S.Narziyev
Tex.muharrir:	A.Mo'ydinov
Musahhih:	M.Hayitova
Sahifalovchi:	N.Hasanova

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2010. Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>.

«Times Uz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 22,0. Nashriyot bosma tabog'i 21,0.

Tiraji 500. Buyurtma № 145.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.  
100000, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171.

ISBN 978-9943-326-57-6



9789943326576